

**“SAHNA NUTQI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY - AMALIY KONFERENSIYASI**

0911



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI



**“SAHNA NUTQI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY - AMALIY KONFERENSIYASI**

“ZAMON POLIGRAF” NASHRIYOTI

TOSHKENT - 2024

UDK:56.4.96

KBK:34.41.4

“Sahna nutqi masalalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy - amaliy konferensiyasi “Zamon poligraf” nashriyoti 2024yil

TAHRIR HAY‘ATI:

Nodirbek Sayfullayev – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori,
professor

Baxtiyor Yoqubov – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat intituti prorektori,
dotsent

TAQRIZCHILAR:

Go‘zal Xalikulova – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professor
v.b, san’atshunoslik fanlari nomzodi

Lola Eltoyeva – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti

MAS’UL MUHARRIR: Xamdam Ismoilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MUHARRIRLAR: Ramziddin Qodirov, Maxsuma Xodjimatova, Shokir
Yusupov, Xatira Djuldikarayeva, Umida Ibragimova, Bobur Jabborov

0911



ISBN: 978-9910-655-69-2

©“Zamon poligraf” nashriyoti Toshkent - 2024

SO‘ZBOSHI

*“Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch,
yangi harakatga aylanishi kerak”.*

*Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.*

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ma’naviyatning o‘rni beqiyos. Ayniqsa, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarning aqliy salohiyatini oshirish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish bugungi kun pedagogining asosiy vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida uzoq yillardan buyon faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “Sahna nutqi” kafedrasida professor-o‘qituvchilari bo‘lajak san’atkorlarning sahnaviy nutqini tarbiyalash barobarida madaniyatimizning, san’atimizning ko‘plab tarmoqlari uchun malakali mutaxassislar yetkazib berishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ayniqsa, so‘zning qudratini ko‘rsatadigan sahna asarlarida ular mehnatining samarasi yaqqol seziladi.

Bugun zamon murakkab. Yosh avlodning ma’naviyati va ma’rifatini o‘stirish dolzarb masala bo‘lib yuzaga chiqmoqda. Shunday ekan, bunda so‘z bilan ishlaydigan mutaxassislar har tomonlama kuchli ilmiy salohiyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Zero, ko‘plab yaratilayotgan sahna asarlarining tilini, nutqini puxta ishlashda, ma’naviyat targ‘ibotchisi sifatida xalq bilan muloqot qilganda, davlat tadbirlaridagi badiiy chiqishlarda albatta, professional nutq eng zarur vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev ijodkorlar oldiga katta vazifalarni qo‘yganlari bejizga emas. Ona tilini yanada yuksaltirish, o‘zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g‘oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san’atini rivojlantirish, zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish kabi qator masalalar shular jumlasidandir. 2024-yil 27-30-iyun kunlari Jizzax viloyati Zomin tumanida bo‘lib o‘tgan Xalqaro maqom san’ati anjumanida, shu yil 26-30-avgust kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivalida

xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda alohida muhim o'rin egallashi badiiy chiqishlarda namoyon bo'ldi. Bunda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zebuniso, Ogahiy, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Fuqat, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Huvaydo, Cho'lpon, Miskin, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo kabi shoirlarning she'riy asarlarini aynan bizning sobiq va ayni paytda tahsil olayotgan talabalarimiz ijro etgani quvonarli hol bo'ldi. Ayniqsa, "Xamsa" dostonlaridagi lirik qahramonlar siymosini yaratgan yoshlarimiz xorijiy mehmonlarimizda yaxshi taassurot qoldirgani yana bir bor olqishlarga sazovor bo'ldi. Men yoshlarimizning buyuk san'atimiz va madaniyatimizga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada oshishini, bu yo'lda tinimsiz izlanishini, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib ijod qilishini istayman. Ta'kidlash joizki, institutimizda tahsil olayotgan talabalarda sahna nutqi va uning eng muhim masalalari yuzasidan bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish yuqorida aytganimizdek, professor-o'qituvchilar salohiyati bilan bog'liq. Shuni inobatga olgan holda institutimizda o'tkazilayotgan "Sahna nutqi masalalari: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya juda muhim deb hisoblayman va konferensiya ishtirokchilariga muvaffaqiyatlar tilayman.

*Nodirbek Sayfullayev,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti rektori, professor.*

RESPUBLIKA TEATRLARIDA SAHNA NUTQINING DOLZARB MUAMMOLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada sahna nutqiga yangi ta'rif berilgan bo'lib, respublika teatrlarida kechayotgan sahna nutqi borasidagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'zbek tilining sofligini saqlash, sahna nutqi ustalari va ularning yaratgan ilmiy tadqiqotlari, sahna nutqining dolzarb masalalari tilga olingan. Aktyor tayyorlashda sahna nutqi pedagogikasidagi ayrim muammolar va ularning yechimlari belgilab berilgan.*

***Kalit so'zlar.** Sahna nutqi, aktyorlik mahorati, rejissyor, obraz yaratish, kommunikativ texnologiyalar, ijodkor tarbiyalash, ifodali o'qish, badiiy o'qish, metodik tajriba.*

***Аннотация.** В данной статье дается новое определение сценической речи, а также обсуждаются недостатки сценической речи в республиканских театрах и пути их устранения. Также были затронуты вопросы сохранения чистоты узбекского языка, мастеров сценической речи и их научных исследований, актуальные вопросы сценической речи. Определены некоторые проблемы педагогики сценической речи в подготовке актеров и пути их решения.*

***Ключевые слова.** Сценическая речь, актерское мастерство, режиссер, создание образа, коммуникативные технологии, воспитание творческого человека, выразительное чтение, художественное чтение, методический опыт.*

***Annotation.** This article provides a new definition of stage speech, as well as discusses the shortcomings of stage speech in republican theaters and ways to eliminate them. The issues of preserving the purity of the Uzbek language, the masters of stage speech and their scientific research, topical issues of stage speech were also touched upon. Some problems of pedagogy of stage speech in the training of actors and ways to solve them are identified.*

***Keywords.** Stage speech, acting skills, stage director, image creation, communication technologies, education of a creative person, expressive reading, artistic reading, methodical experience.*

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida shunday bayt bor:

So‘z gavharidurki, rutbasining

Sharhidadur ahli nutq ojiz.

Ya'ni, so‘z shunday gavharki, uning martabasini aniqlashdan nutq egalari ojizdir [1.]

Kishini chuqur o'yg'a toldiradigan ushbu baytga va sharhga qayta-qayta tikilib, balki so'zning martabasini aniqlay oladigan nutq egalari aktyorlar bo'lsa-chi, degan fikr ham xayoldan o'tadi. Axir dramaturgiyadagi ulkan so'zlarning martabasini yuksak cho'qqilarga ko'targan o'zbekning zabardast aktyorlari va ularning sahnadagi nutqi tarixning oltin sahifalaridan o'rin olgan-ku. Abror Hidoyatov, Shukur Burxonov, Lutfixonim Sarimsoqova, Sora Eshonto'rayeva kabi buyuk aktyorlarni yodga olganimizda birinchi galda ular yaratgan obrazlari, nutqidagi ravonlik, rang-barang so'z ohanglari qulog'imiz ostida hali-hali jaranglaydi-ku, yuraklarni larzaga keltiradi-ku!

Aktyor ana shunday buyuk qudratga ega bo'lgan so'zni sahnada to'g'ri ifodalash uchun umr bo'yi mehnat qilishi, dramaturg in'om etgan so'zning tub ma'nosini ijro mahorati orqali, butun vujudini ishga solib tomoshbinga yetkazishga intilib yashashi, so'zni dur sanab, uning daryosi ko'ngil ekanligini ich-ichidan his qilishi, muqaddas dargoh bo'lgan teatrning har bir joyini ko'z qorachig'iday asrab, u yerni pokiza tutishi va shu orqali o'z ruhiyatini tarbiyalab borishi, asardagi obrazlarning so'zlariga sozlashi, ravon nutqi ustida muttassil ishlashi, balki so'z martabasini aniqlashda nutq egalarining ojiz bo'lib qolmaslikka bo'lgan intilishidir.

Ha, sahna nutqi o'z ustida muttassil ishlagan aktyorlardagina sayqallanib boradi.

Sahna nutqini haligacha sahnadan turib tomoshabinga eshitiladigan tarzda baland ovozda gapirish deb tushunadiganlar bor. Yo'q bunday emas. Sahna nutqi og'zaki nutqning alohida turi hisoblanadi. Sahna nutqida ijro etiladigan asarning til xususiyatlarini saqlagan holda, tomoshabinlar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri bu – adabiy tilda so'zlashishdir. So'z urg'usi, mantiqiy urg'ularni to'g'ri ifodalash, obraz xarakterini yaratishda kommunikativ texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanishdir. Butun ilmiy faoliyatini badiiy obraz masalasiga bag'ishlagan olim falsafa fanlari doktori, professor Erkin Umarov shunday fikrlarni aytgan edi: “Aktyor dramaturg bergan obrazga mos tabiiy harakatlar, gapirish xususiyatlarini izlar ekan, sahnada estetik voqelikni yaratadi, yaratayotgan obraziga “jon” kiritadi. Agar birorta qahramon sahnaga chiqib, o'z

ishlaridan gapirib bersa, albatta bu narsa tomoshabinga qiziq tuyuladi, ammo bu hodisani artist gapirib berganidek ta'sir etmaydi"[2. B. 88-89]. Demak, faqat aktyorgina o'z ijrosi bilan tomoshabin qalbida chuqur iz qoldiradi.

Darhaqiqat, sahnada adabiy til qonun-qoidalari aktyorlar tomonidan buzilmasligi, ko'pchilik aktyorlarning sahnaviy nutq ustida ishlamay qo'yganligi spektakl muhokamalarda qisman gapiriladi, tanqidiy maqolalar ham yoziladi, ammo bu nuqsonlarni tuzatishning samarali yo'llari mutaxassislar tomonidan yetarli tarzda ko'rsatib berilmaydi, chunki muhokamalarda sahna nutqi mutaxassislari kam ishtirok etadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, bugungi kunda soha mutaxassislari tomonidan yaratilayotgan o'quv adabiyotlaridagi noaniqliklar, qaytariq fikrlar, sahna nutqi bo'yicha yozilayotgan maqolalarda biryoqlamalilik va yuzakilikka yo'l qo'yilishi, shuningdek, jiddiy tadqiqotlarning kamligi, sahna nutqi fanini o'qitishda uslubiy yondashuvlarda yo'l qo'yilayotgan chalkashliklar bularning barchasi o'zbek sahna nutqining nufuzini tushishiga ham sabab bo'lib kelmoqda. Shu bois o'zbek teatrlarida sahna nutqi borasidagi mavjud muammolarni aniqlash, uni bartaraf etish yo'llarini tadqiqot qilish, sahna nutqining targ'ibotini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Birinchi muammo bu – aktyorlarning adabiy til me'rlariga amal qilmasligi muammosi.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgandan keyin o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilib, milliy tilimiz rivoji uchun qonuniy asos va zurur shart-sharoitlar yaratildi. Yozuvchilar, olimlar va jurnalistlarning say-harakatlari, tilga katta e'tibor berishlari natijasida badiiy adabiyot tili, tadqiqot tili, matbuot tili hiyla rivoj topdi. Teatr sohasida yaratilgan shart-sharoitlar o'zni beqiyos darajada o'sdi. Ammo adabiy tilga e'tibor kuchaydi, og'zaki nutqda katta yutuqlarga erishildi, deyish biroz qiyinroq. Ayniqsa, o'zaro so'zlashuvlarda tilimiz qashshoqlashib, nursizlanib, to'porilashib borayotgani achinarlidir. Teatr sahnasida ham nutqqa bo'lgan e'tiborsizlik tufayli katta muammolar ko'zga tashlanmoqda. Sahnada ijodkorlari bilan hamkorlikda og'zaki nutqda, o'zaro so'zlashuvda ham tilimizning boyligini,

go‘zalligini, latofati va nazokatini tiklashimiz va rivojlantirishimiz zarur masaladir. Bunda albatta, ziyolilar o‘rnak ko‘rsatishlari shart. Shu jumladan sahna ijodkorlari ham. Yangi asarlarni sahnalashtirishda repetitsiya jarayonlarini batamom o‘zbek tilida olib borish, san’atkorlarning o‘zaro so‘zlashuvlarida, nutqlarida adabiy til meyorlariga rioya qilish, shevachilik va undan ham torroq kasbiy lahjaga yo‘l bermaslik, yangi sahna asarlari tilini butun boyligi va jozibasi bilan ifoda qilishga erishish natijasidagina aktyorlarning og‘zaki va sahnadagi nutqi yaxshilanishi hamda uning jamiyat hayotidagi mavqei oshishi va tomoshabinlarga ta’siri kuchayishi mumkin.

Ikkinchi muammo – sahnada she’riy asarlar ustida ishlashining susayganligi. Sahnada maishiy mavzulardagi asarlarning ko‘payganligi. Aktyorlarning dramatur so‘zlaridan chiqib ketishi, tomoshabinni kuldirish yoki o‘ziga qaratish maqsadida o‘zlaridan so‘z qo‘shib ketish holatlarining kuchayib borayotganligi.

Teatrda dramaturgiya, rejissura, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, sahna bezagi, bulardan qaysi birini ikkinchi darajadagi masala deb qarash mumkin? Menimcha, hech birini. Bularning barchasi pyesada ilgari surilgan g‘oyaga, so‘zga tayanib ish ko‘radi. Ta’kidlab o‘tish kerak-ki, sahna nutqi har doim aktyorning ijrochilik uslubini belgilashda alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Chunki aktyor sahnada asarning g‘oyaviy mazmunini, voqealar rivojini, personajlar o‘rtasidagi o‘zaro to‘qnashuv va kurashni to‘liq hayotiy tasvirlaydi. Bu jarayonda nutq vositalaridan keng foydalanadi.

Teatr sahnasi uchun eng muhim janr hisoblangan she’riy drama – dramatik turga mansub bo‘lgan murakkab janr hisoblanadi. She’riy dramani rejissyor uchun ham, aktyor uchun ham, qolaversa, tomoshabin uchun ham tafakkurning charxi deb hisoblash o‘rinli. Chunki, dramaturgning poetik so‘zi mohirlik bilan yozilgan bo‘lsa, obrazlar o‘z xarakteriga xos xislatlari teran va baquvvat tilda yozilgan, g‘oyasi jihatdan kuchli bo‘lsa har kimga ish topiladi. Birinchidan, so‘zlarning tub ma’nosini anglash, she’riy matnni o‘zlashtirish, uni tomoshabinga yetkazish uchun sahnaviy nutq kommunikatsiyalaridan foydalanish ustida ishlash muhim bo‘lsa, ikkinchidan, obraz yaratish mahorati to‘g‘risida bosh qotiriladi, uchinchidan, asar g‘oyasini ochib

berish kerak. Bunda rejissyor, aktyor, bastakor, rassom hamkorlikda ishlaydi. Rejissyor hammasini birlashtirib, spektaklni tomoshabinga taqdim etadi. Shuning uchun ham dramaturg-shoir yozgan bilan bab-baravar afishada rejissyorni muallif deb e'lon qilinadi.

Bu borada teatrshunos olimlar o'zlarining monografiyalarida, ilmiy tadqiqotlarida ko'p to'xtalganlar. Milliy va xorijiy she'riy dramalarni maromiga yetkazib tahlil qilganlar. Kamina o'zbek tarixiy she'riy dramalar ustida tadqiqot olib borish jarayonida bunga ko'p bor amin bo'lganman. Ilmiy anjumanlarda akademik Mamajon Rahmonov she'riy drama yozadigan dramaturg avvalo sahna sirlarini puxta o'rganishi kerakligini, dramaturg qanchalik talantli bo'lmasin, agar ko'p vaqtini teatrda o'tkazmasa, sahnabop asar yoza olmasligini doim takrorlar edi. Darhaqiqat, tarixdan ma'lumki, atoqli dramaturglarimiz Ziyoz Said, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, Uyg'un, Turob To'la, Umarjon Ismoilov, Sobir Abdulla, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ulug' ijodkorlardan qanchalik baquvvat she'riy asarlar sahna yuzini ko'rdi va zabardast aktyorlar ijrosi orqali minglab tomoshabinlar qalbidan o'rin olgan.

She'riy dramalarda sahna nutqi masalalarini ochish jarayonida juda ko'p rejissyor va aktyorlar bilan suhbat olib borishga to'g'ri kelgan. Masalan, xalqimizning qalbida chuqur iz qoldirgan zabardast ijodkorlar Bahodir Yo'ldoshev bilan Turob To'laning hamfikrlilikda sahnalashtirgan "Fig'on" spektakli va sahnada Nodirabegim obrazini yaratayotgan Yayra Abdullayevaning obraz yaratishida qancha tortishuvlar, tinimsiz muhokamalar bo'lgan. Ayniqsa, spektaklning boshlanish jarayoni asar g'oyasini ochilishi uchun qanchalik muhim ekanligini, bunda qahramonning monologi alohida ahamiyat kasb etishini va bu masala yuzasidan rejissyor va muallif qanchalar ko'p bosh qotirganini, Turob To'la sahna boshlanishidagi Nodirabegimning so'zlarini Bahodir Yo'ldoshev talabiga muvofiq to'rt, besh marta o'zgartirib yozib kelganligini Y.Abdullayeva bilan bo'lgan suhbatlarda aniqlaganmiz. Shunga asoslanib, mahoratli rejissyor Valijon Umarov bilan go'zal she'riy tili, badiiy mazmundorligi bilan qalblarni to'qlantirib yuboradigan dramaturg Hayitmat Rasulning "Piri Koinot" spektakli ustida aktyor

G‘aybulla Hojiyev, aktrisa Sayyora Yunusovalar bilan ishlash jarayonlarini ko‘p kuzatganmiz. She‘riy asarda tilga yoqmaydigan, boshqacha qilib aytganda, talaffuz qilishga qiyin bo‘lgan so‘zlarning o‘rniga boshqa qulayroq so‘z topib berishni aktyorlar iltimos qilganida, spektakldagi davr muhitini aks ettirish uchun aynan dramaturgning o‘sha “qiyin” so‘zlari kerakligini, bu so‘zlarni olib tashlash emas, aksincha uning tub ma‘nosini ochish va to‘g‘ri ifodalash kerakligini rejissyor, dramaturg aktyorlarga tushuntirayotgan jarayonlaridan to‘g‘ri ilmiy xulosalarga kelingan. Yaxshi asarlar mana shunday jarayonlarda pishar ekan. Ayrim yosh rejissyorlar dramaturgdan pyesani qo‘liga olishi bilan muallif bilan xayrlashib, jo‘natib yuborgan holatlari ham ko‘p kuzatiladi. Fikrimizcha bu ish biroz to‘g‘ri emas.

Albatta, bu jarayon faqat she‘riy dramada emas, balki barcha janrdagi sahna asarida muhim. Aynan she‘riy asarlarning sahnaviy talqinlarini tekshirish jarayonida ijodkorlar ishiga to‘g‘ri baho bera olish ham kerak. Aktyorlarning aynan she‘riy nutqi qanday jaranglayapti, davr muhitini to‘g‘ri ifodalayaptimi, rejissyor talabini ijroda qanday amalga oshiryapti. Asar g‘oyasi bugungi kun g‘oyasiga qanday hamohangligi bor, kabi savollarga javob topish kerak. Bugungi kunda tomoshabinlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz sevib tomosha qilayotgan klassik she‘riy asar – Vilyam Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasini mohir rejissyor Olimjon Salimovning muvaffaqiyati birinchidan, rejissyorning to‘g‘ri talqini, ya‘ni bugun dunyoda kechayotgan davlatlararo kelishmovchiliklar, urush va uning oqibatida sodir bo‘layotgan fojialarning asl sababini ko‘rsatish bo‘lsa, ikkinchidan bu g‘oyani ijroda bera oladigan aktyorlarni to‘g‘ri tanlagani, ularning ochilmagan qirralarini ocha olganidir. Uchinchidan, rejissyorning rassom bilan hamkorlikdagi ishi. Bugun ushbu spektaklning qachon o‘ynalishini sabrsizlik bilan kutayotgan o‘z tomoshabinini bor. O‘ylaymizki, tadqiqotchi bu jarayonlarni diqqat bilan kuzatib borishi kerak. Bu fikrlar spektaklni tomosha qilgandan keyingi fikrlar xolos. Agar masalaga chuqurroq yondashib, ijodkorlar bilan suhbatlar olib borilsa, bundan-da kengroq fikrlar, xulosalar shakllanadi. Aslida ilmdagi qimmatbaho satrlar kuzatishlar, suhbatlar asosida paydo bo‘ladi.

She'riy drama ijro etilgan asarlarning afzalliklari bilan birga uning foydasi ham juda katta. Ayniqsa, bugungi aktyorga ham, tomoshabinga ham kerak. Aktyorlik mahoratini shunchaki qiziqish, havas bilan o'zlashtirib bo'lmaydi. Unga kuchli xotira, ravon sahnaviy nutq, tiniq ovoz, plastik jihatidan sahnaga moslashuvchan, sahnaviy harakati o'ta yengil bo'lishi kerak. Buning uchun mashaqqatli aktyorlik kasbini mukammal o'zlashtirishi shart. She'riy dramaning tilini o'zlashtirishda so'zlarni shunchaki yodlab aytish maqsadga muvofiq emas. Unda sahna nutqining minglab kommunikativ texnologiyalaridan foydalaniladi. She'riy asar aktyorni ana shunday talablarni bajarishga majburlaydi. V. Shekspirning "Qirol Lir" tragediyasining Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat musiqali teatri jamoasi ishtirokida o'ynalib kelinayotgani ham sahna nutqi martabasini saqlab kelmoqda. Spektakl tomoshasi davomida tomoshabin diqqatini biror narsa chalg'it olmaydi. She'riy nutq uning qalbini larzaga keltiradi. Demak, she'riy drama tomoshabinni eshitishga ham o'rgatadi, tafakkurini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi. Bunday hamohanglik qaysi aktyorni ilhomlantirmaydi? Uning kundankunga miyasi charxlanib boradi, quvvai hofizasi mustahkamlanadi, tili burro, nutqi ravon bo'laveradi.

Uchinchi muammo aktyorlarning sahnada verbal va noverbal vositalardan foydalanish mahoratining susayib borishidir. Umuman aytganda aktyorlar jestologiyaga e'tibor bermasligi katta muammo.

Bugungi kunda teatrlarda sahnalashtirilayotgan har bir spektaklning ijodiy yetuk, g'oyaviy o'tkir, badiiy jihatdan barkamol bo'lishini ta'minlash asosiy maqsadimizdir. Aktyor nutqi ustida muttasil shug'ullanishi, uning ta'sirchanligini oshirib borishi zarur. Zero, sahnaviy obraz yaratishda voqealarni jonlantirishda aktyorning qaddi-qomati, xatti-harakati bilan birga uning sahnaviy nutqi hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'z qanchalik ta'sirli bo'lsa shunchalik ko'zlangan maqsadning amalga oshishi oson bo'ladi. Teatr avvalo muallifdan, so'ngra ijodiy jamoadan so'zga katta mas'uliyat va nozik did bilan yondashishni talab qiladi.

Dramatik asar yaratish mahorati, uslublari asarni sahnalashtirishda rejissyor mahorati, aktyorlarning ijrochilik mahorati, asar tili va sahnaviy nutq uyg'unligi

nutqiy tavsif, soʻzning tub maʼnosini ochish, tempo-ritm, verbal va noverbal vositalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Teatr aktyorini tarbiyalashda nutqning kommunikatsiyalarini sinchiklab oʻrgatish ancha mashaqqatni talab qiladi. Sahna nutqi pedagogi aktyorlik kasbini egallashda avvalo aktyor shaxsini shakllantirishda soʻz ustida ishlash mashaqqatiga chidaydigan, masʼuliyatli kasb egalari boʻlishi kerak.

Sahnada badiiy jihatdan yuksak asarlar yaratish rejissyor talqinlari darajasi bilan bir qatorda aktyorning sahna nutqi va sahna harakati qoidalarini qay darajada mukammal egallagani, zamonaviy texnologiyalardan qay darajada foydalana olishiga bogʻliqligi hech bir tadqiqotlarda koʻrinmaydi. Oʻzbek teatri sahnasida yuksak mahorat bilan xarakterlar yaratgan buyuk aktyorlarning yutugʻi nimada edi? Bu savol koʻp yillar davomida aktyorlik va rejissyorlik guruhlarida sahna nutqining texnikasi, badiiy oʻqish ustida ishlash, ularni diplom spektakllariga tayyorlash borasida olib borilgan tadqiqotlardan javob olishga muvaffaq boʻldik.

Sahna nutqi mahoratini egallash, uslub va vositalardan samarali foydalanish murakkab jarayon. Ayniqsa, qahramon xarakterini yaratishda ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar tadqiqot jarayonida bir qator nazariy va amaliy ahamiyatga molik natijalarga erishildi. Avvalo, mamlakatimiz teatrshunosligida juda kam oʻrganilgan masala – qahramon obrazini talqin qilishda noverbal vositalardan foydalanishning oʻziga xos xususiyatlari, talablari va texnologiyalarini yoritishga harakat qilindi[3.].

Shuni alohida taʼkidlash joizki, bugungi kunda davlatimizda odilona siyosat olib borayotgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oʻzbek sanʼatining yuksalishiga alohida eʼtibor berayotganligi mamlakatimizda sanʼatning barcha sohalari ravnaq topayotganidan dalolat beradi. “Biz mamlakatimizda maʼnaviy muhitni yuksaltirish maqsadida madaniyat, sanʼat va adabiyot sohaslarini yanada taraqqiy toptirishga alohida eʼtibor qaratamiz. Birinchi navbatta, yozuvchilar, bastakor va rassomlar, teatr arboblari, kinoijodkorlar, jurnalistlar va boshqa ijodiy uyushmalarning ijtimoiy hayotimizdagi oʻrni va nufuzini oshirishga alohida ahamiyat qaratamiz” [4. B. 477] degan fikrlarni taʼkidlar ekan, ijodkorlarni oʻz kasbiga, ona Vatanimiz, xalqimizga juda sodiq insonlar ekanligini eʼtirof etib

o'tadi. Bu ulkan bahoga loyiq bo'lish uchun teatr san'ati sohasida to'planib qolgan muammolar, ayniqsa sahna nutqi muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi lozim.

Sahna asarlari tomoshabinda birinchi galda teatr san'atiga xos bo'lgan estetik zavq, ehtirosli kechinmalar uyg'otishi kerak. Shu bilan birga tomoshabin o'tmish va bugungi kunning badiiylashgan ma'lumotlariga ega bo'ladi, ong-bilimlarini oshiradi. Sahna asarlarida rejissyor uslubi, aktyorlar bilan ishlash jarayoni, aktyorning obraz ustida ishlashdagi murakkab bosqichlar sahna nutqining mukammal chiqishi bilan bog'liqdir.

Sahnadagi nutq tomoshabinga tushunarli, ishonarli holda yetib kelishi juda muhim. Buning uchun aktyorlar sahna nutqi texnikasidan tortib, obraz yaratishgacha bo'lgan jarayonlarni puxta o'zlashtirishi, o'zbek teatri tarixi, ayniqsa, rejissyorlar, aktyorlar avlodining ijodiy yo'li va yutuqlarini puxta o'rganishi zarur.

Hozirgi kungacha sahna nutqi qoidalari talabalarga o'rgatilganda noverbal vositalarga alohida e'tibor berilmas edi. Qahramon obrazini talqin qilishda nutqning noverbal vositalari ulkan ahamiyatga ega. Sahnadagi nutq jarayonida nafaqat tovush artikulyatsiyasi apparati, balki tananing boshqa a'zolari ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, aktyor bayon qilayotgan ma'noga uning ko'zi ham mos ravishda harakatlanishi kerak. Shuni hisobga olib birgina aktyor nigohi muammosini talqin qilishda bir qator xulosalarga kelindi.

Teatr san'ati ko'rish va eshitish bilan bog'liq san'atdir. Odamlarning ko'rish va eshitish qobiliyati bo'lmaganda teatr san'ati ham bo'lmas edi. Mana shu holat sahnadagi aktyorlarning barcha xatti-harakatlari eshitish va ko'rishga yo'naltirilganini ifodalaydi. Shu sababli aktyorning mahorati, rolni qanday talqin qilishi uning harakatlari va nutqida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham teatrshunoslikda aktyorning mahorati ikki turga: ko'rishga mo'ljallangan sahna harakati va eshitishga mo'ljallangan sahna nutqiga bo'lib o'rganiladi. Aktyor nigohi to'g'risidagi fikrlar ham aynan tadqiqot natijasida, ko'plab spektakllarni kuzatish va bahs-munozara qilish natijasida shakllandi. Avval mavjud bo'lgan uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi arxividan tanlab olingan, o'zbek teatr san'atini yuksaklikka olib chiqqan qator aktyorlarning

fotosuratlar orqali aktyor nigohini talqin qilar ekanmiz, suratlardagi nigohlarning falsafiy tomonlarini ochishga harakat qilindi.

Aktyorlik mahoratiga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'rganish teatrshunos va san'atshunos olimlar sahnadagi harakatlar tomoshabin nigohiga mo'ljallanganini ko'p marta qayd etganlar va aktyorning xatti-harakatlarini ko'proq vizual nuqtai nazardan talqin qilganlar.

Aktyor mahoratining ikkinchi jihati – sahna nutqi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan va asarlar yozilgan bo'lsa ham sahna nutqining juda kam o'rganilgan yoki deyarli o'rganilmagan jihatlari ham mavjud. Sahna nutqiga bag'ishlangan tadqiqotlar, e'lon qilingan ishlarni konkret tahlil qilish ularning o'ndan to'qqiz qismi verbal nutq va o'ndan bir qismi noverbal nutqqa egaligini ko'rsatdi. Noverbal nutqqa bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilish ularning asosiy qismi intonatsiya, urg'u, nutq tempi, ovozning past-balandligi kabi maslalarga bag'ishlanganini ko'rsatdi. Bu masalalarning bari noverbal, ya'ni so'zdan tashqari vositalar deyilsa ham ularning mavjudligi verbal vosita ya'ni so'z bilan bog'liq. Lekin noverbal nutqning shunday turlari ham borki, ular so'z bilan bevosita bog'liq emas. Masalan, nigoh ana shunday so'z bilan bog'liq bo'lmagan vositalar jumlasiga kiradi.

Insonning sezgi organlari faoliyatini o'rganish asosiy vazifalardan biri hisoblangan psixologiya fanida ham ko'z ko'rish organi ekani haqida so'z yuritiladi, lekin ko'z ayni paytda muloqot vositasi ham ekani to'g'risida deyarli gapirilmaydi. Holbuki muloqot jarayonida so'zdan tashqari ko'z ham ishtirok etadi va ko'p hollarda so'z bilan ifodalash mumkin bo'lmagan hodisalarni ifodalaydi. Maksimal, nojo'ya harakatlar bilan shug'ullanayotgan bolaga otasi bir nigoh tashlashi bolaning bunday harakatdan o'zini tiyishi uchun kifoya qiladi.

Sahna san'ati uchun nigohning ahamiyati shunda ham ko'rinadiki, agar tomoshabinning nigohi aktyorga tushishni istamasa, bu aktyorning sahnadan tushib ketishini anglatadi. Mazkur misol tomoshabinlar nigohining sahna san'ati uchun roli va zarurligini ko'rsatadi. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, aktyorning rol ijro etish jarayonida qarashlari, qayerga, kimga va qanday nigoh tashlashi qahramon

ruhiyatini ochishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Taassuf bilan qayd etish lozimki, akyorlik mahoratiga oid risolalar va qo‘llanmalar, darslik va maqolalarda bu masalaga deyarli e’tibor berilmagan.

Hayotda odamlarning nigohi, ularning nimalarga, nima uchun va qanday qarashi ichki dunyosini, ruhiyatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Suhbatdoshlar bir-birining nafaqat so‘zini tinglab, balki, nigohlarini kuzatib ham ko‘p narsani bilib olishlari mumkin. Xalqimizda, so‘z aldashi mumkin, lekin ko‘z aldamaydi, degan ibora bor. Bu ibora uzoq kuzatishlar, xalqning hayotiy tajribasi natijasida vujudga kelgan.

Nigoh hayotda qanchalik muhim rol o‘ynamasin, uning sahnadagi roli bundan ham ulkanroqdir. Hayotda odamlar bir-birlarining nigohlarini kuzatib muayyan xulosalar chiqarishsa, sahnada aktyorning nigohi nafat sahnadagi suhbatdoshga, balki zaldagi tomoshabinlarga ham muayyan ma’nomlarni yetkazishi kerak.

Nigoh turlicha bo‘ladi va turli holatlarni ifodalaydi. Nigoh kayfiyatni, quvonchni, xafalikni, mayuslikni, surbetlikni, jahlni, hayratni, maylni, g‘azabni, sevgini, nafratni, rostgo‘ylikni, yolg‘onni, sadoqatni, og‘riqni, rahm-shafqatni, hayoni, hamdardlikni va yana boshqa ko‘plab ruhiy holatlarni ifodalashi mumkin. Aktyorning mahorati ana shu ruhiy holatlar nigohda qanday ifodalanishi va bu ifodadagi nozikliklarni bilishi va bu nozikliklarni sahnadagi suhbatdoshigagina emas, zaldagi tomoshabinga yetkaza bilishiga bog‘liq. Sahnamiz darg‘alari mana shu nozikliklarni to‘la bilganlari va tomoshabinga yetkaza olganlari uchun ulug‘lik maktabiga loyiq bo‘lganlar.

Ulkan san’atkorlarimiz Abror Hidoyatov, Olim Xo‘jayev, Shukur Burhonov, Razzoq Hamroyev, Lutfixonim Sarimsoqova, Sora Eshonto‘rayeva, Zamira Hidoyatova, Maryam Yoqubova kabi ko‘plab aktyorlar nigohlari qanchalik ifodali bo‘lganini hozir bevosita kuzatish imkoni yo‘q. Lekin ular rol ijro etgan kino va videotasmalardan, ularning sahnada olingan fotosuratlaridan nigohlari qay darajada ifodali bo‘lgani va qanchalik keng diapazonga ega bo‘lganini bilib olishimiz mumkin. Aynan mana shu ifodali qarash va nigoh diapazoni ularni ulug‘likka yetkazgan eng muhim omillardandir.

San'atshunoslikda aktyorlik mahoratiga bag'ishlangan asarlarda ovozning diapazonlari haqida ko'p gapiriladi. Biroq nigohning diapazoni haqidagi risolalar u yoqda tursin, maqolalar ham topilmadi. Bu esa aktyor mahoratining muhim qirrasiga teatrshunoslikda yetarli e'tibor berilmayotganini ko'rsatadi.

Nigoh ko'zning ochiqligi, muayyan tomonga yo'naltirilgani, qancha muddat va qanday qarashi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, ko'zning faqat ochiqligi emas, yumuqligi yoki yopilish ham ma'lum ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, odam lazzatga berilganda uning ko'zlari yumula boshlaydi. Bunday holatni hayvonlarda ham kuzatish mumkin. Uyingizdagi mushukni silasangiz, ayniqsa, qashiy boshlasangiz, huzur qilganidan ko'zlari yumula boshlaydi. Bolalarning boshini, ensasini silaganda ularning ko'zlari uyquga keta boshlaydi.

Hayotdagi shaxslararo muloqot bilan sahnadagi muloqot o'rtasida juda ko'p umumiy jihatlar bilan bir qatorda muayyan tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Bu tafovutlar, avvalo, muloqot tuzilmasida ko'rinadi.

Urg'u noverbal vositalar orasida alohida o'rin tutadi va u nutq komponentlaridan birini akustik ifoda yordamida alohida ajratib ko'rsatishini bildiradi.

Sahna obrazini talqin qilishda uning boshqa personajlarga, voqea xodisalarga munosabatini ko'rsatish alohida o'rin tutar ekan, shu munosabat ko'pincha urg'u yordamida ifodalanadi. Urg'u aktyor san'atini ifodalaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri hamdir.

Yozuvchi yoki dramaturg urg'uni nutqning qaysi komponentiga berishni ko'rsatish imkoniyatiga ega emas. Urg'uni to'g'ri belgilash va to'g'ri ifodalash aktyorlarning mahorati va san'atiga bog'liq bo'ladi. Aktyorning san'atkor ekani ham ko'pincha xuddi mana shu holatda ko'rinadi.

Dramaturg g'oyasi va rejissyor talqinini tomoshabinga yetkazishda noverbal vositalar muhim o'rin tutadi. Bular jumlasiga mimika, tana harakatlari, ko'z qarashi, intonatsiya, urg'u, tembr, ovozning baland- pastligi kabilir kiradi. Noverbal vositalarning aktyor faoliyatidagi o'rni va rolini tahlil qilish uchun keng miqyosli tadqiqod o'tkazish zarur.

Aktyorning rolga qay darajada kirganini ko'rsatuvchi tashqi belgilar mavjud. Ular jumlasiga aktyorning tashqi ko'rinishini jiddiy o'zgartira olishi qahramon harkateriga xos bo'lgan induividuallikni bera olishi shular jumlasidandir.

Aktyorning qahramon qiyofasiga kirishidagi eng yuqori bosqichlardan biri talqin qilinayotgan harakterning ichki mohiyatini ifodalay olishidir.

Qahramonning tashqi qiyofasi grim, kiyim va sahnadagi harakat asosida ifodalansa, ichki qiyofa nutq orqali ifodalanadi. Sahna nutqi verbal va noverbal vositalardan tashkil topadi. Verbal vosita so'z bo'lsa, noverbal vositalar so'zning ma'nosiga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan intonatsiya, urg'u, nutqning tez yoki sekinligi, ovozning baland yoki pastligi, mimika, nutq jarayonidagi ko'z harakatlari hisoblanadi.

Bugungi kun dramaturglari tomonidan yaratilayotgan aksariyat pyesa va kinossenariylar maishiy mavzuga asoslangan kassabop asarlardir. Tabiiyki bunday asarlarda qahramon obrazini yaratish uchun imkon ham sabab ham topilmaydi. Ammo, ular asosida yaratilgan spektakl va filmlarni tomoshabin ko'ryapti, qabul qilayapti. Biroq, qahramon obrazi esa muammoligicha qolmoqda.

To'rtinchi muammo teatr aktyorlari sahna nutqi mashqlarini bajarmay qo'yganligi, treninglar o'tkazishni to'xtatib qo'yganligi muammosi.

Sahnada qahramon xarakterini yaratishda va uni tomoshabin ko'z o'ngida yaqqol aks ettirishda aktyorlik mahorati qatorida sahna nutqi texnologiyalarini mukammal o'rganish o'ta muhimdir. Bugungi kunda qahramon xarakterini yaratish masalasida shoshmashosharlikka yo'l qo'ymaslik, rejissyor uslubi, aktyorlar bilan ishlash jarayoni, aktyorning obraz yaratishdagi murakkab jarayonlar hamda dramatik asar tilini qunt bilan tahlil etmoq zarur. Bunday yondashuv sahna asarini puxta chiqishiga sabab bo'ladi.

Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish va undan unumli foydalanish keng yo'lga qo'yilayotgan bir paytda san'at asarlarini yaratishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yetarli e'tibor berilishi, albatta, davr talabi. Qahramon xarakterini yaratishda aktyorlarning nutqi, ovozi, nafasi ustida ishlashni nafaqat rejissyorlar, balki aktyorlarning o'zlari ham unutib qo'yimoqda.

Natijada sahnada ovozning tizimsiz ravishda ifodalanishi, baqirish, ortiqcha shovqin-suron, partnyorlarning bir-birlarini tinglamaslik holatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu holat tomoshabin ruhiyatiga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon va o'zbek klassik san'at asarlarining g'oyasi va asarlarda ifoda etilgan nozik sezimlar tomoshabin qalbiga chuqur singdirilmayapti. Shuning uchun aktyor tarbiyalash jarayonida sahna nutqi texnikasi, texnologiyalarini faqat o'qish jarayonida emas, balki amaliy mashqlarning nozik, kichik elementlarigacha tushuntirib borish hamda uning mohiyatini anglatish lozim. Shuning uchun o'ta murakkab jarayonlar tufayli erishiladigan sahna nutqi mahorati talab darajasida bo'lish uchun zarur texnik mashqlar ishlab chiqildi va bir necha yillar davomida tajriba sinovlaridan o'tkazildi. Ilgari sahna nutqi faqat artikulyatsiya va diksiyani ishlatgan holda olib borilar edi. Harakat bilan bog'lanmas edi. Bugungi kunda aktyor dramatik aktyor bo'ladimi, musiqali teatr aktyorimi, qo'g'irchoq teatri aktyorimi, albatta, harakat bilan bog'lab o'rgatilishi shart.

Mubolag'asiz aytganda sahnadagi aktyor so'zidan dur, ko'zidan yulduz, qadamidan uchqun chaq nab turishi shart. U o'z ortidan millionlab olomonni ergashtira olish qudratiga ega. So'zni badiiy bo'rttirib ifodalaganda hattoki yiqilayotgan osmono'par imoratni to'xtatishi, minglab aholi yashayotgan joylarni suv toshqinlaridan, otilib chiqayotgan vulqonlardan bartaraf eta olishi mumkin. Mamlakatni parchalashga urinayotgan har-xil turdagi terroristik oqimlar, g'oyaviy buzg'unchilardan millatni asrashi, yoshlarni yomon yo'lga kirib ketishini oldini olib o'zining ortidan halollik va vatanparvarlik sari yetaklashi tabiiy.

Shuning uchun teatr va kino san'atining eng ustuvor masalalaridan biri, bu – komil insonlarni tarbiyalashdir. Zamonaviy qahramon yaratish masalasining o'zagi ham aynan mana shu komil inson tarbiyalash g'oyasi bo'lsa ajab emas. Biz qachonki sahnada komil insonlarni kashf qilib aks ettirsak, jamiyatimiz shu qahramonlarni o'rnak – estetik ideal deb qabul qilsa ma'naviy rivojlanish boshlanadi. Badiiy yaxlit, g'oyaviy yuksak sahna va ekran tomoshalaridan ibrat olganlarning onggi o'sadi, dunyoqarashi o'zgaradi.

Biz yuqoridagi fikrlar bilan muammoning negizi dramaturgiyada degan azaliy aqidaga yana bir bor iqror bo'ldik. Masalaga ochiq-oydin, to'g'ri ko'z bilan yondashib, muammoning hal etilishiga ko'maklashish barcha aktyorlar zimmasidagi masala, aktyorlarga ko'maklashish esa sahna nutqi mutaxassislarining vazifasi degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [www/ziyouz/ com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
2. Umarov E.Obrazlar dunyosi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
3. Bu haqda qarang: Xoliqulova G. Sahna asarlarida qahramon obrazini talqin qilishda kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. O'zbekiston, 2017.

SAHNA NUTQI FANINING TADRIJIY BOSQICHLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sahna nutqining uzoq o‘tmishiga nazar tashlanadi va fan sifatida tarkib topgunga qadar bo‘lgan davrlar tadrijiy bosqichlar kesimida ilmiy asoslanadi. Bundan tashqari har bir davrning o‘ziga xos jihatlari haqida qisqacha yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *sahna nutqi, antik davr, notiqlik san’ati, voizlik san’ati, ritorika, badiiy so‘z, adabiy til, go‘yandalik, dabirlik, xatiblik.*

Аннотация: *В данной статье мы обращаемся к далекому прошлому сценической речи, прослеживаем последовательно и поэтапно весь путь развития и становления как предмета. Также мы кратко освещаем индивидуальные стороны развития каждого этапа.*

Ключевые слова: *сценическая речь, античность, ораторское искусство, искусство проповеди, риторика, художественная речь, литературный язык.*


Annotation: *In this article, the long past of stage speech is looked at, and the periods before its formation as a science are scientifically based on the cross-section of gradual stages. In addition, the specific aspects of each period will be briefly covered.*

Key words: *stage speech, antiquity, the art of oratory, the art of preaching, rhetoric, artistic speech, literary language, pretending, writing, oratory.*

Yangi O‘zbekistonda inson qadri va uning haq-huquqlari tamoyiliga asoslangan Taraqqiyot strategiyasi orqali ta’lim, madaniyat va san’at sohalarida beqiyos islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun biz ma’naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o‘ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur” [1.]. Ayni shu maqsadda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professor-o‘qituvchilari ham talabalarga bilim berishda zamon talablariga hamohang tarzda o‘qitishning yangi metodika, texnologiyalarini ishlab chiqmoqda. Sahna nutqining ilg‘or pedagoglari o‘zaro hamkorlikda fan doirasida qator loyihalarning istiqbolli rejalarini tartiblamqda.

“Sahna nutqi” fani shu kunga qadar tadqiqot obyekti sifatida pedagogika ixtisosligida tadqiq etilmaganligi bois fanni o‘qitish metodikasining dolzarbligi pedagogik muammo sifatida tadqiq etildi. “Sahna nutqi” metodikasini takomillashtirish yuzasidan mahalliy, Yevropa, Osiyo va Mustaqil hamdo‘stlik davlatlari olimlarining tadqiqot ishlari tahlil qilinib, mavjud holat aniqlandi. “Sahna nutqi”ning fan sifatida shakllanishi, uning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi omillari, sahna nutqining tarixiy bosqichlari tadqiq etilish natijasida quyidagi shartli davrlarga bo‘lib o‘rganish tavsiya etiladi:

1. Eng qadimgi davrlardan milodiy VII asrgacha Antik davr – ritorika san’ati;
2. VII-XIII asrlar Sharq davri – voizlik san’ati;
3. XIV-XVI asrlar O‘rta asrlar davri – o‘zbek adabiy tilining shakllanishi;
4. XVII-XVIII asrlar va XIX asrning birinchi yarmi Xonliklar davri – badihago‘ylik san’ati;
5. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Jadidlar davri – o‘zbek adabiy til meyorlarining shakllanishi;
6. 1991-yildan hozirga qadar Mustaqillik davri – badiiy so‘z san’ati.




“Sahna nutqi” ning tarixi juda uzoq bo‘lib, notiqlik san’ati sifatida eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshladi. Yunonistonda demokratiya tuzumining o‘rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlarida va yig‘ilishlarda respublikaniing har bir ozod kishisi erkin nutq so‘zlash huquqiga ega bo‘lgan [2]

Sahna nutqi antik zamonlardan to yevropa tipidagi teatr o‘lkamizga kirib kelguniga qadar quyidagi shakllarda rivojlanib keldi:

- notiqlik;
- voizlik;
- go‘yandalik;
- baxshichilik;
- imomlik;
- qiroatxonlik;
- qasidaxonlik;
- qissago‘ychilik;
- badihago‘ychilik;
- qiziqchilik;
- badiiy so‘z ustasi.

Antik davr notiqlik san’atini o‘rganishda Aristotelning izlanishlari tayanch manba hisoblanib, uning “Ritorika” asarida notiqlik san’atining tamoyillari quyidagicha tartiblangan:




Qadimgi Rimda notiqalar qarama-qarshi qo‘yish va o‘xshatishdan keng foydalanganlar. Jumladan, Tiberiy Grakx (er.av. 163-133-y.) bunday o‘xshatmani ishlatadi: “Italiyada sanqib yuruvchi yovvoyi yirtqichlarda ham turar joy bor, ammo Italiyani deb qon to‘kayotgan kishilarda esa keng osmondan boshqa hech boshpana yo‘q. Ular bola chaqalari bilan daydib yurishadi.” Nutq talqini masalalariga ham alohida e‘tibor berilgan. Buni yuqorida tilga olingan notiqning ukasi Kay Grakx (er. av. 154-121-y.) misolida ko‘rish mumkin. U nutq so‘zlayotganda orqaroqda bir qul fleyta ushlab turgan va uning nutqi uchun ton bergan. Notiq esa o‘sha tonda nutq so‘zlagan. Qadimgi Rimda asosan uchta notiqlik hukm surgan:

1. Sud notiqi. Ya‘ni oqlovchi va qoralovchi;
2. Siyosiy notiqlik;
3. Maqtov notiqi.

Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishning tarixiy asoslarini o‘rganishda Rim yirik notig‘i va notiqlik san‘ati nazariyotchisi Kvintilian (35-96-y.) yaratgan notiqlik maktabining o‘rni katta. U jahon madaniyati tarixida birinchi bo‘lib davlat notiqlik maktablarini ochgan. Kvintilian o‘zining “Notiqning ma‘lumoti haqida” risolasida bugungi kun “Sahna nutqi” pedagogikasiga taaluqli qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan, Kvintilian nazariyotchi sifatida nutq jarayonini bir necha qismga bo‘ladi:

1. Ixtiro etish (inventio). Bu – muayyan mavzu aniqlangach, o‘sha mavzuga xos bo‘lgan va uni yorituvchi fakt va raqamlarni o‘rganish, to‘plash jarayonini o‘z ichiga oladi;
2. Joylashtirish (dispositio). Bu davr to‘plangan va o‘rganib chiqilgan fakt va hujjatlarni joylashtirish, boshqacha qilib aytganda nutq kompozitsiyasi masalalarini qamrab oladi;
3. Bayon etish (elocutio). Masalani bayon etish, ya’ni yozish;
4. Eslab qolish va so‘zlash (pronuntiatio). Bu davr tayyor nutqni repetitsiya qilish va talqin etish jarayonidan iborat [4.].

Tadqiqotchi M.V.Boguslavskiy endigina aktyorlik san’atiga kirib kelgan bugungi kun talaba-aktyorlarini tarbiyalashda “Sahna nutqi” pedagogi uchun muhim bo‘lgan Kvintilianning o‘gitini tadqiqotchi P.Amonashvilining “Mark Fabiy Kvintilian” kitobi kirish qismida keltiradi: “Ey ota, o‘g‘ling dunyoga kelgach, unga katta umid bog‘la. Chunki katta umidlar katta pedagogikani yaratadi”[5.]. Darhaqiqat, “Sahna nutqi” pedagogi uchun har bir talaba-aktyor umid va ishonchdir.



Tadqiqotchi A.Aripovanning ta’kidlashicha Sharq davri – voizlik san’ati asosan uch shaklda bo‘lgan: dabirlik, xatiblik, muzakkirlik va har bir shaklning yozilishi, o‘qilishi, shuningdek, va’z etilish shartlari, usuli har xil bo‘lgan [6.].

Voizlik san'ati Dabirlik – davlat maqomidagi yozishmalarni qiroat bilan o'qish, xatiblik – xutba o'qish, muzakkirlik – juma kunlaridagi, hayit va boshqa tantanalardagi nutqlardan iborat bo'lgan. Voizlik san'ati tinglovchilarning, voizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqe va lavozimlarini hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ham uchga ajratilgan: sultoniyot – yuqori tabaqa ayonlari uchun; jihodiya – jangoh ishtirokchilari uchun; g'aribona – oddiy fuqarolarga mo'ljallangan nutqlar. Har birining yozilishi, o'qilishi, shuningdek, va'z etilish shartlari, usuli har xil bo'lgan [7.].

Kaykovusning (1021-1098-y.) o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab, nasihat sifatida yozgan “Qobusnoma” asari 44 bobdan iborat bo'lib, 1082-1083-yillarda yaratilgan. Asarning 6-7-boblari so'z odobi, suxandonlik haqida. Kaykovus asarda farzandiga so'zlash borasida quyidagilarni uqtiradi: “Ey farzand! So'zning yuz va orqa tomonini bilg'il, ularga rioya qilg'il, so'zlaganingda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanini bilmasang, qushga o'xshaysan, bunday qushni to'ti deydilar!”. Kaykovus asarda aktyorning ichki va tashqi texnikasiga taaluqli qimmatli fikrlar ham keltirgan. “...Bilg'ilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi, chunki, boshqa jonivorlardan odam o'n daraja ortiqdir va bu afzallik odamning badanida bordir; beshi odam tanasining tashqi tomonida zohir bo'ladi va beshi ichida yashiringandir; shular: bir narsani yod qilmoq, hamisha esda saqlamoq, xayol qilish (tahayyul), farq qila bilish va nutq... Agar sening so'zlagan nutqingda foydali bir narsaning hidi kelib turmasa, bunday so'zning aytilmagani ma'qul”. Bundan tashqari Kaykovus so'zning qiymati haqida quyidagicha fikr yuritadi: “So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham yomon ko'rinadi”. Har bir aktyor uchun ibratnoma bo'lgan mazkur asarda Kaykovus kishi suxandon bo'lishi lozimligini, notiqning esa so'zi tushunarli va quruq gap bo'lib qolmasligini ta'kidlaydi: “...shunday kishini notiq (suxango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning har so'zi unga ham ma'lum bo'lsin. So'zni juda qimmatli deb bilgil, chunki so'z har narsa emasdir. Bilgan so'zingni o'z joyida ishlatgil...”. “Qobusnoma” da bayon qilingan yuqoridagi kabi Kaykovus hikmatlari bugungi kun aktyor tarbiyalash

metodining dolzarb talablari bilan hamohang bo‘lib, talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishning eng muhim sifatlarini qamrab olgan. Jumladan, aktyorning partnyor bilan ishlashi va dialog hosil qilishi borasidagi qimmatli ma‘lumotni Kaykovusning “Kishi faqat nutq so‘zlashni emas, balki boshqalarning so‘zini ham diqqat bilan tinglashi kerak” ligini tavsiya qilgan hikmatida topamiz [8.].

O‘rta asrlar davri haqida gap ketganda Alisher Navoiyning izlanishlari tahsinga sazovor. O‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyni tadqiqotchi X.Doniyorov o‘zining “Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tili” asarida shunday ta’riflaydi: “O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti haqqoniy ravishda Alisher Navoiyning tabarruk nomi bilan bog‘langan. Haqiqatan ham Alisher Navoiyning tili butun bir davrning tili, butun bir xalqning adabiy tilidir. Hatto uni bir necha davrlar va bir necha xalqlarning tilini aks ettiradi deb hisoblovchi olimlar ham haq bo‘lib chiqadilar. Chunki Alisher Navoiy XV asrda o‘zbek adabiy tilini yaratar ekan, bir qancha xalqlarning tillaridan oziqlanganidek, u asos solgan adabiy tildan birgina o‘zbek xalqi emas, balki butun O‘rta Osiyo va ayrim boshqa turkiy xalqlar ham foydalanib keldilar” [9.].

“Sahna nutqi” rivojiga xonliklar davrida truppa sifatida birlashgan teatr namoyondalarini xizmati katta bo‘lgan. Jumladan, Qo‘qonda Zokir eshon (30 ga yaqin qiziqchi), Buxoroda To‘la masxara (20 ga yaqin masxaraboz) hamda Xivada Quvvat kalta, Matyoqub ko‘r, Boltaqul masxaraboz, aka-uka Eshmat va Do‘smat kabi ijodkorlarning nutq mahorati singan [9.].

Jadidlar davriga to‘xtalganda e’tirof etish kerakki, ma’rifatparvarlarimiz o‘zlarining teatr san’atidagi islohotlari orqali sahna nutqining fan sifatida tarkib topishiga keng yo‘l ochdi. Mustaqillik davriga kelib esa teatr ta’limida aktyorlik ko‘nikmalarini egallashda yetakchi fan sifatida yuksaldi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sahna nutqining tadrijiy rivojlanish bosqichlari haqida kengroq, batafsilroq ma‘lumotlar berish talaba-aktyor va rejissyorlarda fan bo‘yicha to‘laqonli tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bu bilimlar talabaning fan tarkibiy qismlaridagi texnik mashqlar bo‘limi va so‘z ustida

ishlash bo‘limlarini yanada samaraliroq o‘zlashtirishiga zamin yaratadi. Demak, talaba-aktyor va rejissyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishda faning tarixiy asoslarini o‘rganishdan boshlash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 229.
2. To‘laganov A. Sahna nutqi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B. 318. (326);
3. L.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. O‘zbekiston Markaziy Komitetining birlashgan nashriyoti. 1967. 10 bet;
4. S.Inomxo‘jayev. Notiqlik san’ati asoslari . O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent. 1982. 132 bet;
5. P.Amonashvili. Mark Fabiy Kvintilian. Izdatelskiy dom Shalva Amonashvili. Moskva. 2015. 5 betda. 256 bet.;
6. Aripova A. Nutq mohiyatini tashkil etuvchi muhim vosita // Scientific progress. Volume 1. ISSUE 6. 2021. – B. 246.;
7. Kaykovus. Qobusnoma. T.: O‘qituvchi, 1978. 5-29-41-betlar;
8. X.Doniyorov. Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tili. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1972. 5 bet. (63 bet);
9. M.Qodirov. O‘zbek an’anaviy teatri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent 2010. 59-70 betlar.

Umida Ibragimova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Sahna nutqi” kafedrası

katta o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

O‘ZBEK MUSIQALI DRAMASI TARAQQIYOTIDA SAHNA NUTQINING O‘RNI

***Annotasiya:** O‘zbek musiqali dramasi janr sifatida shakllanishida badiiy madaniyatning o‘rni ahamiyatlidir. Mazkur maqolada o‘zbek musiqali dramasi taraqqiyotida sahna nutqining o‘rni haqida keng yoritildi.*

***Kalit so‘zlar:** nutq, sahna, musiqa, aktyor, taraqqiyot, ariya, ijro, janr, ohang, teatr, rejissyor, element, spektakl.*

***Аннотасуя:** В данной статье, речь идет о формировании жанра узбекского музыкального театра и важности роли художественной культуры. В статье широко освещена роль сценической речи в развитии узбекского музыкального театра.*

***Ключевые слова:** речь, сцена, музыка, актер, развитие, ария, спектакль, жанр, мелодия, театр, режиссер, элемент, спектакль.*

***Annotation:** The role of artistic culture is important in the formation of Uzbek musical drama as a genre. In this article, the role of stage speech in the development of Uzbek musical drama was widely covered.*

***Keywords:** speech, scene, music, actor, development, aria, performance, genre, melody, theater, director, element, performance.*

O‘zbek musiqali teatri, uning asosiy elementi, figurasi bo‘lgan aktyorning sahnadagi nutqi, ilk sahna nutqi ustozlari va uni o‘zlashtirish vositalari xususida tarixiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish mustaqillik yillaridagi musiqali drama teatri aktyorlarining sahna nutqi xususida fikr yuritishga ko‘maklashadi. Garchan, o‘zbek musiqali teatrida aktyorlarning nutqi bilan ishlovchi maxsus kadrning faoliyat yuritishi kamyob hodisa bo‘lgan bo‘lsa-da, aktyorlarning nutqi, ijrochilik janrlariga ko‘ra turli usullarga egaligi, o‘ziga xos tayyorlovlar, qo‘shiqlar, ariyalar,

monologlardagi individuallik yuzasidan M.Qodirov, M.Hamidova, K.Umirzakov, G.Xoliqulova tadqiqotlarida ilmiy o'rganilgan.

O'zbek musiqali dramasi janr sifatida shakllanishida badiiy madaniyatning o'rni ahamiyatlidir. Zotan, musiqali drama elementlari qadim davr marosim o'yinlari, hosil bayrami raqslari, kuy-qo'shiq ohanglarida uchragan. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos namunalaridan yuzaga kelgan, musiqali dramaning asosi bo'lib xizmat qilgan laparlar, aytishuvlar, katta ashulalarning san'atkorlar tomonidan sahnada yangitdan qo'llanilishi janr shakllanishidagi ilk muvaffaqiyatli qadamlardan bo'lgan.

Xalqning dunyoqarashi, turmush darajasi, ayniqsa, uning poetik ijodi ayni vaqtda xalq dostonchilik yo'nalishi tarkibida musiqali drama elementlari yaqqol ko'zga tashlangan va vaqt o'tishi bilan yangi sifatlar bilan boyigan. Epik janrning mazkur ko'rinishida asosiy e'tibor va kuch doston ijrochisiga, ya'ni baxshiga tushadi. Ular bir paytning o'zida ham ijrochi, ham ijodkor, ham sozanda bo'libgina qolmasdan, ijro etilayotgan asardagi har bir personaj xarakterini so'zda va ohangda ochib bera olgan mahoratli aktyorlardir.

Avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq dostonlaridagi personajlarning qaxramonlik, bahodirlik, o'z xalqiga va muhabbatiga fidoyilik, do'stlik va birodarlik kabi g'oyalari o'z ahamiyati bilan bugun ham qadrli. Xususan, musiqali dramaning dastlabki elementlari xalq dostonchiligida namoyon bo'lgan. Bu esa xalq san'atida mavjud manbalarga tayangan, uning asriy madaniyati, estetik didini o'zida namoyon etgan yangi janrning ilk ko'rinishlari bo'lgan.

Musiqali teatrning vujudga kelishida o'zbek xalq tomoshalarida musiqadan foydalanish hamda Ozarbayjon teatrining musiqali dramatik spektakllari muhim rol o'ynagan. Darhaqiqat, musiqali dramaning janr sifatida shakllanishi va rivojlanishida O'zbekiston xalq artistlari To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Mahmudjon G'ofurov, Lutfixonim Sarimsoqova, E'tibor Jalilova, Shahodat Rahimova, Omina Fayozova, Tursunxon Ja'farova, Soyib Xo'jayev, Hamza Umarov, Fayzulla Ahmedov, Zaynab Samiyeva, Farog'at Rahmatova, Farziddin Fayozov, Sur'at Po'latov, Fayzulla Ahmedov, Husan Sharipov xizmati katta. Chunki

musiqa, soʻz va sahnaviy xatti-harakatning uygʻunlashuvi natijasida yuzaga kelgan sahna asarlari tomoshabin didiga, talabiga yaqin va juda taʼsirchan ekanligi uning asarlari asosida qoʻyilgan sahna koʻrinishlarida, shuningdek, targʻibot uchun yozilgan kompozitsiyalarda oʻz ifodasini topdi.

“Fargʻona fojiasi” trilogiyasi, Gʻulom Zafariyning “Halima” pyesasi, Hurshidning Navoiy dostonlari asosida yaratgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” singari asarlarida musiqali dramaning oʻziga xos xususiyatlari mustahkamlana boshladi.

Oʻzbek musiqali dramasi oʻz taraqqiyotida bir necha davrni bosib oʻtdi. Dastavval pesaga mos musiqa xalq ijodidan tanlab olingan boʻlsa, 1930 yillarning boshiga kelib, S.Abdullaning “Poʻrtana”, M.Muhammedov va K.Yashinning “Ichkarida” kabi zamonaviy asarlarini sahnalashtirish jarayonida xalq musiqa merosi namunalarini qayta ishlashga urgʻu kuchaytirildi.

Bu davrda teatrda ijodiy jarayonda boʻlgan Muqimiy nomidagi Oʻzbekiston davlat musiqali teatridan Maryam Yoqubova, “Yosh tomoshabinlar teatri”dan Omina Fayozovalar, Samarqand teatridan Abdurauf Boltayev, Andijon teatridan Soyib Xoʻjayev, Abbos Bakirovlar, Namangan teatridan Sobir Rahmonovlar Muqimiy teatriga kelib qoʻshildilar. Shuningdek, teatrda Lutfixonim Sarimsoqova, Shahodat Rahimova, Abduvahob Azimov, Mashrabjon Yunusov, Asad Ismatov, Anvar Yusupov, Mirvali Mirtolipov, Zuhra Shermatova, Muharram Ermatova, Akbar Muhammedov, Tursunxon Jaʼfarova, Jamolqori Gʻiyosov, Hojiakbar Ahmedov, Maʼmurjon Uzoqov va Mahmudjon Gʻofurov, Umar Abdullayev, Abdurauf Boltayev, Abbos Bakirov, Soib Xoʻjayev, Muhammad, Xolmuxamedov, Sabaxon Karimova, Sobir Raxmonov singari bir qancha hofiz, xonanda va aktyorlar poytaxt va viloyat teatrlaridan jalb qilindi.

Musiqali drama janri shakllanishining ilk bosqichlarida aktyorlik sanʼatida asosan soʻz va musiqa uygʻunligiga erishish muhim vazifa boʻlgan. Zero, dramatik teatrda birin-ketin ozarbayjon, tatar teatr truppalari taʼsirida sahnalashtirilgan “Halima”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” spektakllarida asosiy eʼtibor dramatik holatni ehtirosli tomoshabinga taqdim etish uchun qoʻshiq-ariya, maqom

kuylari, laparlar, aytishuvlarga murojaat etdi. Musiqali teatrga Muhiddin Qori Yoqubov rahbarlik yillari truppada iqtidorli sozanda va xonandalar safi kengaydi. Natijada ijrolarda vokal qismi bilan dramatik holatni omuxta tasvirlashda o'sish kuzatildi.

Musiqali teatr tashkil etish yo'lidagi izlanishlarda Muhiddin Qori Yoqubovning hissasi katta. U "O'zbek davlat etnografik truppasi" yordamida xalq ijodiyoti, xalqning ma'naviy boyligi hisoblangan musiqasi, qo'shiq, aytishuv, laparlar, o'yin va raqslariga ishlov bergan holda konsert dasturlari tuzadi va tomoshabinlarga taqdim etadi. Bu truppa konsert nomerlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki yangi janr – musiqali drama janri shakllanishida, ham dramatik, ham musiqiy chiqishlar bilan faoliyat olib boruvchi aktyorlarni tarbiyalashga ahamiyat qaratadi. Darhaqiqat, biz tadqiq etayotgan mavzu doirasida fikr yuritadigan bo'lsak, musiqali teatr aktyori mahorat qirralarining shakllanishida mazkur truppada hukm surgan muhit, xalq badiiy madaniyati va xalq ijodiyotiga bo'lgan cheksiz hurmat va e'tiborda ko'rinadi. Keyinchalik Muhiddin Qori Yoqubov boshchiligida tashkil topgan mazkur "O'zbek davlat etnografik truppasi" 1929 yilni boshida "O'zbekiston Davlat musiqali-eksperimental teatri"ga va shu yilni oxiriga borib mustaqil "O'zbek davlat musiqali drama teatri"ga aylanadi.

1930-yilda Moskvada o'tkazilgan olimpiadada O'zbekistonda ikki teatr mavjudligi ta'kidlanadi. Biri Hamza (hozirgi Milliy akademik drama teatr) nomidagi O'zbek Davlat drama teatri va O'zbek Davlat muzika teatri. Shu o'rinda maqolada musiqali teatr jamoasini etnografiyaga ko'p ahamiyat berishda, xalq musiqasining zamonaviy hayot tasvirlarini aks ettirishda sustkashliklarini ta'kidlab o'tadi. Bu xususda H.Nosirova "...bizning musiqali teatrimiz etnografizmga ortiqcha berilib ketganligi, eski cholg'u asboblari va qadimiy ashulalar doirasida qolib kelayotganligi ko'rsatib o'tildi, garchi sozanda va aktyorlarimizning san'atlari yaxshi baho olgan bo'lsa ham ijrodagi kamchiliklarimiz qayd qilindi" deydi [6.].

Demak, xalqning badiiy-estetik, madaniy, ma'naviy, umummilliy ehtiyojlarini inobatga olib sahnalashtirilgan musiqali dramalardagi badiiy madaniyat

namunalarini mutaxassislar tomonidan doim jiddiy tanqid qilingani va ijrochilardan qoniqish xissi tuyilmagani ma'lum bo'ladi.

O'ttizinchi yilga qadar hali teatrlar janriy mutanosiblik jihatidan ajralmagan bo'lib, dramatik teatr aktyorlari ham dramatik, ham musiqali asarlarda rol ijro etadi. Bu katta mas'uliyat va tajribani talab qiladi, albatta.

1924–1927-yillarda Moskva va Boku teatr studiyalarini tamomlab qaytgan, professional, yevropa shaklidagi teatr tajribasini o'zlashtirgan aktyorlar endilikda sahna nutqi qonuniyatlari, texnikasini ham egallab qaytgan edi. Zotan an'anaviy teatrdak aktyor nutqi sahna nutqi san'atining birlamchi ko'rinishi bo'lgan.

Aktyor nutqi sahna san'atining komponenti sifatida G'arb va Sharq, jumladan o'zbek teatriga ham aloqador bo'lib kelgan. Xususan, har tomonlama murakkab xususiyatlarga ega musiqali teatrdak aktyor nutqiga alohida talablar qo'yilgan. Aktyor sahnada qahramonining fikrini so'z orqali ifoda etadi. So'z aniq bir maqsadga yo'nalsa, aniq talaffuzga erishilsa, insonlarning bir-biri bilan yaqinlashuviga, o'zaro bir-birlarini tushunishiga olib keladi. Nutq teatr san'atining barcha jabhalarida, televideniye va radioda muhim o'rin egallaydi. Sahna nutqi esa teatr sahnasi uchundir. Teatr sahnasidan eshitilayotgan aktyorning nutqi aniq va ravon, ma'lum bir g'oyani o'zida ifodalovchi, o'z maqsadiga ega bo'lishi shart.

Sahna nutqining teatr san'atidagi tutgan o'rni beqiyosdir. Shu bois fanni egallash zarurati namoyon bo'lmoqda. Maqsad so'z san'ati bilan shug'ullanuvchi ijodkorlarning sahnaviy nutqi bebaho, ziynatli nutq bo'lsin [7.]. Zero, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidagi talaba sahnaviy nutqning texnikasini puxta egallashi zarur. Sahnaviy nutqqa erishish uchun uning qonuniyatlarini, ya'ni obekti, predmeti va o'ziga xosligini o'zlashtirishi, muallif niyatidan kelib chiqib, borliqni anglagan holda o'ziga hos shakl va mazmunga ega so'zga erishishi kerak.

Agar nutq organining biror qismida kamchilik mavjud bo'lsa yoki biror qismi yomon ishlasa meyorda so'zlashuvga to'sqinlik qiladi. Bu haqida K.S.Stanislavskiy "...yaxshi ijrochida, aktyorda har bir unli va undosh aniq eshtilishi kerak. Ana shundagina u so'zning nima ekanligini tushunadi va u so'zni seva biladi. Agar shunga odatlansa, ma'nosiz vaysamaydi," deb ta'kidlagan [6.B.19.].

Nafas to‘g‘ri bo‘lsagina, sahna aktyori ijroni to‘g‘ri bajaradi. Soatlab so‘zlasa ham uning ovozlari zarur yetmaydi. Ba‘zi aktyorlar ijrosi sahna nutqi talablariga amal qilmaslik qusurlaridan holi emas. Har bir harakat, holat zamirida maqsad bo‘lmasa, bunday ijro inqirozga yuz tutadi. Chunki, maqsadsiz ijro tomoshabinlarda e‘tiborsizlik paydo qiladi. Bu borada Shekspirning Gamlet tilidan aytilgan quyidagi fikrlarini qayd etish o‘rinlidir: “...so‘zga yarasha harakat qiling, harakatga yarasha gapiring. Lekin bular tabiiylik chegarasidan chiqmasligi shart. Har qanday haddan oshmoqlik teatr maqsadiga xilofdir...”.

Aktyor tilining burro, boy, betakror bo‘lishida kitobxonlik, mutolaga chanqoqlik ham katta ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot aktyorning nutqiy madaniyatiga, fikrining mantiqiy izchil shakllanishiga va takomillashishiga sabab bo‘ladi. Jamiyatning ma‘naviy barkamolligi yoshlarning badiiy adabiyotga chanqoqligi bilan bog‘liq. Noaniq so‘z, yomon talaffuz qilingan so‘z tomoshabinni teatrdan sovutadi. Spektakllarning nutqiy to‘laqonliligi uning badiiylik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan ekan, tilning tozaligi uchun kurash nafaqat sahna nutqi mutaxassisilari, balki aktyor va rejissyorga ham mas‘uliyat yuklaydi.

Demak so‘zni sevish kerak. Chunki har bir tovushlarni aniq talaffuziga erishish sahna nutqining badiylik omilaridan biridir. Tovushlarning aniq talaffuzida esa, nutq organlari aniq harakati yotadi. Nutqda kamchilik bo‘lsa, yomon faoliyat ko‘rsatsa, yaxshi sahna asari yaratilmaydi. Bu asar yetuklikka dahldor bo‘lmaydi. Shuning uchun talabalar bilan sahna nutqi ustida ishlanar ekan, avvalo murabbiy nutq organlari fiziologiyasini, anatomiyasini yaxshi bilishlari lozim. Ana shundagina mashqlarning foydasi tegadi va kamchilik bartaraf etiladi.

Nutq rang-barang tovushlar talaffuzi yig‘indisidan iborat. Bu tovushlar, nutq a‘zolari harakati natijasida paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham nutq a‘zolarini, tovush paydo bo‘lish manbalarini o‘rganish va ulardan foydalanish, mavjud nuqsonlarni bartaraf etadi.

Aktyor nutqi ustida kam ishlasa, ijroda kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inini yamlab yuborish, urg‘ularni noto‘g‘ri qo‘llash, buning natijasida so‘zda boshqa ma‘no kelib chiqishi mumkin. Keraksiz joyda baqirib

gapirish, ovozni to‘g‘ri yo‘naltirishni bilmaslik kabilar yuzaga keladi. Shu o‘rnida shuni aytish mumkinki, oddiy so‘z bilan ham tinglovchida, insonda o‘zgacha noto‘g‘ri fikr uyg‘otib qo‘yish mumkin.

Sahnaviy nutq keng fikr, chuqur mulohaza, o‘z millatimiz tarixiy ildizlarini aniq bilish, ularga mehr bilan yondashgan ziyolilardagina yaxshi tarbiyalanadi, jaranglaydi, parvoz etadi. Fayzulla Ahmedov, Hamza Umarov kabi zabardast ijodkorlarning so‘zga bo‘lgan e‘tiqodi, e‘tibori, mehri tufayli musiqali teatrda aktyorlik maktablari, nutq mahorati andozalari shakllandi. Ularning sahna nutqi mahorati borasidagi iste‘dodi, yorqin salobati bugungacha aktyorlarga qo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

So‘z aktyorni hamisha takomillashtirib, mustahkamlab bormasa, tezda talaffuzda “noaniqlik”, “dag‘allik”, “jonsizlik” paydo bo‘ladi. Bu o‘z o‘rnida adabiy tilni doimo chuqur o‘rganib, o‘zlashtirib borishni taqozo etadi.

Spektaklda aniq nutqiy xarakter yaratish – sahna asarining sahnaviy nutqini boyitadi, rang-barang bo‘lishiga olib keladi. Sahnaviy nutq asarning badiiy yaxlitligini ta‘minlovchi omillardan hisoblanadi. Bu borada asar nutqi ustida, personajlar nutqi ustida alohida ishlash va ansambldagi ularning o‘rnini aniq his etish talab etiladi. Badiiy yaxlitlikka erishish borasida ancha mehnat qilish zarur. So‘z ustida ishlash monolog, dialoglarni klassik asarlar nutqida saqlab qolish bilan birga, zamonaviy nutq ohanglaridan foydalanish ham yaxshi natija berishi mumkin. Chunki ko‘p hollarda aktyor organikasida eski o‘zbek tilining element va ohanglari saqlanib qolmasligi, eski o‘zbek tili ohanglari buzilishiga olib borishi klassik asarlardagi sahnaviy nutq meyorlarining buzilishiga olib kelish kuzatiladi. Bugungi yosh aktyorlarni istalgan til, istalgan sheva, istalgan nutqiy ohang meyorlarida gaplashishlariga odatlangani klassik asar ustida ishlash jarayonida o‘ta muammoli, deyarli hal etib bo‘lmas darajada qarama-qarshiliklar tug‘diradi.

Shuni aytish joizki, ohangni o‘zgartirish turli tillarda har xil ahamiyatga ega. Xitoy tili kabi ohang o‘zgaruvchan bo‘lgan tillarda, ohangning o‘zgarishi so‘zning ma‘nosiga ta‘sir qiladi. Hatto boshqa tillarda ham ohangning o‘zgarishi fikrlarda aks etadi. Misol uchun, ovoz balandligi kuchayishi bilan birgalikda ohangning sal

ko'tarilishi mantiqiy urg'u qo'yishda qo'llaniladi. Ayrim hollarda ohangni o'zgartirish bilan ko'lam yoki masofani bildirsa bo'ladi. Gapning oxirida ohangning kuchayishi so'roqni bildirishi mumkin. Ba'zi tillarda esa buning uchun ohangni pasaytirish kerak. His-hayajon va quvonch balandroq, qayg'u va tashvish esa pastroq ohang bilan ifodalanadi. Bu kabi his-tuyg'ular qalbni zabt etishga ko'maklashadi. Ularni ifodalashda so'zlarni shunchaki aytish yetarli bo'lmaydi. Ushbu tuyg'ularni siz ham his etayotganingiz ovozingizda aks etishi lozim.

Har bir an'anaviy musiqiy san'atning tag zamirida milliy ohanglar yashaydi. Ular bir-biri bilan chambarchast bog'liq. Birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish keraki, bizning musiqiy san'atimiz qanchalik rivojlanmasin, uning negizida milliy ohanglar bo'lmas ekan, umrboqiy qo'shiqlar yarata olmaymiz. Abdurauf Fitrat "Agar biz milliy ohanglarimizni yo'qotsak, o'zligimizni yo'qotib qo'yamiz"[9.B.4.], deb ta'kidlagani bejiz emas albatta.

Ma'lumki musiqali dramada voqea obrazlar konflikt monolog va dialoglarda belgilanadi. Musiqaviy qismlar hissiyotlar kuchayganda, so'z bilangina ifoda qilish mushkul bo'lgan paytlarda ishga tushadi. Natijada kuylar hamda turli xil ashulalar so'z bilan ifodalangan dramatik holatlarni yanada kuchaytiradi va syujet rivojida muhim nuqtalarga olib chiqadi. Ma'lum holatlar so'zda, musiqada aynan takrorlanmasdan, balki ularda davom ettirilishi, kuchaytirilishi va yakunlanishi kerak. Badiiy so'z va musiqa vositalari bilan tasvirlangan holatlar, kechinmalar biri ikkinchisidan kelib chiqishi, bir-birini tasdiqlashi, to'ldirishi lozim. Shu sababli musiqali drama aktyori yangi obraz yaratishga kirishar ekan, o'z qahramonning yetakchi xatti-harakati va bosh maqsadni belgilab shu asosda roldagi so'z va musiqaviy qismlarning vazifalari, o'rni va ahamiyatini aniqlab oladi. Aktyor ayniqsa, so'zdan kuyga yoki kuydan so'zga o'tishda uzviylikni yo'qotmasligi lozim. So'z yoki vokaldan birortasi kuchsiz ijro etilsa so'zdan kuyga yoki kuydan so'zga o'tishda organik holat buzilsa xatti-harakat izchilligi yo'qoladi sun'iylik va yuzakilik paydo bo'ladi, natijada uyg'unlik vujudga kelmaydi.

Dramatik aktyorni spektaklning tempo-ritmi boshqaradi. Uni his qilgan aktyor shunga asoslanib o'z obrazini yaratadi. Dramatik aktyorda so'z san'ati muhim

ahamiyatga ega. Musiqali teatrda musiqa spektaklga jon bag'ishlaydi. Musiqa bilan boyitilgan asarning voqealari kuy va qo'shiqlar orqali bir – biri bilan bog'lanadi. So'zdan asar, qo'shiq yaraladi. Sahnadagi qahramonning ichki iztirobi kuchayib, quvonch yoki hasrat cheksiz bo'lganda, so'z bilan ifodalab bo'lmas holat qo'shiq va kuy orqali tomoshabinga yetkazib beriladi.

Musiqali teatr aktyori qahramon nutqi orqali dardini ochadi, dardning avj pardalarida kuylash orqali yaxlit holatni sahnada yarata oladi. Musiqali drama teatri aktyorlari oldida yana ovoz bilan bog'liq o'ziga xos murakkab ijodiy qiyinchiliklar turadi. Agar musiqali spektaklda aktyorning sayqallangan, chiroyli ovozi bo'lmasa, a'lo darajada bajarilgan rol ham ahamiyatini yo'qotadi. Drama teatrida qahramonlarning holati, ichki kechinmalari ta'sirli monologlar orqali ifoda etiladi. Ayni paytda, musiqali teatrda monolog vazifasini ariya bajaradi. Musiqali teatr aktyori obraz xarakterini dramatik va vokal ifodalarini bir-biriga singdirib yuborish orqali ochadi.

Teatr san'atining aktyorlik jabhasida sahna nutqining tutgan o'rni beqiyosdir. Sahna nutqi faniga nafaqat nutq o'qituvchilari, kezi kelganda rejissyor va aktyorlar ham jiddiy e'tibor qaratmog'i lozim. Mannon Uyg'ur, Toshxo'ja Xo'jayev, Yetim Bobojonov, Shukur Burxonov, Abror Hidoyatov va shu kabi buyuk va so'nmas rejissyor va aktyorlarning sahna tiliga bo'lgan e'tibori sabab bu fan amaliy jihatdan taraqqiy etdi.

Aktyorlar rol ustida ishlash, obraz yaratish jarayonlarida o'zining nutqi, ovozi, talaffuzi, nutqiy xarakterlar yaratish bilan chegaralanib qolmasligi zarur. Aks holda e'tirozga sabab bo'ladigan turli nutqiy nuqsonlar yo'qolmaydi. Chunki so'z eng beminnat, eng ta'sirchan fikr anglatish yoki fikr anglash, muloqot, o'zligini namoyon qilish, ming bir ichki holat, hatti harakat, maqsadlarning ifodachisi ekan, tilning o'tkirligi, ta'sirchanligi, ravonligi, benuqsonligi faqat aktyorning o'z nutqi ustida jiddiy ishlay olishi, uni takomillashtirib borishi, teatrlardagina emas, hayotda, televideniye, radio, dublyajdagi ijodiy chiqishlarida ham o'zbek adabiy til meyorlariga amal qilmas ekan, nuqsonlar ustiga nuqsonlar paydo bo'laveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xamidova M.A. San'at asarlari tahlili, tanqidi va targ'ibi. – Toshkent: O'zDSI, 2009. 53-bet.
2. Qodirov M.H. Sehr va mehr. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
3. Хамидова М.А. Актёрское искусство узбекской музыкальной драмы. – Ташкент, Фан, 1987.
4. Умрзаков К. Проблемы сценической речи в Узбекской музыкальной драме. 17.00.01– Театральное искусство. Ташкент.
5. Xoliqulova G. Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida). – Toshkent: O'zDSI. 2007.
6. Stanislavskiy K.S. Rejissyor va aktyor san'ati haqida ikki suhbat //Teatr, 2-son, 1952, 19-bet.
7. To'laxo'jayeva M. XX asr islohotlari //Jahon adabiyoti. 2014-yil, 1-son.
8. Nosirova H. Men o'zbek qiziman. – Toshkent: O'z.adabiy nashr, 1968, 194-bet.
- ⁹. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006, 4-bet.

КӨРКЕМ ӨНЕР МЕКТЕБИН ЖАРАТҚАН АКТЁР

Аннотасия. Мақалада «Қарақалпақстан халиқ артисти» Хожаберген Айимбетовтиң актёрлиқ шеберлиги, дәретиўшилиги һәм оның жаратқан театр көркем өнер мектеби көринишигизилган.

Таяниш сөзлер: Х. Айимбетов, театр, көркем өнер, институт, режиссёр, актёр, артист, сахна, спектакль, роль, драматург, автор, идея, пьеса, халиқ.

Аннотасия. Мақоллада «Қарақалпақстан халқ артисти» Хожаберген Айимбетовниң актёрлик маҳорати, сан'ати ва унинг yaratgan театр сан'ат мектеби ко'риши чилқилган.

Калит сөзлар: Х. Айимбетов, театр, сан'ат, институт, режиссёр, актёр, артист, сахна, спектакль, роль, драматург, муаллим, г'оуа, пьеса, халқ.

Аннотасия. В статье рассматривается актёрское мастерство, искусство «Народного артиста Каракалпакстана» Хожабергена Айимбетова и театрально-художественная школа, созданная им.

Ключевые слова: Х. Айимбетов, театр, искусство, институт, режиссёр, актёр, артист, сцена, спектакль, роль, драматург, автор, идея, пьеса, народ.

Annotation. The article discusses acting skills, the art of "Қарақалпақстан халық артисти" (Public Artist of Karakalpakstan) Khojabergen Ayimbetov and the theatre and art school created by him.

Key words: Kh. Ayimbetov, theatre, art, institute, director, actor, artist, stage, performance, role, playwright, author, idea, play, public.

Мина «kishkentay» kim?

Нәммә үнсиз қалди, Doslarin көрио'ге келген жігіт те, tosattan берилген sorao'dan albirap juo'ap bere almadi.

- Bizniң institutta oqio'di qəleyseñbe? – dedi sonda 1-kurs muzikali teatr aktyorlig'i bəliminiң көркemlik jaqtan basshisi Sofya Mixaylovna Gudmanovich.

-Ao'a, qəleymen! – dep juo'ap berdi «kishkentay».

Jas əspirim ol жігіт Tashkent ao'il xojalig'i institutiniң 2-kurs studenti, Dosbergen Ranovtiң jaqin dosti Khojabergen Ayimbetov yedi. Teatr көркem institutindag'i

qaraqalpaq kursında oqip atirg'an doslarin kərio'ge barg'anda Sofya Mixaylovna Gudmanovich penen ushirasip, ustazdın usinisi menen ao'il xojalig'i institutin taslap, doslari oqip atirg'an kursqa keledi. Onıñ kerkem ɛnerge qoyg'an dəslepki qədəmi usilay baslanadi. Pedagog-rejissyor Sofya Mixaylovna birinshi merte ushirasqanda-aq onıñ kəzlerinen doretio'shi insan nəzerin kergen bolsa kerek, oni həmmə o'aqit «kishkentay» dep yerkeletip shaqiradi yeken.

Xojabergen Ayimbetov 1940-jili 24-may künü Taxtakəpir rayoni Qaraoy ao'il kənyesiniñ jetinshi ao'ilında dūnyag'a keledi. Ola ta-anasinan jydə kishkene o'aqtında jetim qaladi, dayisiniñ qolında tərbiya koredi. Jaslig'inan skripka həm duo'tar shertio'ge qumar boladi həm sol saz əsbaplarin joqari dərəjede mənğeredi, duo'tardi ustazi Aytjan Xojalepesovtıñ jolina salip shertedi. 1957-1960-jillarda ol Nəkis ao'il xojaliq texnikumında oqiydi, oni tamamlag'annan keyin, ao'ilında agronom bolip isleydi. Biraq janiniñ sazg'a qumarlig'i og'an tinishliq bermey, oni kerkem ɛner əlemine alip keledi. Ol 1960-61-jillari Gosfilarmoniyada sazende bolip xizmet atqaradi, keyin Tashkent ao'il xojalig'i institutında oqip jyrge ol qizig'io'shilig'i arqasında Tashkent teatr kerkem ɛneri institutina ɛtip ketedi. Sol gezlerde ol bilim dərgayında Najimatdin Aḥsatbayev, Dosbergen Ranovlar oqiytug'in yedi. Xojabergen 1962-jili 2-kurs o'aqtında qorg'ao' xizmetine ketedi. Ol 3 jilliq əskeri xizmetten qaytqanda kurslari oqio'di pitkerip, teatrda doretio'shilik jumislari menen haliqqa tanilip atir yedi. Armiya qatarinan kelgennen keyin ol ɛzbek toparında oqio'in dao'am yettiredi, xaliqqa belgili artistler Xojakbar Nurmatov, Gulchexra Jamilovalar menen bir kursta jetik maman pedagog-rejissyor Olga Ivanovna Timofeyevadan aktyor sheberligi sabaqlarin aladi.

1968-jili Xojabergen Ayimbetov oqio'di pitkerip teatrg'a jumisqa ornalasadi həm Nəkis kerkem ɛner uchilishesiniñ xoreografiya bəlimin pitkerip, teatr balet truppasında islep atirg'an Sirg'agyl apa menen tanisip, shaḥaraq quradi. Doretio'shiler shaḥarag'ında yeki ul, ysh qiz jəmi bes perzent tuo'ilip, olar ylken shaḥaraq iyesi boladi.

Xojabergen Ayimbetov doretio'shiliginde rejissyor ɛzbekstan xaliq artisti, Berdaq atindag'i məmleketlik siyliqtıñ laureati Najimatdin Aḥsatbayev saxnalastirg'an

Кеңуесбай Рахмановтиң «О дүньяг‘а мирәт» спектаклиндеги Тасполат роли жүдә әхмиетли оринди иеleyди. Бул песа өткен әсирдиң 70-жилларинда қарақалпақ әдебиyatиниң драматургиya жанринда үлкен бурилис болди. Pesadag‘i korrupsiyag‘a қarsi гүрес темасин Кеңуесбай Рахманов бир шаңарақ өмиринде жоқари дәреjеде шеберлик пенен бере алг‘ан.

Bas қaxарман Тасполаттиң ролин rejissyor Хоjabergen Ayimbetovqa бeredи. Pesa үстинде күнди күн, түнди түн demeyo, дәретio‘shilik isleri alip барилadi. Тасполаттиң hayali Ulperiniң ролинде Қарақалпақстан халиқ artisti «Dosliq» ordeni iyesi Marjan apa Хalmuratova ойнаydi. Saxna mashaqatların sol нәрсе аниқ дәлиylleyди – bas rolдеги Хоjabergen аг‘а менен Marjan apa saxnalastirio‘ дәо‘irинде bireo‘i 8 kg, yekinshisi 11 kg азг‘ан, һәттеки Хоjabergen аг‘аниң murninan қан atip ketken payitlar da болг‘ан yeken. Бул olarg‘а repetisiyada zorabanliq көрсетildi degendi аңлауtpayди, kerisinshe saxnalastirip atirg‘an shig‘armani турmisliq haқиyqatqa say рәо‘ishte көрсетio‘ prosessi yedi. Demek, aktyorlar қол ushi repitisiya islemegen, һәр bir сөздиң astarli мәnisin аship, avtordиң ideyaların janlandirg‘an. Қараң: Тасполат ролинде Хоjabergen аг‘аниң барлиқ aktyorliq шеберлик мүмkinshilikleri қәliplesip, ol өзiniң көркem өнер mektebin jarata алг‘ан. Тасполат рауро баслиг‘i, ониң парaxorлиг‘in sklاد баслиг‘i Sherniyazdiң (Т.Қoshқarov, Ye.Sayekeyev) is-һәреketleri toliqtirip турadi. Дүnya-maldiң қулina aylanг‘ан hayali Ulperi (M.Xalmuratova) ақilsiz isleri менен қандаy jolg‘а kirip ketkenin bilmeyтуg‘in unamsiz obraz sipatinda сәо‘lelenio‘in tapқан. Тасполат һәм Ulperiniң jaman illetleri jalг‘iz perzentiniң өmirine zao‘al болadi.

Кеңуесбай Рахмановтиң «О дүньяг‘а мирәт» pesasin saxnalastirg‘an rejissyor, aktyorlar, xudojnik teatr ushin жоқари мәртеbe alip keldи, spektakl tamashagөyler төrepinen жоқари руо‘hta қабillandi. Хоjabergen Ayimbetov Тасполат ролинen кейin «Қарақалпақстанг‘а хизмет көрсеткен artist» atag‘in alio‘g‘а miyasar болди. Хоjabergen Ayimbetov театрда jaratқан obrazlarınıң ishinde «Yeki bayg‘а bir malay» spektaklinde 2-malay, «Qizil shalg‘ishli dilbarim» da Төlexoja, «Berdaq» ta maxrem, «Сүүmegenge сyykenbe» de Төре, «Tabittan shiqқан dao‘is» ta Suxsurov, «О дүньяг‘а мирәт» ta Тасполат, «Kelinler qozg‘alaңи»nda Makkambay, «Laqqılar

yemleo‘xanada» Dəo‘yen, «Jetinshi param» da Jilqibay, «G‘uyelek qiz h m t o‘ip» te Luka, «Muxabbatim g zzalliq» ta Sabir, «Xoja Nasretdinni  qatinlari»nda G‘ulam, «Injiqtin muxabbati»nda Yelegen tamashag ylerimizde jaqsi t sir qaldirg‘ani m lim. Onin xaliq aldindag‘i miynetlerin bahalap, 1999-jili «Qaraqalpaqstan xaliq artisti» atag‘i berildi. Onin turmisliq joldasi Sirg‘a Ayimbetova da b lent lapizli aktrisa. Ol S.Xojaniyazov, A. Xalimovlardin «S yumegege s ykenbe» muzikali dramasinda Ays nem, J.Aymurzayev, A.Xalimovtin «Berdaq» muzikali dramasinda Hurliman, «G‘ rip Ashiq» muzikali dramasinda G‘ riptin anasi h m tag‘i basqa da t rli xarakterdegi obrazlar d retti. Ol «Qaraqalpaqstan Respublikasina xizmet k rsetken artist». Olardin bes perzenti de joqari oqio‘ orinlarin pitkeren, joqari d rejedegi q nigelikke iye.

ПАЙДАЛАНГ‘АН  ДЕБИЯТЛАР:

1. Зуфаров У. «Сахна додалауи  m талқилау» (Л.Уразмбетова аўдармасы) – Билим баспаси 2015.
2. Жиёмуратова М., Уразмбетова Л. «Театр  нери х m к ркем образ» //тараз мемлекеттик педагогикалиқ университети нин хабаршиси. – №1 (37) 2019.
3. Исмаилова М. Театр - древнейшее искусство живого слова и действия // "Ори ntал Арт анд Султуре" Сси нтифис Метходисал Жоурнал / <http://oas.dsmi-qf.uz> – [Волуме 5 Иссуэ 4 / Аугуст 2024](#) – С. 126-131.
4. Исмаилова М., Уразмбетова Л. САНРО БУЛБУЛИ АЙИМХАН ШАМУРАТОВА //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 293-295.
5. Stanislavskiy К. «San‘atdagi hayotim». Badiiy adabiyot nashriyoti. Tashkent 1965.
6. Исмаилова М. THE ART OF ORATORY //Интернационал Буллетин оф  нгинеэринг анд Течнологй. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 48-55.
7. Исмаилова М., Русланбек Н. Песулиаритиэс оф Среатинг А Мусисал Перформансэ //С НТРАЛ АСИАН ЖОУРНАЛ ОФ АРТС АНД ДЕСИГН. – 2023. – Т. 4. – №. 11. – С. 51-55.
8. Лизахан У., Маряш И. Basic Concepts of Acting Psychology in the School of Modern Acting Art //Интернационал Жоурнал он Интегрated Эдусатион. – Т. 4. – №. 4. – С. 182-187.

Rashid Usnatov

O‘zbekiston davlat san‘at

va madaniyat instituti Musiqali teatr
san'ati kafedrası professor v.b.

AKTYORLIK MAHORATINI O'ZLASHTIRISHDA MIXAIL ALEKSANDROVICH CHEXOV MAKTABINING ROLI

*“Aktyorning buyuk vazifasi: teatr qalbini
saqlab qolish va bu bilan teatrni
mexanizasiyadan qutqarib qolishdir!”
(M.A.Chexov)*

Annotasiya. Aktyorlik mahoratini o'zlashtirishda yuzaga keladigan muammolar, izlanishlar borasida A.M.Chexovning tutgan yo'li, izlanishlari va yechimlari borasida so'z yuritiladi. Bu borada boshqada buyuk ijodkorlarning ijodiy ishlari bilan taqqoslanadi va fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Aktyor, obraz, kompozisiya, sahna, voqelik, baxolash, kuylovchi aktyor, rejissyor, dirijyor, pedagog-rejissyor, ritm, temp, sahnaviy hatti-harakat, voqiylik, dramaturg, pedagog, muallif, bastakor.

Аннотация: рассмотрен путь, исследования и пути А.М. Чехова применительно к проблемам и исследованиям, возникающим в процессе овладения актерским мастерством. В связи с этим его сравнивают с творчеством других великих художников и обсуждают.

Ключевые слова: Актер, образ, композиция, сцена, реальность, оценка, поющий актер, режиссер, дирижер, педагог-режиссер, ритм, темп, сценическое поведение, действительность, драматург, педагог, автор, композитор.

Annotation: the path, research and paths of A.M. are considered. Chekhov in relation to problems and research that arise in the process of mastering acting skills. In this regard, it is compared with the work of other great artists and discussed.

Key words: Actor, image, composition, scene, reality, assessment, singing actor, director, conductor, teacher-director, rhythm, tempo, stage behavior, reality, playwright, teacher, author, composer.

Mixail Aleksandrovich Chexov rus va AQSH dramatik aktyori, teatr pedagogi hamda rejissyordir. Adip A.P. Chexovning jiyani, publisist Aleksandr Chexovning o'g'lidir. Taniqli “Aktyor texnikasi haqida” kitobining muallifidir. [1.] M. Chexov 1891-yilning 29-avgust sanasida, Aleksandr Chexov va Natalya Aleksandrovna Goldenlarning oilasida dunyoga keldi. U 1907-yilda Peterburg Maliy teatri qoshidagi maxorat maktabiga taxsil ko'radi. 1912-yilda esa K.S.Stanislavskiy

taklifiga binoan, Moskva Badiiy teatriga ishga qabul qilinadi. Bir yildan so‘ng M. Chexov L.A. Sulerjitskiy va E.B. Vaxtangovlar raxbarligi ostida MXTning “Birinci studiyasida” o‘z faoliyatini boshlaydi.

1921-yilda Mixail Chexov K.Stanislavskiy va V.I. Nemirovich-Danchenkolar rejissyorligidagi Gogolning “Revizor” spektaklida Xlestakov obrazini qoyilmaqom talqin etadi. 1918-yildan boshlab u teatr studiyasiga asos soladi va aynan shu yerda “aktyorlik psixotexnikasi” ga oid tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi.

Keyinchalik M. Chexov Germaniyaga ko‘chadi. 1929-1930-yillar mobaynida u kinofilmlarda turfa obrazlarni talqin etib, Maks Reynxard bilan hamkorlik qilishga muvassar bo‘ladi.

1939-yil AQSH da yashab, u yerda o‘zining aktyorlik maktabini tashkil etadi. Ushbu maktab juda taniqli Gollivud “yulduzlari” ni tarbiyalagan maskan bo‘lib, unda Merlin Monro, Klint Istvud, Entoni Kuinn, Yul Brinner, Lloyd Bridjes va boshqa ko‘plab mashhur aktyorlar taxsil olishadi. Maktabni hattoki *“teatr is’tedodlarining ustaxonasi”* deb atashadi [2.].

Mixail Chexov o‘zining hayoti mobaynida katta ustozlar qo‘lida taxsil oladi. O‘z kasbining fidoiysi sifatida sermahsul ijod qilib, teatr pedagogikasida o‘ziga hos burilish yasaydi. U o‘z aktyorlik ta’limotini yaratish maqsadida, olib borgan barcha kuzatish va tajribalarini AQShda chop etilgan kitoblarida bayon etadi. Avvaliga Chexov o‘z ijodiy qarashlarini aktyorlik maxorati bo‘yicha qo‘llanma sifatida nashr etishni rejalashtirgan edi. Lekin ko‘p yillik izlanishlar samarasi o‘laroq, tajriba va kuzatuvlar mukammal aktyorlik sistemasining yaralishiga sababchi bo‘ladi. Chexov ham o‘z ta’limotini K.S.Stanislavskiyning sistemasiga tayanib ishlab chiqadi va bu bilan aktyorlik maxoratining yangi, o‘ziga xos maktabiga asos soladi.

Mixail Chexovning ijodiy orzusi-klassik repertuardan iborat teatrni tashkil etish bo‘lgan. Chexov ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u teatr san’atini rejissyor nuqtai nazaridan emas, balki aktyor sifatida o‘rganadi. Ijodi mobaynida Chexov, teatrning ham qalbi, joni mavjud ekanligini isbotlamoqchi bo‘ladi. “Aktyor texnikasi haqida” asaridagi repetisiya jarayonining ikkinchi usuli ham aynan san’atning qalbiga-atmosferaga bag‘ishlanadi. Teatr san’atida muhitning ya’ni atmosferaning

ahamiyati benihoyat katta. Chunki muhit deb atalmish teatr unsuri, tomoshabinni sahnada bo‘lib o‘tayotgan voqealarga olib kiruvchi, uni asar qaxramonlari bilan yashashini ta‘minlovchi o‘ziga xos vositadir. Mixail Chexov “Aktyorlik texnikasi haqida” asarida aktyorlarni ikki toifaga bo‘ladi. Birinchi toifa aktyorlari uchun “sahna” bu bo‘shliq. Ushbu bo‘shliq faqatgina ma‘lum zaruriyat tug‘ilganida aktyorlar, ishchilar, dekorasiya va butaforiyalar bilan to‘ldiriladi. Bu turdagi aktyorlar sahnani sahnaligicha qabul qiladilar holos. Ammo ikkinchi toifa uchun bunday emas. Bu aktyorlar sahnani o‘zgacha qabul qiladilar. Buning sababi ular uchun bu kichik bo‘shliq-kuchli hamda rom etuvchi muhitga ega butun bir olam hisoblanadi. Ikkinchi toifa aktyorlari ushbu muhitga shu darajada rom bo‘lib qolishadiki, chin ma‘noda uning shinavandalariga aylanadilar. Shu bois bo‘lsa kerak bizning ustoz san‘atkorlarimiz, atoqli teatr aktyorlarimiz repetisiya jarayonlariga, spektakllarga bir-necha soat oldin yetib kelishar edi. Ularning ko‘p vaqti teatrda o‘tar, bu ijod dargohining sahnasi ularni sehrlab qo‘ygandek edi. Buning sababi, ustoz san‘atkorlarimiz sahnada o‘tkazgan umrlari mobaynida, ko‘rinmas teatr atmosferasiga ko‘nikib qoladilar. Ular spektakldan oldin ham, undan keyin ham bu atmosfera bilan yashaydilar. Muhit ularga ilhom va kuch bag‘shida etadi. Garchand tomosha zali bo‘sh bo‘lsa ham, bu atmosferada ular o‘zlarini artistlardek his qiladilar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, muhit aktyorni ham, tomoshabinni ham o‘ziga rom etadi. Umuman olganda insonlar bir-birlarining umr yo‘lini, zamon voqealarini real hayotlarida kuzatishlari, o‘tmish hamda tarix hodisalarini esa adabiyotlardan o‘qib o‘rganishlari mumkin albatta. Lekin tomoshabin M. Chexov tabiri bilan aytganda, teatrga mana shu sehrlil atmosferadan lazzatlanish uchun boradi. Chexov atmosferaning umumiy tushunchasi va aktyorlarning hayotida uning o‘rni haqida fikr yuritadi. Bu yerdan ma‘lum bo‘ladi-ki, Chexov “Aktyor texnikasi haqida” kitobida ushbu teatr unsuriga juda katta ahamiyat berishga da‘vat etadi. Kichik bir bo‘shliqning, butun bir dunyo ekanligini isbotlaydi [3.].

Teatr san‘atining boshqa san‘at turlaridan farqi shundaki, bu san‘at doimo tomoshabin bilan jonli muloqotda bo‘ladi. Muhitni seza oladigan va uning to‘lqinlari ostida harakatlanayotgan aktyor, bu jarayonning aktyor hamda tomoshabin

o'rtasidagi muloqot vositasi ekanligini biladi. K.S.Stanislavskiy terminalogiyasida "muloqot-aktyor sahnadoshi yoki sahnadoshlari bilan o'zaro amalga oshiradigan hatti-harakatning hosili" deya ta'rif beriladi. Ammo Chexov muloqotning atmosferaviy shakli mavjud ekanligini hamda muhitda tomoshabinni o'zi ham, aktyor bilan ijrochiga aylanishini ta'riflab o'tadi. Sababi tomoshabin rampa orqali aktyorga o'z tuyg'ularini jo'natadi. O'z navbatida tomoshabin ham, bu jarayonda sahnadan kelayotgan muhitsuiz qatnasha olmas edi. Aktyor maxorati va texnikasi qay darajada mukammal bo'lishidan qat'iy nazar, muhit bo'lishi shart. Spektakl o'z navbatida aktyor va tomoshabin muloqoti asosida dunyoga keladi. Agar rejissyor, aktyor, rassom, dramaturg, bastakor spektaklning muhitini yarat olsa, tomoshabin albatta bu jarayon ishtirokchisiga aylanadi.

"Atmosferaning qadriga yetadigan *maxoratli aktyor*, uni har joyda qadirlaydi va his qiladi" – deydi M. Chexov. Biz ham kuzatishlarimiz va amaliy izlanishlarimiz mobaynida atmosferani his qilishga, uni qanday va qay holatlarda yuzaga kelayotganini payqay olishimiz lozim. *Hayotimiz to'la atmosferalardir*. Biroq teatrlardagi ba'zi-bir rejissyor va aktyorlar uning mohiyatiga ahamiyat bermaydilar. Bizning vazifamiz, ushbu unurning imkoniyatlaridan boricha foydalanishdir. Chunki zamonaviy teatr san'atida bu elemensiz biron-bir spektaklni ta'savvur qilib bo'lmaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, kundalik hayotimizning o'zida ham turfa muhitlarning guvohi bo'lishimiz mumkin ekan. Ammo shu o'rinda savol tug'iladi. Bir vaqtning o'zida ya'ni ikki holatda ikki atmosfera bo'lishi mumkin-mi? Agarda ikki muhit holatini oladigan bo'lsak, atmosferalar kurashi doimo bir atmosferaning g'alabasi bilan yakunlanadi. (Atmosferaning bir-birini siqib chiqarishi) Mana shu g'olib deb sanalgan muhit, sahnadagi badiiy ifodaviylikni taminlab beradi. Atmosfera unsurini chuqur o'rganib borar ekanmiz, uning imkoniyatlari va sahnada tutgan o'rnini benihoyat katta ekanligini anglay boshlaymiz. Shunday holatlar bo'ladiki, pessada muhit umuman bo'lmaydi yoki asar atmosferasi juda sust berilgan bo'ladi. Bunday holatlarda rejissyor hamda aktyorlar pessaning atmosferasini mustaqil yaratishlari yoki muallif tomonidan kam ifoda etilgan atmosferani

boyitishlari shart! Bu o'z navbatida rejissyor uchun yangi vazifani yuklaydi. U muhitni to'g'ri ifoda etish uchun pessani mukammal ravishda o'rganib chiqishi, berilgan shart-sharoitda uning holatini aniqlab olishi lozim. Chunki *noto'g'ri atmosfera* sahnada ro'y berayotgan asar mazmunini buzadi. Bu holat atmosferani noto'g'ri ifoda etish, uning asardagi ko'rinishini aniq bilmaslik natijasida yuzaga keladi.

M. Chexov atmosfera ya'ni muhit atamasiga va uning holatlariga ta'rif berib o'tar ekan, uning nafaqat sahnada, balki aktyorning o'zida ham katta rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi. Chunki aktyorning sahnadagi *individual tuyg'ulari* va uni o'rab turgan *atmosferada* farq mavjud. Garchand bu ikki holat tuyg'ular majmuasiga kirsam ham, ular bir-biridan farq qiladi. Shaxsiy tuyg'ular – *subektiv*, atmosfera esa *obektiv* holatdir. Bu borada Chexov o'z kitobida ko'plab misollar keltiradi. Bu misollar bilan u o'quvchiga individual tuyg'u hamda umum-muhit orasidagi farqni yanada osonroq ochib berishga intiladi. Subektiv tuyg'ular haqida M.Chexov shunday deydi:

“Insondagi subektiv tuyg'ular va undan tashqari bo'lgan obektiv atmosfera bir-biriga nisbatan shu darajada mustaqil-ki, inson begona atmosferada bo'lib, o'zida shaxsiy tuyg'ularni saqlab qolish imkoniyatiga egadir”

Muhit *obektiv tuyg'ular* majmuasiga mansub bo'lsa-da, uning san'atdagi ahamiyati va maqsadi benihoyat katta. Atmosferani ya'ni muhitni qabul qiluvchi va uni qadirluvchi aktyorlar, spektaklni eng asosiy ifoda vositasi – *atmosfera* ekanligini bilishadi. Aktyorning sahnadan turib aytayotgan gaplari, uning harakatlari, atmosfera kabi *ifodaviy* hamda *ta'sirchan* bo'la olmaydi. Spektakl mazmunini nafaqat tushunish, balki uni his qilish ham lozim. Demak, pessaning *mazmuni* ham, uning muhiti – *atmosferasi* bilan chambarchas bog'liq ekan.

Aslini olganda, atmosfera bu holat emas. Atmosfera bu *harakat-jarayondir!* Agar aktyorda istak bo'lsa u har qanday atmosferani his qila oladi, atmosfera uning irodasi bilan bog'lanib, aktyorni harakatga undaydi, tasavvurni uyg'otib, tuyg'ularni junbushga keltira oladi. Atmosfera botiniy jihatdan harakatlanadi va yashaydi. “Atmosferaning – *erki* ham mavjud. U sizning erkingizni ijroga chorlaydi” - deb

yozadi Chexov“ atmosferaning ichki dinamikasi “ qismida. Demak, o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, Chexov endi atmosferani nafaqat ifoda vositasi, balki aktyor psixotexnikasining mukammal unsuri sifatida taxlil qiladi. Bu o‘z navbatida, teatr san‘atining har bir unsuri qay darajada serqirra va ijodimizda muhim o‘rin egallaganligidan dalolat beradi. Misol uchun, K.Stanislavskiy ta‘limotida sahnaviy muhit atamasiga quyidagicha ta‘rif berib o‘tiladi: “Sahnaviy muhit bu – hatti-xarakat sodir bo‘layotgan makondagi kayfiyat, joy va vaqtni his qilish”

Biroq Chexov ta‘limotida bu teatr unsuriga yanada mukammalroq hamda kengroq ahamiyat beriladi. Atmosferaning nafaqat holat, balki jarayon, ifoda vositasi hamda tomoshabin bilan bog‘lovchi vosita ekanligi isbotlab beriladi. Demak, har bir teatr unsurini barcha aktyorlik maktablaridagi mohiyatini o‘rganish va taxlil qilish nafaqat rejissyorlarning, balki aktyorlarning oldida turgan ustuvor vazifalardan biri ekan. “Chexov bizga doim bir gapni takror va takror aytar edi: Sen atrofingdagi ijodiy muhitga, insonlarga qay darajada ko‘p kuch bag‘shida etsang, bu kuchlaring albatta senda ikki baravar ortib tiklanadi” – deydi Mixail Chexovning shogirdlaridan biri Xerd Xetfild.

San‘at tushunchasi tuyg‘ular bilan uyg‘unlikda dunyoga keladi. Shu bois biz atmosferani san‘atning *yuragi* deb atadik. Atmosferasiz spektakl, bu *mexanizasiyaga* uchragan asar bo‘lib qoladi. Tomoshabin u haqda fikr yuritadi, uni texnik yutuqlariga baho beradi. Ammo tomoshabin spektaklga nisbatan sovuq munosabatda bo‘lib qolaveradi. Chunki bunday holatda spektakl “*qalbsiz*” bo‘lib, tomoshabinni junbushga keltirmaydi.

Demak, *aktyorning buyuk vazifasi*: teatr qalbini saqlab qolish va bu bilan teatrni mexanizasiyadan qutqarib qolishdir!

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Knebel M.O. O nekotorix voprosax metodologii Vl.Nemirovicha-Danchenko. -M.: Iskustvo, 1954.
2. Kristi G. Rabota Stanislavskogo v opernom teatre. -M.: Iskustvo, 1969
3. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. “Aktyorlik mahorati”. T.: Fan va texnologiy. T.: 2012

SAHNA NUTQIDA TALABA – AKTYORLARNING TANA MUSHAKLARINI BO'SHATUVCHI MASHQLARNING O'RNI

Annotatsiya. Aktyor tanasining erkinligi va egiluvchanligi sahna asarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Sahna nutqi ham bundan mustasno emas. Maqolada ta'sirchan nutq va jonli ijroga erishishda tana mushaklarining sog'lomligi va egiluvchanligi yuzasidan amaliy ko'rsatmalar va mashg'ulotlar keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Sahna nutqi, teatr, aktyor, nutq a'zolari, tana mushaklari, umurtqa, trening, rezonator, registr, ovoz, nutq, artikulyasiya, nafas, so'z.

Аннотация: Свобода и гибкость тела актера обеспечивает успех спектаклей. Сценическая речь не является исключением. В статье приведены практические упражнения на гибкость мышц тела для достижения эффективной речи во время выступлений.

Ключевые слова. Сценическая речь, театр, актер, органы речи, мышцы тела, позвоночник, тренинг, резонатор, регистр, голос, речь, артикуляция, дыхание, речь.

Annotation: The freedom and flexibility of the actor's body ensures the success of the play. Stage speech is no exception. The article provides practical instructions and exercises on the health and flexibility of the body's muscles to achieve effective speech and live performance.

Keywords. Stage speech, theater, actor, organs of speech, body muscles, spine, training, resonator, register, voice, speech, articulation, breath, speech.

Teatr nazariyotchisi, mohir pedagog K.S.Stanislavskiy bo'lg'usi teatr aktyorlarini tarbiyalash har qanday ijodiy siqqlikdan xoli bo'lish kerakligini uqtiradi. Va, agar aktyor sahnada siqiq va trening qilmagan holda chiqsa va rol ijro etsa, bu avvalo ijodkorning o'ziga va eng asosiysi asarga va tomoshabinga hurmatsizlik qilgan bo'ladi. “Siz ijodiy prosessda muskullarning tortishi va gavda siqqligining qanchalik zarar keltirishini ko'z oldingizga keltirolmaysiz. Bular ovoz organida paydo bo'lganida ajoyib ovozga ega bo'lgan kishilar ham xirillay boshlaydilar, bo'g'iladilar yoki gapirish qobiliyatini yo'qotishgacha borib yetadilar. Siqqlik oyoqlarda paydo bo'lsa, aktyor shol bo'lgan odamga o'xshab qoladi; agar qo'llarda bo'lsa, ular qotib taxtakachga aylanadi va shlagbaum singari ko'tarilib tushaveradi. Bunday siqqliklar va ulardan kelib chiqadigan butun oqibat umurtqada,

bo'yinda va yelkada ham bo'ladi. Ular har safar artistni o'ziga xos tarzda mayib qiladi va o'ynashga xalaqit beradi" [1. B-145].

"Sahna nutqi" dars mashg'ulotlarini boshlashdan oldin albatta, tana mushaklarini bo'shatuvchi va erkinligini ta'minlovchi amaliy mashqlar olib borish zarur. Tananing erkin va faol harakati nutq a'zolari va tovushlar talaffuzi hamda aktyorlik mahorati omillarining ishonarli chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tana uyg'onmagan, mushaklar faoliyati sust, ovoz yo'llari ochilmagan, talaffuz a'zolari qotib yotgan, ichki diqqat va fikrlash xususiyatlari meyor darajada faoliyat olib bormas ekan, ijrochi tabiatida so'lg'in, o'lik ruhiyatni kuzatish mumkin. Aktyor o'z ustida tinim bilmay ishlaydigan sportchiga qiyos qilinadi, agar sport ustasi har kun ertalab va kun davomida tanasini chiniqtiruvchi trening mashg'ulotlarni olib bormas ekan, u muvaffaqiyatsizlik tomon qadam qo'ygan bo'ladi, shu bois mashqlar bilan shug'ullanishni kanda qilmaslik kerak. San'at oliygohida tahsil olayotgan talaba ham har bir dars oldidan trening mashg'ulotlarini olib boradi, negaki oliygohdagi darslarning deyarli 90 %i amaliy darslardir. Aktyorlik mahorati, raqs, plastika, sahna harakati va shu kabi boshqa fanlar ham tana mushaklarini bo'shatuvchi mashqlar bilan dars jarayonlarini boshlaydi.

"Sahna nutqi" dars mashg'ulotlari ham dastlab, tana mushaklari va nutq a'zolarining erkinligini ta'minlovchi texnik mashqlarni bajarish orqali talaba organikasini uyg'otishdan boshlanadi.

Umumiy amaliy mashqlar quyidagilardan iborat:

- Sahnada aylana bo'ylab, yengil harakatlar bilan yugurish;
- Aylananing ichkari va tashqarisiga qarab, yon tomon bilan yugurish;
- Orqa tomon bilan aylana bo'ylab yugurish;
- Tizzalarga cho'kkalagan holda gavda tik va qo'llar boshni orqasiga qo'yilgan holda aylana bo'ylab yurish;
- "Dumalash", "o'nbaloq otish";
- Aylana hosil qilib sakrash (kolso otish);

Bu umumiy mashqlar bajarilgandan so'ng, yengil nafas olib chiqariladi. Tanadagi siqqlik, qon aylanishini meyorlashtirish, bosh aylanish va ko'z oldi

qorong'ulashishi kabi holatlarni bartaraf etish uchun chuqur nafas olib qo'llar yuqoriga ko'tariladi va nafas chiqarish bilan qo'llar bo'shashgan holda tushiriladi. Bu mashqni bir necha marotaba takrorlash, tanada charchoq va siqqlikni yo'qotishda yordam beradi. Shu o'rinda diafragma qo'llarni qo'ygan holda chuqur nafas olinadi va dastlab 5 sanog'iga, keyin 7 sanog'iga nafas "pf" tovushi bilan tezkor chiqarib yuboriladi. Bu mashqni 3 marotaba takrorlab olinsa, nafas yo'llari ham kengayib, ish holatiga tayyor bo'ladi. Keyingi nafas mashqida 5 sanog'iga qisqa, lekin tez-tez nafas olinadi va nafas chiqarish esa 5 sanog'iga cho'ziq chiqariladi. Shu mashqni 7 sanog'iga qo'yib, takrorlab olish tavsiya qilinadi. Negaki, yuqoridagi tana mushaklarini bo'shatuvchi mashqlar muskullarga yordam bersa, nafas mashqlari yordamida ichki nutq organlarini ish holatiga sozlagan bo'lamiz.

Tana mushaklarini bo'shatuvchi texnik mashqlarni talabalar sahnada shaxmat tarzida turgan holda davom ettiradi, bunda oyoqlar yelka kengligida ochilgan, gavda tik va erkin, qo'llar belda turgan holda mashqlar har bir tana bo'laklari uchun alohida olib boriladi. Jumladan, bosh va bo'yin qismi o'ngdan chapga tomon aylana harakat qiladi, shu harakat chap tomon bilan ham davom etadi. Bu mashqlar sanoqlarga taqsimlanishi mumkin va ko'zlar yumulmagan tarzda olib borilishi zarur. Boshning oldinga va orqaga harakati, yelkalarni yuqoriga tortish va tushirish, yelkalarni galma-gal tarzda yuqoriga va pastga harakatlantirish mashqlarini doimiy takrorlab borish lozim. Ayrim talabalar "ustoz, ertalab uzoq yo'l yurib, harakatlanib keldim, darsgacha tanam uyg'onib bo'lgan" deb dangasilik qiladi, yurish, o'tirib-turish bilan ijodkorning tanasi va nutq organlari hali uyg'oq va ijroga to'liq tayyor degani emas. Har doim maxsus mashqlarni takrorlab olish bilangina ishga tayyor bo'lish mumkinligi tushuntiriladi. Shunday maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan treninglardan yana biri bu umurtqa pog'onasi uchun tavsiya qilinadigan mashqlardir.

Umurtqa pog'onasi inson tanasini mustahkam ushlab turuvchi tayanch qism hisoblanadi va bu qism uchun alohida mashqlar tavsiya qilinadi:

- Tananing bel qismini o'ng va chap yon tomonga yengil aylana bo'ylab harakat qilishi;

- O‘ng va chap yon tomonlarga egilish;
- Qo‘llarni birlashtirib, oldinga, orqaga egilish va tanani cho‘zish;
- Tana egilgan holda qo‘llarni oyoq uchlariga tekkizish;
- Tizzalarni ushlagan holda aylana bo‘ylab harakat qilish va hokazo.

Bu mashqlarni har doim oddiydan murakkabga tomon davom ettirish lozim, birdaniga murakkab mashqlarni amalga oshirish tananing zo‘riqishi, ayrim holda shikastlanishiga olib keladi. Mashqlarga ko‘nikma hosil bo‘lganidan so‘ng, tanani chiniqtiruvchi murakkab harakatlardan iborat mashqlar bilan shug‘ullanish va boyitish mumkin.

Dars mashg‘ulotlarini boshlashda, nafaqat tana mushaklarini bo‘shatuvchi, balki nutq a‘zolari faoliyatini uyg‘otuvchi artikulyasiya, rezanator va talaffuz uchun trening mashqlarni ham takrorlab olish tavsiya etiladi. Bu jarayonlar kompleks mashg‘ulot bo‘lib, har doim bir-birini to‘ldiruvchi amaliy mashqlar hisoblanadi.

Tana mushaklari erkinlashgach va qizib olgach, talabalar murakkab mashqlarni maqsadli ravishda bajara oladi. Shulardan biri umurtqa pog‘onasini qizdirib olish mashqidir. Qolaversa, bu mashq ovoz mashqlari ustida ishlashda amaliy yordam beradi. Talabalar sahna bo‘ylab shaxmat tarzida joylashadi, oyoqlar juft holatda, qo‘llar ikki yonga ochilgan holda tarang tortiladi. Shu holatda 30 sanog‘igacha turiladi, sanoq tugagandan keyin butun gavdani yengil silkitgan holda tananing erkinligini ta‘minlash lozim, aks holda qo‘l mushaklariga bosim tushib, mushaklarning qotib qolishi kuzatiladi. Shu bois albatta, butun tanani yengil silkitib, tinchlantirib olish zarur. Gavdani yengil silkitish jarayonida bosh va jag‘ni ham yengil tebratib olinsa, jag‘ning ham erkinligi ta‘minlanadi. Chunki artikulyasiyaning¹ erkinligi tovushlar talaffuzi, ovoz sofligi va ravonligiga xizmat qiladi. Shu o‘rinda nutq va ovoz sofligiga erishish uchun til, lab va jag‘ mashqlarini ham albatta mustahkamlab olish tavsiya qilinadi. Artikulyasiya mashqlari bajarib

¹ Artikulyatsiya – [lot. articulatio < articulare – aniq talaffuz qilmoq] Nutq a‘zolarining (lab, til va sh.k. ning) tovush hosil qilishdagi harakat-faoliyati va holati. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. A.Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008). “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. B-101.

bo‘lingach quyidagi murakkab birikmali so‘zlar orqali talaffuzni charxlab olish maqsadga muvofiqdir.

vififli – fivivli
vefefle – fevevle
vafafla – favavla
vofoflo – fovovlo
vo‘fo‘flo‘ – fo‘vo‘vlo‘
vufuflu – fuvuvlu

vdifli – ftivli
vdefle – ftevle
vdafla – ftavla
vdoflo – ftovlo
vdo‘flo‘ – fto‘vlo‘
vduflu – ftuvlu

tuf – puf – suf – buf fuflama
uv – suv – g’uv – guv guvlama
tof – pof – sof – bof boflama
ov – sov – g’ov – gov govlama...

Albatta bu mashqlarni doimiy takrorlab o‘zlashtirib borish ijodkorning sog‘lom nutqqa ega bo‘lishida muhim omildir.

Tana mushaklarini sog‘lomlashtiruvchi mashqlar talabalarning to‘g‘ri talaffuziga balki, ovoz yo‘llarining ochilishiga ham yordam beradi. Sahnaviy ovozni shakllantirishda va uning kengligini ta‘minlashda qo‘l keladigan umurtqa pog‘onasini qizdirib oladigan mashqlardan yana biri bu arqon mashqidir. Bunda oyoqlar juft birlashadi, qo‘llar bir-biriga chambarchas birlashtirilgan holda yuqoriga tortiladi, 30 sanog‘igacha umurtqani yuqoriga cho‘zgan holda turiladi va sanoq tugagach, yana

tanani erkin silkitgan holda tinchlanib olinadi. Bu mashqlar nafaqat umrtqa pag'onasi balki, butun tana mushaklarining uyg'onishi va qizib olishiga yordam beradi. Bu mashqdan so'ng ovoz yo'llarini ochish uchun bir qancha mashqlar tavsiya qilinadi. Ular rezanator² mashqlaridir. Lablar yumulgan, yuqori va pastki tanglay katta ochilgan (og'izga xuddi kartoshka solib qo'yilgandek) holatda "hmmm..." tovushi uzilmasdan chiqariladi, tovush o'rta registrda³ bo'lib yuzga (maska) yo'naltiriladi. Burunning chap tomonini yopgan holda nafas olib, barmoqlar yordamida burunning o'ng tomoniga yengil uriladi. Xuddi shu harakatni o'ng tomon bilan takrorlab olamiz. Keyin nafas olib, burun yo'laklariga yengil uriladi va "hmmm..." tovushi uzilmasligi nazoratga olinadi. Bu mashq burun yo'llarini ochish va miyang'i tovushlarni tozalashda yordam beradi. Mashqni davom etgan holda peshona, yanoq, yuqori va pastki jag'larga barmoqlarning uchini yengil tebratgan holda urib, ovozni kengayishini ta'minlashga harakat qilinadi. "Hmmm..." tovushining yuzga (maska) yo'naltirishini ham kuzatib borish lozim. Ovoz kengligini topish va yo'naltirishni murakkablashtirgan holda ovozni pastki (ko'krak) registri tomon yo'naltiradi, qo'l barmoqlari zarbasi ham ortib boradi, bunda ovozning pastga tushishi va kengayishini ta'minlashda ko'krak qafasi va orqa yelka ko'raklariga bir maromda yengil urib turiladi.

Galdagi mashq oldingi mashqning davomi hisoblanadi. Bunda oyoqlar juft holatda birlashgan bo'ladi, gavda bukilgan, qo'llar esa oldinga cho'zilgan holatda turiladi. Shu holatda 20 sanog'iga qadar gavda ushlab turamiz. Sanoq tugagach tana erkin silkitib yuboriladi. Tana mushaklarini bo'shatish uchun tavsiya qilinayotgan bu mashqlar nafasga qo'yilmaydi. Nafas erkin va tabiiy bo'lishi lozim. Diqqat muskullar tortilishi va qizib olishiga yo'naltiriladi. Mushaklar uchun tavsiya qilingan treninglardan so'ng nafas mashqlari alohida bajarilsa, talaba mustahkam texnikaga ega bo'ladi.

² Резонатор – [лот. resonare – акс-садо бермоқ] тех. Резонанс ҳодисаси туфайли содир бўладиган тебранма тизим (жисм). *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008). "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Б-372.

³ Овоз баландлиги ва куч даражасининг маълум бир меъёрдаги чекланувига регистр дейилади. Инсон овоз манбаи, ҳажми, ўрни ва даражасига кўра, уч асосий регистрга бўлинади: 1. Пастки (кўкрак) регистри. 2. Ўрта (юз) регистри. 3. Юқори (бош) регистри. Иномхўжаев С. Бадий ўқиш асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1973. Б-11.

Bu mashqlardan so‘ng ovoz mashqlaridan ayrimlarini kiritib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, tana yerga tomon egilgan holatda bo‘ladi, butun tana siqqlikdan holi bo‘lgan holda “**ba... ba...**” deb talaffuz qilinadi, so‘ng gavdani tik ko‘targan holda “**ba-ba**” deb ovoz yo‘naltiriladi. Bu mashq 3 marta takrorlab olinsa, tana va ovoz yo‘llarining erkinligi holatida sahnaviy ovoz shakllantirishni o‘rganishi mumkin bo‘ladi.

Mashqdan-mashqlarga o‘tish jarayoni murakkablashib boraveradi, bu esa aktyorni chiniqishida asosiy omildir. Murakkab tana mushaklari mashqini umutrqa pog‘onasi uchun beriladigan mashq bilan davom ettiramiz. Bu mashq nafaqat tanani balki, ovoz va nafas hamda butun bir ijroni ta‘minlashda qo‘l keladi. Bunda oyoqlar yelka kengligida ochilgan va talabalar shaxmat tariqasida joylashgan bo‘ladi, negaki shaxmat tariqasida joylashganda talabalar bir-birlariga halaqit bermaydi va har biri yaqqol ko‘rinib turadi. Dastlab oyoqlar biroz bukilgan, qo‘llar shfitga qadar ko‘tariladi, xuddi og‘ir narsani ko‘tarib turgandek 30 sanog‘iga qadar turiladi. Sanoq tugagandan keyin butun gavdani yengil silkitgan holda tananing erkinligini ta‘minlash lozim, aks holda umurtqa pog‘anasiga bosim tushib, mushaklarning qotib qolishi kuzatiladi. Shu bois albatta, butun tanani yengil silkitib, tinchlantirib olish zarur. Bu mashq biroz murakkab bo‘lganligi bois, kompleks nutq mashqi bilan xotirjamlikka erishish mumkin. Bunda Uyg‘unning “O‘zbekiston” she‘ridan ikki misrani mashq sifatida tanlab olib ishlanadi.

Ey| mu|qad|das| gul| di|yo|rim|, gul|sha|nim|, jo|nim| me|ning|, 15 (8+7)

Men| se|ning| bag‘|ring|da| o‘s|dim|, yo‘q|dir| ar|mo|nim| me|ning|. 15 (8+7)

Bu she‘riy matnni nima uchun tanladik, chunki she‘r bo‘g‘inlari ko‘p, unli tovushlari va burun hamda sonor tovushlarga boy hisoblandi. Bu she‘riy matnni chuqur nafas olib, shu nafas kengligida har bir bo‘g‘in cho‘ziq talaffuz qilinadi. Ijrochi ovozini pastki (ko‘krak) registriga yo‘naltirgan holda har bir misraga nafasini yetkazib ishlaydi. Bu mashqlar ijrochini har tomonlama ham jismonan, ham ruhan

tarbiyalaydi. Qolaversa, sahnada erkin plastikaga va sahnaviy ovozga ega bo'lgan aktyor shakllanganligini namoyan bo'ladi.

Talabalarning bu kabi treninglar bilan o'z vaqtida muntazam shug'ullanishi sahnada sog'lom fikrlaydigan, mustahkam texnik imkoniyatlarga ega, mahorat sirlarini chuqur o'zlashtirgan aktyorning tug'ilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Stanislavskiy K.S: Aktyorning o'z ustida ishlashi. T. Xo'jayev tarj. - T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.*
2. *O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008). "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".*
3. *Inomxo'jayev S. Badiiy o'qish asoslari. – T.: O'qituvchi, 1973.*

Umidaxon Boltaboyeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining

Farg'ona mintaqaviy filiali "Sahna nutqi va

san'atshunoslik" kafedrasi professor v.b.

Talaffuz me'yoriga erishishda o'zbek xalq ijodi namunalaridan foydalanish uslublari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aktyor so'zini tomoshabinga jozibali etkazib berishda hamda talaffuz me'yoriga erishishda o'zbek xalq ijodi namunalaridan foydalanish uslublari haqida hikoya qilinadi.*

Kalit so'zlar: *maqol, matal, topishmoq, tez aytishlar, so'z durdonalari, folklor.*

Аннотасууа: *В данной статье рассматриваются методы использования примеров узбекского народного творчества для привлекательного донесения до зрителя слов актера и достижения стандарта произношений.*

Ключевые слова: *поговорка, загадка, скороговорки, шедевры, слова, фольклор.*

Abstract: *This article discusses methods of using examples of Uzbek folklore to convey the actor's words to the audience in an attractive way and achieve a pronunciation standard.*

Keywords: *proverb, proverb, riddle, tongue twisters, masterpieces of the word, folklore.*

Talaffuz me'yoriga erishishda, aktyor so'zini tomoshabinga jozibali etkazib berishda o'zbek xalq ijodi namunalaridan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Shu sababdan dastlabki bosqichlardan oq, talabalarni talaffuzlarini charxlash maqsadida o'zbek xalq ijodi namunalaridan, ya'ni tez aytishlar, topishmoqlar, maqollar, matallar, tez aytishlar mashqlarini bajartirish eng yaxshi vositadir. Tez aytishlarsiz, maqollarsiz, matallarsiz, ya'ni o'zbek xalq og'zaki ijodisiz sahna nutqi fanini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki aktyor so'zini tomoshabinga jozibali etkazib bera olishi, so'z mantiqiga e'tibor berishi - bu ushbu mashqlarini puxta egallaganligidan dalolat beradi.

Aytish joizki, folklor san'ati qadim zamonlardan xali hanuz halq qalbining oynasi bo'lib kelmoqda. Shunday ekan, xalqimizning asrlar mobaynida qalbimizning to'rida saqlanib kelgan ijod namunalari, badiiy so'z durdonalari ma'naviyatimizni boyitish uchun xizmat qilmoqda. Binobarin, folklor asarlarining

xalqona mohiyatini inkor etish ma'naviyatimizdan mahrum bo'lish bilan barobardir. Shu o'rinda biz matallar va maqollarni kelib chiqish tarixiga ham nazar tashlab o'tamiz.

Matal xalq maqoli bilan ba'zi o'xshashliklarga ega bo'lsada o'ziga xos jihatlari bilan farqlanib turadi. Maqollar nutqda yaxlit xukm sifatida qo'llanilsa, matallar hukmning qismi, funksiyasini bajaradi. Maqollarning tematik doirasi keng bo'lsa, matallar aniq, bh mavzuga va qat'iy funksional qo'llanilishga egadir. Xalq maqollari aniq shakliy tuzulishga ega, matallarda esa shakliy qat'iylik mavjud emas. Maqollar ba'zida ko'chma, ba'zida esa o'z ma'nosida qo'llaniladi, matallar doimo ko'chma ma'nolarda keladi.

Matallarning paydo bo'lishi, nutqda turg'un obrazli iboralarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Matallar so'zning ko'p ma'noliligiga tayanganligi uchun nutqiy frazeologik iboralarga qarama qarshi xolda ifodadagi o'xshatish va qiyoslashlarni kuchaytiradi. Shuning uchun ularda qiyoslanuvchi elementlarning tafovuti yaxshi saqlanadi. Masalan: "Bor tovog'im, kel tovogim...", "Tomdan tarasha tushganday", "Qil uchida turibman", "Semizlikni qoy ko'taradi", "Tuyaga yantoq kerak bo'lsa boynini cho'zadi", "Bekorga mushuk oftobga chiqmaydi" kabi matallar xalq orasida son-sanoqsiz.

Maqollar o'zi qisqa, chuqur ma'noli, nutqda keng qo'llaniluvchi barqaror shaklga ega bo'lib, folklor janrlaridan biridir. Ular xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari asosida paydo bo'lgan. Maqollarda hayotiy voqelikning mohiyati, ibratli fikrlar ixcham, aniq ifodalanganligi uchun bu xususiyat ularning poetik tuzulishida yaqqol aks etadi. Maqollar shaklan ikki xil bo'ladi: a) nasriy maqollar b) she'riy maqollar. Endi biz maqollarni sahnaviy nutqimizni takomillashuvida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritamiz. Guruhlarda talabalar bilan maqollarni ishlaganda mazmun jihatidan bir-birini to'ldiradigan maqollar tanlab olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu talabaga birinchi navbatda urg'uni to'g'ri qoygan holda fikrni yetkazishga hamda ikkinchi navbatda talaffuzni to'g'rilashga va uchinchi navbatda so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, sahna nutqi fanida so'zlarning tub ma'nosini ochishda maqol va matallar ustida ishlashning

ahamiyati juda kattadir. Unli tovushlarni ham o'ziga xos tartibda o'rgatilishining sababi ham ana shunda. Masalan, i-e-a-o-o'-u tovushlari bilan boshlanadigan maqollarni ko'rib chiqaylik:

I

Ilm ko'p-u, umr oz, keragini ol-u, toshga yoz.
Ikki quyonna quvlagan - birini ham tutolmas.
Ignachining ming urgani - temirchining bir urgani.

E

Eldan oshma, eldan qolishma.
Elga qo'shilsang er bo'lasan, eldan ajralsang yer bo'lasan.
Egilgan boshni qilich kesmas.

A

Arpa ekkan arpa olar, bug'doy ekkan bug'doy olar.
Ayiq bilagiga ishonadi, odam - yuragiga.
Arining zahrini sezmagan - bolning qadrini bilmas.

O

Og'a-ning totuv bo'lsa - ot ko'p,
Opa-singling totuv bo'lsa - osh ko'p.
Oshgan bo'lsang - osarlar,
Yumshoq bo'lsang - bosarlar,
O'rta bo'lsang - yasarlar.
Odam bo'lish oson, odamiy bo'lish qiyin.

O'

O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma.
O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil.
O'qigan o'qdan oshar, o'qimagan turtkidan shoshar.

U

Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.
Uch pulim - kuch pulim, bir faqir - jonim faqir.
Urug' tashlasang - namga tashla, namga tashlamasang - toqqa tashla.

Bundan tashqari talabalarni nutq va tafakkurni uyg'unligini ta'minlashda, ya'ni ularni sahnada tez fikrlashga o'rganishda alfavit boyicha tuzib chiqilgan maqol va matallarni to'plab, ularni yodlatish juda samara beradi.

Tez aytishlardan foydalanish ham nutq mustahkamlanishiga yordam beradi. Tez aytish mashqlarini bajarishdan maqsad nutqdagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etishdir. Talabalardagi nutqiy kamchiliklar, ya'ni ulardagi tuzatish mumkin bo'lgan kamchiliklar ustida ishlashda tez aytishlardan unumli foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, til semizroq bo'lgani uchun nutq o'ta qo'pol chiqishi, lablarning yaxshi ishlamaganidan so'zlarning aniq eshitilmasligi jag' sust ishlaganidan tish orasidan gapirish, talaffuz meyorlariga talabaniing beyetiborligi tufayli shevalarga berilib gapirish bular tuzatish mumkin bo'lgan kamchiliklardir. Tez aytishlar og'zaki nutq mashqi bo'lib, tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalarini orttiradi. Ushbu janrga mansub asarlar tilni burro bo'lishi bilan birga talabalarga estetik zavq beradi havmda fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Tez aytishlar ustida ishlash bo'lajak aktyor va rejissorlar, jamiki so'z san'atiga aloqador kishilarga nutq a'zolarining chaqqon va aniq, tovushlarni toza talaffuz qilishdan tortib, fikrlashga, ritmni yo'qotmaslik, urg'uni to'g'ri ishlata bilish, aktyorlik mahoratini boshlang'ich barcha elementlaridan tortib ovoz, nafas, xotira, munosabat kabilar his-tuyg'ularni qo'zg'atish, tasavvurni boyitish, nutqiy xarakter yaratishda juda muhimdir. Shu bois, tez aytishlar nutq san'ati, xususan so'z san'atining taqomillashuvida zarur ijodiy manbaa hisoblanadi.

Tez aytishlar ustida ishlaganda bir necha usullardan foydalansa bo'ladi. Masalan, talaba avval tez aytishdagi so'zlarni aniq aytib, mantiqiylikka va asosiy fikrga urg'u beradi, keyin tez aytishni yodlab oladi. Keyin maqsadni aniqlab ishlab ketaveradi. Ba'zi talabalar maqsadni aniqlashda chalg'ib ketadi. Urg'uni belgilab ola olmaydi. Shunda unga koptokcha bilan ishlash qo'l keladi. Koptokchani birinchi talaba o'zining qarshisidagi partnyoriga mantiqiy urg'u tushadigan so'z yoki jummalarni aytib uloqtiradi. Koptokchani tutib olgan partnyor boshqasiga yoki oldingi sherigiga yana urg'ularni almashtirib, mantiqiy urg'uga kelganda

koptokchani unga uloqtiradi. Albatta tez aytishlar bilan tovushlar talaffuzini o'zlashtirish paytida jufti bor tovushlarni birgalikda keltirib, o'z xarakteri bilan ajraluvchi guruhlar alohida - alohida mashq qilinadi. Misol keltiradigan bo'lsak, tez aytishlarni mashq qilganda quyidagi undoshlar juftiga keltirilgan misollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. Boqi Baxtiyorga bodomni bittalab berdimi?

Baxtiyor Boqiga bodamni qoplab berdimi?

2. Besh bekatda beshta bekat bormi?

Besh ko'prikda beshta ko'prik bormi?

3. Boqi boqqa, Parpi toqqa boqdi.

4. Palov olovda pishdimi, olovda palov pishdimi?

5. Ko'k o'rik ko'prikdan o'tgach ko'rindi.

6. Ko'k rang, kul rang, ikkalasi ko'p rang.

7. Ko'm - ko'k, ko'rkam ko'klam rasmini O'ktam ko'p ko'k qalamda chizmoqchi.\

8. Gulsevar, Gulsara gul saralab, gulsafsar gulidan guldasta dastaladi.

9. Gulnoz qog'ozdan g'oz yasadi,

G'ozi qog'ozdan xo'roz yasadi.

10. Gulnora kunoragulzor oraladi, Gulsanam gulzorida gul saraladi.

11. Tursunda to'rtta to'r qop,

Unsunda bita qo'lqop.

12. Tojining tojdor xo'rozi gultojixo'roz tagida.

13. To'ti tutgan to'rtta to'ti to'rda turibdi.

14. Salimjon bilan Sanamjon sanoq sanashda sinashdi,

Salimjon sanoqni sakkizgacha sanab adashdi.

15. Sayyor ayyor oshga tayyor.

16. Simyog'ochdan sekin sirg'anib tushgan Sadir sog'-salomat.

17. Samadning sa'vasi saharlab sayragani sayragan,

18. Suzma maza, suzmadan issiq jizza maza.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, folklor san'ati halqning milliy an'analarini, og'zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib halqning o'ziga

qaytarishda tarixiy folkloriy jarayonni ma'naviy tarbiya maxsuli sifatida o'rganishda o'z xissasini qo'shishi bilan birga sahna nutqi darslarida talabalarning talaffuzlarini charxlashda ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Boltaboyeva U. Aktyorning so'z ustida ishlashi, so'z harakatligiga erishish omillari maqolasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal VOLUME 4 ISSUE 1 / FEBRUARY 2023
2. Boltaboeva U. Nutq san'atining uziga xos xususiyatlari: muammo va yechimlar //Oriental Art and Culture. - 2020. - №. I (2).
3. Boltaboeva U. Using Oral Folk Art Methods in Improving Speech Technology //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - №. 1
4. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov Sh. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2020. - T. 10. - №. 4. - b. 559-567.
5. Boltaboyeva U., O'g'ilxon Odilova, musiqiy teatr aktyorlarining sahnada obraz yaratishida nutqining ifodaviyligi va ovozni yo'lga qoyish masalalari maqolasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal VOLUME 4 ISSUE 1 / FEBRUARY 2024
6. Boltaboyeva U., aktyorlik mahoratida mezanssenirovka elementining shakl va usullarini o'rgatishning maqsadlari va bosqichlari maqolasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal VOLUME 5 ISSUE 3 / JUNE 2024, 671-673b.

Toychiboy Bayturayev

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

*“Kutubxona axborot
faoliyati” kafedrasida dosenti p.f.n.*

NOTIQLIK SANATINI EGALLAGAN RASSOM

Annotasiya: *Maqolada notiqlik sanatini murakkab yo'llarini mustaqil o'rgangan O'zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy a'zosi. Abdulhaq Abdullayev faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, uning milliy tasviriy sanatni targ'ib qilish bo'yicha tashkil qilinadigan har bir uchrashuvi uchun mukammal tayyorlangani orqali nutq madaniyatini nazariy masalalarini mustaqil o'rganganligi ochib berilgan. Uning notiqlik sanatini o'zining asosiy rassomlik faoliyati bilan barvar qo'yganligini D.Maxmudovaning “50 yil yonma-yon” nomli esdalik kitobida to'la ochib berilganligi maqolada taxlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *nutq, notiqlik, tasviriy sanat, madaniyat*

Аннотасия: *В статье изучается деятельность почетного члена Академии художеств Узбекистана, который самостоятельно изучил сложные способы искусства публичного выступления. В статье выявлено, что Абдулхак Абдуллаев самостоятельно изучал теоретические вопросы культуры речи благодаря прекрасной подготовке к каждому выступлению, организованному в целях пропаганды национального изобразительного искусства. В статье также анализируются отношения великого художника к культуре речи приводятся из книги из мемуарной книги Д. Махмудовой «50 лет бок о бок».*

Ключевые слова: *речь, публичное выступление, изобразительное искусство, культура.*

Abstract: *The article studies the activities of an honorary member of the Academy of Arts of Uzbekistan, who independently studied the complex methods of public speaking. The article reveals that Abdulhak Abdullaev independently studied theoretical issues of speech culture thanks to excellent preparation for each performance organized for the purpose of promoting national fine arts. His attitude The article also analyzes the attitude of the great artist to the culture of speech is taken from the book from the memoir book of D. Makhmudova "50 years side by side".*

Key words: *speech, public speaking, fine arts, culture.*

O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy a‘zosi. Abdulhaq Abdullayev hayoti va ijodi haqida ko‘plab manbalarni u haqida yozilgan nashirlardan topish mumkin. Rassom butun umr insonning murakkab va ba‘zan ziddiyatli olami haqidagi cheksiz o‘rganishlar olib borgan inson deyish mumkin. Tasviriy san‘atning ko‘plab janrlaridan Abdulhaq Abdullayev portret janrini tanlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

1926-yilda Toshkentdagi mehnat bilim yurtiga o‘qishga kiradi. Bu yerda bolalarning badiiy ta‘lim-tarbiyasi yaxshi asosga qo‘yilgan edi. Bilim yurtining rasm o‘qituvchisi uning rasm chizishdagi muvaffaqiyatini ko‘rib, unga rassomlik texnikumiga o‘qishga kirishni maslahat beradi. 1931 yilda Samarqanddagi san‘at texnikumiga o‘qishga kiradi. Texnikumda L.L.Bure, Z.M.Kovalevskaya va P.P.Benkovlarda rassomlik sirlarini o‘rgandai. 1937 yilda Abdulhaq o‘zining ikkita portretini O‘zbekiston rassomlarining Moskvadagi navbatdagi ko‘rgazmasida namoyish etdi: "O‘rtoq portreti" va "Birodar". Keyinchalik Moskva rassomlik institutida (1938-1941) V.P.Efanov va A.A.Osmyorkina "Abror Hidoyatov portretini ko‘zdan kechirolmayman. Men bu aktyorni sahnada ko‘rmaganman, lekin ulug‘vor Otelloning shubha bilan zaharlangan, hali ham o‘zini to‘liq nazorat qilib turgan ko‘zlari hayratlanarli va qo‘rqinchli", deb yozadi tomoshabin Novikov 1973 yilda Moskvada Abdulhakning shaxsiy ko‘rgazmasidagi sharhlar kitobida.

Notiklik san‘atida A.A.Abdullayevning e‘tiborni yoshligidan o‘ziga tortganligini u xaqida esdalik yozgan avtorlardan biri f.f.d.professor T.Maxmudovning nashirlarida keng yoritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu xaqidagi yana ham to‘liq malumotbu olimning turmush o‘rtoqlari D.Maxmudovning "50 yil yonma-yon" nomli esdalik kitobida ham to‘liqroq ochib berilgan. Nutk madaniyatiga etiborni rassom doimiy tashkil qilinadigan uchrashuvlar aloxida rossosmlar ijodi xaqida uchrashuvlarda chiqishlaridagi katta etibor berganligi kitoblarda ko‘rsatib o‘tilgan.

"Nutq madaniyati bu – til vositalarini shunday tanlash va tashkil etishki, bu muloqot vaziyatida zamonaviy til meyorlariga va muloqot odobiga rioya qilish, shaxsga o‘z oldiga qo‘ygan kommunikativ masalalarni hal qilishda yuqori samaraga erishish imkonini beradi" (Graudina L. K. Kultura russkoy rechi). A.A.Abdullayev notiklik san‘atidagi intonasiya, gradasiya, jest (ko‘l, yuz xarakatlari)ga doimiy etibor berganligini har bir so‘zni talafuz qilishda uning mazmunini to‘g‘ri chiqarib berishga katta etibor bergan. Nutqining aniq va ravon bo‘lishiga katta etibor bergan. Uning notiqlik santini namayon qiliuvchi chiqishlari rus tilida ham olib borganligi esdaliklarda yoritilgan. Uning uchrashuvlarda A.S.Pushkinning ko‘pgina asarlarini yoddan uchrashuvlardagi tinglovchilarga yoddan yetqazib berganligi xaqidagi malumotlar esdalik kitoblarida taxlil qilingan T.Maxmudov uning uning yetuk rasomligini ko‘rsatuvchi asrlari [N. Niyozov \(1949, Moskva Sharq muzeyi\)](#), portreti ([1949, O‘zbekiston Respublikasi sanat muzeyi](#)) «Jiyanim

Shaxlo» (1960 [Tretyakov galereyasi](#)), dramaturg K. [Yashen](#) (1960, [O‘zbekiston Respublikasi sanat muzeyi](#)), yozuvchi I. Raxim (1967, [Uzbekiston badiy fondi](#))i «[Alisher Navoi](#)» (1968) keng to‘xtalib o‘tgan.

Bu sanat asarlarini taxlil qilishda ularning estetik ahamiyatini ochib beruvchi materiallar ichida A.Abdullayev notiqlik sanata ham qiziqqan va bu sohada faoliyat olib borgan degan malumotni berib o‘tganligini yozganligini va bu malumotni o‘qib chiqqan A.Abdullayev undan notiqlik sanata munosabatini bunday ochib berganidan hafa bo‘lganligini o‘z esdaliklarida yozgan.

A.Abdullayev bilan uchrashuvlar turli mavzular bo‘yicha uchrashuvlar turli joylarda notiqlik sanata katta axmiyat bergan deb yozishing kerak edi deb aytganligini eslagan. Ko‘pincha rassom uchrashuvlarda so‘zga chikishdan oldin fikrlarini yozma shaklda tayyorlab, to‘xtalmokchi bo‘lgan mavzusini chuqur o‘rganganligini barcha beriladigan misollarni auditoriyaning qabul qilish darajasiga qarab belgilaganligi yozib qoldirilgan. Bunday nutqiy uchrashuvlaga tayyorgarlik oylab har bir so‘z uning talafuzi bo‘yicha, asarlarni yod olish bo‘yicha olib borilgan.

Omnia tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishonтира olish uning xayotidagi maqsadlaridan biriga aylangan. U nutkdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o‘zaro bog‘lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirib, gapni bog‘lab o‘tgan bo‘lsa keraki unga uchrashuvlardan keyin oddiy odamlar kelib minatdorchilik bildirganlar. U uchrashuvlardagi nutqlarida ularga ajratiladigan vaqtga ham katta axmiyat bergan. Uchrashudagi nutqning muddati oldin e‘lon kilinganligi, shunga rioya kilinishga va unga to‘g‘ri munosabat bildirilishi rassom tomonida qattiq nazorat qilingan.

Tilni yaxshi bilishga, tillarning grammatik konun-koidalarini, lugat boyligini xamda fonetik va stilistik xususiyatlarini puxta o‘zlashtirib olish doim jiddiy etibor bergan.

Agar bizning talabalar bu allomaning notiqlik madaniyatiga bo‘lgan munosabatini o‘rganib chiqsalar, ilmiy tomondan taxlil qilsalar hozir notiqlik sanata kirib kelayotgan yosh mutaxasislarga ko‘pgina qiziqarli malumotlarni bergan bo‘lardilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Estetika jivopisi Uzbekistana / Tilab Maxmudov. - Tashkent : Izd-vo lit. i iskusstva, 1983. - 224 s.
2. Kungurov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari/ E. Begmatov, YO. Tojiyev.- Toshkent: 1992.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari.- Toshkent: 1993.

Isoqtoy Djumanov
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti dosenti*

Talaffuz ifoda tizimlarini takomillashtirishda tovushli birikmalar

***Annotasiya.** Mazkur maqolada sahnaviy nutq texnikasining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan “Talaffuz ifoda tizimlarida tovushli birikmalar ” ustida ishlashdagi innovasion yondoshuvlar va uning samaralari haqida boradi.*

***Kalit so‘zlar:** Sahnaviy nutq, talaffuz, ifoda, tez aytish, birikma, bag‘ishlov, jarayon, innovasion, fikr, yondoshuv, samara, jarayon, ma’no, tizim, yechim, yaratish, maqsad, tashabbus, shijoat, tilsim, hikmat, qudrat.*

***Аннотация.** В этой статье, посвященной одному из важных разделов техники сценической речи, работа над голосом, дикция и произношениях, об инновационных подходах к в*

***Ключевые слова.** Сценическая речь, произношение, экспрессия, быстрое произнесение, объединение, преданность делу, процесс, инновация, мысль, подход, эффект, процесс, значение, система, решение, созидание, цель, инициатива, энтузиазм, талисман, мудрость, сила.*

***Annotation.** This article, devoted to one of the important sections of stage speech technique, "sound combinations in pronunciation expression systems", will talk about innovative approaches to work and its consequences.*

***Keywords.** Stage speech, pronunciation, expression, rapid pronunciation, unification, dedication, process, innovation, thought, approach, effect, process, meaning, system, solution, creation, Goal, initiative, enthusiasm, talisman, wisdom, strength.*

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyayev 2024-yil Ko‘hna Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan an’anaviy “Sharq taronalari” xalqaro festivalda: “Notinch va tahlikali zamonda azaliy qadriyatlarni, odamiylik qiyofasini saqlab qolish tobora mushkul bo‘lib bormoqda. Mana shunday murakkab vaziyatda ilohiy sarchashmalardan quvvat olib, vaqt va makon osha gumanistik ideallarni tarannum etadigan asl san’at, musiqa va adabiyot xaloskor kuch bo‘lib maydonga chiqishi zarur. Bizning xalqimiz azal azaldan san’atga mehr va ixlos qo‘yib yashaydi, musiqani inson ruhining ilohiy quvvati deb biladi. 1.(Yangi O‘zbekiston gazetasi 2024.08.27.)

Bildirilgan bu fikrlar Yangi O‘zbekistonimizning har tomonlama taraqqiyoti uchun belgilanayotgan strategik yuksalishi barobarida “... murakkab vaziyatda ilohiy sarchashmalardan quvvat olib, vaqt va makon osha gumanistik ideallarni tarannum etadigan asl san’at, musiqa va adabiyot xaloskor kuch bo‘lib maydonga chiqishi zarur” degan fikrlari, insonning ichki dunyosi, fikr tuyg‘ulari, maqsadi istak xoxishlarini namoyon qiluvchi beqiyos ne‘mat bo‘lgan, mazmundor tasirchan jonli so‘z va uning ijtimoiy taraqqiyot tilsimlarini harakatlantiruvchi hikmat va qudrat timsoli, sifatidagi dolzarb vazifalarini yanada mustahkam darajaga ko‘tarilishini taqozo etadi. Bu esa o‘z o‘rnida so‘z san’ati va uning hayotbaxsh nufuzi, bor mazmun mohiyati bilan hayotning hamma jarayonlarida insonning muomila, muloqat vositasi sifatidagi imkoniyatlarni mustahkamlashning ilmiy-nazariy, ijodiy amaliy asoslari ustida faoliyat ko‘rsatayotgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Sahna nutqi” kafedrasida professor o‘qituvchilari zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. Bugungi kunda yaratilayotgan yangi o‘quv adabiyotlar darsliklar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalarda aks etgan har bir ustoz muallifning o‘ziga xos nazariy-amaliy tajribalari teatr, kino, radio va televideniya aktyorlar, rejissyorlar so‘z ustalari, boshlovchi va suhandonlar tayyorlashda asosiy o‘quv adabiyoti sifatida tadbiriq etib kelinmoqda.

So‘z va uning ifodaviy ta’sirchan imkoniyatlari takomillashtiruvchi nutq texnikasi, mashqlar ustida ishlash, tovush birikmalari, matnlar hamda ular asosida tuzilgan vazifalar tizimida, mashqlar raqobatli ijodiy jarayonlar muhitida tarbiyalanayotgan yosh avlodning nutqiy ifoda imkoniyatlarini rivojlantirish vazifasi “Sahna nutqi” ning tasirchan va betakror texnik ifodaviy imkoniyatlarini professional san’at darajasiga yetkazishning ko‘plab uslubiy, nazariy, amaliy, ijodiy jihatlari ustida izlanishlarni talab qiladi.

***Birinchi muammo:** Keyingi paytlarda teatr, kino, radio va televideniya, estrada yo‘nalishlarida ijod qilayotgan yoshlarning talaffuzi, nutqida eshitgan quloqqa og‘ir botadigan g‘aliz, so‘zlar jummalarning tobora urchib ketayotganligiga bot bot e’tirozlar bo‘lmoqda.*

Nutq texnikasida bo‘lgan talaffuz ifoda tizimlarining muhim bo‘g‘inlari

-dan biri guruxli tez aytishlar, birikmalar va sajlalar ustida ishlash va uning soʻzning ifodaviy taʼsirchanlik darjalarni oshirishdagi ahamiyati va oʻrni dolzarb va muhimligini bilamiz. Maʼlumki jonli taʼsirchan soʻz, jamiyat taraqqiyotining hamma pogʻonalarida ham goʻzallikning barkamol-likning, komillikning yetakchi sabablari-dan biri boʻlib kelgan. Halqimiz, millatimizning tafakkur-mafkurasi, maʼnaviyati, dunyoqarashi ehtimol ikki oʻt orasida murakkab jarayonlar, hayot-mamot uchun tanlanish, oʻzgarish, yuksalish jarayonida yashash va ijodiy faoliyat tarzimizda aks etishi muhim oʻrin egallashi lozim. Yoshlarda jonli, taʼsirchan, toʻlaqonli soʻz taʼsirchanligini his etish, egallash uchun qator izlanishlar, qunt, iroda zarur. Hozirgi davrda har bir yoʻvoyaga yetgan fuqaro hayot tashvishlari bilan band boʻlib yuksak tuygʻular: burch, vatanparvarlik, halqparvarlik, adolat, haqiqat, insoniy qadriyatlarni eʼzozlash kabi hislatlarga eʼtiborli boʻlishi, taraqqiyotimizning taqdiri, shu muqaddas tuygʻularning gullashi, kamol topishi bilan bogʻliq. Bu oʻrinda oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdiki, sanʼat, kino, televideniya, radio, adabiyot, matbuot zimmasida beqiyos vazifalar turibdi. Vatanparvarlik tuygʻusining insoniy munosabatlarda aslicha aks etishi har qanday jamiyatning rivojlanishi, gullab yashnashida yetakchi maʼnba, kuch boʻlib kelgan.

***Ikkinchi muammo:** Nutq texnikasi talaffuz ustida ishlashning hamma jarayonlarida ham talabada aniq ravon talaffuz, taʼsirchan betakror soʻz ifodaviyligiga erishish orqaga chekinayotganday.*

Yangi Oʻzbekistonning hayotbaxsh istiqbolli taraqqiyot tizimlari hamda uning yechimlarini xalqimiz qalbiga va ongiga singdiruvchi vazifalarga daxldor. Uchinchi renesansni yaratish maqsadi bilan yashayotgan yoshlarimizda tashabbus, shijoat, va jonbozlik koʻrsatishga undaydigan, kamil inson boʻlish gʻoyalarini inson ongi, qalbi, fikr-tuygʻulariga singdirishday maqsadlar sari undovchi tilsim. Umumbashariy progressiv gʻoyalarini targʻib qilish, ijtimoiy fikr, ijtimoiy ong bilan hamohang boʻlishiga hissa qoʻshishday yuksak insoniy burchga sadoqatini mustahkamlashda ezgu maqsadlar yoʻlining mayogʻi. Bu oʻrinda soʻz sanʼati oʻzini bor hikmati va qudrati bilan namoyon boʻladigan teatr, kino, radio va televideniye, estrada sanʼatining butun ijodiy jarayonlarini qamrab oluvchi muloqot munoazara

va mushohadaning eng yorqin tasirchan vositalarnig yetakchisi bo'lib kelmoqda. K.S.Stanislavskiy: "Nutqdan o'zingizgina rohatlatib qolmay, so'z va ohanglarni sezdirmasdan turib, tinglovchining qulog'iga quyib qo'yishingiz kerak" deydi teatr san'ati namoyandalari. [1.-B.468.]. Shu o'rinda O'zbekiston xalq artisti Nazira Aliyeva o'zining "San'at mening hayotim" monoragrafiyasida K.S. Stanislavskiyning "Sahna haqiqatini obrazning asl mohiyatini topib olish uchun jismoniy xarakterdan psixologik xarakterga va aksincha tarzda ikkiyoqlama qidirib, ikkala qutbdan, ikkala yo'ldan borish orqali obrazning mag'zini topib olish"- degan fikrlaridan kelib chiqib "boshqacharoq aytganda obrazning psixologik faktorlari uning mazmuni bo'lsa, fizik faktorlar uning shaklidir" 2.-deydi.

Sahna nutqi kafedrasida professor o'qituvchilar tomonidan nutqiy ifoda maxorati yo'lida tarbiyalayotgan talabalarning nutqidagi nafas, ovoz, talaffuz mukammalligi barobarida, fikrlash qobiliyati tabiiyligi, erkinligi, faolligi tizimlari ustida ish olib borilishi bejiz emas. Professional aktyorlari tarbiyasida ishlab chiqilgan va keng tadbiiq qilinayotgan, bajarilayotgan har bir mashq talabaning to'laqonli fikrlashi, nutqdagi ravonlik, ta'sirchanlik, ovozi jarangi, talaffuzidagi mukammallikka chuqur e'tibor qaratilishi tabiiy

Uchinchi muammo: Yoshlar so'zning noyob, bebaho ijod ma'nbasi ekanligini his etishlari, qadrlay olishi, so'zga, hassos so'zga chechan bo'lishi va buning ijodkorlik barkamolligining eng asosiy omillaridan biri ekanini bor vujud, qalbi, tafakkuri bilan his etishlari kerak.

K.S.Stanislavskiyning "...Bizni ichki ko'z bilan ko'rishlarimizning "kinolenta" sig'a bu qadar katta va alohida ahamiyat berishimizning boisi shundaki faqat shularning o'zigina rol uchun tavsiya etilgan xolatni vjudga keltiradi"5. (M., Iskusstvo" 1955, 443-444 b.) deydi.

Insoniyatga harakati, aqli, dili va tili bilan muloqotda bo'luvchi ijodkor aktyorlar, rejissyorlar, so'z ustalari, notiq va suhandonlarning so'zlash san'atini shakllantirish va ijodiy kamol toptirish yo'llarini izlab topish benazir professor o'qituvchilarimizni hamisha bezovta qiluvchi doimiy muddaolardan biri bo'lib kelmoqda.

To'rtinchi muammo: So'zga mehri, tashnaligi bo'lmagan talaba so'z orqali o'z tomoshabinlarining ishonchi, hayrihohligi, diqqatini zabt etishi qiyin kechadi.

Sahna nutqida har bir tinglovchiga talaffuz mukammalligi, ovoz jozibasi, tembri, jarangdorligi, nafas, artikulyasiya, diksiya, tana mushaklarini bo'shatish va uning erkinligi, ovozda tabiiylik, jarangdorlikka erishish, so'z ustida ishlash, uni tahliliy mantiqiy betakrorligi, tinglovchida mustaqil fikr, tasavvur boyligi, shart-sharoit, vaziyatlar vazifalar tizimi bilan jalb qilish, ruhan quvvatlash, fikr, tasavvur-maqсад uyg'unligidagi, ta'sirchan ifodaviy vositalarni topish, singdirish, turli janrlardagi adabiy mantlar ustida ishlashda muallif g'oyasi, falsafasi, maqsadini anglash va anglatish iqtidorini mustahkamlash, asarning ruhiy emosional badiiy ta'sirchan imkoniyatlarini anglash anglatish, qalb va tafakkurni qamrab oladigan energetik tugyonni mujassam qiluvchi, ijodiy ijro mahoratiga erishishday o'ta mas'uliyatli vazifalarni qamrab oladi. Bu teran, keng qamrovli, ijodiy izlanuvchanlikni talab qiluvchi, interfaol yondoshuv bilan mustahkamlanib, takomillashtirilib boriladigan jarayondir.

Nutq texnikasi takomillashib tajribali pedagog, olimlar uzluksiz va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, jamiyatimizning ma'naviy, intellektual salohiyatini kengaytiradigan, davlatimizning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtiradigan, ishlab chiqarishning barqaror rivojini ta'minlaydigan, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir shaxs o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatini yaratadigan izlanishlar, tahlillar, ilmiy xulosalar olib borish vazifalari belgilangan. Pedagogik tajribada, zamonaviy pedagogik texnologiyalariga talabalarni qiziqtirish, mustaqil ishlashida faollik oshirilishi katta ahamiyatga ega. Ta'limning bugungi vazifasi tinglovchilarni axborot ta'lim muhiti sharoitida, mustaqil faoliyat ko'rsata olishiga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat deb belgilangan. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, modul, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimiga amal qilishga erishishdir.

Soʻzning fikr, tasavvur birligidagi ibratli manzaralarini his etish va yaratish zavqi, faoliyati oriyat va gʻurur timsoli boʻlib qolishi lozim. Sahna nutqi texnikasi va ijro mahoratini takomillashtirish uchun yaratilgan mashqlar, maxsus murakkablashtirilgan xolatda tuzilgan matnlar toʻplamlari va ularning tahliliy asoslari hamda ijro xususiyatlari takrorlanishi oʻrinligini eʼtirof etamiz. Taʼkidlash joizki, har bir ijodkor shahsning, sahna nutqi texnikasini oʻzlashtirishi, bugungi va ertangi kunimizning muhim vazifalaridan biridir. Soʻz ustida ishlash uni turli rang-barang texnik mashqlar bilan mustahkamlab takomillashtirib borishning samarali yoʻllari professor oʻqituvchilar tomonidan yaratilib kelinmoqda.

***Beshinchi muammo:** Bugungi kunda yosh avlod nutqi, ifodasi, soʻz boyligi, ixtidori, isteʼdodi qanday darajada? Agar darajasi bugungi kun talablariga javob bera olmasa uni mustahkamlash va takomillashtirish uchun qanday vazifalar, yuklar qoʻyilishi kerak? Buning uchun qancha vaqt, qancha kuch qancha iroda, qancha mehr, qancha ehtiyoj sarflanishi kerak degan savollaru muammolar yechimiga sabab boʻla oladigan uslubiy yoʻl yaratishimiz lozimligi koʻrinadi.*

Jadal rivojlanish istiqbollariga yoʻnaltirilgan bugungi kun vazifalarida mustahkamlash, takomillashish jarayonlari bilan yashamoqda. Taraqqiyotimizning dadil qadamlari dunyo hamjamiyati oldida uni asrash sanʼat va madaniyatimizning istiqbollariga ham dahldordir. Yosh ijodkorlar tarbiyasida ishlab chiqilgan va keng tadbiiq qilinayotgan, ishlarida talabning toʻlaqonli fikrlashi, nutqdagi ravonlik, taʼsirchanlik, ovozi jarangi, talaffuzidagi mukammallikka chuqur eʼtibor qaratilishi bilan ajralib turardilar. Ustozlarimiz Nazira Aliyeva, Lola Xoʻjayeva, Abduraxim Sayfuddinov, Sotimxon Inomxoʻjayev, Irina Grinberg, Inoyatilla Poʻlatov, biz pedagoglar tomonidan taqdim qilinigan ijodiy koʻriklarda nutqiy texnik va soʻz ustida ishlash jarayonlarida doimiy yangilik ifodaviy betakrorlik, ijodiy izlanishlar asosida ish olib borishga daʼvat qilardilar.

Nafas ovoz talaffuz va ifodaviy tasirchanlikka yoʻnatirilgan jonli soʻz bilan uygʻun yangi xarakterli plastik mashqlar ishlab chiqish hamda uni qunt bilan oʻzlashtirish, nutq mahoratini shakllantirish, oʻstirish, talaffuzni chiniqtirish, uning sofliqiga erishish, mashqlarni oʻzlashtirish va mukammallashtirish oqibatida tilda

uning burro, aniq, ravon va ta'sirchan nutq, so'z qudrati va hikmatiga erishish barobarida yoshlarda tabiat bilan bog'liq va uyg'un tasavvur ijodiy fantaziya jihatlarini mustahkamlash va takomillashtirish uchun ovoz va talaffuz ustida ishlash ko'nikmalarini takomillashtirishga muhim vazifalarimizdan biri sifatida quyidagi ishlanmalar ustida ishlashga e'tibor qaratilishi zarur deb bilamiz.

1-vazifa. Quyidagi tovush brikmlar talafuzida erkin ovoz yo'naltirib ishchi ovoz jarangini mustahkamlang: *Rmbdrummo-rummo-rum, Rmbdrummo-rummo-rum Rmbdrummo-rummo-rum.*

2-vazifa. Nutq a'zolari, jag',til, lablar siqiqligidan erkin va ravon tabiiy ifodaga ovoz yo'naltirishga erishing.*Lumblummo-lummlumm, Lumblummo-lummlumm, Lumblummo-lummlumm, g'br-rbdr-bdrumm-rummo-rummo-rummo-rbjrumm.*

3-vazifa.Jag',til, lablar erkinligida ovoz jarangi va erkinligiga erishing; *Voq-voqolov-luqolo qolov,-huqolo qolov,yuqolo qolov...*

Mummolo-molov-lummm- molo lomolov-lom-lomolov,

Lov-lovolovvv-Dov-yov-yovolov-yov-yovolov,duba-raba-dom...

Jumalama-jom, hommolo-hummolo – hummolo-hommommm

4-vazifa. Nafasni meyoriy sarfi va ovoz jarangiga erishishda nutq a'zolari, jag',til, lablar siqiqligidan erkin va ravon yo'naltiring;

Loq-loqo-luqqo-lumm-bala-long, Hov-lovo-lov-lov- bala-lov lov

Lung-loqo-long-long-loqo lung long, loqo lung long-long loqo lung long.

Hummmolo-lummmolo-rummmoro-rummmo,jummana-jummumm-

Mllm-lim-hammal-lumm-mang- lummla-lammang- lam-lama-lamall.

5-vazifa. Nafas va ovoz nutq a'zolari, jag',til, lablar faolligi va uyg'unligiga erishing.*Mbbr-rummo-ruma-rama-romm, mbbl-lummo,*

Lummo-lummo-lumulum-lummo-rummo-rummo rumu-rum rummo

Lang-laka-lukalang-luka-luka-lang, ram –raka-rkarm-ruka-raka-rang.

6-vazifa. Nafas va ovoz nutq a'zolari, jag',til, lablar faolligida dinamik rivoj va o'zgaruvchanlikka erishing;

Ram-jama-jamaram-jumaram-jamaram,appara-ruppa-rappara-ruppa-

Papa-paparak-kapalak-kamalak-jamalak-sumalak-oymalak-handalak

Yahmalak- jingalak-nurmalak-durmalak-kamalak-jamalak-sumalak.

7-vazifa. Nafas va ovoz nutq a'zolari, jag', til, lablar faolligida dinamik rivoj va o'zgaruvchan tezkorlikka erishing;

Kappala-kuppala-kupa-kapa-kapalak-kamalak.jabbara-jubbara-jubbamm

Hovloqo-luv-lo-lov-loqo-luvlo, andara-yandara-mandara-jandara jum-jum

G'or-g'oro-g'urro-rom-romo-rummo- lom-lomo-lummo-lumolo molo molov.

8-vazifa. Jag', til, lablar faolligi dinamik rivoj va talaffuzda o'zgaruvchan tezkorlikka erishing;

Kptp-kum-kum- kumurumu-gum-gum-kumpuru-jum-jum jumarama-jumm.

Kari-kura-kurora-rakayora, guvala-gujum-juvala-jujun-guvaraka-rukaro

9-vazifa. Tabiatda sodir bo'layotgan turli hodisalar, momaqaldiroqlar, vulqonlarning uyg'onishi, bo'ron va shamollarning uvillashi, ulkan cherkov qo'ng'iroqlari tovushlarini eslang, eshitganingizda qudratli tovushlarning cheksiz kuchi va kuchini tasavvur qiling, jarangdor tovush birikmalarini takrorlang va mustahkamlang. Belgilangan vazifalar mohiyatnini anglang va anglating; *Yuvvovo yuvvov-lullolo lullo vuvvovo uvvov nunnono nunnnov no 'yonono no 'yonov, uvoloyo-yuvoloyo- yuvoloyoyolovv.*

Jarangdor ovoz so'z san'atining ta'sirchanligini mustahkamlaydigan ifodaviy vosita. U turli mashqlar, treninglar, interfaol harakatlar bilan takomillashtiriladi. Ovoz ustida ishlash jarayoni, aniq maqsad va harakatlar doirasida doimiy etiborni talab qiladi. Unli va jarandor sonor tovushli birikmalar tuzib matnlar, tovushli birikmalarning erkin va keng yo'naltirilgan ravon, talaffuz qilinishi, ovozni o'stirishning boshlang'ich omillaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda ijodiy ijro jarayonlarida inovasion ifoda tizimlariga erishish yo'lida fikrlash, so'z hazinasini boyitish, turli mavzular, voqealar, tafsilotlar, tasvirlar bilan inson nutqining imkoniyatlari ochilib takomillashtirilib borish asosida, ustozlarimiz qoldirgan o'zbek saxna nutqi maktabining o'ziga xos tamoyillari, an'analari, turli izlanish va yondoshuvlarini bugungi kunda mashg'ulotlar, turli boshqotirmalar, topqirlik sinovlari turli mashqlar bilan tez-tez to'ldirilib turilishi, kuzatuvchanlik, tasavvur mahorati va o'tkir hotira ijodiy jarayon

va iste'dodni boyituvchi ma'nbalar sari yetaklashimiz lozimligini his etamiz. Bu o'z o'rnida bugungi kunda bizdan ayrim tavsiyalar va uni mustaxkamlovchi matnlar, tez aytishlar, murakkablashtirilgan matnlar ustida ishlash talabalardan sinchkov diqqat, noqulay vaziyatlarda izchillik bilan ishlash nutq texnikasini mustahkamlashga erishishni talab qiladi. Bugungi kunda baxsli va dolzarb bo'lgan rangbarang va murakkablashtirilgan birikmalar, matnlar, tez aytishlar ustida ishlash va ularni o'zlashtirish bilan samarali natijalarga erishayotganlari murakkablashtirilgan tovushli birikmalar, jaxon dramaturgiyasida yaratilgan sahna asarlaridagi turfa atamalar talaffuzi ustida takror takror ishlashimiz turfa atamalar talaffuzini o'zlashtirish, talabalar guruhini qamrab oluvchi uzaytirilgan tez aytishlar tuzish va ular ustida izchil ishlashni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *K.C Станиславский. Работа актёра над собой. часть-2 "Искусство", М.*
2. *N. Aliyeva. San'at mening hayotim. -Toshkent -2019.*
3. *A.S. Ayfuddinov. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. "Fan" nashriyoti 1980*
4. *I.Po'latov Sahna nutqi. – Toshkent. "O'qituvchi" 1994.*
5. *Й.Промтова. Искусство сценической речи. Выпуск-3 - М.: Издательство ГИТИС, 2022.*

Lizaxan Urazmbetova

Ўzbekstan mamlakatlik kerkem oner ham madeniyat instituti Nekis filiali

«Rejissura kerkem oneri» kafedrasi baslig'i, dosent.

AKTRISA BOLIP TUO'ILG'AN INSAN

Annotasiya. *Maqalada «Qaraqalpaqstan xaliq artisti», «Dosliq» ordeni iyesi Marjan Xalmuratovaniñ doretio'shiligi, aktyorliq sheberligi, teatr kerkem onerine qaldirg'an miyrasi keriip shig'alg'an.*

Tayanish so'zler: *M. Xalmuratova, teatr, kerkem oner, rejissyor, aktyor, saxna, artist, ustaz, janr, dramaturgiya, rol, shig'arma, spektakl.*

Annotasiya. *Maqolada «Qoraqalpog'iston xalq artisti», «Do'stlik» ordeni sovrindori Marjan Xalmuratovaniñ san'ati, aktyorlik mahorati, teatr san'atida qaldirgan merosi ko'rib chikilgan.*

Kalit so'zlar: *M. Xalmuratova, teatr, san'at, rejissyor, aktyor, sahna, artist, ustoz, janr, dramaturgiya, rol, asar, spektakl.*

Аннотация. *В статье рассматривается искусство, актерское мастерство, наследие, оставленное в театральном искусстве народным артистом Каракалпакстана, лауреатом ордена «Дустлик» Маржан Халмуратовой.*

Ключевые слова: *M. Халмуратова, театр, искусство, режиссер, актер, сцена, художник, педагог, жанр, драматургия, роль, произведение, спектакль.*

Annotation. *The article examines art, acting, and the legacy left in theatrical art by the People's Artist of Karakalpakstan, laureate of the Dustlik Order, Marzhan Khalmuratova.*

Key words: *M. Khalmuratova, theatre, art, director, actor, stage, artist, teacher, genre, drama, role, work, performance.*

Qaraqalpaq teatr kerkem onerinde eziniñ kerp-qirli obrazlari menen xalqimizdiñ jyreğinen orin alg'an talantli aktrisa, mehriban ustaz, hyrmetli haji ana «Qaraqalpaqstan xaliq artisti», «Dosliq» ordeni iyesi Marjan Xalmuratova eziniñ teatrdag'i kerp jilliq miynetleri menen, qaraqalpaq teatr kerkem oneriniñ rao'ajlanio'ina ylken yles qosti.

Marjan apa 1939-jili 15-iyul kyni Moynaq rayoninda tuo'ildi. Jaslayinan kerkem onerge qizig'ip, mektepte oqip jyrgen o'aqitlarinda heo'yeskerler dogereklerine qatnasip, spektakllerde roller oynap kezge tyse basladi. Soñ oniñ kerkem onerge bolg'an qizig'io'shilig'i Nekiske-hazirgi Berdaq atindag'i

qaraqalpaq mámleketlik akademiyalıq muzikalı teatriniń saxnasına alıp keldi. Bul 1958- jil yedi.

Teatr óneriniń arnao‘li bilimine iye bolmasada, ol tábıyat inam yetken tuo‘ma talanti menen ómirin saxnag‘a bag‘ishladı. Ol barlıq kúsh jigerin, júrek yoshın, ózi doretken janlı obrazlarda sáo‘lelendirip, tamashagóylerdiń alg‘ısına, xalıqtıń hýrmetine miyassar boldı. Biz oni saxnada doretken obrazları arqalı ózimizdiń syyikli aktrısamız sipatında tanıytug‘ın yedik.

1976- jillari qaraqalpaq ádebiyatiniń dramaturgiya janrina jańa avtor kirip keldi. Ol Keńyesbay Raхmanov yedi. Moskva malıy akademiyalıq teatrında rejıssyorlardıń tǵjiriybessin asirio‘ kursin tamamlap kelgen rejıssyor Najimatdin Ansatbayev Keńyesbay Raхmanovtıń «O dúnyag‘a mirat» tragikomediyaşın saxnalastıradi hém bas rollerdiń biri Ulperi roli Marjan apag‘a beriledi. Bul avtorđın payda bolio‘i menen qarakałpaq teatr ónerinde jańa avtor, jańa ideyalar ashılıp, teatr doretio‘shileri ushin burilis dáo‘iri baslandı. Ulperi obrazi Marjan Xalmuratova doretio‘shiliginiń jańa jılnamasin ashti.

Spektakldiń avtorı–rejıssyor bolıp yesaplanadi, rejıssyor aktyorlardıń doretio‘shilik fantaziyaşın oyatıp hém spektakl ideyaşın ashio‘ga jol tao‘ip berip, hэр aktyordıń individual múmkinshiligin rao‘ajlandirip, oni qalıplestiredi. Teatrda aktyor, rejıssyor hém dramaturg úsh múyeshligi –degen termin bar. Biraq xudojnik Islam Alibekovtıń spektakl bezeo‘degi sheshimlerinden keyin bul úsh múyeshlikti tórt múyeshlikke aylandı desek qátelespegen bolamız. «O dúnyag‘a mirat» spektaklinde» usi tórt múyeshlikti kéro‘ge bolar yedi: dramaturg, rejıssyor aktyor hém xudojnik.

Kenesbay Raхmanovtıń dramalıq shig‘armalarıniniń saxnalastirilio‘i menen teatrda doretio‘shiler jańa nэpes ala basladı. Ulperi obrazında – Marjan Xalmuratova úlken xudojnikke aylandı. Ulperi oqımag‘an, aq kókirek, sao‘ati joq, jeńil tabilg‘an puldıń qulina aylanıp óziniń ana yekenin, úy biykesi yekenin yesinen shig‘arg‘an, ol ómirlik joldasına opasız hayal obrazi. Bul obrazdı jaratio‘ prosesinde rejıssyor N. Ansatbayev, partnyorları Karaqalpaqstan xalıq artisti

X.Ayimbetov, Qaraqalpaqstan Respublikasına xizmet kōsetken artist YE.Sayeyekev hēr bir repetisiyada belsendilik penen izlendi.

Ulperi obrazınan keyin Marjan apa «Urisqa nōlet» tragediyasında Zernegylдің obrazın jaratti. Zernegyl –yendi ulın ŷylendirip, kelininiң xizmetin kōrip atirg’an ana. Ulperi menen Zernegyl xarakterleri qarama- qarsi personajlar. Pesada dramaturgtiң sheberligi joqari dōrejede. Saxnaliq shig’arma dramaturgiyanıң barlıq talaplarına juo’ap berer dōrejede shiqtı. O’akiya Sapar ata-Shamurat Őtemuratov menen Zernegyl- Marjan Xalmuratovaniң dasturxan basında kempirin basqılap, shay iship otirg’an jerinen baslanadı. Qaraqalpaq xalqınıң kempir-g’arrılarına tēn dōlkek, basqısı tamashagōydi quo’naqlar ālemine jetekleydi. Spektaklde baslı o’aqiya – uris. Avtor yekinshi jōhēn urisin tildag’i bir qaraqalpaq shaңarag’i arqalı kōsetken. Yeki perzenti urista qurban boladı, kelinin qashqın Bodiq pishaqlar ōltiredi. Marjan araniң «Zernegyl kempiri» -sada, parasatlı, qaraqalpaq xalqınıң kōrti kōrgen, uristiң ao’ir kŷnlerinde tildag’i adamlarg’a mōdet berio’shi analardıñ biri. Zernegyl kempirdiң kelininen, ŷlken balasınan ayrılğ’annan keyingi is hōreketi, birinshi kartinadag’i Zernegylден tŷpten pariğ kiladi.Yendi uris aqıbetinen shaңarag’ına tŷsken mŷsiybetke bas iymegen-Ana. Kishkene bir kōriniste Zernegylдің kelini tiri o’aqtında toqıg’an, azg’ana jeri shala qalg’an jŷn shulig’in, urisqa jōrdem sorap kelgen mektep oqio’shisına berip jiberedi, sonda «Kelinim toqır pitkere almag’an yedi» degen bir ao’iz sōziniң ōzinde kelini Karımaniң ōmirden toymay ērmanlı ketkenin tamashagōyge jetkerip bere alg’ani kōrinip turipti. O’atandarlıq uristiң xalqımızdı o’atandı qōdirleo’ge, bir qarıs jerinde dushpang’a bermeo’ge kŷsh salg’ani spektaklde tamashagōyge jetkerilgen.Final saxnasındag’i shaңarag’ına fashistler ŷstinen jeñistiң xosh xabarı menen genjetay balasınıñ qurban bolğ’anlıg’i haqqındag’i kelgen qara xat. Spektakldiң kōrkemlik jaqtan bay bolio’ında aktyorlar ansambliniң ornı ōz aldına, usı jerde atap aytio’ kerek, M.Xalmuratovaniң, SH.Őtemuratov penen birge spektakl dao’amında, āsirese finaldag’i o’akiyalardag’i is-hōreketin til menen jetkerio’ qiyin, olardıñ o’aqiyadan-o’aqiyag’a ōtio’leri, hēr bir o’aqiyadag’i is-hōreketi ēpio’ayı hēm isenimli.

Teatr reformatori Stanislavskiydiñ aytqanınday «Yeger aktyor saxnada terlese, ol xudojnik yemes, gəp tek «Fizikaliq terleo'» haqqında yemes, öziniñ məqsetin tamashagöyge yeq əpio'ayiliq, jeñillik penen jetkerip berio' kerek. Aktyordiñ jeñil hərəket yetio'i, ылken miynetlerdiñ nətiyjesi bolip yesaplanadi. Izlenip tabilg'an, aldin-ala kelisilgen tapsirmalardi yerkin jeñillik penen, impravizatorliq talant penen, o'aqiya tap həzir usi demde tamashagöydiñ aldında bolip atirg'anday yetip kərsetio' - mine usi uqip aktyorliq sheberligindegi tiykarg'i həm yeq qiyini». Demek M.Xalmuratova usınday aktrisa. Spektakldi hər kərgenimizde oni mektep bilip, özlerimizge sabaq alatug'in yedik.

S.Xojaniyazov, A.Xalimovlardıñ «Syo'megenge syykenbe» muzikali komediyasında Gylsənem obrazi Marjan araniñ bas roli bolip yesaplanadi. 1978-jili «Syo'megenge syykenbe» muzikali komediyasi rejissyor N. Ansatbayev tərəpinen qayta saxnalastiriladi. Spektakldegi bas qaharmanlar obrazi qayta traktovka islenedi, biraq Gylsənem obrazi burin oynag'an Özbekstan Respublikasına xizmet kərsetken artist Sulio' Allamuratovaniñ oynag'an traktovkasi menen qaldi. Sebebi Sulio' Allamuratovaniñ – Gylsənemi təkirarlanbas dərəcəde, sonday əjayip həm əpio'ayi bolip, tamashagöydiñ jyreğinen orin alg'an yedi. SHəkirti M.Xalmuratova ustaz jolin dao'am yettirip, pətiyaların alip, Gylsənem rolin qolg'a aladi. Tamashagöy sipatında men de (Maryash Ismailova) Marjan araniñ qizi bolip, Aysənemdi oynasam, dep niyet yetkenmen. Niyetim 1982-jili əmelge asti. Tashkent teatr institutin tamamlap kelgennen keyin teatrg'a kelip, ulli ustaz Alimjan Xalimovtan Dosbergen Ranov, Joldasbay Seytqasimov, Begebay Allaniyazov, Marjan Xalmuratovalar qatarında sabaq alio' baxtına miyasar boldim. Men Marjan apadan birinshi gezekte saxnani hürmet yetio'di, sirttan kelgende yekinshi tərəpине өtio' ushin saxnani kesip өtpeo' kerekligin özime zañ yetip aldim. Ol bizlerge: «Saxna iləhiy orin, bul saxnada bizdi qollap turatug'in ruo'xiy kysh bar, saxna haqiyqiy sinaq orni, biz aktyorlar usi saxnada xaliqqa xizmet yetemiz, xaliq bizlerdiñ ne aytajag'imizdi hərəketimizden kərip bahalaydi» degen yedi. Muzikaliq spektakllerde ariya aytqanda aktyor dirijyorg'a qarao'i kerek, ariya aytqanda dao'isi buo'ilip qalmaq ushin jilamao' kerek degen tərtileri bar, biraq Marjan araniñ

saxnada Gylsänem menen Aysänemniñ bir duetinde oniñ ylkén saxna sheberi yekenligi kórinip turatug'ın yedi. Oniñ häreketten ariyag'a ötio' aralig'ında hesh yzilis sezilmeytug'ın yedi. Yesitio' qábiletiniñ kyshi sonda muzikani denesindegi hër bir kletkalari sezetug'ın yedi. Ol hër bir repetisiyani jan tñni menen atqaratug'ın yedi. Marjan araniñ ataq dañq ushin, yamasa hýkimet basshilaridiñ kózine tysio' ushin rol oynag'anin kórmedim. Spektakl jñmiyetshilikke kórsetiletug'ın o'aqitta: «Mag'an sin kózleri menen hër bir is-häreketimnen, sözimnen kemis izlep galstuklarin buo'indirip otirip kóretug'inlar ushin yemes, xaliq ushin spektakl oynag'andi jaqsı kóremen, xalqim aman bolsın» deytug'ın yedi. Tamashagöy teatrda sezim-tuyg'ini bastan ötkerip g'ana qoymaydi, ol aktyor menen birge därtlesedi. Oniñ menen birge birdem bolip jasıydi. Geyde sonday sinshillar boladi, doretio'shi jëmät neshshe aylap pesaniñ sözleriniñ ystinde «Iyne menen qudiq qazıp» jumis isleydi, hër bir sözdiñ podtekstin izleydi, tao'adi. Sonsha izlenio' nätijesinde spektakl tuo'iladi, bir kórip qöte pikir bildirgen teatr snishilarinan narazi bolatug'ın yedi ol. Negizinde hër bir kórkem öner iyesi döstyriy yesaplang'an usillarg'a tiykarlanıp, olardi yugrenip, soñ tek özine tñn doretio'shilik usil, yag'niy metod jaratadi. Marjan apa minekey, sonday doretio'shilerden yedi. Teatr öneri bërhama belsendilikti talap yetedi. Yeger saxnada, aktyor atqario'shilig'ında belsendilik bolmasa, bul ölik, amorf atqario' boladi. Saxnada tap sirtqi kórinisten hesh qanday nërse jyz bermey atirg'an jag'daylarda da, oniñ ishki öleminde kyshli, aktiv häreket boladi. Teatrdag'i hømme qurallar, nur, saxna qurilmalari, muzika, lipas, dekorasiya, grim, rekvizit høm basqa komponentleri aktyordiñ aktiv häreket yetio'i ushin xizmet yetedi. Olardiñ hømmesi bolsa, öz nšo'betinde, qural bolio'i menen birge, shig'armada høm aktyorda öz sšo'lesin tabadi, qosilisadi. Demek, teatrda aktyor doretio'shi, teatr bolsa, aktyor ushin muqaddes joqari dërgay.

M.Xalmuratovaniñ kórkem-önerimizdi rao'ajlandirio'g'a qosqan ylesleri hýkimetimiz tärepinen bahalanıp, 1977-jili «Qaraqalpaqstan Respublikasına xizmet kórsetken artist», 1991-jili «Qaraqalpaqstan xaliq artisti» ataqлари berildi. 2001-jil «Dosliq» ordeni menen siyliqlandi. Oniñ doretken «Sýymegenge sýykenbe»de - Gylsänem, «Jaylao'da toy»da – Gulsänem, «Qöyin yene»de - Afat, «Kelinler

qozg‘alañin»da – Farman bibi, «Saq g‘arg‘a sag‘ag‘inan»da – Netayxan, «Jarali jyreklar»de – Zernegul, «Jetinshi gərdishi»nde – Ayjamal h m basqa da k plegen spektakllerdegi t kirarlanbas obrazlari tamashag ylerdiñ keo‘illerinde m ngi m rlenip qaldi.

M.Xalmuratovaniñ  mirlik joldasi talantli rejissyor Keñyes Isayev Qaraqalpaqstan televideniyesinde xizmet yetti. Ol k plegen telepostanovkalar diñ avtori.  z isiniñ mamani, jank yer  lken  les qosti. Olardiñ  sh ul, yeki qizi bar. Marjan apa h rmetli dem alisqa shig‘ip balalariniñ ortasında aqliq shao‘ilqlardiñ qizig‘in k rip atirg‘an d o‘irinde sum  jel aramızdan alip ketti. Marjan araniñ sh kirtleri sipatında ustazimizniñ  lmes obrazlarin yad yetip «jatqan jeriñ jariq bolsin aktrisa bolip tuo‘ilg‘an qaraqalpaq qizi!» - degimiz keledi.

ПАЙДАЛАНГ‘АН  ДЕБИЯТЛАР:

1. Zufarov U. «Saxna dodalao ‘i h m talqilao ‘» (L.Urazmbetova ao ‘darmasi) – Bilim baspasi 2015.
2. Jiyemuratova M., Urazmbetova L. «Teatr  neri x m k rkem obraz» //taraz memlekettik pedagogikalıq universiteti niñ xabarshisi. – №1 (37) 2019.
3. Ismailova M. Teatr - drevneysheye iskusstvo jivogo slova i deystviya // "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz> – Volume 5 Issue 4 / August 2024 – S. 126-131.
4. Ismailova M., Urazmbetova L. SAHRO BULBULI AYIMXAN SHAMURATOVA //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 3. – S. 293-295.
5. Stanislavskiy K. «San‘atdagi hayotim». Badiiy adabiyot nashriyoti. Tashkent 1965.
6. Ismailova M. THE ART OF ORATORY //International Bulletin of Engineering and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 10. – S. 48-55.
7. Ismailova M., Ruslanbek N. Peculiarities of Creating A Musical Performance //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023. – T. 4. – №. 11. – S. 51-55.
8. Lizaxan U., Maryash I. Basic Concepts of Acting Psychotechnics in the School of Modern Acting Art //International Journal on Integrated Education. – T. 4. – №. 4. – S. 182-187.

Maxsuma Xodjimatova

*O‘zbekiston davlat sanat va madaniyat
instituti "Sahna nutqi" kafedrası dosenti*

O‘zbek teatri aktyorlarining kino va dublyaj san’atiga qo‘shgan xissalari

***Annotasiya.** Ushbu maqolada milliy teatrimizning darg‘a san‘atkorlari, yetakchi aktyorlar va pedogog-rejissyorlar ijodi haqida so‘z boradi. Shuningdek ularning ijodi davomida kino va dublyaj sohasidagi ibratli faoliyati va an‘anasini saqlab qolish uchun taklif bildiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Spektakl, sahna, ekran, dublyaj, partnyor, nutq, ovoz, nafas, uslub, ersonaj.*

***Аннотация.** В этой статье говорится о творчестве великих, ведущих актеров и режиссёров-педагогов национального театра. Также мы рекомендуем сохранить национальные традиции их деятельности в сфере кино и дубляжа.*

***Ключевые слова:** спектакль, сцена, экран, дубляж, партнер, речь, голос, дыхание, стиль, персонаж.*

***Annotation.** This article will talk about the creativity of Dargah artists, leading actors and pedogog-directors of our national theater. Also during their work, an invitation is expressed to preserve their instructive activities and tradition in the field of cinema and dubbing.*

***Keywords:** performance, stage, screen, dubbing, partner, speech, voice, breath, style, character.*

Dramaturg fikrini izhor qiladigan ham, rejissyor talqiniga jon kiritadigan ham, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotda bo‘lib, unga zavq-shavq bag‘ishlaydigan, o‘ylashga, fikr yuritishga majbur qiladigan ham aktyordir. Darhaqiqat, sahna qiroli hisoblangan aktyorlar zimmasiga ulkan vazifa yuklangan. Tabiatning gultoji bo‘lmish inson uning ezgu orzulari, baxt va erk yo‘lidagi tinimsiz mehnatlari, izlanishlarida uning xayotiy xaqiqatga aylanishlarida adabiyot va san‘atning o‘rni beqiyosdir. Sahnaviy xaqiqatni xayotiy xaqiqatga aylantira bilishlik murakkab ekanligi bizga ma‘lum. Shuning uchun spektakl tomosha qilish mobaynida ijro etilgan qaxramonlarning ta‘sirchan so‘zi, dialog, monologlar orqali, ba‘zan so‘zsiz xolatlar ham bo‘ladiki, buni eng mahoratli aktyorlarning butun ruhiyati va jismi orqali bo‘layotgan voqealarni rivojlantirib, tomoshabinni yetaklaydi. Sukutli sahnalarda ham tomoshabin voqeadan bir zum ham uzila olmay, qarsak chalib yuboradi, yig‘laydi, kuladi, o‘yga cho‘madi. Mana shu holatlar teatr san‘ating qudratini, asar muallifi, rejissyorning maqsad – muddaolarini to‘la – to‘kis

ado etayotgan aktyor orqali yetkaziladi. Teatr san'ati nazariyasi va amaliyoti mutaxassisi K.S.Stanislavskiy *“Sahnaning yagona shohi va hukmroni iste'dodli aktyordir!” deb ta'kildagani ham bejiz emas.*

Har bir sahna asari ulkan mehnat evaziga yuzaga keladi. Dramaturg aytmoqchi bo'lgan so'z, rejissyor olib chiqayotgan g'oya, aktyorlar ijrosi, teatr rassomining dekorasiyadagi sahnaviy yechimi, chiroq va musiqa bezaklari, grim va liboslar spektakl mavzu va g'oyasini ochib berishda muhim vosita sanaladi. Shuningdek, pesa, uslub va janr borasidagi tanlov spektakl asosini tashkil qiladi. Har bitta yangi spektakl namoyishi aktyorlar uchun tomoshabinlar oldidagi katta imtihondir.

O'zbek teatrining tarixi uzoq o'tmishga ega. U qadimiy teatr, an'anaviy qiziqchi va masxarabozlarning tomosha san'ati va XX asrning boshlaridan shakllanish jarayonini o'tab, professional davlat teatri darajasiga ko'tarilgan milliy madaniyatimizni o'z ichiga oladi.⁴ O'zbek milliy teatrining jahonga dovrug'i ketgan spektakllaridagi zabardast, sahna san'atining darg'alari yaratgan obrazlari xali –xanuz xalqimiz e'tirofida. Teatr tarixi bo'yicha san'atshunos olimlarning ilmiy tadqiqod meroslaridan bizga ma'lumki, o'zbek dramaturgiyasining asoschisi, shoir, tarjimon, bastakor hamda aktyor sifatida nom qozongan, Hamza Hakimzoda Niyoziy boshchilik “O'lka sayyor truppassi” deb atalar edi..

Keyinchalik truppaga aktyor va rejissyor, o'zbek adabiy tili va shevachiligining katta bilimdoni Mannon Uyg'ur jalb etiladi. O'lkamizdagi teatrchilik xarakatining ilk qaldirg'ochi, Hamza bo'lsa, u asos solgan teatr ijodiy faoliyatining keyingi bosqichlarida truppani shakllantirish, repertuar ustida jiddiy ishlash, aktyorlar mahoratining charxlanishi hamda teatrning professional darajasi yanada takomillashuvida rejissyorlar Mannon Uyg'ur va Yetim Bobojonovning hissasi beqiyos ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Shunisi diqqatga sazovorki, keyinchalik yirik teatr aktyorlardan A.Hidoyatov, O.Jalilov, F.Umarov, L.Nazrullayev, S.Olimov, S.Tabibullayev, M.Qoriyeva,

⁴ Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи. Дарслик-монография. -Т.: “ART PRESS” Co.Ltd, 2010 – 568b.

S.Eshonto'rayeva, Z.Hidoyatova, T.Sultonova, Z.Sadriyeva, Sh.Ma'zumova, X.Islomov, Sh.Qayumov, G'. Isomov, H.Latipov, M.Miroqilov, M.Kuznesova, X.Xo'jayeva, Sh.Burhonov, O.Xo'jayev, N.Rahimov, A.Turdiyevlar truppaning o'ttizinchi-elliginchi yillardagi yetakchi ijrochilari bo'lib qoladilar. Bu borada teatrdagi ko'plab spektakllar sahnalashtirilishi o'zbek teatrining rivojlanishiga xissa qo'shib keldi.

Milliy teatrimiz darg'alarining ijod maktabi, so'zlash mahorati kabi namunali an'analari xaqida so'z borganda," Muqimiy nomidagi O'zbekiston musiqali drama teatri" vakillariga mansub, Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Toshxo'ja Xo'jayev kabi rejissyorlarning aktyorlik mahorati va sahna nutqi ustida ishlash maktabidan xabardor bo'lgan, ular bilan ma'lum muddatlarda ijodiy hamkorlikda bo'lgan Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Abdurauf Boltayev, Farog'at Rahmatova, Mashrabjon Yunusov, Hamza Umarov, Fayzulla Ahmedov, Farziddin Fayozov singari aktyorlar ijodini ham yodga olish maqsadga muvofiqdir.

Razzoq Hamroyev sahnadagi partnyorini qalbiga ta'sir o'tkazish uchun aktyorning eng avvalo nutqi mantiqan to'g'ri va ishonarli tarzda yo'lga qo'yilishi zarurligini, har bir so'zdagi tovushlar talaffuzi meyorida bo'lishi lozimligini juda yaxshi his etardi. Shu bois sahnada uning baland ovozda gapirishi ham, muayyan vaziyat taqazosiga ko'ra past, pichirlash darajasidagi so'zlari ham partnyori uchun ham tomoshabinlar uchun ham birdek tushinarli va ta'sirchan bo'lgan. Razzoq Hamroyevning ham talabalarga ustozlik qilganliklari bois ijodiy faoliyati bilan teatr institutidagi pedagoglik faoliyatining sermahsul bo'lganligi shogirdlari va teatr va kino mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan.

Mannon Uyg'ur va Yetim Bobojonovlarning sahna maktabida toblangan, ularning ish uslublarini o'zbek teatr san'atiga kiritgan nazariy va amaliy yangilik hamda topilmalarini olib kirgan

Toshxo'ja Xo'jayev ham o'zining ko'p vaqtini yoshlar tarbiyasiga bag'ishlagan. Teatr san'ati institutida talabalarga aktyorlik va rejissyorlik mahoratidan saboq berish ijodiy faoliyatining muhim bir sohasi hisoblangan. Shu bois o'zi tahsil bergan talabalarni bitirish arafasida Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama

(hozirgi Milliy teatr) teatriga olib keladi. Shu tariqa Turg'un Azizov, To'ti Yusupova, Turg'un Xonto'rayev, Zebo Soliyeva, Abror Qosimov, Dilbar Qosimova kabi yosh aktyorlar ijodiy yo'lini ana shu teatrdan boshlash baxtiga muyassar bo'ladilar.

Shogirdlaridan Turg'un Azizovga, uning ijro uslubi, aktyorlik mahoratiga alohida ahamiyat bilan qaraydi. Unga ishonch bildirib, bosh qaxramonlar ijrosini topshiradi. Turg'un Azizov yaratgan G'ofir, Yo'lchi, Monserro, Eydzi, Ferdinand singari qator obrazlar rejissura san'atining ustasi hamda ustoziga sadoqatli shogirdning yelkama – yelka izlanishlari mahsuli sifatida yuzaga keladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston xalq artisti Turg'un Azizov ham, Ustozi Toshxo'ja Xo'jayev yaratgan sahna ijrochiligi maktabining peshqadam vakili sifatida samarali izlanishlar olib borib, ko'p yillar mobaynida teatr san'ati institutida talabalarga dars berdilar. Ham aktyor, ham rejissyor sifatida ijro etgan salmoqli rollari hamda sahnalashtirgan qiziqarli spektakllari bilan tomoshabinlar e'tiborini qozonganlar. Ustozlari kabi guruhlarida tahsil olgan shogirdlaridan bir qanchasini milliy teatrga olib kelganlar. Bugungi kunda ular samarali ijod qilib kelishmoqda. Ijod bilan san'at ta'limi pedagogikasini uyg'un olib borib, teatr san'ati ravnaqini yuqoriga ko'targan darg'alarimiz tufayli o'sha poydevori mustahkam aktyorlik san'ati maktabi shu kungacha yashab kelmoqda.

O'zbek sahna va ekran san'atining betakror "ayasi" Lutfixon Sarimsoqova ijro jarayonida sahnaviy nutq, ovoz va nafas tizimlarini idora qilishning havosini olgan usta san'atkor bo'lib, o'zining sodda va tabiiy ijrosida so'z va jumlar qatidagi kinoya, qochirim, uchiriq, kesatiq unsurlarini og'ishmay, tomoshabinga yetkazishda ayni shu omillardan foydalangan. Bunga misol qilib uning ijrosidagi Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakldagi Zoli Makkora (Yosuman), "Mahallada duv – duv gap" filmidagi ona yaratgan obrazlari o'zining betakrorligi bilan xalqimiz qalbiga muhurlangan.

O'zbekiston xalq artisti Hamza Umarov esa milliy teatr va kino san'atida mutlaq o'ziga xos betakror ovozi bilan mashhurligini san'atsevar xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'lgan. "Shum bola "filmidagi o'g'riboshining so'zlarini eslasak, uning

qabih ishlardan qaytmaydigan bir kazzob personaj xatti – xarakati, yurish – turishi, uning ruhiy – jismoniy holat uyg'unlikni ekanligini ko'ramiz. Uning shu "hunar" orqali hech bir kami bo'lmasligini, yaxshi yashashini ikki yosh bolalarga ishonch bilan aytishida o'z yo'li to'g'ri ekanligi bir so'z bilan yoki mo'ylovini ora-sira siypab qo'yishida yaqqol ko'rinadi. "Mahallada duv – duv gap" filmidagi buning butunlay boshqa, "ichimdagini top" qabilidagi og'ir, bosiq "onaning chizgan chizig'idan chiqmaydigan" o'g'il rovida esa holati ham, qarashlari ham, yana qo'rqqoligiga mos sal titroq ovoz tanlash mahorati bu aktyor uchun noyob topilma hisoblanadi. Shu ko'nikmasining mahsuli dublyajdagi jahon filmlaridagi turli millat vakillarining, takrorlanmas obraz qahramonlariga ovoz berishda qo'l keladi. san'atkor ovozi tinglovchi diqqatini darhol o'ziga qaratish, o'tkir va keskirliги bilan ajralib turadi. Aktyor har bir so'zni lo'nda, har bir jumlani kesib gapiradi. Hamza Umarovning ovozi evrilish (o'zgarish, boshqacha tus olish) kuchiga egaligi bilan ham jiddiy ahamiyat kasb etardi. Shuni aytish kerakki, Hamza Umarovning ovozi har bir vaziyatga moslasha olar, obraz holatiga mos ravishda tusini darrov o'zgartirib, o'sha holatga mos badiha qilishga, shu yo'l bilan vaziyatning mazmun – mohiyatini ochib berishga moyil va qodir edi. Shu bois ham so'z san'ati ilmi – amaliyotini obdon o'zlashtirgan Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatrining Razzoq Hamroyev, Hamza Umarov, Abdurauf Boltayev, Farziddin Fayozov, Fayzulla Ahmedov, Sobirjon Rahimjonov singari aktyorlari qatori Mukambar Rahimova, Rimma Ahmedova, O'ktam Luqmonova, O'zbekiston xalq artistlari Yoqub Ahmedov, Obid Yunusov, To'lqin Tojiyev, Arsen Ismoilov, Dilbar Ismoilova, Xojiakbar Nurmatov singari aktyorlar butun faoliyatlari mobaynida teatr, kino bilan bir qatorda dublyaj san'atining ham eng faol ishtirokchisi bo'lib , o'zbek dublyaj san'ati maktabiga asos solgan san'atkorlar sifatida milliy san'atimiz va madaniyatimiz tarixida muqim joy oldilar.

Bugungi kunga kelib zamonaning eng tezkor va samarali texnika jihozlari bilan ko'plab filmlarni dublyaj qilish va kino ekrani hamda televideniye va ijtimoiy tarmoqlar uchun ham jahon filmlarini dublyaj qilish ishlari davom etmoqda. Ibratli maktab sanalgan dublyaj san'ati an'anasini endi davlat va nodavlat kanallarini

to'ldirish uchun har bir kanalning o'zi dublyaj qilish ishlari boshlanganiga ham 15-20-yillar bo'ldi. Avvalo dublyaj mutaxassislarining televideniyeiga ko'chirilib,telefilm binosida ham xalqimizga manzur bo'lgan "Mahobhorat" nomli xindiston tarixiy seriali,"Kusto komandasining suv osti sarguzashtlari deb nomlangan ilmiy-ommabop filmi va yana bir qancha multfilmlarning juda samarali va ta'sirchan qilib dublyaj qilinganligi ham tahsiga sazovordir. Bu borada dublyaj rejissyorlari va mutaxassislari, Bahodir Abdullayev, Yo'ldosh Abdukarimov, Kamolliddin Usmonovlarning nomlarini alohida aytish lozim. Dublyajning keyingi avlod vakillari Elyor Nosirov, Sanjar Sa'dullayev, Farhod Aminov, G'aybulla Xojiyev, Afzal Rafiqov, Oybarchin Bakirova, Mahmud Ismoilov, Xojiakbar Komilov, Zulkumor Mo'minova, Bekzod Muhammadkarimov, Madina Muxtorova, Fatxulla Ma'sudov, Lola Eltoyeva, Faxriddin Shamsimatovlar ishlagan davrlarda ham klassik dublyaj maktabi an'anasi saqlanib turdi. Ushbu davrda ham teatr aktyorlarinig xizmatlari katta bo'ldi deb ayta olamiz. Endi aktyorlar soni biroz qisqartirildi. Ya'ni bitta aktyorning o'zi 3-yoki 4 personajga ovoz berish ishlari boshlandi. Bu uslub ham qiziqarli jarayonlarni berdi. Endi aktyor zimmasida boshqa xarakterli,boshqa ovozli personajga ovoz berishi mas'uliyati bor edi. Mahoratli aktyorlarimiz bu jarayonni ham uddalay oldilar.Masalan O'zbekiston xalq artistlari Afzal Rafiqov,Dilbar Ismoilovalar "Esmeralda" ko'p qisimli filmida 3-4 personajlarga ovoz berishdi. Bu albatta aktyordan ovoz tallaffuz,nutqiy xarakter va ijro mahorati kabi sahna nutqining eng zaruriy elementlari bilan bir qatorda eng kichik unsurlarini ham o'rganishni va uni to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Yuqrida aytib o'tganimiz telekanallar qoshida ham dublyaj ishlari amalga oshirilayotgani Koreya, Meksika, Turkiya, Xitoy davlati seriallarning tomoshabinlarga taqdim qilish davrida ko'proq ham tezkorlikka e'tibor qaratildi. Yosh aktyorlar bilan ishlash ko'p vaqt olishi sabab,tajribali aktyorlar bilan ishlab filmni tezroq taqdim etish xolatlari kuzatilda. Buni dublyaj mutaxassisilari o'zlari ham ta'kidlashgan. Yaqin yillar mobaynida Prezident qaroriga muvofiq o'zbek seriallarini ishlab chiqish va uni xalqimizga taqdim etish kabi vazifalar, dublyaj va

ovozlashtirish ishlarining ham tezkorligini, uning tomoshabingga manzur bo‘ladigan ,ma’naviy - tarbiyaviy jihatlarini inobatga olgan holda taqdim etib kelinishini tomoshabin va soha mutaxassisi sifatida kuzatib kelmoqdamiz. Milliy seriallarning ko‘payshishi teatr aktyorlari qatori talaba-aktyorlarning ham ijodiy amaliyotga jalb qilinishi quvonarli albatta.Ta’lim bilan shshlab chiqarishning uzviyligini ta’minlanganligi bu bo‘lg‘usi aktyorlarga tajriba va ko‘nikmalarin oshirishda ko‘mak beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, milliy teatr va kino san’ati tarixi O‘zDSMI da nazariy va amaliy tarzda teatr san’ati,kino,tv va kino san’ati yo‘nalishi talabalariga malakali pedagoglar va taniqli aktyor va rejissyorlarni jalb qilgan holda o‘qitilmoqda. Jumladan “Kino,televideniye va radio rejissyorligi” kafedrasida “dublyaj asoslari”tanlov fanlarda, Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasida 3-4 semestrda”Badiiy asarlarni ovozlashtirish”deb nomlangan fan ham tanlov fanlarida, shuningdek ikki yildan buyon yangi fan tarzida o‘tilayotgan “Filmda ovoz yozish amaliyoti” fani birinchi kursdan boshlab asosiy fan sifatida o‘qitilmoqda.Lekin uning ijodiy amaliyoti, ba’zan institut ovoz yozish xonasida,aksariyat tashqaridagi xususiy pullik studiyalarda o‘kaziladi. Bu talabaga ham mablag‘ ,vaqt masalasida birmuncha noqulaylik keltirishi aniq. Buning uchun bizda rejissyorlik guruxlari turlari bo‘yicha, aktyorlik yo‘nalishi ham turlari bo‘yicha o‘qitilishi hammamizga ma’lum. Yana shuni aytish kerakki ularga ham”aktyorlik mahorati” “Sahna nutqi” fani o‘tiladi. Demak talaba – rejissyor ham aktyorlik san’atidan xabardor. Institutdagi amaliyotni o‘tash davrida kafedralar tomonidan talabalarning o‘zlari mustaqil bir film dublyajini amalga oshirishlari mumkin. Buning uchun albatta texnik uskuna bazalar yetarli bo‘lishi lozim.Amaliyot davrining mahsulini baholash shu yo‘nalish kafedراسi professor – o‘qituvchilari tomonidan muhokama etilib amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Keyinchalik ijodiy mahsulotning tijoratlashtirilsa moliyaviy tomoni, ham ma’lum bo‘lardi. Professional dublyaj rejissyorlarining film dublyaji va vaqt masalasi tig‘izligi bois yosh tajribasi yetarli bo‘lmagan aktyordan ko‘ra, tajribali aktyor bilan ishlashlarning sababiga yechim topilar edi. Bu borada o‘quv

dasturlariga ham sohani o‘rganish uchun qo‘shimchalar kiritish kerak. Takliflarimiz amalga oshirilib inobatga olinsa, institutni bitirib ishlab chiqarishga kuzatilgan mutaxassisning bilim va ko‘nikmasi amaliyotda charxlanganligi, milliy san‘atimiz namoyondalari an‘analarini davom ettirishdek xayrli ishlarda namoyon bo‘lishiga ishonamiz. Yuqorida aytib o‘tganimizdek milliy san‘atimizning mustahkam poydevori sanalgan ustoz-shogird an‘anasini mavjud. Uni saqlash, teatr va kino san‘ati yo‘nalishi talaba - yoshlarining nazariy va amaliy bilimlarni o‘quv va professional teatr sahnalarida, kino va televideniye ekranlarida namoyish qilish, shuningdek dublyaj san‘ati maktabi va uni qunt bilan o‘rganishlari har bir pedagog-ustoz uchun mas‘uliyat talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Azizov T. Mening rejissyorlik ishlarim. So‘zboshi. // “Akademnashr”, 2010.*
2. *Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi.– T.: Badiiy adabiyot. 1965.*
3. *Ikromov H. “Davr va teatr”. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2009.*
4. *Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.*
5. *O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Azizov bilan suhbat. 2008-yil.*
6. *Dublyaj rejissyorlari, Mirg‘iyos Soatov, Yo‘ldosh Abdukarimov, Kamoliddin Usmonovlar bilan suhbat. 2008-2010-yillar.*

Mumtoz adabiyot namunalarining ma'naviy qudrati

Annotasiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida o'z asarlari bilan iz qoldirgan buyuk shaxslarining asarlari bugungi kun yoshlarining manaviyatida tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-masnaviy, doston, xalq ijodi, milliy model, axloqiy-ta'limiy qimmat, so'fiylik ta'limoti, manaviy taraqqiyot, Rumi g'oyasi, meros.

Аннотация. В данной статье рассматриваются произведения великих личностей, оставивших своим творчеством след в узбекской классической литературе.

Ключевые слова: духовный, эпос, народное искусство, национальная модель, нравственно-воспитательная ценность, суфийское учение, духовное развитие, идея Руми, наследие.

Annotation. This article examines the works of great personalities who left their mark on Uzbek classical literature with their creativity.

Key words: Spiritual, epic, folk art, national model, moral and educational value, Sufi teaching, spiritual development, idea of Rumi, heritage.

O'zbek tili va adabiyotini Alisher Navoiysiz tasavvur qilish qiyin. Nafaqat o'zbek adabiti balki turkiy xalqlar adabiyoti Alisher Navoiy bobomizning ijodi bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi, she'riyat mulkining sultoni hazrat A.Navoiy tarixda nomlari oltin harflar bilan yozib qo'yilgan shoir va olimlar sirasiga kirib, u zotning yozgan asarlari ham dunyo adabiyotida shoh asarlar qatoridan o'rin olgandir. Hazratning purma'no she'r va g'azallarida ilohiy ishq, halolik, poklik, rostgo'ylik, insoniy ulug' fazilatlar, insonparvarlik, diyonatlik, saxiylik, kamtarinlik, muloyimlik va hokazo insoniyat uchun qancha manfaatlar bo'lsa, barchasi asarlarda o'z aksini topgan.

Kino, teatr, opera san'atida xam Navoiy asarlariga murojat qilinishining boisi asarlaridagi ma'naviy axloqiy g'oyaning birinchi o'ringa qo'yilishi desak mubolag'a qilmaymiz. Ayniqsa bog'cha, ta'limning ilk bosqichi maktab, oliy ta'lim o'quvchilariga kiritilgan uzluksiz nazariy va amaliy ko'nikmalar, tarixiy manbalar, yirik adabiyotshunos olimlarining qilayotgan tadqiqod ishlari asosida yoshlar

ma'naviy ongiga singdirilmoqda. Bularning amaliy ko'rinishi sifatida respublikamiz bo'ylab xar yili o'tkazib kelinayotgan Navoyixonlik, Bobirxonlik kechalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunday targ'ibot ishlari ta'lim maskanlari bilan bir qatorda keng omma auditoriyasiga ega bo'lgan teleradioda xam uzoq yillardan beri o'z aksini topmoqda. Uzbekiston teleradiosining "oltin fond"ida qo'yilgan spektakllar, radiopastanovkalar, ijro etilgan mumtoz she'riyat na'munalari saqlanmoqdaki, ularning barchasi kelgusi avlod vakillari, yoshlar xayotida ma'naviy manbaa bo'lib qoladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Anqarada Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimida: "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda" deb ta'kidlagan edi.¹ Xaqiqatan xam keyingi yillarda yurtimizda kitob mutoalasiga, ma'naviy tarbiyaga bo'lgan e'tibor davlat siyosatigacha ko'tarildi. Ta'lim maskanlarida mumtoz adabiyot namoyondalari, shoirlar, shonli sarkardalar xayoti va faoliyati, adabiyotimizga qo'shgan xissalarini o'rganish maqsadida ko'plab ilmiy anjumanlar va seminarlar o'tkazilib kelinmoqda. Ularda olimlarimiz qatori yosh tadqiqodchilarimiz tomonidan yozilgan ilmiy ishlanmalar, adabiyotlar, monografiya va risolalar yaratilmoqda.

Xalqimizga, xususan yoshlarga mumtoz adabiyotning ibratli va xayotiy xikmatlarga boy namunalarini yetkazishda yuqorida ta'kidlaganimizdek radio va televideniyaning o'rni beqiyosdir. Masalan, televideniya Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofotining lauriyati, el-yurt xurmati ordeni nishondori, rejissyor Maqsud Yunusov "Ulug'bek xazinasini", "Navoiy", "Bobur", "Layli va Majnun", "Kecha va Kunduz", "Ibn Sino xaqida hikoyalar" videofilmlari kelajak avlod uchun ma'naviy me'rosdir bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston san'at arbobi, professor, ko'plab dramaturglarning asarlarini saxnalashtirgan rejissyor, ustozimiz

Maxkam Muxamedovning “Padarkush”, “Amir Muzaffar” kabi videofilmlari xam yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida muxim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston radiosining “oltin fondi”da xam ko‘plab tarixiy asarlar mavjudki, ular bugungi kunda xam o‘z muxlislariga egadir. Masalan, Andijon musiqali teatrda saxnalashtirilgan “Nodira”, Muqimiy nomidagi davlat musiqali teatrida saxnalashtirilgan “Layli va Majnun”, “Muqimiy”, “Navoiy Astrobotda”, Xamza nomidagi akademik drama teatrida saxnalashtirilgan “Nodirabegim” radiomontajlari, “Soxibqiron va xofiz”, “Abulfayzxon”, “Sug‘diyona”, “Bobirning bolaligi”, “Bobur”, A.Navoiyning Xayratul abror va Lison ut tayr dostonlari asosida “Bir xikoyat so‘zlaydi”, “Dilorom” operasi va yana ko‘p asarlar radiopostanovkalarini misol keltirishimiz mumkin. Radio rejisserlari Rustam Qurbonov, Gulchexra G‘iyosova, Ne‘mat Do‘stxo‘jayev, Abror Qosimov, Javlon Toshxo‘jayevlar tomonidan yozilgan radio postanovkalar hamon tinglovchilarga takror va takror eshittirilmoqda. Bu ham bo‘lsa mumtoz adabiyot namunalarining ma’naviy qudratining bir ko‘rinishidir. Bundan tashqari mumtoz she‘riyat-g‘azallarning mutaxassislar tomonidan ijro etilgan radio tasmalari xam bugungi kun ma’naviy olamini boyitishga xizmat qilmoqda.

G‘azalning paydo bo‘lishi va rivojlanishi musiqa san’ati bilan chambarchas bog‘liq. Dastlab G‘azalga taxallus qo‘yilmagan, bu keyinchalik an’anaga aylangan. Fors so‘z san’atida G‘azal dastlab rudakiy ijodida uchrasa-da, Sa‘diy ijodida u to‘la shakllanib, she‘riyatning asosiy janrlaridan biriga aylandi, keyin Hofiz uni yuksak darajaga ko‘tardi: u o‘zigacha tasavvuriy va dunyoviy yo‘nalishda rivojlanib kelgan g‘azalchilikni o‘zaro omuxta qildi. Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Isfahoniy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Xoju Kirmoniy, Salmon Sovajiy, Abdu-rahmon Jomiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi shoirlar G‘azal taraqqiyotida katta rol o‘ynaganlar. O‘zbek adabiyotida G‘azalning ilk namunalari Rabg‘u-ziining «Qissasi Rabg‘uziy», Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sida uchraydi; keyinchalik Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ubaydiy, Mashrab, Mujrim-Obid, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar va boshqalar ijodida rivojlantirildi.²

O‘zbekiston radiosida yozilib, oltin fondan o‘rin olgan g‘azallar xaqimizning boy madaniy me‘rosi hisoblanadi. Ularni o‘z muxlislariga yetkazgan, ustoz san‘atkorlarning ijrolariga tasanno etmaslik mumkin emasdi. O‘zbekiston xalq artistlari Qodir Maxsumov, Tuyg‘unoy Yunusxo‘java, Mirzoxid Raximov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Temurmaliq Yunusov, Nasiba Qambarova, Nasiba Ibroximova, oliy toifali diktora, O‘zbekiston davlar san‘at va madaniyati institutining dosenti Ernazar Yorbekov va ko‘plab ijodkor diktorlar tomonidan o‘qilgan g‘azallar radioning oltin fondidan o‘rin olgan.

Shularning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston radiosining “Maxalla” radiokanalida olti jiltdan iborat Jalolliddin Rumiyning “Masnaviy-ma‘naviy” asarini sharx va nasriy bayoni bilan salakam to‘rt yil mobaynida efirga uzatildi. Tarjimon, yozuvchi Jamol Kamol tarjimasini bilan berilgan ushbu ma‘naviy hikoyatlarning nasriy bayonini jurnalist Umida G‘afforova tayyorladi. Dunyo adabiyoti xazinasida shunday muhtasham asarlar borki, ular qachon va qanday siyosiy-ijtimoiy tuzum davrida yaratilganidan qat‘iy nazar barcha davrlar, zamonlar uchun o‘z ahamiyatini zarra qadar yo‘qotmaydi. Balki davrlar sisilasida bunday asarlar o‘zining yangidan yangi ma‘no mohiyatini ochib boraveradi. Xossatan, buyuk alloma J.Rumiyning xazratlarining 6 jiltdan iborat "Masnaviy-Ma‘naviy" asari bunday e‘tirofqa eng loyiq ma‘naviy xazinadir. "Mahalla" radiokanali tinglovchilariga ushbu asar to‘liq holda nasriy bayoni va imkon darajasidagi ilmiy sharhlari bilan taqdim etildi. Ushbu durdona asarni men diktora sifatida radio tinglovchilarga o‘qib eshittirdim. Bu jarayon ijodiy jamoa bilan bir qatorda juda katta taasurot qoldirdi. Rumiyning talqinidagi Masnaviy olamiga mo‘jizali sayohatni baxsh etdi. Forsiy Qur‘on deya e‘tirof etilgan ushbu asarning bosh maqsadi Insonni sof insoniy obrazda kashf qilishdir. Odamning nima uchun xalq etilgani, uning hayoti va o‘limidagi hikmat nimadan iborat ekani, bu foniy olamga qisqa vaqtga tashrif buyurgan har bir odam nimaga ulgurib qolishi shartligi Masnaviy hikoyatlarida juda ravon va aniq tiniq misollar bilan bayon qilinadi. Hayot to qiyomatga qadar Haq va botil o‘rtasidagi jang ekanini, o‘zini qutqarishni istagan inson Xaqni tanishi, U Zot buyurgan amallarda qoim turishi, shaytonning makrlari va nafsining xiylalariga aldanmasligi bosh g‘oya sifatida

taqdim qilinadi. Sof axloqiy sifatlar tarannum etiladi. Tarbiya masalasiga juda jiddiy qaraladi va bu yo'lda xar bir odamga bir rahnamo, ustoz kerakligi uqtiriladi. Insonning qadru qiymati Xaqni tanishi, o'zining kim ekanini anglashi va natijada axloqiy komillikka intilishi, yetishi bilan o'lchanishini hikoyatlar bilan isbot qiladi.

Inson hayotining barcha davrlari mukammal qamrab olingani va bu davrlarda nimalarga e'tibor qaratish, qanday vazifa va burchlarni bajarish shartligi va inson mana shu belgilangan yo'ldan sadoqat bilan o'tsagina chin insoniylik nomiga munosib bo'lishi, xaqiqiy baxtga yetishishi bayon qilib beriladi. Shunday ekan, ushbu asar va undagi xikoyatlarni o'qib o'rganish, tinglash va xayot tarziga singdirish barcha insonlarga, xossatan yosh avlod vakillariga nihoyatda zarur ilm va zakovat bagishlashiga shubha yo'q. Ushbu asarni tinglovchilarga taqdim etar ekanman. Uning ortida bir necha ijodiy jamoa muxarrir, rejissyor, ovoz operatori va musiqa muxarriri mehnat qildi. Ularning barchasi radioasarning to'laqonli chiqishida asosiy ko'mak bergan diktorning ijrosiga yordam berishib, taqdim etilgan asarni eshituvchiga manzur bo'lishiga hissa qo'shishdi. Shu o'rinda mumtoz asarlarda radio boshlovchining nutqiy xarakteriga to'xtalib o'tishdan oldin nutq va uning ijrodagi vazifalariga to'xtalib o'tamiz.

Inson nutqida har doim uning aqli, zakovati, irodasi, ishonchi va qobiliyati aks etadi. Binobarin, nutqning asosiy vazifasi ma'lum darajada tinglovchilarga ta'sir etishdan, fikrning mantiqiy yo'nalishiga sharoit yaratishdan, qat'iyatlik bilan tinglovchilarni konkret narsalarga ishontirishdan, ularni o'z istagicha o'ylashga va sezishga majbur etishdan iboratdir.

K.S.Stanislavskiy o'zining so'z bilan xatti-harakat qilish ta'limotiga nutqning ana shu ajoyib xususiyatini, ya'ni ma'lum konkret maqsadga yo'nalganlik xususiyatini asos qilib olgan edi. Uning fikricha: "Ma'lum konkret maqsadga yo'naltirilgan aktiv, haqiqiy unumli xatti-harakat ijodiy ishning, binobarin, nutqning eng asosiy xususiyatlaridandir. Chunki so'zlash xatti-harakat qilish demakdir"¹.

K.S.Stanislavskiyning bu fikri ifodali o'qish protsessida estetik tarbiya uchun g'oyat katta ahamiyatga ega.

Badiiy tekstni tinglovchilarga yetkazishda ijrochi ularga ta'sir etishga harakat qiladi va shu orqali asar mazmunini estetik qabul qilishga hamda baholashga majbur etadi. Ijrochini so'z bilan aktiv xatti-harakat qilishlikka qo'zg'atuvchi bunday maqsadni K.S.Stanislavskiy xatti-harakatli vazifa deb ataydi va uning qiziqarli, hayajonlanarli bo'lishligini, ya'ni estetik xarakterga ega bo'lishligini talab etadi. "Bizning ijodiy maylimiz uchun birdan-bir bo'ladigan, o'ziga tortadigan narsa ijodiy vazifadir. Bu vazifa ijodiy havasni qo'zg'otishda bir vosita bo'lmog'i kerak. U, xuddi ohanrabo kabi o'ziga tortadigan, jalb etadigan kuchga ega bo'lishi, kishini har doim o'z damiga tortib turishi va shu orqali qandaydir intilish, harakat va xatti-harakatni yuzaga keltirish lozim. Ijodni qo'zg'otuvchi va olg'a bostiruvchi kuch, xuddi ana shu vazifadir". Biroq xatti-harakatli vazifa ijrochining o'ylab chiqargan narsasi emas. U o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, albatta. Mazkur vazifa avtorning ijodiy maqsadi bilan chambarchas bog'liq holda vujudga kelib, badiiy obrazlarni qayta yaratishda va asar g'oyasini aniqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat etadi. Asardagi asosiy fikr va uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qishning oliy maqsadini bilmasdan turib, asarning birorta satrini ham ifodali o'qib bo'lmaydi. Agar ijrochi har qanday badiiy asarni tinglovchiga ifodali va jonli qilib yetkazishni istasa, avtor fikrining mag'z-mag'ziga tushunib olishga, o'zining oliy maqsadini belgilashga harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir ijrochi ma'lum bir asarni ijro etishdan oldin mazkur asarda eng asosiy narsa nimadan iborat va men uni nima uchun ijro etayapman degan savollarga to'la va har taraflama javob bera bilmog'i kerak. Ana shunda har bir o'quvchining nutqi sodda va go'zal bo'ladi. Sodda va go'zal gapirish, K.S.Stanislavskiy aytganidek, san'at hisobalanadi.³

Mazkur san'atni egallash esa Teatr va rassomlik san'ati institutining aktyorlik va rejissyorlik fakultetlaridagi studentlarning, qolaversa ifodali o'qish ishqibozlarining vazifasidir. Yuqoridagi fikrimizni davom ettirar ekanmiz, mumtoz asarni o'qiydigan va ijro qiladigan aktyor yoki boshlovchi ovozining sokinliginligiga e'tibor qaratishi, asardagi voqealarni xis etib ko'z o'ngidan o'tkaza bilishi kerak. Aktyor ovozining tinglovchilarga ta'siri juda katta ahamiyatga ega.

Hech bir cholg'u sadosi inson ovozi kabi yoqimli, ta'sirchan va ifodaviylikka ega emas.

Aktyor ovozini o'z xohishi, niyati, irodasi, temperamenti va asablariga bo'ysundira olmasa, tomoshabin ijrochining insoniy nafis hissiyoti va psixologik holatini payqab ololmaydi. Aktyor keng diapazonli, egiluvchan, ifodali, ravon bo'lishi kerak.

Yanada aniqrog'i – har bir aktyor ovozi kuchli, ta'sirchan bo'lishi lozim. Buning uchun aktyor o'z ovozini tarbiyalashi, o'stirishi, chiniqtirishi kerak. ovozni tarbiyalash uchun aktyorning o'z ustida ishlashi muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan bir qatorda musiqani xam xis etishi zarurdir. Endi Jaloliddin Rumiylar xikoyalaridan birini etiboringizga xavola etaman.

SUZISHNI BILMAGAN TILSHUNOS

Til qoidalarini puhta biladigan tilshunos bor edi. U o'zining bu fazilati bilan faxrlanardi. Bir kuni kemaga chiqib, dengiz safariga otlandi. Kemachiga yuzlanib: «Sen til qoidalarini o'rganganmisan?», deb so'radi. «Yo'q», dedi kemachi. Tilshunos: «Unday bo'lsa, sening yarim umring bekor ketibdi», dedi. Kemachining bu gapdan ko'ngli og'ridi, lekin darrov javob qaytarmadi. To'satdan shamol ko'tarilib, suv kemani qa'riga torta boshladi. Kema girdobga yaqinlasha bordi. Kemachi yo'lovchiga: «Ey tilshunos, suzishni bilasanmi?», dedi. Tilshunos: «Yo'q! Bilmayman», deb javob berdi. «Unday bo'lsa, sening butun umring zoye ketibdi. Chunki birozdan so'ng kema g'arq bo'ladi. Bilginki, hozir nahvni, ya'ni til qoidalarini bilish emas, mahv ilmi – fano bo'lish qo'l keladi. Agar fano bo'lish ilmini bilsang, o'zingni xotirjam dengizga ot!», dedi kemachi. Sen ham agar insoniylik sifatlarindan, yomon xulqatvoringdan o'lib qutilsangina, Haqning sirlar dengizi seni o'z ustiga chiqarib oladi. Kishining gap-so'z va amali uning darajasidir. Har kim dunyoga o'z fikr doirasidan turib nazar soladi. Qalb ko'zi ko'r inson narsa-hodisalarning faqat suratini ko'radi, xolos, mohiyatini anglay olmaydi.⁴

“Saxna nutqi” fani asosan spektakldagi personajlar ijrosining ta'sirchanligini ta'minlashda yetakchi omil ekani ma'lum. Bu borada, bugungi kun ekran, saxna, radio va telavideniya san'ati ijodkorlari xam saxna nutqiga oid bilimdan xabardor

bo'lishi, bu bilimni o'z ijodlarida foydalanishsa foydadan xoli bo'lmaydi. "Saxna nutqi" fani ijrochilik bilan bog'liq bo'lgan sa'atning xamma turlarida katta o'rni bor. Teatr san'ati talabalari 3-semestrda boshlab so'z ustida, badiiy o'qish va mumtoz she'riyat, yani g'azal ijrosi bilan tanishadilar. Ketma ketlikda olib qaraydigan bo'lsak, dastlab xikmatli so'zlar, ruboiy va g'azallar bilan tanishish asnosida ularning mualliflari, yani mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining xayoti va ijodini o'rganadilar. Yod olgan asarlarini Respublikamizda o'tkaziladigan tarixiy simolarga bag'ishlangan tadbirlarda namoyish etishadi. Bu esa mumtoz adabiyotimiz vakillariga bo'lgan cheksiz hurmat namunasi. Bir so'z bilan aytganda san'at va madaniyat sohasida mumtoz adabiyotimiz darg'alarining qoldirgan me'rosini kelajak avlodga sofligi, manan boyligi bilan taqdim etish har birimizning burchimizdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. *Nuriddinov Ramziddin, strategy.uz 29.08.2024*
2. *Ergash Ochilov, Muhiddin Nosirov. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "G'azal" 23.06.2024*
3. *К.С.Станиславский. Собрание сочинений, т. 2, М., Изд-во "Искусство", 1955, стр. 92.*
4. *Jaloliddin RUMIY "MASNAVIY" dan IBRATLI HIKMATLAR Turkchadan Abdulloh Rahimboyev tarjimasi.13 bet.*

Isokova Matluba
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
“San‘atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasi dotsenti, san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Xorazm teatri: tarixiy asarlarda obraz yaratish va badiiy til masalasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Jaloliddin Manguberdi”, “Feruz”, “Avesto” va boshqa tarixiy asarlarda aktyorlik ijro mahorati va til masalasi, shu bilan birga rejissyorlik qarashlar, sahna nutqining o‘rni haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *dramaturg, rejissyor, aktyor, repertuar, pyesa, asar, tarjima, repetisiya, teatr, pardozi.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается вопрос об актерском мастерстве и языке, а также о режиссерских взглядах, роли сценической речи в произведениях “Джалалиддина Мангуберди”, “Ферузе”, “Авесте” и других исторических произведениях.*

Ключевые слова: *драматург, режиссер, актер, репертуар, пьеса, работа, перевод, повтор, театр, гример*

Abstract: *this article covers acting performance skills and language issues in “Jaloliddin Manguberdi”, “Feruz”, “Avesto” and other historical works, along with directorial perspectives, the role of stage speech.*

Key words: *playwright, director, actor, repertoire, pesa, work, translation, repetition, theater, make-up artist.*

O‘zbeklarda “o‘tidan kirib-kulidan chiqadi” degan matal bor. Bu san‘ati, kasbi-kori uchun fidokor, jonini jabborga beruvchi insonlarga nisbatanaytilgan. Xorazm teatri sahnasida buyuk insonlarni yuksaklik pillapoyalari sari yetaklagan murabbiy, O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, Ogahiy mukofoti sovrindori rejissyor(marhum) Ibodulla Niyozmetovga tegishli desak aslo adashmaymiz. Chunki, ustoz istiqlolning dastlabki yillaridanoq, teatr sahnasida zamonaviy asarlar bilan birga tarixiy asarlarni sahnalashtirilishi juda muvaffaqiyatli kechgan.

Bu fidoiy san‘at arbobi tarixiy rivojlanish jarayonidan keyingi davr, sahnaga bir qator spektakllarni olib keldi. Ular chin manoda repertuarni boyitib, teatr jamoasini yuksaklikka ko‘tardi. Ammo, shular ichida tarixiy mavzulardagi sahna asarlari alohida mavqega egadir. Jumladan, “Jaloliddin Manguberdi”, (E.Samandar, rej. I.Niyozmetov. 1993 y.), “Feruz”, (K.Avaz, rej. I.Niyozmetov 1994 y.),

“To‘maris”, (N.Salayev, rej. K.Abduraimov 1998 y.), “Avesto”, (K.Avaz, rej. I.Niyozmetov, O.Abdullayev 2001 y.) kabi tarixiy sahna asarlari fikrimiz dalilidir.

E.Samandar asarni yozishda, savollar ketma-ketligi, ularga javoblarni ravon to‘g‘ri yozishida o‘z ichidagi muharriri boshqarib turargandek go‘yo. “Ajdodlar qilichi” va “Yot hujra” tarixiy asarlaridan so‘ng roppa – rosa 2 yil ichida “Jaloliddin Manguberdi” sahna asarini oxiriga yetkazadi. Bu asarni sahnalashtirishda rejissyor butun teatr jamoasini spektaklga jalb etadi. Sahnama-sahna, ko‘rinishma-ko‘rinish jarayonlarini reja asosida rejissyor bilan tayyorlab qaytariqlar ustida ishlab, juda ko‘p tortishuv, bahslar asosida spektakl sahnaga chiqadi.

Erkin Samandar qalamiga mansub “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy asari moziyning uzoq o‘tmishga nazar tashlaydi. 1993-yili rejissyor Ibodulla Niyozmetov sahnalashtirib muvaffaqiyat qozonadi. Chunki asar har tomonlama ma‘qul tushadi, ayrim joylarini qayta ishlab, ayrim joylarini qisqartirib sahna asari sahnalashtirishga kiradi. Ammo, bunga qarshi bahs-munozaralar, tortishuvlar o‘z aksini ko‘rsatadi. Aktyorlar tanlovi, davr ruhini beruvchi tilning sofligi, ichki holatni aks ettiruvchi kuchli jamoa tuzish ham yetakchi edi albatta.

Erkin Samandarovni teatr dramaturgiyasiga jalb qilish juda katta voqea bo‘lib, boisi u Xorazm teatri uchun g‘oyaviy pyesalar yozadi. Shunga qaramasdan dramaturgiyada ilk bora asarlar yaratayotganidan bo‘lsa kerak pyesalar ayrim kamchiliklardan xoli emas edi. Shuning uchun Ibodulla Niyozmetov asarlarni muallif bilan qayta ishlab maqsadi yo‘lida ter to‘kadi. Ayniqsa aktyor talaffusiga mos so‘zlarni tanlab ustida tinimsiz ishlagan. Sahna ko‘rinishidagi voqealar ketma-ketligini ba‘zi juz‘iy xatolarni hech ikkinlanmasdan sinchkovlik bilan ishlab, maqsadiga erishish yo‘lida izlanadi. Rejissyor muallif g‘oyasini yaxshi tushunib uni talqin qilibgina qolmay, asarni g‘oyaviy mantiqiga yot bo‘lgan, yoki hayot haqiqatidan yiroq bo‘lgan lavhalarni qisqartirib, g‘oyaviy jihatdan yetuk asar yaratishga harakat qilgan.

Dramaturg va rejissyor asarni qayta ishlab, to‘rtta ko‘rinishga o‘zgarish kiritib ba‘zi obrazlarni qisqartirib, ayrimlarini monolog, dialoglari ustida ishlaydi. Jaloliddinni nafaqat jangchi sardor sifatida balki vafodor yor timsolida ko‘rdilar.

Jaloliddin Manguberding sevgilisi obrazi kengaytirilgan. Asarning g‘oyaviy va badiiy ahamiyati keng tomoshabinlarga zamon bilan hamnafas darajada qabul qilishga o‘rgatadi.

Ibodulla Niyozmetov kichik rollarni o‘zi ijro etib ketishi hech kimga yangilik bo‘lmagan. Chunki, rejissyor o‘ta talabchanligi uchun ham rollarni ba’zida o‘zi ijro etib ko‘rsatar va oxiri o‘z zimmasiga tushagani bois o‘ynagan. Shundagina, o‘zidagi iqtidorni shu obrazda tasavvur qila olgan. Ushbu tarixiy asarda teatr aktyorlaridan Madrahim Bobojonov-Jaloliddin Manguberdi, Gulora Rahimova-Ona yer, Ibodulla Niyozmetov-Chingizxon va boshqa qator aktyorlar guruhi faol ishtirok etgan. Har ikki aktyor bilan qayta –qayta o‘tmish davr ruhini beradigan til borasida qiyin mashqlarni bajarishda poytaxtdan mutaxassislar fikrlarini o‘rganish va eshitishga vaqt topadi. Tatrshunos olim Toshpo‘lat Tursunov, Toir Islomovlarning pand-nasihatleri asosida asar qahramonlari dialoglari ustida tinimsiz repetisiya qilib ishlaydi.

Dramaturg g‘oyasi juda yaxshi topilmalar asosida tanlangan. Yuqorida keltirilgan misollar asosida insonlar o‘rtasida mehr-muhabbatning yuqori bo‘lishi aks etgan. Voqealar jarayonida, Insonlar urush bilan qon to‘kib emas, ezgulik, oqibatlilik, sevgi-muhabbatlarini kuchaytirgan holda bir mamlakat ikkinchi bir mamlakatga do‘stona munosabatda bo‘lishiga ishora qiladi.

“Har bir tarixiy davrning o‘z teatri, o‘z aktyorlari, o‘z tomoshabinlari bo‘ladi. Davr o‘tishi bilan uning teatri va artistlarining ijodiy nafasi, talqin usullari, ijro ranglari o‘zgaradi”¹. Darhaqiqat, rejissyor Ibodulla Niyozmetov juda katta kuch bilan birin-ketin o‘z davrining teran fikrlaydigan, ijodkori ya’ni teatr fidoiysi sifatida jamoada mehnat qilgan.

Rejissyor Ibodulla Niyozmetov 2001-yili dramaturg Komil Avaz qalamiga mansub yana bir tarixiy asar “Avesto”ga qo‘l uradi. Bu gal ustoz-shogird an’analariga sodiq holda, yoniga teatr aktyori va rejissuraga mehr qo‘yib kelayotgan

¹Toshpo‘lat Tursunov “Turg‘un Azizov”, “Yangi asr avlodi”, Toshkent 2004 y. 24 bet.

Odamboy Abdullayevni jalb qiladi. Chunki, ustoz ko'p jihatdan shogirdiga o'z kasbining sir-asrorlarini qunt bilan o'rgatishni ham oldiga maqsad qilib qo'ygani, yana bir tomondan jamoaga bo'lgan e'tiboridan darak beradi.

Ikki qismli tarixiy musiqiy dramadagi bosh rolni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Orazqilich Tog'onov ijro qiladi. Shuningdek, O'zbekiston xalq artistlari Madrahim Bobojonov-Purushasp, Gulora Rahimova-Dugdava, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Odamboy Bobojonov–Eshim, Shirin Ramazonova–kampir rollarida namoyon bo'ladilar. Umumlashtirib aytganda, 18ta obraz sahnada ko'rinish beradi, bundan tashqari olomon, sipohlar, farishtalar, ommaviy sahnalarda teatrning butun ijodiy jamoasi ishtirok etgan. Aktyorlarni o'sha zamon ruhi bilan sahnada yashashga, obrazga kirishida rejissyor va muallifning mehnati katta bo'lgan. Chunki, o'sha davr kiyimlari, yurish-turishilari, soch turmaklari, hatti-harakatlari, insonlarning mehr-oqibatligi kabi bir qator fazilatlarni tasavvur qilgan holda tomoshabinga yetkazish shart bo'lgan va bu albatta o'z ifodasini topa olgan.

Spektakl davomida sof o'zbek adabiy tilida ravon, tiniq gapirilgan. Ba'zan esa Xorazm shevasi sahnada jaranglaganda mutaxassislar tomonidan e'tiroz bildirilgan. Chunki tarixiy asarda mahalliy tilning ufurib turishi albatta tomoshabinda noqulaylik tug'dirar, aktyorlarni o'z ustida ishlashiga sahna nutqiga ahamiyat berishga undar edi.

Rejissyor Ibodulla Niyozmetovning tajribasi, asar uning qon-qoni, jon-joniga singib ketib ro'y bergani shundoq spektaklda aks etgan. Dugdava Zardushtning onasi rolini qiyomiga yetkazib ijro qilgan Gulora Rahimova ichki bir dard bilan obraz talqinini maromiga yetkazib rejissyor kutganidan ham yuqori darajada yetkazib beradi. O'g'li Zardushtning uyiga ko'pxudolik tarafdorlari undan qutilish uchun uyiga o't qo'yib yoqib yuboradilar. Bu ahvoldan o'zini qo'yarga joy topolmagan onaizorning faryodi yovuzlikdan, razolatdan nafrat tug'yoni bo'lib eshitiladi va bu tug'yon beixtiyor bo'g'zimizni kuydirgan otashga aylanadi. Shu payt Bratarvaxshga qarata qilgan nolasi butun tomoshabinlar qalbini larzaga soladi.

Tarixiy asarlar inson ma'naviy bo'shlig'ini oziqlantiruvchi, unga ruhiy quvvat bag'ishlovchi, insonda oliyjanoblik hissini uyg'otuvchi, qalbga nur ato etuvchi ilohiy manbadir.

Shuni aytish lozimki, bugun teatrdagi yoshlar ustoz-shogird an'analari asosida ijod qiladi, teatr jamoasining qo'llab-quvvatlashi, kadrlar masalasi alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida har yili shartnoma asosida aktyorlar tahsil olishmoqda. Bu esa til borasidagi e'tirozlarni bartaraf etishga xizmat qilib, o'z-o'zidan repertuardagi asarlarda kuzatilgan barcha kamchiliklar ijobiy natija beradi. Bu albatta aktyorlarga katta mas'uliyat hamda o'zlariga bo'lgan ishonchni yuklastirib maqsadlari yo'lida izlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, sahnada qo'yilayotgan tarixiy asarlarimiz har biri tomoshabinga nimadir bera olsa, uni chuqur mushohadaga tortsa, qayg'uga solsa, o'zining olamida bir soniya yashatsagina haqiqiy mukammallik darajasiga yetaklagan bo'ladi. Ushbu sahna asarida biz yuqoridagi so'zlarimizni isbotini topa oldik va uni muvaffaqiyatli spektakllar deb aytish o'rinlidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *Islomov. T. Tarix va sahna. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. -T.: 1998.*
2. *Tursunboyev S. Teatr tarixi. - T.: 2005.*
3. *Tursunov T. Sahna va zamon. - T.: "Yangi asr avlodi" 2007.*
4. *Rahmonov M. Hamza teatri tarixi. G'.G'ulom nashr.-T.:2001.*
5. *Yusupov J. Qaynoq qalb sururi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. -T:-2006.*
6. *Xorazm haqiqati// "Avesto, mehr farzandi". 2001-y. 6-iyun.*

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotasiya: *Ushbu maqolada notqlik san’ati haqida, notqlik san’atining ijodkor faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida fikrlar mavjud. Notiq nutqining ta’sirchanligi, jonliligi, ifodaviyligi yuzasidan ko‘rsatmalar berilgan. Qolaversa, nutq madaniyati, suxandonlik, diktorklik, boshlovchilik mahorati bo‘yicha amaliy tavsiyalar aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Nutq, notiq, diktork, radio, suxandon, televideniye, mahorat, tinglovchi, san’at, fikr.*

Аннотация: *В данной статье собраны мысли об ораторском искусстве, о роли и значении ораторского искусства в творческой деятельности. Даны указания по эффективности, живости и выразительности речи говорящего. Кроме того, были упомянуты практические рекомендации по культуре речи, навыкам говорения, дикции, лидерские качества.*

Ключевые слова: *речь, оратор, диктор, радио, телевидение, мастерство, слушатель, искусство, мысль.*

Abstract: *This article contains thoughts about the art of oratory, the role and importance of the art of oratory in creative activity. Instructions are given on the effectiveness, liveliness, and expressiveness of the speaker’s speech. In addition, practical recommendations on speech culture, speaking skills, diction, and leadership skills were mentioned.*

Keywords: *Speech, orator, announcer, radio, speaker, television, skill, listener, art, thought.*

Kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, so‘z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr yetkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Notqlik, voizlik ana shunday san’atdir. Shu ma’noda, notqlikni dudama xanjarga o‘xshatishadi. YA’ni, u ikki tomoni ham kesuvchi quroldir. Bir tomonida adolat tursa, ikkinchi tomonida adovat. Kim undan qanday foydalanishiga bog‘liq. Bu san’atdan Amir Temur, Navoiy, Bobur, Chingizxon ham o‘z vaqtida foydalanishgan. U orqali davlat va xalq manfaatlarini himoya etish yoki aksincha unga qarshi foydalanish mumkin. Demak, voiz va voizlik san’atining sir-asrorlari va mohiyatini chuqur bilish kerak. Voiz o‘zi, ham so‘zi joiz bo‘lishi uchun chuqur bilim

va malakaga, yetuk dunyoqarash va saviyaga ega bo'lishi kerak. Toki, uning har bir so'zi xalq farovonligi, yurt tinchligi, vatan ravnaqiga xizmat qilsin.

Nutq mohiyatli, so'z xosiyatlidir. Uni his etish va o'rinli qo'llash o'ziga xos mezon va meyorlarni bilish bilan bog'liq. Jurnalist, sharhlovchi, muxbir, suxandon, muharrir, boshlovchi kabi kasb atamalari bilan yuritiluvchi qisqa qilib aytganda, qalam va qog'oz, mikrofon, minbar va videokamera bilan ommaga yuzlanuvchi soha vakillari nutq masalalariga alohida e'tibor bilan qarashi zarur. Chunki, ular nutqiga qarab tinglovchi yoki tomoshabin tilning jozibasi, boyligi, ta'sirliligi, ya'ni nafosatini his etadi, meyoriy nutq deb qabul qiladi. Shuning uchun ham nutqimiz ravon va mazmundor bo'lishi uchun majburiyat burchi va mas'uliyat hissini tuygan holda o'z ustimizda ishlashimiz zarur. Tinimsiz mashq qilish orqali bu mashaqqatni uddalash mumkin. Ba'zi hollarda o'zimizga e'tiborimiz kuchli bo'ladiyu, so'zimizga befarqmiz.

Elektron ommaviy axborot vositalari, xususan, radio va televideniye nutqining ta'sir ko'lami katta va e'tiborlidir. Televideniye tasvir, ovoz, musiqa va shovqin kabi ifoda vositalari orqali xizmat qiladi. Undagi ma'lumot ko'rish va eshitish a'zolari orqali qabul qilinadi. Ba'zan "televideniya tasvir birlamchimi yoki nutq?" - degan savolga duch kelasiz. Har ikkalasining ham muhimligini inkor etmagan holda aytish zarurki, tasvir asosiy o'rin tutsa ham, gap har ikkovidan – tasvir va nutqdan qanday foydalana olishda. Shunday holatlar bo'ladiki, biri ikkinchisining o'rnini bosolmaydi. Nutq bu nutq, tasvir esa tasvirdir. Nutqsiz har qanday tasvir baribir tugal fikrni, hukmni berolmaydi. Aslida ular bir-biri bilan bog'liq, bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Fikrni aniq, tugal, tez, sodda va oson yetib borishi nutq madaniyatini qay darajada egallanganiga bog'liq [1.B-35]. Nutq mahorati bu oddiy nutq emas, balki fikrni sodda va chiroyli ifoda eta olishdir. Ayrim boshlovchilar ko'p so'zlaydilar. Biroq, ularning so'zlaridan hosil bo'lgan "g'aram"ni kovlab ko'rsangiz, somoni ko'pu boshog'i oz bo'ladi. Bu borada

“So'zni saqlab so'zlaganlar xo'b bilur so'z qadrini,
Farqi yo'q, ko'p so'zlaganlar na bilur o'z qadrini”

hikmatini keltirish o‘rinli. Nutq mahoratining ikki omili bor: biri nutq xususiyatlarini bilish bo‘lsa, ikkinchisi nutq texnikasiga amal qilishdir [1.B-36]. Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, qisqaligi, soddaligi, sofligi, boyligi, jo‘yaliligi, ta‘sirchanligi, obrazlilik, ravonligi uning xususiyatlari bo‘lsa, ikkinchisi ovoz, nafas, diksiya, intonasiya, ohang, urg‘u, to‘xtam, ovoz tembri va hokazolar nutq texnikasidir. Har ikkalasini bilish va unga amal qilish nutq bobida mahorat qozonish demakdir. Qanday yosh va qanday kasbda bo‘lishdan qat‘i nazar, har birimiz kishilar bilan nutqiy munosabatda bo‘lamiz – so‘zlaymiz, tinglaymiz, fikrlashamiz. Har kimning o‘z didi, saviyasi, dunyoqarashi, fe‘l-atvori, ko‘rinishi, kiyinishi bo‘lganidek, uning ovozi, so‘zlashish uslubi, til va nutqiy madaniyatni egallash darajasi ham o‘ziga xos. “O‘zingga qarab kutarlar, so‘zingga qarab kuzatarlar” - degan naql bor. Kishining fahm-farosati va saviyasi ikki og‘iz so‘zidayoq namoyon bo‘ladi. Kishi fikrining aniq, samimiy va ta‘sirli yetib borishi so‘zlovchining til va uning harakatdagi ifodasi bo‘lgan nutq qoidalarini qanchalik bilishi va amal qilishiga bog‘liq. Shunday ekan, nutqning aniqligi-tafakkurning tiniqligiga daxldor bo‘lsa, talaffuzning aniqligi - nutqning tiniqligiga bog‘liqdir.

Bugungi kunda yurtimizda har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar qatori til va adabiyotning taraqqiyoti, yangilanishiga bo‘lgan e‘tibor har qachongidan ham shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Til o‘rganish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, turli xil interfaol metodlardan foydalanish, chet tillarni o‘rganish va o‘zlashtirish bugungi kun davr talabi va zamon taqozosidir. Ma‘lum bir tilni o‘zlashtirish avvalo, uning mohiyati va uslub jihatini mukammal o‘rganishdan boshlanadi. Bu borada ommaviy axborot vositalari katta rol o‘ynaydi. Davlat teleradiokanallari orqali efirga uzatiladigan dasturlardan tashqari nodavlat tele va radio kanallar ham shu sohada samarali mehnat qilib kelmoqda. Xususan, nodavlat radio kanal hisoblangan “Oriat-Dono” dasturlarini kuzatsak, ularda yangraydigan so‘z, talaffuz meyorlari, urg‘u tushishi, tillashganda, so‘zlashganda uslub jihatidan so‘zning tub mohiyatini ochib berayotganligining guvohiga aylanamiz.

XXI asr talablaridan kelib chiqib, bir necha chet tillarini o‘rganish va ular orqali mukammal so‘zlasha olish har bir intellektual salohiyatga ega bo‘lgan insonning kundalik ehtiyojiga aylanib ulgurdi. Fikrimizning isboti sifatida “Oriat-Dono” radiosida boshlovchi Umida To‘laganovaning “Step to English!” dasturini tahlil qilsak. Dastur boshlovchisi avvalo, tinglovchi uchun qiziqarli, sodda va tushunarli so‘zlarni tanlab, uning tildagi talaffuzi, ma’no-mohiyati, lug‘aviy ma’nosi haqida ma’lumot beribgina qolmasdan, eshituvchi bilan bir necha marotaba takrorlab, mustahkamlaydi. Ushbu dastur kichik yoshdagi bolajonlar uchun mo‘ljallanganligi tufayli ularga qiziqarli bo‘lgan vositalar qanday talaffuz qilinishi bilan boshlanadi. Dastur bosqichma-bosqich reja asosida tayyorlanadi. YA’ni, kichkintoylarning kun tartibi:

uyg‘onish – wake up

badantarbiya – gymnastic

yuvinish – wash

tish cho‘tkasi – tooth - brush

sovun – soap

sochiq – towel va hokazo.

Ingliz tilidagi ushbu so‘zlar bolalarning tillarida qisqa vaqt ichida o‘zlashtirib ulguriladi. Hatto, ularning ota-onalari ushbu dasturning keyingi sonlarini intiqlik bilan kuta boshladi. Demak, ko‘zlangan maqsadga erishildi.

Shunday tillar borki, so‘zlarining yozilishi boshqa-yu, o‘qilishi boshqa. Bu esa o‘rganishni bir muncha qiyinlashtiradi. Shu o‘rinda tele va radio boshlovchilarning o‘qiyotgan matniga e’tiborli bo‘lishi taqozo etiladi. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Sahna nutqi” kafedrasining malakali ustoz, respublika radiosining oliy toifali diktori Shokir Yusupovning “Boshlovchilik mahorati” nomli O‘quv qo‘llanmasida tildagi intonasion holatlar, g‘arbdan kirib kelgan, hali tilimizga o‘zlashmagan so‘zlar hamda davlat nomlari, sportchilarning ism-shariflari, jamoalar nomlari qanday talaffuz qilinishi va qayerda urg‘u tushishi

lozimligi haqida batafsil yoritilgan. Ushbu qo‘llanmadan to‘g‘ri foydalana bilgan ijodkor, albatta, o‘z ishiga o‘ta mas‘uliyat bilan yondashgan hisoblanadi.

Dosent Ramz Qodirov “Rejissura asoslari” (O‘zbekiston xalq artisti Bahodir YO‘ldoshev ijodi misolida) monografiyasida “Aktyorlar tomonidan sahnalashtiriladigan spektakl jarayonlarida ham tilning ahamiyati katta o‘ringa ega. Har bir tanlangan asarning o‘z tili, xarakter, izchil voqealar ketma-ketligi mavjud bo‘ladi. Uni go‘zal tarzda sahnaga olib chiqish uchun muallifning yashagan davri, u yaratgan asar kim va nima haqidaligi, nechanchi asr yoki nechanchi yillarda sodir bo‘layotganvoqeadan kelib chiqib asarning tili topiladi” [2.], - degan fikrni ilgari surgan.

Oramizda ko‘plab teatr va kino aktyorlari borki, ular o‘z ovoz jarangi va tembri hamda to‘g‘ri talaffuzga egadir. Lekin, radio va televideniye mutaxassislari dastur talabidan kelib chiqib, foydalanish chog‘ida ijrodagi uslubni nazorat qilib, matnga o‘zgacha yondashuvni talab qilishlari mumkin. Xususan, radiodagi “Donolar so‘ylaydi - “Oriat Dono” yodga soladi” ruknida O‘zbekiston xalq artistlari Yoqub Ahmedov ijrosidagi matn boshqacha, Afzal Rafiqov ijrosi o‘zgacha, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Behzod Muhammadkarimov talaffuzi boshqa-yu, sohir ovoz sohibi Sanjar Sa’dullayevning ijrosida aynan o‘sha matn turlicha yangrashi mumkin. Chunki spektakl ijrosi davomida aktyor o‘z partnyoriga yoki tomoshabinga yuzlanib so‘zlashi mumkin. Ushbu holat radio mikrofonida o‘zgacha kechadi. Chunki spektakldagi emosional holat bilan radio mikrofonida oldidagi holatda o‘ziga xoslik mavjud. Radio mutaxassislari ularning tildagi talaffuz imkoniyatini asar mohiyati va uslubiga mos tarzda yo‘naltira bilishi lozim. Umuman olganda, inson hayvondan o‘z aqli, tafakkuri va tili bilan farq qilishini kishilik jamiyati paydo bo‘libdi-ki, barcha allomalar insonning ushbu xususiyatini alohida ta’kidlab, baho berib o‘tishgan. Azal-azaldan insonlar bir-biridan bilim olish va hunar o‘rganishni til vositasida amalga oshirib kelishgan. Shuning uchun kishilik jamiyatining rivoji ham til rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lib kelgan. “Bilim” va “hunar” deb atalmish haqiqiy boylikni kelajak avlodga qoldirish ham mana shu til vositasi orqali muhrlanib, meros qilib qoldirilgan.

Tilning ikki holatini kuzatishimiz mumkin:

Sun'iy holat – maxsus tillar holati bo'lib, inson aqli va zakovati yordamida jamiyat rivojidadagi zarurat tufayli inson tomonidan o'ylab topilgan va amaliyotga kiritilgan tillar holatidir. Masalan, bunday tillarga musiqa tili, “Morze” tili, xavfsizlik maqsadlarida axborotlarni maxfiy uzatish va yetkazish maqsadida qo'llaniladigan “shifr”langan tillardir.

Musiqiy til – bu biz biladigan musiqiy nota tili. Ushbu til orqali musiqiy tovush va kuylarni yetti nota harflari yordamida yozish va eshituvchilarga, ijrochilarga yetkazish;

“Morze” tili – bu ikki xil uzun va qisqa tovushlar jamlanmasi; “nuqta” va “tire” yordamida yuzaga keladigan shartli harflar ketma-ketligi bilan so'zlar tuziladi va maxsus vositalar yordamida uzoq masofalarga uzatilib, yana o'ziga xos vositalar yordamida qabul qilinadi. Bu til vositasi asosan harbiy sohalarda axborot uzatishda ishlatiladi. Masalan, harbiy kemalarda, razvedka ishlarida, boshqaruv punktlari bilan aloqalar o'rnatishda;

“Shifr” tili – bu xildagi til ham asosan harbiy sohalarda masalan, razvedkada axborotni maxfiylashtirishni ta'minlash maqsadida axborot matnidagi so'zlar va harflar o'ta maxfiy bo'lgan sirli belgilar asosida ifodalash va ularni maxsus yopiq tizim orqali uzoq masofaga uzatishda qo'llaniladi.

Tabiiy til – o'ta murakkab ilohiy bir hodisa bo'lib, uning jihatlari ham turlicha bo'ladi. Har qanday tabiiy tilning asosiy jihatlaridan biri bu uning “tovush” ko'rinishida moddiylashuvidir. Ikkinchi jihati esa ushbu tovushning harflar yordamida yozuvda namoyonlashuvidir, lekin harflar tovushga nisbatan ikkilamchi hodisa bo'lib, tovushning zamon va makon o'lchamlarida yozuv orqali davom etishini amalga oshirishga sabab bo'ladi.

Inson turli tovush, so'z va iboralardan jumlar tuzadi va jumalardan nutqlar paydo qiladi. O'z fikrini bayon qilish ne'mati insonning o'z his-tuyg'u, xotira hamda taassurotlarini gap orqali ifoda etish qobiliyatidir. Biz har kuni, har lahzada gapiraverib, bunga oddiy bir narsaday o'rganib qolganmiz. Lekin, tafakkur qilib ko'rsak, nutq, ovoz chiqarib so'zlash, nihoyatda murakkab, nozik bir jarayon

ekanligini anglashimiz mumkin. Bu jarayonda insonning aqli-yu ruhidan tortib, kichik pay va tomirlarigacha ishtirok etadi. Ulardan birortasi o‘z vazifasini ozgina bajara olmasa, nutq mukammal bo‘lmaydi. Ovozning xilma-xilligi, bayon qilish, gapirishning turli-tumanligi, hammasi ulkan bir mo‘jizadir.

Aslida, o‘ylash bilan so‘zlash bir narsa emas. Mana shuning uchun ongimizda biror narsa haqida fikr hosil bo‘lsa, ushbu fikrni ongimizda tushuncha yordamida ifoda etamiz, o‘sha narsa haqidagi tushunchani zohiran bildirish uchun aytiladigan lafzni esa “so‘z” deymiz. Ushbu so‘zni esa til vositasida aytib yoki yozma ko‘rinishda bildiramiz. Biror hodisani o‘ylab, u haqda miyamizda biror qarorga kelsak, uni “hukm” deymiz. Agar shu hukmni so‘z bilan ifodalab aytsak uni “gap” deymiz.

Alisher Navoiy turkiy tildagi yuzta harakat nomi, ya’ni fe’llarni sanab, fors tilida ularning muqobili yo‘q ekanligini aytgan va turkiy tilimiz boy ekani, qudratini namoyish etgan. Hazrat Navoiy to‘pori xalq tili hisoblangan turkiy (o‘zbek) tilini she’riyat osmoniga ko‘tarib, dunyoga tanitdilar va ona tilimiz – o‘zbek tili fors tilidan ustun bo‘lsa ustunki, kam emasligini isbot qildi. Istiqlol esa unut bo‘lgan davlatchiligimizni tikladi, yo‘q bo‘lishga mahkum bo‘lgan tilimizni, demakki, millatimizni asradi va aziz qildi. O‘zbek tili – davlat tili maqomini oldi. Endi, uning biz yo‘qotib ulgurgan boyligini tiklash, turlicha “izm” tamg‘alarini qo‘yib, iste’moldan chiqarishga ulgurgan so‘zlarimizni o‘z joyiga qaytarish talab qilinadi. Buning uchun esa mumtoz adabiyotimizni chuqur o‘rganish hozirgi avlod vakillari zimmasidagi sharaflari vazifalardan biridir.

So‘z orqali har bir shaxs, mutaxassis notiq, siyosat arbobi o‘zidagi bor tabiati, xislati, iste’dodi, iroda va maqsadi, e’tiqod yoki nafrati, g‘oya, rejalari, ya’ni borliqqa, narsa va hodisalarga turli tarzdagi voqealarga munosabatini asosan so‘z orqali ifodalaydi va targ‘ib qiladi. O‘z o‘rnida har bir shaxs o‘z faoliyatida turli davralarda muomala, muloqat jarayonlarida so‘zning qudrati va ta’sirchan kuchiga tayanadi. So‘zday noyob ne’matning har bir insonda mukammal shakllanishi uchun qunt, iroda, sabot, xohish, vaqt va mehr zarur, so‘zdagi har bir ma’no muddaoni his etishga va anglatishga bo‘lgan doimiy ehtiyojni talab qiladi. Shak-shubhasiz

soʻzning qudrati, taʼsirchan kuchi, jozibasi, sehrini egallash uchun nutqiy texnik majmualar, soʻz va soʻz ustida ishlashning asoslarini oʻzlashtirish hamda aniq fikr, tasavvur, xotira qamrovining mustahkamligi, faolligini rivojlantirib borish kerak boʻladi. Har bir shaxs, oʻz aql – zakovati, tafakkuri, mushohadasi, xohish-irodasi, intilishlari bilan oʻz hayoti va faoliyati davomida samarali iz qoldirishga intiladi. Bu oʻrinda ham soʻzning asl maʼnosi uning zamiridagi mazmun, fikr muddaoni ocha bilish va tinglovchiga yetkaza olish alohida qunt talab etadi. Bu hamisha oson va jozibali ketavermaydi. Hayotda soʻzamollik, hozirjavoblik, oʻz fikrini yorqin, betakror, taʼsirchan tarzda koʻp ming sonli tinglovchilarga, muxlislarga, saylovchilarga yetkaza bilish maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Soʻzda taʼsirchanlikka erishish uchun intilgan har bir notiq, oʻzining soʻz xazinasini boyitishi, turli mavzular, voqealar, tafsilotlar, tasvirlar bilan oʻz nutqining imkoniyatlarini mukammallashtirib borishi kerak.

Tabiiyki, bu oʻrinda notiqning nafas meyorlarining mustahkamligi va kengligi ovozinig shirasi, jarangdorligi, taʼsirchanlik kuchi hamda talaffuzining aniqligi, ravonligi, benuqsonligi, muhim ahamiyat kasb etadi. Shu oʻrinda nutq texnikasining ifodaviy rang-barangligiga erishishda turli tarzdagi tovushli birikmalar, aytilishi qiyin jummlar, rang-barang atamalar, nutq aʼzolarimizda turli noqulayliklar uygʻotadigan mashqlar, tez aytishlar, uzun va ohangdosh jummlar, turli mazmundagi sheʼrlar bilan ishlash va uni doimiy takrorlab borish orqali nutqda erkinlikka, faollikka, jozibadorlikka taʼsirchanlikka erishish mumkinligi eʼtirof etilgan.

Yurtimizda eng avvalo radio faoliyat olib borishni boshlaganidayoq “mikrofon oldida kimning ovozi yangraydi” degan savol koʻpchilikni oʻylantirgani shubhasiz. Aynan ushbu sohaga oid adabiyotlarda yoki Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida bir necha suxandonlarning nomlari qayd etilib, ular diktorlikni sanʼat darajasiga olib chiqa olgan kishilardir, deya alohida bir necha ism-shariflar keltirilgan.

Radio faoliyatida ustoz-shogird anʼanasiga nazar tashlar ekanmiz, bu borada ham oson boʻlmaganligini, endigina yurtimizga kirib kelgan sirli va sehrli karnaydan qanday ovoz yangrash kerakligi haqida koʻplab yozuvchi shoirlarimiz

izlanganliklarini o'qiymiz. Avvalo Turob To'la, Hamid G'ulom, Jonrid Abdullaxonov yana ko'plab kishilar yoqimli tembr, chiroyli ovoz, ravon talaffuz, urg'u, intonasiyasiga qarab, rang-barang kishilar orasidan Qodir Mahsumov va Tuyg'unoy Yunusxo'jayevalarni tanlab, alohida ular bilan shug'ullanib birgina "Assalomu alaykum, Toshkentdan gapiramiz", - degan so'zi ustida soatlab ishlaganliklari, nafasni yetkaza olish, ravon talaffuz, matndagi so'zga yondashuv, yana qancha-qancha murakkab mashqlar hamda ustozlarning sabr-bardoshi, shogirdlarida uzoqni ko'ra olish qobiliyati tufayli O'zbekistonning betakror diktorlari safi kengayib boraverdi [3.].

Mikrofon bamisoli nutq ko'zgusi, mantiq esa ruhiyat oynasidir. "Diktor xuddi musiqachi singari har kuni mashq qilishi kerak. Nutq apparatingizni sozlamasdan turib, mikrofondagi yaqinlashishga haqqingiz yo'q, chunki siz millionlab jamoaga yuzlanasiz. Har qanday ovozning o'z o'rnini, o'z imkoniyati bor, bu esa siz diktorlarning jarangdor ovozingiz, ohang va tilimizning qanday go'zal ekanligini tinglovchiga yetkaza berishingizda bilinadi" [1.B-21], - deb o'rgatishgan ekan ustozlar. Birgina O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist O'ktam Jobirov maktabida toblangan televideniye va radio ijodkorlarini sanab sanog'iga yetish mushkul.

Diktor – "lotincha – *diktor* – *gapiruvchi*, radio va televideniye eshittirishlarining tayyor matnlarini mikrofon oldida o'quvchi shaxs. Diktor xushovoz bo'lishi, til normalarini puxta bilishi zarur. Diktorlikka nutqi, ovozi, qobiliyatiga qarab tanlov yo'li orqali qabul qilinadi" [4.B-297], - deyiladi. Hamma sohalarda katta o'zgarishlar bo'layotgani kabi radio televideniye faoliyatida ham qator yangiliklar ro'y berdi. Ko'plab tele va radio kanallar ish boshladi, lekin avvalgi ustoz-shogirdlik maqomi orqali kamera yoki mikrofondagi ro'baro' kelayotganlar kimlar? Hammaning tilida shu savol nafaqat mutaxassis, hatto oddiy mehnatkash fuqaro ham bugun bemalol boshlovchi, diktor, aktyor, dublyajdagi holatlarning asliyatdagidan juda orqada ekanligini ta'kidlamoqda. Bir vaqtlar O'zbekiston televideniya sinigining birinchi qavatida ustoz bosh diktor Davron Zunnunov xonasi bo'lardi, efirga chiqishi kerak bo'lgan diktorlar, avvalo o'sha xonada matnni ustozga

o‘qib kerakli topshiriqlarni olib, so‘ngra mikrofon-kamera oldiga chiqishgan. Keyinroq bu mas‘uliyatli vazifani O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Muslimbek YO‘ldoshev davom ettirdi, vaqti kelib televideniye va radioda diktorlik shtati qisqarib, uning o‘rni boshlovchi deya o‘zgartirildi. O‘sha kundan e‘tiboran boshlovchini avvalgi ustozlar kabi nazorat qilishga putur yetdi.

Respublika radio uyida ham salmoqli va ko‘p yillar ustozlik qilgan zahmatkashlardan biri Rahmat Jumayev maktabida toblangan rejissyorlardan ayrimlarini sanab o‘tsak, oliy toifali rejissyorlar Sobirjon Sodiqov, Rustam Rasulov, Sadridin Muhiddinov, Barno Jalolova kabi o‘z ishining ustalari faoliyatlari davomida ko‘plab yoshlar orasidan yangi ovozlari, yangi chehralarning shakllanishiga sababchi bo‘ldilar. Ovozni to‘g‘ri tarbiya qilish, mikrofon va boshlovchi orasidagi masofa, unli va undosh tovushlar, portlovchi, sirg‘aluvchi tovushlar tinglovchiga g‘alib eshitilmasligi uchun bir qancha ko‘rsatmalar berishgan, qolaversa, musiqiy ohangni his qila turib matnga yondashish bevosita radio rejissyorlarining erinmay tushuntirishlari samarasidir.

Suronli urush yillarida va undan keyingi davrlarda radio orqali e‘lon qilinadigan eng muhim hujjatlarni, faqat Hamid G‘ulom o‘qir edi.

Uning ovozi juda ham tiniq, shirali, qolaversa, u serqirra ijodkor edi, shoir, yozuvchi, tarjimon, zamonbop jurnalist sanalardi. “Ko‘pchilikning tilida u o‘zbek Levitani degan nomga sazovor bo‘lgan edi. Diktorlik mahoratini astoydil egallashda Hamid akaning yoniga tushadigani o‘sha vaqtlarda yo‘q edi. U qay iboraga urg‘u berish, qaysi joyda ovozni pasaytirish, ovozni titratib qalbning nozik torlarini cherta olardi” [5.], - deb yozadi yozuvchi Jonrid Abdullaxonov. Hamid G‘ulomga shogird bo‘lib, Qodir Mahsumov o‘z ustida ishlay boshlagan ekan. U ustozining qaysi so‘zga qanday jilo berishni, talaffuz, nafas, tinish belgilarini joy-joyida qo‘llashni o‘rganib, hatto barmoq vaznidagi she‘rlarda uchraydigan bog‘ yoki tog‘ so‘zlari bir bo‘g‘inda eshitilsa, aruz vaznida “o” tovushi cho‘ziq holda yangrab, ikki bo‘g‘inga aylanib ketishigacha mukammal o‘rganadi. Ustoz-shogird an‘anasi keyinchalik O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist O‘ktam Jobirov boshchiligida davom etadi. O‘ktam akaning maktabida toblanib, pishib televideniye va radio orqali mehr

qozongan ijodkor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, oliy toifali diktor Muslimbek YO‘ldoshevning “Suxandonlar” kitobida alohida diktor-suxandonlar (boshlovchilar) ustoz-shogirdlik an‘anasiga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘sha davrlarda turli ko‘rsatuvlar va olib boruvchilari ham alohida tanlanib, ustoz O‘ktam Jobirov ularning efirga chiqishidan avval matn o‘qish, tomoshabinga yetkazib berish, tinish belgilari, mantiqiy va juft pauzalarni qayerda qo‘llash kerakligini erinmay o‘rgatgan ekan. Balki mana shu zalvorli, mashaqqatli mehnat tufayli O‘zbekiston televideniyesi va suxandonlari talaffuzida nuqsonlar sezilmagan. Keling, ulardan ba‘zi birlarini eslab ko‘raylik; Galina Melnikova, Davron Zunnunov, Mirzohid Rahimov, Nasiba Ibrohimova, Nasiba Qambarova, Nasiba Maqsudova, Rahmatilla Mirzayev va yana boshqalar bo‘lishgan. Hozirda esa, diktor - suxandon lavozimi, “boshlovchi” deya o‘zgartirilgan, bu degani boshlovchi o‘zi dastur tayyorlaydi va o‘zi olib boradi. Bu boshlovchilar demakki, yuqoridagi diktor – suxandonlardanda bir necha karra balandroq, iste’dodliroq hamda izlanuvchan bo‘lmog‘i kerak deganidir. Bugun esa, aksincha. Ko‘p hollarda davlat va nodavlat teleradiokanallar boshlovchilari deb bo‘laklarga ajratiladi. Bir narsani aytmoqchimanki, hatto nodavlat hisoblangan ayni radio va televideniye boshlovchilarida ustoz-shogird an‘anasi davom ettirilib, bir muncha yaxshi eshittirishlar dunyoga kelgan. Yana bir muhim jihati o‘sha mashhur boshlovchilar bir vaqtlar respublika radiosining turli studiyalaridagi rejissyor, muharrirlaridan ozmi-ko‘pmi bilim olishga, ish o‘rganishga harakat qilishgan. Respublika radiosining oliy toifali rejissyori Sobirjon Sodiqov, Rustam Rasulovlar hozirda turli davlat va nodavlat teleradiokanallarida ovozi yangrayotganlarga, ya‘ni shogirdlarga shu sohaning sir-asrorlarini erinmay o‘rgatishgan.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “Sahna nutqi” kafedrasida ham ustoz-shogird an‘anasi hali-hanuz davom etib kelayotgani haqida Ramz Qodirovning “Ko‘ngildan o‘tkazganlarim” kitobi orqali bilib olish mumkin. Radioboshlovchilik mahorati haqida, qolaversa, bizning tilimizga o‘zlashmagan turli so‘zlar, xorijiy atamalar, sportchilar ismi, guruhlar nomi, davlatlar nomi Shokir

Yusupovning “Boshlovchilik mahorati” kitobida alohida sahifa qilib berilgan. Yosh ijodkor va talabalar mana shu adabiyotlarni ham ko‘rib chiqishi lozim.

Qisqa qilib aytganda, qayerdagi ustoz-shogird an‘anasi bardavom ekan, o‘sha sohada yuksalish, intilish, ravnaq ko‘zga ko‘rinadi. Nazarimda, bugungi kunda televideniye va radio sohasida mana shu an‘anaga biroz putur yetgandek. Abdulla Avloniy aytganidek; *“Tilni yo‘qotmak, millatni yo‘qotmakdur”*. Katta minbardan yangragan so‘zimizga gard yuqtirmaylik, zero, zukko tomoshabin yoki tinglovchi bir shaxs tomonidan noto‘g‘ri talaffuz qilingan so‘zni shundayligicha eslab qolmasin.

“Suxandon” – *“so‘z ustasi so‘zga chechan, so‘zamol”*, - degan ma‘nolarda qo‘llaniladi [1.B-20]. Turli anjuman, majlis va yig‘inlar hamda teleradioeshittirishlarida boshlovchilik qiluvchilarni notiqlar, suxandonlar deb ataymiz. Ushbu vazifa yuklatilgan kishilardan so‘zsiz ravishda badiiy so‘z ustasi bo‘lishdek ulkan layoqat sohibi bo‘lishlik talab etiladi.

Suxandon, ya‘ni badiiy so‘z ustasining asosiy vazifalaridan biri odamlarga (tinglovchilarga, davra ishtirokchilariga) yaxshi kayfiyat baxsh etish orqali ularning ta‘lim-tarbiyasini yaxshilash, biror ish-harakatga, maqsad-vazifalarni a‘lo darajada bajarishga safarbar qilmoqliklariga o‘z hissasini qo‘shishidir.

Yaxshi kayfiyat osmondan o‘z-o‘zicha tushmaydi, balki u yaxshi insonlarning o‘zaro yaqin muloqoti, san‘at va adabiyot asarlarining ta‘sir mahsulidir. Haqiqiy ijodkor, badiiy so‘z ustasi – suxandon insonlarga mana shunday yaxshi kayfiyat bag‘ishlashi, ruhiy ozuqa ulashishi zamirida uning xushmuomilaligi, go‘zal insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan holda odamlar ko‘nglini ko‘tarish, yaxshi ishlarga safarbar qila olish kabi asosiy vazifalardan iborat bo‘ladi. O‘z xatti-harakati bilan odamlarga yaxshi kayfiyat baxsh etish, xursandchilik ulashish ham odamiylik belgilaridan hisoblanadi. Odamlarga yaxshilik baxsh etish uchun albatta, aql va iste‘dod kerak, lekin insonlarning kayfiyatini buzish uchun esa nodonlikning o‘zi kifoya qiladi. Sahna asarlari, teleradiopostanovkalar, kinokomediya filmlar, turli xil chiroyli askiya-payrovlari muxlislarga baxsh etiladigan yaxshi kayfiyatlarning guldastasidir. Boshlovchilik qiluvchi notiq (suxandon) birinchi navbatda ijodkor bo‘lishi, so‘z

san'ati ilmini egallagan bo'lishi bilan birga, eshituvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa bilishi va tinglovchilar bilan muloqot qilish orqali ularga yaxshi kayfiyat bag'ishlashi zarur shartlardan biridir. Bunda chin ma'nodagi madaniy muomala egasi bo'lgan ijodkor kishilarga yaxshi kayfiyat baxsh etuvchi malhamdir. Ezma va be'mani so'zlovchini tinglovchilar bamisoli qovoqari to'lib qolgan uydagi odamlarning ko'ngilsiz ahvoliga qiyoslaydi. Har qanday haq gapni aytishning ham vaqti va o'rni borligini unutmaslik kerak. "Suxandon - tinglovchi" orasidagi o'zaro madaniy muloqot munosabatlari turli anjumanlarda, majlislarda so'zlash tartibiga rioya qilish notiqning ham odobidan, ham madaniyatidan bir nishonadir. Mohiyatini chuqur anglamay yuzaki o'qilgan notiq ma'ruzasi "qopdagi puch yong'oqqa o'xshaydi, shaqillaydi-yu, mevasi, mag'zi bo'lmaydi".

Agar haqqoniy, mazmundor fikr nuqtadonlik, go'zal talaffuz va yoqimli uslub libosi bilan bezansa, unday nutq tinglovchilarni sehrlab, ohangrabo kabi o'ziga jalb etadi va nafosat olamiga olib kirib, yuksak his-tuyg'ular uyg'otib, ajoyib fikrlar ummonidan bahramand etadi. Ushbu qiziq tarixiy xulosani keltirish gapimizni tasdig'i bo'lishi mumkin. Kishining aqliy kamoloti darajasi bilan nutqining uzun qisqaligi teskari munosabatda bo'lar ekan. No'noq notiqning sayoz fikrini tinglayotgan kishilar holati sifatsiz taomni zo'rlab yeyayotgan odamlarning achinarli ahvolini eslatadi. Tilla uzukni qimmatbaho toshli "ko'z" bezaganidek, mazmundor nutqni ham go'zal so'z bezaydi. Agar notiqning o'zi va so'zi shirin bo'lsa-yu, ammo nutqida kibr-havo anqib tursa, u go'zal lekin hidi badbo'y gulni eslatadi. Notiq minbarga chiqqanda o'zini alloma tushunib, dono anglab, odamlarga qarata qo'lini bigiz qilib, nutq so'zlashi nihoyatda odobsizlikdir. Avvalo bu kibru havo, odobsizlik nishonasi uni tinglayotgan kishilarga nisbatan hurmatsizlik belgisidir. Ba'zi so'zamol notiqalar chiroyli va balandparvoz iboralarni niqob qilib, sayoz, hatto uncha to'g'ri bo'lmagan fikrlarni ham targ'ib qilishga urinadilar.

Tinglovchilardan esa shu niqob tagidagi fikrning mohiyatini anglab olishlari uchun bilimli va ma'rifatli bo'lishlari talab qilinadi. Eshituvchilarning hammasi ham ushbu xususiyatlarga ega bo'lavermaydi. Ba'zi kishilar "*Iloji boricha anjumanda, majlisda gapirmay, sukut saqlaganlar oqil hisoblanadi*", - deb o'ylaydilar. Lekin,

o‘rni kelganda aql – odob bilan foydali fikrning aytilgani ma’qul, chunki oqil kishi suhbatini tinglovchi uchun aqliy kamolot omilidir.

Shunday qilib, bugungi kun suxandonlari yuqorida keltirilgan o‘zlariga juda kerak bo‘lgan sifat va xususiyatlarga ega bo‘lsalargina tinglovchilar oldidagi yuksak mas’uliyatlarini a’lo darajada bajarishga erishgan bo‘lardilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Jumaniyazov R. Nutqiy mahorat. – Toshkent.: “Adolat” nashriyoti, 2005.*
2. *Qodirov R. Rejissura asoslari. (O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev ijodi misolida) monografiya. – Toshkent.: 2015. “Navro‘z” nashriyoti.*
3. *Jumaniyazov R. Toshkentdan gapiramiz. – Toshkent.: O‘zbekiston NMIU, 2016.*
4. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. Tahrir hay’ati M.Aminov, B.Ahmedov, T.Daminov va b. – Toshkent.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.*
5. *“Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan. H.G‘ulom “Zamondoshlar xotirasida” G‘.G‘ulom nashriyoti -Toshkent.: 2007.*

Yangi ma'naviy makonda mutolaa madaniyatini shakllantirish zaruriyati

Annotasiya: *Ilmiy maqolada yangi ma'naviy makon tushunchasi va unda ma'rifatli jamiyatning shakllanishi, ularning o'zaro bir-biriga ta'siri, yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasining namoyon bo'lishi, unda mutolaa madaniyatini shakllantirishning o'rni va roli, mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona-axborot xizmati bilan birga oila, mahalla, ta'lim tizimi, mehnat jamoalari, davlat xokimiyati, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari muxim omillar xisoblanishi, bundan tashqari Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirish mutolaa orqali - xalqimizning boy tarixi, ilmiy madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni chuqur o'rganishdan iborat ekanligi singari masalalar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Yangi ma'naviy makon, mutolaa madaniyati, milliy-diniy qadriyatlar, "jaholatga qarshi ma'rifat", ommaviy madaniyat, mutolaaga rahbarlik, kitobxon faolligi, mutolaa jarayoni, mutolaa ehtiyoji, ma'rifiy dunyoqarash.*

Аннотасия: *В научной статье рассмотрены концепция нового духовного пространства и формирования в нем просвещенного общества, их взаимное влияние, проявление духовного образа нового Узбекистана, место и роль формирования культуры чтения, семья, соседство, образование наряду с библиотечно-информационной службой в формировании системы культуры чтения, профсоюзы, государственная власть, политические партии, общественные организации, средства массовой информации и другие институты гражданского общества являются важными факторами, кроме того, формирование просвещенного общества в Новом Узбекистане через чтение - из глубокого изучения богатой истории, научного и культурного наследия нашего народа, национальных и религиозных ценностей. Разъясняются такие вопросы, как его состав.*

Ключевые слова: *Новое духовное пространство, культура чтения, национально-религиозные ценности, «просвещение против невежества», общественная культура, лидерство чтения, читательская активность, процесс чтения, потребность в чтении, образовательное мировоззрение.*

Annotation: *The scientific article examines the concept of a new spiritual space and the formation of an enlightened society in it, their mutual influence, the manifestation of the spiritual image of the new Uzbekistan, the place and role of the formation of a reading culture in It, family, neighborhood, education along with the library and information service in the formation of the system reading cultures, trade unions, government, political parties, public organizations, the media and other institutions of civil society are important factors, in addition, the Formation of an enlightened society in New Uzbekistan through reading - from a deep study of the rich history,*

scientific and cultural heritage of our people , national and religious values. Issues such as its composition are explained.

Key words: *New spiritual space, reading culture, national and religious values, “enlightenment against ignorance”, public culture, reading leadership, reading activity, reading process, need for reading, educational worldview.*

Yangi O‘zbekitsonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida jamiyat rivojlanishning hozirgi bosqichi talablariga javob bera oladigan, zamonaviy va innovasion ma’naviy makonni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyatga egadir.

Yangi ma’naviy makon nima? degan savolga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida quyidagicha javob berilgan: “Mening nazarimda, u biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir” [1.B.266].

Yangi ma’naviy makonni yaratish uchun eng avvalo, birinchidan, hozirgi globallashuv jarayonida ma’naviyat va ma’rifatga, yoshlarning axloqiy tarbiyasiga va bilim olishiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ikkinchidan, “ommaviy madaniyat” tarzida kirib kelayotgan turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish uchun asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayangan holda faoliyat ko‘rsatish talab qilinadi.

Buning uchun “Jaholatga qarshi ma’rifat”g’oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, targ’ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo’nalishlarini” [1.B.266] va ularni amalda qo‘llash uslublarini ishlab chiqish zarurdir.

Yangi ma’naviy makonni yaratishda “Jaholatga qarshi ma’rifat” g’oyasini amalga oshirishda ko‘pgina madaniy-ma’rifiy muassalari qatorida kutubxona-axborot muassasalari, jumladan, maktab kutubxonalari alohida ijtimoiy vazifani amalga oshiradi.

Chunki foydalanuvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish ularning yosh hususiyatlari, turli ijtimoiy –demografik guruhlarning o‘ziga xosligini hisobga olgan

holda yondashishni talab qiladi. Bu kutubxona axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilar bilan olib boriladigan ishlarning shart-sharoiti va ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, kutubxona axborot xizmati ko'rsatish samaradorligini baholash uchun asos yaratishdan tashqari mutolaani boshqarish jarayonida qaytariluvchi aloqani ham ta'minlaydi.

Foydalanuvchilarni muayyan guruhlariga ajratish ularni mutolaa va foydalanuvchilar psixologiyasini shakllantirishga katiy ta'sir o'tkazish belgilariga ko'ra guruhlashtirishdir.

Foydalanuvchilarni guruhlashtirishda demografik, ijtimoiy kasbiy, ijtimoiy psixologik belgilarga ham e'tibor karatiladi.

Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish foydalanuvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarining qondirilishi, mutolaaga raxbarlik, axborotlar bilan ta'minlash, bibliografik va axborot kidiruv ta'minoti singarilar orqali amalga oshiriladi va uni foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning tashkiliy shakllari tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Mutolaa shakllantiruvchi muassasalar tizimida kutubxonalar alohida o'rin egallaydi. Lekin, "ushbu muassasalarda kitobxonlar bilan ishlash bo'yicha maxsus ma'lumotga va malakaga ega bo'lgan xodimlarning mavjud bo'lishigina mutolaa madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin" [5.B.75].

Mutolaa madaniyatining shakllanishi kitobxon faolligi bilan ham bohlik bo'lganligi uchun uning maqsad sari intilishi, irodasi, mas'uliyatligi, o'zini o'zi nazorat qila bilishi orkali takomillashib borishi ko'nikmasini tarbiyalashda Kutubxona-axborot muassasa xodimi o'zining pedagog sifatidagi imkoniyatlaridan keng foydalanishi zarur bo'lib, ma'naviy rag'batlantirish, namuna kilib ko'rsatish usullari qo'llanilishi mumkin.

Kutubxona-axborot muassasalari axborot bilan ta'minlashning yangi texnologiyalarini qo'llagan holda xizmat ko'rsatishning yangi shakllarini taklif eta bilishi, an'anaviy kitoblar targ'iboti bilan birga elektron shakldagi manbalarni to'plash, masofaviy manbalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borishlari kerak.

Kutubxona-axborot muassasalari an'anaviy kutubxonashunoslik ishining ijobiy samara berayotgan shakl va usullari bilan birga yangi texnologiyalardan keng foydalanishni uyg'unlashtirib, mutolaa madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi holatlarga e'tibor berishlari zarur:

- Foydalanuvchilarni Kutubxona-axborot muassasalariga jalb qilishning yangi shakllari va usullaridan keng foydalanish;
- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mutolaa va kitobxonlik madaniyatiga oid dasturlarni amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etish;
- Foydalanuvchilarda kutubxona axborot bibliografik apparatidan mustakil foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish;
- Mutolaa jarayonining ilmiy-nazariy imkoniyatlarini optimallashtirish usullarni ishlab chikish;
- Internetdan foydalanish malaka va madaniyatini shakllantirish;
- Kutubxona-axborot muassasa xodimlarining malakasini muttasil oshirib borish.

Ma'naviyatning shakllanishi, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning qanday kitob o'qiyotganligi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun mutolaa madaniyatini shakllantirishda Kutubxona xodimlarining faoliyati alohida ahamiyatga ega. Chunki foydalanuvchi fondagi kitoblarning hammasini o'qib chiqish imkoniga ega emas, balki ularning hammasini o'qib chikish shart emas.

Kitob eng yuksak ma'naviy boylikka kiyoslansada, kitob javoniga terib qo'yilgan, lekin o'qilmagan, birovlariga o'qish uchun tavsiya qilinmagan kitoblar hech qanday qiymatga ega emas. Insonni o'ylantiradigan, xayot yo'li davomida asqotadigan, dunyoqarashi va yashash falsafasini o'zgartiradigan, muayyan xulosaga kelishi asosida faoliyatni maqsad sari yo'naltirishga yordam beradigan kitoblarninggina qiymati beqiyosdir.

Chunki, inson kitobni yashashdan maqsadini, xayotining ma'nosi, mazmunini anglash uchun mutolaa qilishi kerak. Yaxshi kitob fikrlashga o'rgatadi, nutkni takomillashtiradi, tafakkurni yanada kengaytiradi va boyitadi. Shuning uchun

kitoblar ichidan eng saralarni tanlab tavsiya qilish Kutubxona-axborot muassasadan foydalanuvchilar bila ishlashda eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak.

Qaysi kitobni o'kishni bilmay turgan foydalanuvchining qo'liga ushbu saralangan kitoblarning bir qismi tushsa va ularning mazmuni va maqsadini to'g'ri anglab yetishga erishilsa, bu kitob mutolaasidagi eng samarali uslublardan biri xisoblanadi. "Eng sara kitoblarni o'qigan kitobxon atrofdagi boshqa odamlardan farqli ravishda dunyoni o'zgacha nigox bilan kuzata boshlaydi, o'zidan boshqalarning fe'l-atvoriga va ehtiyojlari, dunyoqarashi to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, o'zining menligidan tashqariga chiqib, xayotiy xulosalari xam umumlasha boradi" [8.B.18].

Eng sara kitoblarni doimiy, izchil, tizimli tarzda mutolaa qiluvchi kishida imon shakllanadi. Imon umumlashtirilganda o'tmishda bo'lib o'tgan, hozir mavjud bo'lgan va kelajakda voqea bo'ladigan narsalarning hammasida kamolotga intiluvchi iroda mavjud ekanligiga katiy chin dildan ishonch va til tasdig'idir. Ushbu ishonch va e'tiqodga ega bo'lgan xar bir inson mukammallashish va kamolotga erishish jarayonining ishtirokchisiga aylanadi. Go'zallik va ezgulikni kuzatish hamda xis kilshga qodir bo'lgan, meyor tuyg'usiga ega bo'lgan inson hayotda ham go'zallikka intiladi, unga extiyoj sezadi, meyorga muvofik faoliyat ko'rsatadi. Kitob mutolaasi insonni o'z orzularining hayotiy haqiqatga aylanishi, erishilgan darajaga asoslanib yangi orzular va intilishlarga ilhomlantiradi.

Yangi maqsadlarga erishish uchun o'qish, izlanish, o'z ustida muntazam ishlash zarurati esa extiyojni shakllantiradi. Mutolaa extiyoji shu tarzda vujudga keladi. Insoniyat jamiyatining bugungi taraqqiyot darajasi doimiy mutolaani talab kiladi. Ushbu uzluksiz jarayonni optimallashtirish jamiyatning ijtimoiy-iktisodiy, madaniy taraqqiyotida hamda unig yangi sifat bosqichlarga o'tishida ma'naviy asos vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot oqimi, internetning imkoniyatlari kengayib borishi bilan kitobning inson va jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati kamayib boradi degan qarashlar xam paydo bo'lmoqda.

Lekin xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadqiqotlar va so'rovlarning ko'rsatishicha internetdan foydalanuvchilarning o'sishiga muvofiq tarzda kitob sotib olish va o'kish ham o'sib bormokda. Agar bu holat G'arb davlatlarida yuz berayotganlarini hisobga olsak ma'naviy yuksalishda kitobning o'rnini hech narsa bosa olmasligi namoyon bo'lmokda. Bundan tashqari turli sohalar mutaxassislarining qiyosiy taxlillari natijalarga ko'ra elektron kitoblar olib yurish qulay va tezkor bo'lsada undan toliqish xissi kuchli bo'lib, oddiy kitob singari mexr, xayajon intiqlik, keng mushoxada qilish singari insoniy tuyg'ularni uyg'otmaydi. So'nggi paytlarda mamlakatimizda xam kitob sotib olish va mutolaa madaniyatining sezilarli darajada o'sayotganligini kuzatish mumkin. Chunki kitob do'konlari oldida ba'zi kitoblarni sotib olish uchun odamlar navbat kutib to'rganligini ko'p yillardan buyon hech kim ko'rmagan edi. Bu holat kishilarning ma'naviyat sari, kitob mutolaasi sari yuz burayotganidan dalolatdir.

Demak, axborotlar okimi qanchalik kuchayishidan katiy nazar "Internet" tarmog'idagi ma'lumotlarning juda ko'pligiga qaramasdan kitobning o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Bugungi kunda kitob mutolaasi targ'ibotining eng yaxshi yo'li saralangan kitoblarni tanlab tavsiya qilishdir. Chunki nashr etish imkoniyatlarning kengayib borishi natijasida turli saviya va mazmundagi kitoblarning chop etilayotganligi uchun ular ichidan inson tafakkurini boyituvchi, ijobiy fazilatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan kitoblar mutolaasiga yo'naltira bilish zarur bulmokda.

Chunki faqat ma'rifiy dunyoqarashi shakllangan, jahoniy miqyoslarda fikrlaydigan insonlargina jamiyat tarqqiyotiga hissa qo'sha oladi. Hayotning Xamma sohalarida fakat bilimlar orkaligina muvaffaqiyatga erishish mumkinligi o'zgarmas haqiqatdir.

Foydalanuvchilarning turli qatlamlari orasida mutolaaning o'rnini aniqlash, axborot olishning asosiy manbalarni bilish, mutolaa darajasining kamayib ketishining sababini aniqlash, mutolaa madaniyatini shakllantirishni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatishga erishish alohida axamiyatga ega bo'lib, shu orqali:

1. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda an'anaviy kitobxonlik tamoyillarini, shakllari va usullarni to'liq saqlash, davrimizning xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi shakllar va usullarni qo'llay bilish va takomillashtirib borish;

2. Zamonaviy elektron-texnik vositalardan to'liq foydalana bilishni chukur o'zlashtirish, taxlil eta bilish asosida mutolaa madaniyatini davr talablariga javob bera oladigan darajada shakllantirish.

3. Axborotlashgan jamiyatda elektron manbalarning ko'payib borishini kitobning chetga surilishi emas, kutubxona-axborot xizmatlari doirasining yanada kegayishi va takomillashishi ekanligini keng tushuntirish.

4. "Axborot madaniyati", "Mutolaa madaniyati alohida tushunchalar emas, aslida axborot madaniyati ham "kutubxona-bibliografiya savodxonligi" "kompyuter savodxonligi," "axboro savodxonligi" singari mutolaa madaniyati tarkibiga kiruvchi tushuncha ekanligini barcha foydalanuvchilar bilishlari zarur. Ana shundagina mutolaa madaniyatini shakllantirishda ba'zi ziddiyatlarga barham beriladi.

Kutubxona axborot xizmati jarayonida mutolaa madaniyatini shakllantirish kutubxonalarni jamiyatning ma'naviy va ilmiy, texnologik, umuman madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi muassasaga aylantirishga xizmat kiladi. Kutubxonalar ma'naviy-ma'rifiy muassasa sifatida jamiyat va rivojlanishini uyg'unlashtirish asosida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Har bir foydalanuvchining talab va extiyojiga mos kutubxona axborot xizmati ko'rsatish;

- kutubxona-axborot xizmati orqali foydalanuvchilarning barcha guruxlarini ijtimoiylashuv jarayonlariga tortish;

- kutubxona-axborot xizmati orkali mutolaa madaniyatini shakllantirish, Kutubxona-axborot muassasasi joylashgan hudud nuktai nazaridan esa:

1. O'lkashunoslik asosida maxalliy muhitning o'ziga xos hususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish, targ'ib qilish va muxofaza qilish;

2. Milliy kadriyatlarni asrash bilan birgalikda boshqa millatlar madaniyatini o'rganish, dinlararo va millatlararo toleterantlikni shakllantirish;

3. Jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan ijtimoiy demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishni ta'minlashdan iboratdir.

Bundan tashqari kutubxona-axborot xizmati orqali quyidagi vazifalar xam amalga oshiriladi:

- foydalanuvchilar o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatish;
- foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ish olib borishdan tashqari bahs-munozaralar tashkil etish;
- har bir foydalanuvchining individual rivojlanishiga xizmat kiluvchi "Foydalanuvchi-kutubxonachi", "Foydalanuvchi-manba", "foydalanuvchi-foydalanuvchi" aloqalarni takomillashtirish;
- har bir foydalanuvchining o'z talab va ehtiyojlariga mos tarzda malumot va axborot olishiga imkoniyat yaratishi;
- foydalanuvchilarning ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy, xuquqiy bilimlarini oshirish orqali ularni jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy o'zgarishlarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish usullarini ishlab chiqish va targ'ib qilish;
- o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muasasalarini o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari uchun ilmiy-amaliy hamda uslubiy yordam ko'rsatish;
- imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga, uy bekalarga, uyushmagan yoshlarga, keksalarga, vaqtincha ishsizlarga, ozodlikdan mahrum bo'lganlarga va boshqa ijtimoiy demografik guruhlariga alohida xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni amalga oshirishdan tashqari jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining intellektual omili sifatida mutolaaning ahamiyatini ko'rsatib berish uchun alohida dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan:

1. Bevosita mutolaa jarayonlarining shaxsning rivojlanish va jamiyatning taraqqiyoti uchun ahamiyatini targ'ib qiluvchi dasturlar;

2. Ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida katnashmayotgan aholi guruhlari uchun biron-bir ijtimoiy foydali faoliyat kasb yoki qiziqishni qondirish yoki davr talabiga

mos holda boshqa kasbni chuqur o'rganish, moslashuvda mutolaaning amaliy ahamiyatini ko'rsatib beruvchi dasturlar:

3. Davlat va jamiyat tomonidan ilgari surilayotgan taraqqiyotga oid vazifalarni amalga oshirish yo'nalishlari bilan kutubxona-axborot xizmatini uyg'unlashishga oid dasturlar;

4. Jamiyat manfaatlari va shaxs manfaatlarning meyoriy muvozanati va uyg'unligini ta'minlash uchun mutolaaga doir vazifalarni amalga oshirishga oid dasturlar;

Kutubxona-axborot xizmati har bir foydalanuvchining ijtimoiy taraqqiyotidagi ishtirokini ta'minlashdagi vazifasini amalga oshirishga ko'maklashish, yo'naltirish, kuzatish, eksperimentlar o'tkazish orqali tavsiyalar berish jarayonlaridan iboratdir. Har bir foydalanuvchida kutubxona-axborot xizmati orqali mutolaa madaniyatining shakllanishi, ularning passiv faoliyatdan (ma'lumot va axborotni qabul qilish faol faoliyatga (ma'lumot va axborot qabul qilish, qayta ishlash va taxlil qilish, mohiyatini anglash orqali yangi ma'lumotlar va bilimlarni yaratish) o'tishlarini ta'minlab, shaxsning o'zigagina emas bir butun jamiyatning rivojlanishiga xizmat kiladi.

Mutolaa murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tarkibiy kislardan iborat bo'lganligi uchun uning asosiy elementlaridan biri- mutolaa psixologiyasidir.

Mutolaa psixologiyasida shaxsning ijtimoiy faolligi aloxida ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy shart-sharoitlarni o'zgartirish, shaxsni ijtimoiylashtirish maksadiga yo'naltirilgan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Mutolaa madaniyati tizimida foydalanuvchilarning ongli va maqsadli faoliyati markaziy o'rinni egallaydi va mutolaa jarayonlarida foydalanuvchilarning faoliyatini taxlil qilish, ularning psixologiyasi, shaxsi, o'zaro muloqotini ham ma'lum darajada o'rganishga imkoniyat beradi.

Mutolaa – psixologik faoliyatining murakkab ko'rinishi bo'lib, matini o'zlashtirish va qayta ishlash orqali munosib bilimlarga erishishdan iborat bo'lgan jarayondir. Foydalanuvchi faoliyatining motivasiyasi, qiziqishi uning ijtimoiy demografik mansubligi hamda ijtimoiy psixologik tafakkuri natijasida shakllanadi.

Har qanday faoliyat u yoki bu natijalarga bog'liq bo'lganligi uchun maqsadga erishishga qaratiladi va bu faoliyatda o'z aksini topgan psixologik holatlar va jarayonlar tizimi "motiv-maqsad" munosabatlaridan tashkil topadi.

Foydalanuvchi faoliyatining pirovard natijasi uchun o'zi va mualliflar bilim darajasi, nutqi va malakasi, hissiy irodasi, mutolaani psixologik jihatlari, mutolaa uchun yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar foydalanuvchilar diqqatini jalb qilish darajasi va boshqalarga bog'liqdir.

Mutolaa psixologiyasi foydalanuvchi faoliyatidan tashqari "o'zlashtirish", "tushuntirish", "mutolaa natijasi", "mutolaa samaradorligi" kabi tushunchalarni xam o'z doirasiga qamrab oladi. Mutolaa qilingan manbalarni anglab yetish, o'zlashtirish foydalanuvchining murakkab psixik faoliyati xisoblanadi.

Manba matnini tushunish mutolaa samaradorligini tashkil qiladi. Samaradorlik esa natija, tushunish va qabul qilishning umumlashtirilgan jarayoni bo'lib, foydalanuvchining bir butun faoliyatini tavsiflaydi. Foydalanuvchi faoliyatining natijasi uning erishilgan mahorat ko'rsatgichidir.

Mutolaa ehtiyojining yaratishni asosiy shakllaridan biri mutolaa motivi xisoblanadi.

Motiv lotinchada "harakatlantiraman", fransuzchada "undovchi sabab tushunchalarini anglatadi. U shaxsni aqliy, amaliy harakat va xulq atvorii amalga oshirishga undovchi, muayyan extiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liq mayl, ixtiyoriylikdir. Motivlarning bosh funksiyasi insonii harakatga undovchi sabab va ichki turtkilarni harakatga keltirishdan iborat.

Har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoit yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida manbalarni o'rganish va o'zlashtirishni amalga oshirishni ta'minlash uchun ularda mutolaa motivlari: shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanuvchilarning muayyan manbalarni va axborotlarni o'rganish asosida bilish motivlarni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi.

Motivlar ikki xilda, tashqi va ichki motivlar ko‘rinishida bo‘lib, tashqi motivlar mutolaaga nisbatan ichki anglangan extiyojining mavjud emasligi, boshqalarga ko‘r-ko‘rona ergashish tarzida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ichki motivlar turkumiga yakka xususiyatga ega bo‘lgan motivlar: kiradiki, ular foydalanuvchi shaxsida muloqotga nisbatan alohida maqsadni ruyobga chiqaruvchi ichki hissiyot negizada paydo bo‘ladi. Chunonchi, bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi foydalanuvchining ma’naviy darajasini oshirish uchun unda intilishlarning yoritilishidir.

Bunga o‘xshash motivlarning ta’sirida foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) vujudga kelmaydi.

Albatta, bunday turkumga kiruvchi motivlar paydo bo‘lishiga qaramay, ba’zi qiyinchiliklar vujudga kelishi extimol tutiladi, chunki bilimlarni o‘zlashtirish uchun irodaviy zo‘r berishga tugri keladi.

Bunday xossalarga ega bo‘lgan irodaviy zo‘r berishlar halakit beruvchi tashqi qo‘zg‘atuvchilar kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari nuqtai nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda, to‘laqonli vaziyatgina oqilona (optimal) deyiladi.

Foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida bunday vaziyatni yaratish kutubxonachining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglashilgan motivlar, foydalanuvchilar shaxsini shakllantirishga, ularda maqsadni to‘g‘ri belgilay olish, qiziqish uyg‘otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi.

Kutubxonachi foydalanuvchilar bilan ishlashda bugungi kunda psixologiya fanining yutuqlarga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratgan holda yondashishi maqsadga muvofiqdir:

1. Foydalanuvchining dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy motivlar.
2. Ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi siyosiy motivlar.
3. Jamiyatning axloqiy qoidalari, tamoyillari, turmush tarzi, etno- psixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar.

4. Vokelikka nisbatan go‘zallikni his etishga asoslangan, nafosatli (estetik) xis etishga oid motivlar.

5. Keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoiylik, altruistik);

6. Faoliyat maqsulini baholashga, maqsadga erishuvga mo‘ljallangan rag‘batlantiruvchi motivlar.

7. Kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o‘zida namoyon etuvchi motivlar

8. O‘qishga, bilishga, ijodga oid motivlar.

9. Kiska muddatli, o‘tkinchi motivlar.

10. Uzoq muddatli, vaqt bilan chegaralanmagan, hotirjam hatti-xarakter bilan bog‘liq bo‘lgan motivlar.

Demak, motiv inson xissiyotini uyg‘otadigan, uning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan omildir.

Mutolaa ehtiyoji nuqtai nazaridan mutolaa motivasiyasi manba mazmuni va boshqa barcha sifatlarining foydalanuvchi ehtiyojiga mos kelishiga asoslangan, ihtiyoriy intilishni keltirib chiqaradigan ichki hissiyotlardir. Masalan, har bir foydalanuvchi tasavvurida kitobni tanlash motivlari obrazlar shakliga (titilib, to‘zib ketgan kitob haqida malumot va tasavvurga ega bo‘lishga intilish, ya‘ni kitobning titilib, to‘zib ketganligi, ushbu kitobning juda ko‘p kitobxonlarni qiziqtirganligi va qo‘ldan qo‘lga kelganligidan darak beradi), fikrlarga, boshqa kitoblar bilan taqqoslanganida ushbu kitobning bayon qilish va qiziqtirish uslubining yuqori o‘ziga xosligi haqida mulohaza yuritish, qiziqtirishga (butun diqqat e‘tiborni jalb etadigan syujetga ega bo‘lishi), istak-hoxishga (masalan Tohir Malikning barcha asarlarini o‘qib chiqish) va intilishga ega bo‘lish mumkin.

Foydalanuvchi uchun oxir-oqibatda mutolaa motivlarining namoyon bo‘lish shakllari emas, uni qiziqtirgan muammolar, ya‘ni tanlangan kitobdan qanday javob kutishi, uning mazmuni, o‘z ehtiyojlariga qanchalik darajad mos kelishi muhimdir.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, mutolaa o‘z mohiyatiga ko‘ra ihtiyoriy faoliyat bo‘lishi bilan birga, unga bo‘lgan ehtiyoji bu ijtimoiy subektdir (alohida shaxs, ijtimoiy-demografik guruh, jamiyatdir) mutolaaga nisbatan uzluksiz, hayotiy, zaruriy faoliyat sifatida qarovchi munosabati hisoblanadi.

Mutolaa xar bir foydalanuvchining ma'naviy ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beruvchi muntazam faoliyatiga aylangan taqdirdagina mustaqil ehtiyoj sifatida rivojlanishi mumkin.

Mutolaa ehtiyojidan manbalarni tanlash zarurati kelib chikadi.

Eng asosiysi mutolaa motivasiyasida uning majburiyat, ba'zan qiziqish tufayli amalga oshadigan darajasidan doimo qiziqish tufayli amalga oshadigan darajasiga o'tish muhimdir.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilar bilan ishlashni uzluksiz, muntazam davom ettirish uchun foydalanuvchilar qiziqishini o'rganib borish zarur. Shuning uchun ham kutubxonada- foydalanuvchilarni o'rganishdan asosiy maqsad ularning qiziqishini o'rganish hisoblanadi.

Foydalanuvchi qiziqishi uni faoliyatga yo'naltiruvchi omil bo'lib, u manbalarni, ya'ni bosma nashr mahsulotlari, axborotlarni tanlashga, ularni tahliliy o'zlashtirishga va baholashga ta'sir ko'rsatadi. Foydalanuvchi qiziqishi uning boshqa ma'naviy qiziqishlari hamda mutolaaga bo'lgan ehtiyojlari bilan aloqadorlikda rivojlanadi.

Foydalanuvchi qiziqishi mutolaa motivlarining ustunlik darajasi, xohish, intilish, ya'ni bilimlarni egallashdan, tafakkuri rivojlanishidan zavqlanish kabilar bilan tavsiflanadi.

Lekin, aniq bir manbaga nisbatan bevosita qiziqishni foydalanuvchining barqaror qiziqishi sifatida talqin etish mumkin emas.

Shunday vaziyatda kutubxonachining asosiy vazifasi foydalanuvchining muayyan manbaga nisbatan qiziqishini taxliliy yo'nalishga solish, ya'ni saralangan manbalar orqali umumlashtirilgan va barqaror yo'nalishga tushirilgan holatga kelishiga yordam berishdan iboratdir.

Demak, foydalanuvchilar qiziqishi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganish uchun ularning mutolaaga bo'lgan aniq ehtiyojlarini, mutolaa ehtiyojlarining tushunib yetilganlik darajasini, ichki xoxish-istak sifatida mutolaa maqsadi va motivlarining namoyon bo'lishini muntazam va uzluksiz mutolaa xususiyatlarini birgalikda ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Bu foydalanuvchilar qiziqishining barqarorligi va beqarorligi, kuchli yoki zaifligi, faol yoki passivligi, kengligi yoki torligi, keng ko'lamliligi yoki yuzaki ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, foydalanuvchilar qiziqishi ularning boshqa qiziqishlari bilan xam o'zaro bog'liq bo'lib, mazmuniga ko'ra kasbiy, ta'limiy va ilmiy xarakterdagi manbalarni mutolaa qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Foydalanuvchilar yoshi va ma'lumot darajasi ularning qiziqishlari mazmunini belgilashidan tashqari rivojlanish yo'nalishiga xam ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mutolaa jarayonlari mazmunida yoshning farqi ayniqsa, bolalar. O'smirlar, o'spirinlarda o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra namoyon bo'lishi kutubxona xodimlari tomonidan alohida e'tiborga olinishi kerak.

Bundan tashqari foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ishlash jarayonida ular qiziqishining chuqurligi va kobilyatlarining uzaro ta'sirini o'rganib chikish zarur. Chunki, foydalanuvchi qobiliyati uning qiziqishi rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda kutubxonachi uning qiziqishini shakllantirib va muntazam mutolaaga yo'naltirib, qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Mutolaa madaniyati tushunchasi turli bosma nashrlar, ma'lumotlar va axborot olamiga yo'l topishdan tashqari "kitobga muhabbat", "mutolaaga qiziqish", "mutolaani his qilish va tushunish", "Ijodiy mutolaa", "Kutubxona-bibliografik savodxonligi" tushunchalarini ham o'z doirasiga kamrab oladi.

Ayniksa, Kutubxona-bibliografik savodxonligi malakali foydalanuvchi axborot xizmatidan foydalanishi uchun zarur bo'lgan minimal darajadagi ko'nikmalar va malakalar majmuasi xisoblanadi.

Kutubxona-bibliografik savodxonligi ilk boskichda kutubxona kataloglari, kartotekasi, bibliografik qo'llanmalardan, manbalardan foydalana bilish ko'nikmasini hosil qilish, kurs ishlari, diplom ishlari, dissertasiyalar bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishni o'rgatish orqali shakllantirilib boriladi.

Mutolaa madaniyati o'z-o'zidan shakllanmaydi va rivojlanmaydi. Buning uchun davlat va jamiyat taraqqiyotida zarur bo'lgan ehtiyojlar asosida millatning tili,

tarixi, dini, mustaqilligi, erkinligi, manfaati nuqtai nazaridan mutolaa madaniyati shakllantirib boriladi.

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona-axborot xizmati bilan birga oila, mahalla, ta'lim tizimi, mehnat jamoalari, davlat xokimiyati, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari muxim omillar xisoblanadi. Bundan tashqari Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirish mutolaa orqali - xalqimizning boy tarixi, ilmiy madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni chuqur o'rganish;

- Keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, davlat dasturlarining ahamiyatini anglatish;
- O'quvchilarga vatanga muhabbat uning taqdiriga daxldorlik xissini mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.-440 bet.*
2. *Umarov A.O. Mutolaa madaniyati: Shaxs, jamiyat, taraqqiyot. – Toshkent.: "Fan", 2004. – 194 b.*
3. *G'aniyeva B.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kutubxonachilik-bibliografiya bilimlar targ'iboti.-Toshkent: 2006.-33bet.*
4. *Falsafa: Qomusiy lug'at- Toshkent: "Sharq" NMAK Bosh tahririyati, 2004. – 496 b.*
5. *Мелентева Й.П. Чтение: Явление, процесс, деятельность. – Москва, Наука, 2010. – 182 с.*
6. *Чудинова В.П. Развитие наций читателей в разных странах мира: исследование, стратегии, проекты, практики. Москва, Книга, 2014.-344с.*
7. *Abdulazizov A. Mutolaa madaniyatini shakllantirishning sosiologik tahlili.-Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2016.- 176 b.*
8. *Yo'ldoshev E. Bolalar oqishiga rahbarlik qilish.-Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2006.-191 b.*
9. *Библиотечная энциклопедия. Москва, Пашков дом, 2012.-1335 с.*

SAHNAVIY OVOZNI SHAKLLANTIRISHDA SOTIMXON INOMXO‘JAYEV METODLARI

Anotatsiya. *Teatr san‘atining muhim bo‘g‘ini hisoblangan “Sahna nutqi” fanida nutq organlari faoliyati va talaffuz qoidalari, sahnaviy ovoz hamda matn ustida ishlashga ahamiyat qaratiladi. Ushbu maqolada ovozni yo‘naltirish, eshitimli va jarangdorligini ta‘minlashda nimalarga ahamiyat qaratilishi kerakligi yuzasidan amaliy ko‘rsatmalar berib o‘tilgan. Ovoz postanovkasi, registr va rezanotorlar faoliyati, ovoz turlari va yo‘nalishlari hamda amaliy mashg‘ulotlar ushbu maqolaning mazmunini tashkil etgan.*

Kalit so‘zlar: *Nutq organlari, ovoz paychalari, qaytarg‘ichlar, ovoz postanovkasi, registrlar, tenor, bariton, bas, soprano, kontralto, ovoz markazi.*

Аннотация. *В науке «Сценическая речь», которая считается важной частью театрального искусства, большое значение придается функционированию органов речи и правилам произношения, сценического голоса и работы над текстом. В этой статье представлены практические рекомендации о том, на что следует обратить внимание, когда речь идет о направлении звука, слышимости и громкости. Содержание данной статьи - голосовая почта, регистровая и резонаторная деятельность, типы и направления голоса, а также практические упражнения.*

Ключевые слова. *Органы речи, голосовые связки, резонаторы, голосовой аппарат, регистры, тенор, баритон, бас, сопрано, контральто, голосовой центр.*

Annotation. *In the science of "Stage Speech", which is considered an important part of theatrical art, great importance is attached to the functioning of the speech organs and the rules of pronunciation, stage voice and work on the text. This article provides practical advice on what to pay attention to when it comes to sound direction, audibility and loudness. The contents of this article are voice mail, register and resonator activity, voice types and directions, and practical exercises.*

Keywords: *Speech organs, vocal cords, resonators, voice box, registers, tenor, baritone, bass, soprano, contralto, voice center.*

Teatr, kino, televideniye, radio, estrada san'atini badiiy so'z san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijodkor talaba nutqi mukammal bo'lishi uchun doimiy ravishda professor-o'qituvchilar nazorati ostida nutq texnikasi ustida ish olib boradi. Talaba go'zal nutqi bilan birga, aytayotgan so'ziga fikran yondashadi, tasavvurida jonlantiradi, munosabatini ifodalaydi, tahliliy yondashgan holda ijrosini rang-barang tarzda taqdim etadi. Igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli mehnatni talab qiluvchi bu jarayonlarning barchasi ustozning shogirdiga qunt bilan tushuntirishi hamda amaliy ko'rsatmalar orqali ochib berishida namoyon bo'ladi.

Har tirik jon borki, uning o'z ovozi bor. Chaqolaq dunyoga kelar ekan bor ovozi bilan yig'lab, o'z "men"ini namoyon qiladi. Ovoz tabiiy jarayon, faqat ma'lum bir kasb egalari bu ovozni maqsadli ravishda o'zlashtiradi. Shu hususiyatga ko'ra ovozlari tabiiy va notabiiydir. 2003-yilda nashr qilingan O'zbekiston milliy ensiklopediyasining oltinchi tomida ovozning tabiiy hosil bo'lish o'rinlariga quyidagicha izoh berilgan: "Ovoz a'zolari yordamida chiqariladigan, balandligi, kuchi va tembri har xil bo'lgan tovush. Ovoz hiqildoqda hosil bo'ladi: o'pkadan chiqayotgan havo oqimi bir-biriga tegib turgan ovoz boylamlari oralig'idan o'tib uni tebratadi, natijada nozikkina ovoz hosil bo'ladi, so'ngra buni yuqori rezanatorlar og'iz bo'shlig'i, halqum, burun va yondash bo'shliqlari kuchaytirib beradi".

Ovozning notabiiy hususiyati shundaki, talaba hosil bo'lgan ovozdan maqsadli foydalanadi, ya'ni olisroqda turgan partnyoriga yoxud sahnaning orqa o'rindig'ida joylashgan tomoshabinga ovozi yetib borishini ta'minlash uchun uni yo'naltiradi. Bunda esa quyidagi nutq a'zolarining uzliksiz mexanizmi sabab ovozda rang va jilolar paydo bo'ladi: "Ovoz o'ziga xos ohang tembri oladi. O'pkadan chiqayotgan havo oqimining kuchiga jips turgan ovoz boylamlarining ko'rsatayotgan kamchiligi va ularning tebranish amplitudasiga qarab ovoz kuchli yoki kuchsiz, shuningdek tebranishining uzunligi va chastatasiga qarab baland yoki past bo'lishi mumkin" [1. B-446]. San'at va madaniyat sohasida ta'lim olayotgan talabalar aynan mana shu hususiyatlarga tayangan holda o'z ovozlari ustida tinim bilmay mehnat qiladi va o'z ijrosida eng sara asarlarning go'zal namunalari yaratadi.

Talabalarning tabiiy ovoz tembrida chiroyli jarang bo‘lishi mumkin. Shu topilgan jarangli ovozlarni ishlatish, yo‘naltirish, yetkazib berishda diafragmal aralash nafasning ahamiyati katta. Keng va kuchli nafas ovozni yo‘naltirib berishda tayanch manbadir. Nafasni to‘g‘ri sarflagan va o‘z o‘rnida undan maqsadli foydalangan talaba ovoz kengligi va jarangdorligini mustahkamlagan hisoblanadi. Jarangdor va keng hajmli ovoz talabani fikrini yetkazib berishda muhim sanaladi. Bunday ovozlarning quyi registrda paydo bo‘ladi. Mahoratli aktyor bo‘lishni istagan talabalar quyi registrda hosil bo‘ladigan sahnaviy ovozlarni topishga va uni yo‘naltirishga bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishi zarur. Tadqiqotchi olim Sotimxon Inomxo‘jayev “Badiiy o‘qish asoslari” kitobida ovoz hosil bo‘luvchi markazlar, ya‘ni registrlar to‘g‘risida shunday fikrlarni yozib qoldirgan: “Ovoz balandligi va kuch darajasining ma‘lum bir meyordagi cheklanuviga **registr** deyiladi. Inson ovoz manbai, hajmi, o‘rni va darajasiga ko‘ra, uch asosiy registrga bo‘linadi:” [2. B-41].

- Yuqori (bosh) registr
- O‘rta (yuz) registr
- Pastki (ko‘krak) registr

Bularga asoslanib, talabani ovoz markazini topish lozim bo‘ladi. Talabaga “Hmmm...” tovushini bir maromda talaffuz qilish vazifasi topshiriladi, ichki diqqat bilan uning ovoz tebranishlari qayerlarda hosil bo‘layotgani qunt bilan kuzatiladi. Agar talabani ovozi bosh miya qismlarida jaranglayotgan bo‘lsa, yuqori registr markazida ovozi hosil bo‘layotgan bo‘ladi. Yoki talabada topilgan tovushlar jarangi ko‘krak qismini yengil tebratayotgan bo‘lsa, u holda ovoz markazi quyi registr. Yoxud talabani ovozi bosh miyaga ham, ko‘krak qafasiga ham qisman urilib, yuz qismini o‘zida jaranglab turgan bo‘lsa, bunday ovoz o‘rta (yuz, maska) registrining ishini faollashtirib beradi.

Registrlar ovozni hosil qilib beruvchi markaz sifatida xizmat qilish bilan birga, yana bir qancha vazifalarni ham qamrab oladi. Jumladan, yuqori (bosh) registri sahna nutqida nafaol holatda ishlaydi. Asosan bu registrda vokal xonandalari ko‘proq izlanish olib boradi. Negaki, bu registr ijrochida ingichka eng yuqori lirik

ovozlarni tarbiyalab beradi. S.Inomxo‘jayev bunday ovoz sohiblariga quyidagicha ko‘rsatma berib: “bu registrda ovoz paylari tortilib, darcha torayadi; siqib chiqarilgan havo va ovoz to‘lqini mazkur qaytarg‘ichlarda aks etib, eng nozik va o‘tkir ohanglarni vujudga keltiradi. Ayniqsa, bu registrda ishlashda shoshilmaslik lozim, chunki birinchi qilingan o‘rinsiz harakatning o‘ziyoq bir umrga ovozdan mahrum etib qo‘yishi mumkin”, – deya ogohlantirib o‘tadi [2. B-42].

O‘rta (yuz, maska) registri kishilarning kundalik ovoz hosil bo‘luvchi markazidir. Bu registrdan talaba unumli foydalanishi zarur. Negaki, bu registrdagi ovoz har ikkala yuqori va quyi registr uchun faol harakat qiladi. Talaba ovozini quyi registrda sozlashi va kengligini topishda aynan o‘rta (yuz, maska) registridan unumli foydalanadi. Shu o‘rinda bu registr aktyorning ko‘krak qafasida hosil bo‘luvchi quyi ovozlarni ochib berishda ham tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Quyi registrda hosil bo‘lgan ovozlari sahna nutqi uchun juda zarur, aynan aktyor sahnada kuchli, keng hajmga ega bo‘lgan dramatik ovozlarni quyi (ko‘krak) registrda mustahkamlaydi. Talaba quyi (ko‘krak) registriga tayangan holda, ta’sir kuchiga ega bo‘lgan jarangdor ovozlari orqali ijrosini tomoshabinga taqdim qiladi. Jonli teatrning ta’sirchan, zalvorli yuki ham shundandir. Yuqori (bosh) registr ovozning emotsional kuchini hosil qilsa, quyi (ko‘krak) registri talaba ovozining jarangdor pafosini oshirib beradi. Talaba ovozidagi meyor va yoqimlilikni esa o‘rta (yuz, maska) registri ta’minlab beradi. Shunday ekan, talaba bu registrlarning har birini alohida qunt bilan o‘zlashtirishi maqsadga muvofiqdir.

Talaba ovozining egiluvchanligi, turli rang va jilolarni aks ettirishini quyidagi so‘zlar ham isbot etadi: “insonning ovoz apparati o‘ziga xos murakkab “musiqa asbobi” bo‘lib, u o‘zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqa ifodalash hususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblaridan ustun turadi. Bu borada inson ovoziga teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yo‘q. Shuning uchun ham inson ovozi ko‘pincha “gapiruvchi musiqa asbobi” deb ham yuritiladi” [3. B-51].

Ovozning shiradorligi, yoqimlilik va eshitimlilikni ta’minlashda qartarg‘ichlarning o‘rni nihoyatda katta. Registrlarda hosil bo‘lgan ovoz jaranglab

chiqishi uchun qaytarg'ichlar aktiv holatda ishlaydi. *Qaytarg'ichlar* registrlar tarkibidagi qattiq to'qimalar bo'lib, ovozning tebranishida va eshitalishida asosiy manbadir. Jumladan, yuqori (bosh) registrida hosil bo'lgan tovushlar qattiq to'qimalar hisoblangan peshona va bosh miya suyaklariga kelib o'riladi va maqsadli ovozlarni hosil qiladi. O'rta (yuz, maska) registrida esa burun, yanoq, tish, tanglay, jag' suyaklari qattiq to'qima hisoblanadi. Quyi (ko'krak) registrining qattiq to'qimalari ko'krak qafasi, orqa kurak va umirtqa pag'onasi bo'lib, bu yerda paydo bo'lgan tovush va sadolar ushbu qaytarg'ichlarga o'riladi va yoqimli ovozlarni shakllantirib beradi. Shuning uchun ham qaytarg'ichlar ovoz manbai va asosidir. Rangsiz va jilosiz paydo bo'lgan tovushlar qaytarg'ichlarga urilib, talaba nutqida kuchli xarakter ifodasini hosil qiladi. Qaytarg'ichlar ovoz ko'rkamligini ta'minlashi borasida S.Inomxo'jayev quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "latta matolar kabi yumshoq, ovozni singdiruvchi buyumlar bo'lmagan uyga kirib gapiriladi yoki ovoz chiqariladi, ovoz to'rt tomondan aks-sado qaytaradi va aks sado o'z originaliga ko'ra go'zalroq, xilma-xilroq bo'ladi. Huddi shu ishni qumsuvoq qilingan xonada qaytarsangiz, ovoz yanada ko'rkamroq bo'ladi; ganch, sement bilan suvalgan xonalar unga yanada ziyodroq rang qo'shadi. Huddi shu mashqni tog'lar orasida ham qilib ko'rish mumkin. Xullas, qattiq jismdan iborat qaytarg'ichlar ko'paygan sari, ovoz ranglari ham jilolanib boradi. Biz qaytarg'ichlar deb atagan organlarning barchasi ham ana shunday qattqlik xarakteriga ega bo'lgan suyaklar va kemirchak (tog'ay)lardan iboratdir" – deyiladi [2. B-39].

Sahnaviy nutqning go'zal va yoqimli bo'lishi, ovozdagi jarang va dardning tomoshabinga aniq va ravon eshitimli bo'lishida *ovoz postanovkasi* muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz postanovkasini to'g'ri shakllantirishda ovoz manbalari hamda diafragmal aralash nafasdan unumli foydalanish zarur. Negaki, sahnaviy ovozning kuchi va kengligini diafragmal nafas ta'minlab beradi. "Nafasni yo'lga qo'ymasdan turib ovoz mashqlariga o'tish qat'iyman etiladi, chunki, dastavval mustahkam nafas bazasiga ega bo'lmagan mashqlar kuchanishga olib keladi (kuchanish, zo'rlash esa haqiqiy san'atning eng birinchi dushmani); ikkinchidan, tez-tez olingan havo faqat o'pkaning yuqori qismiga olinib, pastki qismlari faoliyati

zaiflashadi, salomatlik susayadi; uchinchidan, tez-tez olingan yangi havo oqimi ovoz paychalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham kuchanmasdan olingan uzoq nafas ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish omillaridan biridir"- deyiladi [2. B-42,43].

Nafas qanchalik sust va jonsiz bo'lsa, ovoz shunchalik kuchsiz va rangsiz tusga kiradi. Shuning uchun avvalo, ovoz postanovkasini shakllantirishda nafas mashqlari bilan talaba o'zini chiniqtirishi lozim. Nafas mashqlarini oqilona o'zlashtirgan talaba, nafaqat ovoz postanovkasida, balki katta asarlar ijrosida ham nafasning imkoniyatlarini his qilgan holda, eng sara va turli xarakterga ega bo'lgan asarlar ijrosini taqdim qiladi.

Ovoz postanovkasi bilan shug'ullanayotganda, ovozga turli shakl-shamoyillar, bezak va jilolar berish natijasida ovozni tomoqqa tushirib qo'yish yoxud ovozni tomoqning yuqori qismlariga ko'r-ko'rona yo'naltirish holatlari ko'zga tashlanadi. Ovoz manbaalarining erkin va faol harakati, siqiq va bo'g'ilishlardan holi ravishda har bir mashg'ulotlarni to'g'ri amalga oshirish mustahkam ovoz imkoniyatlarini taqdim qiladi. Ovoz manbalari va uning postanovkasi jarayonlarida talaba bilishi lozim bo'lgan yana bir jihat borki, bu ovoz turlari deb yuritiladi. Ovoz turlari va yo'nalishlarini ajratish talabaning ilmiy salohiyati va intellektual bilim layoqatining keng qamrovliligini ko'rsatadi.

Inson ovozi turli kenglikda hosil bo'ladi. Masalan, erkaklar ovozining keng va yo'g'on bo'lishi hiqildoqning quyiroqda joylashganligi bo'lsa, ayollar ovozidagi ingichka va mayinlik hiqildoqning yuqorida joylashishiga bog'liq. Yoxud bolalar ovozining mayda va yoqimlilik, ularning hiqildog'i ancha yuqori qismlarda shakllangan bo'ladi. Keksa nuroniylarning bosiq, keng, xirildoq, viqorli ovozlarini ancha quyida joylashgan hiqildoq ta'minlab beradi. Shu bois ham ovoz hosil bo'lishi va turlarga ajralishida ovozning past-balandligi, hajmi, kuchi va rang hususiyatlari inobatga olinadi. Inson ovozi va uning imkoniyatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan ustozlar ovoz ko'rinishlarini quyidagicha ajratib o'tadi:

- ***Bolalar ovozi.*** (*Diskant. Alt*)
- ***Ayollar ovozi.*** (*Soprano. Metsso-soprano. Kontralto*)
- ***Erkaklar ovozi.*** (*Tenor. Bariton. Bass*)

Bolalar ovozi. Musiqa va san'at maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning ovozi ustida ishlaganda, ehtiyotkor yondashuv talab etiladi. Bolalar ovozi to'g'ri shakllantirishda aniq ko'rsatma va vazifalar bilan ishlash maqsadga muvofiq. Negaki, bolalar ovozi rivojlanish bosqichida bo'lib, uni noto'g'ri tarbiyalab qo'ymaslik lozim, aks holda bola ovozi buzilishi va nosog'lom ovozi paydo bo'lishiga zamin yaratilgan bo'ladi. Bolalar ovozi ingichka va yoqimlilik sabab, ularning ovozi ko'proq yuqori registrda hosil bo'ladi va bunday ovozlari diskant deb yuritiladi. **“Diskant** – (soprano) bolalarning yuqori ovozi hisoblanadi. Diskant yengil, o'zgaruvchan, yumshoq (bosh registrda) yangraydigan ovoz bo'lgani uchun har xil kuy va ohanglarni juda ta'sirchan ijro eta oladi. **Alt** – bolalarning pastki ovozi. U kuchli va birmuncha yo'g'on jarangdor tembrli bo'lishi bilan birga, ba'zi hollarda mayin xarakterga ega ham bo'ladi. Shunga e'tibor qilish kerakki, alt ovozi juda ham yuqori pardalari qo'llanilsa, bolalar zo'riqib kuylaydi, shuningdek, juda past pardalar ishlasa kuchsiz bo'lib chiqadi. Alt ovozi diskantlarga nisbatan sustroq bo'ladi” – deb ta'kidlaydi Sh.Ro'ziyev [3. B-53].

Bolalar kuchli his-hayajon bilan ovozi zeb berib, asarini ijro qiladi. Uning ovoz kuchi ko'proq yuqori bosh qaytarg'ichlariga urilib, kerakli sadoni hosil qiladi. Ovoz hosil bo'lishdagi jarayonlarni bolalarning tushunchasiga joylashda pedagogik mahorat ustunlik qiladi. Negaki, bolalar murg'ak, ular qiyin, murakkab so'zlarning ma'nolarini hali tushunib yetmasligi, ovoz manbalari va ularning joylashuvi haqidagi bilimlarni o'zlashtirmaganligi inobatga olinib, bolalarga xos tushintirish ishlarini olib borish va ijrosida nimalarga ahamiyat berish lozimligi to'g'risida ko'rsatmalar berish zarur.

Ayollar ovozi. Ayollar ovozi soprano, mezzo-soprano va kontralto ovozlardan iborat bo'lib, har bir ovoz o'ziga xos go'zallikni ta'minlab beradi. **“Soprano** – ayollarning eng yuqori ovozi bo'lib, u italyanча “sapro” so'zidan olingan bo'lib, baland, yuqori degan ma'nolarni bildiradi” [3. B-55]. Bu ovoz yuqori registrda hosil bo'lib, ovozi ingichka va mayinligi bilan xarakterlanadi. Vokal xonandalarining deyarli ko'pchiligi shu ovoz imkoniyatidan foydalanib, asarlar ijro qiladi.

Musiqali teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talaba qizlarning deyarli ovozlari soprano hisoblanadi. Spektakl davomida ijro qilinadigan ariya va duetlarning ijrosini ta'minlash uchun bunday ovozlardan keng foydalanadi. Teatr sahnalarida qizlarning “*ishchi ovoz*”ini hosil qiluvchi o'rta (yuz) registri yana bir tur ovozlarni shakllantirib bergan. “**Metsso-soprano** – (*italyancha “mezzo” - o'rta*) – ayollarning o'rta ovozi hisoblanadi” [3. B-57]. Bu ovoz ham yuqori va pastki ovozlarning shakllanishi va jaranglashida faol harakatda bo'ladi. Talaba qizlar orasida quyi registrda shakllangan keng hajmga ega bo'lgan ovozlarning ham borki, bunday ovozlarning quyi kontralto ovozlari hisoblanadi. “**Kontralto** - *italyancha “contralto”* – ayollarning eng past ovozi hisoblanadi” [3. B-58].

Erkaklar ovozi. Talaba dars mashg'ulotlari davomida ovoz va uni yo'naltiruvchi kuch manbalari haqida batafsil o'rganish bilan birga, o'z ovozigina aniq tashxis qo'yishni ham bilishi zarur. Avvalo, ichki ovozigina quloq solishi, ovoz qayerlarda hosil bo'layotganiga ahamiyat qaratmog'i kerak. Ovozni yo'naltirayotgan paytda bosim va zarba qaytarg'ichlarning qaysi bo'limini yengil tebratayotgan bo'lsa, ovoz o'sha registrlarda shakllangan bo'ladi. Jumladan, guruhdagi har bir yigitning ovozinini eshitib ko'rish va ovoz markazini topishda pedagogning amaliy ko'magi zarur bo'ladi. Agar talabaning ovozi yuqori qaytarg'ichlarga kelib o'rilyotgan bo'lsa, bu registrda hosil bo'lgan sadoni tenor ovoz deb yuritish mumkin. “**Tenor** (*lotincha “teneo” – “ushlayman”*) – erkaklarning yuqori ingichka ovozidir. Tenor ovozining asosiy turlari quyidagicha:

- Altino tenor; (tenor altino)
- Lirik tenor;
- Lirik-dramatik tenor;
- Dramatik tenor”. [3. B-59].

Tenor ovozlari asosan, vokal xonandalarining imkoniyatlarini to'liq ochib berishda qo'llaniladi. Bunday ovozlarning ijroning eng yuqori nuqtalarini namoyon qiladi. Shu o'rinda ovoz yo'nalishlariga ham to'xtalib o'tamiz. Talabalar ovozida mayin, yumshoq, lirik nafosat ufarib turgan bo'lsa, bunday ovoznining yo'nalishi *lirik* xarakterli ovozlarning deb yuritiladi. Agar ovozda dag'allik, keng va kuchli dard, jangari

dramatizm aks etgan bo'lsa, bundaylarni *dramatik* xarakterga ega ovoz sohiblari deb atash mumkin.

Yigitlar ovozi ikkinchi turi bu bariton ovoz hisoblanadi. "**Bariton** – (grekcha "*barus*" – og'ir, past va "*tonus*" - ton) – erkaklarning o'rta ovozi hisoblanadi" [3. B-62]. Bu ovoz ham lirik va dramatik hususiyatlarga ajratiladi. Bariton ovozlari o'rta (yuz) registrda hosil bo'lib, har ikkala yuqori va pastki ovozlarning shakllanishida ko'prik vazifasini bajaradi. YA'ni yuqori (tenor) va pastki (bass) ovozni yo'naltiruvchi kuch sifatida har ikkala ovozning shakllanishida turgak bo'lib xizmat qiladi. Bariton asosan "*ishchi ovoz*"ni mustahkamlashda qo'l keladi.

"Sahna nutqi" fanida sahnaviy ovozlarni shakllantirish, kuchli dramatik asarlar ijrosini ta'minlashda asosiy ovoz turi borki, bu quyi registrda hosil bo'ladigan bass ovozlardir. "**Bass** (*italyancha "basso" - past*) – erkaklarning past ovozi hisoblanadi. Basslar umuman uch xil bo'ladi:

- Yuqori bass (lirik va dramatik);
- O'rta bass;
- Oktavachi bass.

Lirik bassning ovoz xarakteri yumshoq, to'liq bo'ladi. Dramatik bass tembri ancha kuchli va keng, jarangdor bo'ladi. Oktavachi bass – (pastki bass) – kam uchraydigan erkaklarning eng quyi ovozi. Bu ovoz o'zining yumshoqligi va keng ohangdorligi bilan xarakterlanadi" [3. B-64]. Aynan "Sahna nutqi" maktabini o'zlashtirish va sahnaviy nutq hamda ovozlarni maromiga yetkazib ijro qilishda quyi registrda hosil bo'ladigan bass ovozlardan unimli foydalaniladi. Xonanda tenor ovozi bilan tinglovchining qalbini rom qilsa, aktyor kuchli, dramatik bass ovozi bilan tomoshabinni hayratga soladi. Teatrda eng sara asarlar ijrosini taqdim qilishni niyat qilgan talaba, avvalo nutqini go'zal va shirali qilishi, ovozi quyi registrdagi yo'naltirgan holda sahnaviy bariton va bass ovozlarni shakllantirmog'i shart va zarurdir. Sahnaviy ovozning yo'g'on va salmoqli bo'lishini hiqildoq kengligi ta'minlab beradi, shunday ekan, tomoq va ovoz manbalarini sog'lom va to'g'ri shakllantirish lozim.

Inson ovozi egiluvchanligi sabab turli shakl va jilolarni o‘zida aks ettiradi. Ovozni rivojlantiruvchi va uni yo‘naltiruvchi mashg‘ulotlarni muntazam olib borish, tinimsiz mehnat natijasida talaba sahnaviy ovozing ko‘rkamligiga erishadi. Talaba ovozing jarangdorligi va eshitimliliigi uning sog‘lom fikr va nutq organlarining nuqsonsizligi bilan bog‘liq. Agarda tanasida, ovoz yo‘llarida shamollash, burun bitishi, nutqiy kamchiliklar, tug‘ma kasalliklar mavjud bo‘lsa, u holda nutqi va ovozida ham uning asoratlari sezilib turadi. Talabaning sog‘lom turmush tarziga qat‘iy amal qilishi nutqi va ovozing maqsadli jaranglashida katta ijobiy natijalarni taqdim qiladi. Talaba “Sahna nutqi” fani dars mashg‘ulotlari bilan uch yil davomida muntazam ravishda bosqichma-bosqich shug‘ullanadi. Shu yillar davomida nutqiy nuqsonlardan holi bo‘lish va sahnaviy ovozni topish va yo‘naltirish borasida izlanish olib boradi. Bunda esa san‘atshunoslik fanlari nomzodi Sotimxon Inomxo‘jayevning amaliy mashg‘ulotlari asosiy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Go‘zal nutq va soxir ovozga ega mahoratli aktyor bo‘lishni orzu qilgan talaba nutq organlari va ovoz manbalarini doimiy tarzda sog‘lom tutishga harakat qilishi lozim. Sog‘lom nutq apparatida sog‘lom ovoz paydo bo‘ladi, qachonki talaba ovozi maqsadli tarbiyalagan bo‘lsa...

Sog‘lom nutq deganda, avvalo talaba tanasining jismonan chiniqqanligi, mushaklarning faol va erkinligi, turli kasalliklardan holi bo‘lishlik tushiniladi. Talaba nutqidagi kamchiliklar, jumladan nutq apparatining noto‘g‘riligi – jag‘ va tishlarning qiyshiq yoxud shikastlanganligi, ovoz yo‘llarining shamolashi, baland va kuch bilan gapirish asnosida ovozing bo‘g‘ilishi va charchashi, ko‘krak qafasining siqiligi va bukrilik holatlarining mavjudligi, qorin mushaklaridagi burama og‘riqlarning uchrab turishi kabi holatlar ham tabiiy va sahnaviy ovozing paydo bo‘lishidagi katta to‘siqlardandir. “Hadeb baqirib gapiraverish ham ovoz buzilishiga sabab bo‘ladi. Ichkilik va chekishga ruju qo‘yish, shuningdek, tish yo‘qligi va yasama tishning noto‘g‘ri qo‘yilganligi ham ovoz sifatiga ta‘sir etadi. Odatda, yoshlarda o‘tish davrida bo‘ladigan ovoz o‘zgarishida alohida ehtiyot choralariga rioya qilish zarur. Ovozni asrash, eng muhimi organizmni chiniqtirish kerak” [1. B-446] - deyiladi. Shunday ekan, talaba sahnaviy ovoz va professional ijro mahoratiga

ega bo'lishni maqsad qilgan holda, doimiy o'z ustida ishlashi, o'zini nazoratda saqlab turishi lozim.

Sahnaviy ovozni topish va uni yo'naltirish bo'yicha takliflar:

➤ To'g'ri nafas olish va diafragmadan faol foydalanish ovozning mustahkamlanishi va bardoshli bo'lishiga, qolaversa ovoz yo'llari va tomoqning charchab, bo'g'ilib qolishidan asraydi. Shu bois nafas mashqlarini mustahkamlash zarur;

➤ Sahnaviy ovozni paydo qilish uchun doimiy ovoz mashqlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish lozim;

➤ Nutq apparatining sog'lomligi va to'g'ri talaffuzning rivojlanganligi ham ovozning sofligi va ravonligini ta'minlashda qo'l keladi, shu sabab talaffuz mashqlarini ovozni yo'naltirish bilan birga olib borish maqsadga muvofiq;

➤ Tamaki mahsulotlarini chekish va spirtli ichimliklarni ichish sog'liq uchun zararli. Ovoz uchun ham zararli odatdir. Kimyoviy moddalar ovoz va nafas yo'llarining bo'g'ilishi, yallig'lanishi va shikastlanishiga olib keladi. Shu bois ijodkorlar o'z sog'lig'iga jiddiy qarashi lozim;

➤ Charchoq va asabiylik ham sahnaviy ovozning shikastlanishiga yoki ovoz chiqmay qolishiga sabab bo'ladi. Yuqori emotsional holatda gapirish va kuchli dialoglardan muntazam foydalanish ham ovozning shikastlanishiga olib keladi. Kuchli xissiy asarlarni to'xtovsiz, dam olmasdan ijro qilish natijasida ovoz yo'llarining suvsizlanishiga olib keladi. Ovoz yo'llarining qurub qolishi va namlik yetishmasligi sabab tomoqning shilliq qavati shikastlanishi mumkin. Bu esa ovozning bo'g'ilishi va yo'qolishiga olib keladi. Shu bois ijrochi ovoziga dam berishi va ijro dinamikasini nazoratda ushlashi lozim;

➤ Ovoz yo'llarining faol ishlashiga qarshilik qiladigan shamollash, tomoqning yallig'lanishi, allergiya, oshqozondagi va tanadagi boshqa kasalliklar ham ovoz sofligiga halaqit beradi, shuning uchun ijodkor o'z sog'lig'i haqida qayg'urishi, sahnaga chiqishdan oldin ehtiyotini qilishi zarur;

➤ Talabalarning sahnaviy ovozlarini topish va uni yo'naltirish bo'yicha katta sahnalarda ovoz kengligini ta'minlaydigan asarlar ijrosi bilan nazoratdan o'tkazib

turish lozim. Jangovor ruhdagi she'r va monologik nutqlar bilan talabalarning ovoz imkoniyatlarini ochish va yo'naltirishni sinovdan o'tkazish kerak;

➤ "Sahna nutqi" fanining tugallanishida talabalar badiiy o'qish orqali sahnaviy ovoz va ijro mahoratini katta sahnalarda amaliy ijrosi bilan mustahkamlab borishi lozim bo'ladi.

Teatrda so'z va nutqsiz, faqat sahnaviy xatti-harakatga qo'yilgan spektakllar ham mavjud, xatto bunday asarlarning o'z tomoshabini va o'z auditoriyasi bor. Lekin shunday sahna asarlari borki, ularning jonli va ta'sirli bo'lishida badiiy so'z birlamchi omildir. Sahnadagi har bir xatti-harakat badiiy va jonli so'z, dialog va monologlar orqali ochib beriladi va tomoshabinning qalbidan bir umrga joy egallaydi. A.Navoiyning "Iskandar", I.Sulton va Uyg'unning "Alisher Navoiy", T.To'laning "Nodirabegim", M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi", A.Oripovning "Sohibqiron" va yana bir qancha spektakllarning badiiy qimmatini nafis nutqiy muloqot tashkil etadi. Shunday ekan, sahnada umrboqiy obraz va jarangdor nutq yangrashi uchun doimiy izlanish va o'z ustida tinimsiz ishlash kerakligini talaba ongi-shuuri bilan his qilishi lozim. Shundagina, tarix va teatr sahnasida o'z nutqi va ovozigaga ega aktyor paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Tahrir hay'ati A.Abduvohidov, A.Azizxo'jayev, M.Aminov va b. – Toshkent.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.*
2. *Inomxo'jev S. Badiiy o'qish asoslari. – Toshkent.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1973.*
3. *Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. – Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.*
4. *Inomxo'jayev S, Xo'jayeva L. Badiiy so'z mahorati. – Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.*
5. *Sayfuddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. – Toshkent.: "Fan" nashriyoti, 1980.*
6. *Po'latov I. Sahna nutqi. – Toshkent.: 1994, "O'qituvchi" nashriyoti.*
7. *Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent.: 2005, "Bilim" nashriyoti.*
8. *Xoliqulova G. Sahna nutqi. – Toshkent.: 2008, "Karloo" nashriyoti.*
9. *Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. – Toshkent.: 2014. "Tafakkur qanoti" nashriyoti.*

FITOMORFIK RAMZLAR VA ULARNING SAHNA NUTQIDA QO'LLANILISHI.

***Annotasiya:** Maqolada fitomorfik ramzlar va ular haqida tushuncha yoritib berilgan bo'lib, fitomorfik ramzlar ishtirok etgan she'riy misralar tahlili qilingan. Shuningdek, she'riy misralarning talaffuz va ijrosini sahna nutqi fani misolida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** fitomorfik ramzlar, sahna nutqi, talaffuz, ijro, tafakkur.*

***Аннотация:** В статье раскрываются фитоморфные символы и их понимание, анализируются поэтические стихи с фитоморфными символами. Также на примере науки о сценической речи поясняется произношение и исполнение стихотворений.*

***Ключевые слова:** фитоморфные символы, сценическая речь, произношение, исполнение, мышление.*

***Abstract:** phytomorphic symbols and their understanding are explained in the article, and poetic verses with hylomorphic symbols are analyzed. Also, the pronunciation and performance of poetic verses is explained on the example of the science of stage speech.*

***Key words:** phytomorphic symbols, stage speech, pronunciation, performance, thinking.*

Fitomorfik ramzlar o'simlik bilan bog'liq tushunchalar asosida paydo bo'lgan. Insoniyat paydo bo'libdiki, tabiat bilan uyg'unlikda hayot kechiradai. Shu sababli uning shaxsiy, maishiy, ijtimoiy hayotida tabiat obektlari va tabiat hodisalarining o'rni katta. Ramziy tasavvur insoniyat ibtidosi qadar qadimiydir. Hali badiiy tafakkur mezonlari shakllanib ulgurmagan vaqtlardayoq kishilar ongsiz tarzda bo'lsada, biror narsaning ramzi orqali o'z faoliyatini yaxshilashga harakat qilganlar. Binobarin, “Ramziy tasavvur hali inson o'z fikri doirasida tabiatdan o'zini ayrim holda tasavvur qila olmaydigan, animistik qarashlar girdobida yashayotgan bir davrda yuzaga kelgan” [1, 115].

Bu holat uning tafakkurida, borliq olamga bo'lgan munosabatida, xayolot dunyosida, tasavvur-tushunchalarida, kognitiv-mental, psixologik xususiyatlarida o'z aksini topgan. O'simlik nomlari asos bo'lgan ramziy timsollar ramzlar genezisida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Aynan fitomorfik ramzlarni o‘z navbatida *gul nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan ramzlarni* sahna nutqi dars jarayonlarida uyg‘unlashtirishni va lozim topdik.

Gul nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan fitomorfik ramzlarni xalq amaliy hunarmandchiligi va og‘zaki ijodida hamda yozma adabiy matnlarda ko‘plab uchratish mumkin. Qadimdan kashtalarga, do‘ppilarga, imoratlar peshtoqiga gullar tasviri tushirilganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, xalq termalarida, qo‘shiqlarida, maqollarida gul orqali ramziy ma’nolar ifoda etish ko‘p uchraydi. Bunda, asosan, gul fitonimiga tegishli bo‘lgan *chiroyli, zavqboxsh, xushbo‘y, ochilish, so‘lish, nozik, himoyasiz, tikanli, g‘uncha* kabi semalar paradigmasi ramziy ma‘no tashishga xizmat qiladi. Poetikada *atirgul, binafsha, lola, nilufar* gullari go‘zallik, ayol ramzi bo‘lishdan tashqari xalq turmush tarzi, madaniyati, jamiyat hayotidagi turlicha qarashlarni ifodalovchi timsol sifatida ham faol qo‘llangan.

Hozirgi kunda atirgulga ko‘proq Ayol, muhabbat timsoli sifatida qaraladi. Poetik matnlarda mazkur fitonim rang (qizil, sariq, oq, qora...), hid (xushbo‘y, atir hidli), holat (ochiq, yopiq, ya‘ni g‘uncha) belgilari orqali “sevgi” konsepti bilan bir konseptosfera doirasida birlashadi. Atirgul fitonimiga tegishli *tikan* detali “sevgi” konsepti mazmuniy maydonidagi *iztirob, og‘riq, jarohat, azob* semalari bilan o‘zaro moslashib, ramziy tasvirni verballashtiradi. Quyidagi misolda atirgulga tegishli *hid* belgisi yashirin poetik ma‘no ifodalashga xizmat qilgan:

Atirgul g‘unchasi

Qirmiz qabosini qayirdi asta.

Sening nafasing keldi. (Iqbol Mirzo).

Shavkat Rahmon she‘rida esa atirgul yaxlit holatda ayol timsolida gavdalantiriladi:

Shundoq gul...

kimsasiz hovli ichida,

begona nigohdan titraydi muncha.

Munchalar xokisor kimning ishqida,

avjida ochilgan,

emasdi g‘uncha...

Shundoq gul...
haliyam boqar hayosiz,
axir, sal yashirsa deyman dardlarin,
eh sho 'rlik,
Tobora quyosh ayovsiz,
hademay to 'kilar baxmal barglari.
Bir o 'tli nigohdan titraydi yomon,
jur 'atli bir qo 'lning sadqasi, quli.
O 'ziyam gulmisan gul edi ammo,
birovning gulydi.
birovning guli... (Shavkat RAHMON. "Birovning guli")

She'rda *titrash*, *himoyasizlik*, *go 'zallik* belgilari gul bilan ayol timsolini uyg'unlashtirib, ramziy ifoda hosil qilgan. Aynan shu detallarning qay yo'sinda ifodalanishi, nutqi jarayonida talaffuz qilinishi, she'rning mohiyatini tinglovchiga yetkazib bera olishi sahna nutqining dolzarb vazifalarida biri hisoblanadi. YA'ni yuqorida keltirilgan misralarning o'quvchi tomonidan ifodali o'qilishi she'rning asl mohiyatini tinglovchiga yetkazib berishi zarurdir.

Cho'lpon she'riyatiga nazar soladigan bo'lsak, gulga xos noziklik, himoyasizlik, uzilish (umri tugash), sotilish (erksizlik) motivlari orqali ijtimoiy masala, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni ifoda etiladi:

Binafsha, senmisan, binafsha, senmi –
Ko 'chada oqchaga sotilgan?
Binafsha, menmanmi, binafsha, menmi –
Sevgingga, qaygingga tutilgan.
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding,
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho 'zilding?

„Bir qarashda so'z binafsha – bir chechak haqida ketayotgandek. To'g'ri, she'rning yuzadagi – birinchi qatlamidagi ma'no aynan ozroq ochilmay uzilib,

ko'chada sotilgan gul to'grisida. Lekin shoirning asl murodi shuginani tasvirlashdan iborat emas. Balki gul bilan bog'liq g'oyani ramz holiga keltirib, asl – ichki muddaoni aytishdir“ [2,46].

Ichki muddao – erksiz va ezilgan o'ksik bir ayolning holati, yanada kengroq ifodalaydigan bo'lsak, chirkin jamiyatning jaholat qurboniga aylangan zaif va go'zal qatlami.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek ushbu she'riy misralarning ifodalanishi ham hissiy kechinmalar bilan bog'liq holda talaffuz etilishni talab etiladi. She'riy misralarni ifodali o'qilishida his-tuyg'ular bilan ishor etish, tinglovchiga yetkazish nutqiy jarayonining asosiy obektidir.

Sharq mumtoz adabiyotida lola, asosan, yorning yuzi (yonog'i)ni, ibo-hayosini tasvirlash maqsadida qo'llanilgan bo'lib, uning rang, ya'ni qizillik belgisi muhim ahamiyat kasb etgan.

Xating aro uzoring sabza ichinda lola,

Ul chashmi purxumoring loladag'i g'azola (Bobur)

Baytning birinchi misrasida yorning yuzi maysalar (qosh, kipriklar)ichida ochilgan lolaga, keyingi misrada esa uning xumor ko'zi lolazorda yurgan ohuga o'xshatiladi. Har ikki qatordagi konnotativlikni yuzaga chiqarishda lola fitonimining qizillik belgisi nazarda tutiladi. Ayrim holatlarda lolaning rangidan tashqari shakl belgisi ham asosiy o'ringa chiqariladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o'rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so'zlashni o'rganish, nutqning ichki (mazmun) va tashqi (shakl) ko'rinishiga birday e'tibor berish, go'zal va ta'sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o'rinli ishlatish vazifalarini qo'yadilar va ularning ijrosini chuqur tahlil etadilar [3,14].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sahna nutqi fani tilning hamma sohalari bo'yicha adabiy til normalarini tadqiq qilib boradi.. Eng maqbul hodisalarning adabiy norma sifatida mustahkamlanishi uchun tavsiyalar beradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, ba'zi bir hodisalarni norma sifatida majburan

kiritmaydi. Balki o‘zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi, xolos. Shunday ekan, o‘qitish jarayonlarida tilning adabiylikini yo‘qotmaslik, shevalarga e‘tibor qaratishlik, adabiy normativga suyangan holda mushohada qilishlari eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. Lazutin S.G. Poetika russkogo folklor, - M.:1981, S.112.
2. Ulug‘bek Hamdam. Yangi o‘zbek she‘riyati. “Adib” nashriyoti, - Toshkent., – 2012, B -46
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1993, B-14

EFFECTIVE USE OF IDIOMS IN IMPROVING SPEAKING SKILLS OF ART STUDENTS

Abstract. *Idioms offer us an insight into language that goes beyond basic communication: they combine culture and history and create words that often work as a type of code or understanding for those that exist within a certain community. Learning idiomatic expressions gives language learners a nuanced understanding of the language, and there is often more than what meets the eye. This article has as main purpose to share the importance of the usage of idioms in order to improve students' communicative skill. By learning and using idioms the learners are able to increase and improve their com-municative skill.*

Key words: *idioms, meaning, communicative skill, conversation, integration, learning process, concept, practice.*

Annotatsiya. *Idiomalar oddiy muloqotdan tashqarida bo'lgan lison haqida tasavvur beradi: ular madaniyat va tarixni birlashtiradi, ular qandaydir kod sifatida ishlaydi yoki ma'lum bir jamiyatda mavjud bo'ladi. Idiomatik iboralarni o'rganish til o'rganayotganlarga uni yaxshiroq yushunishlariga imkon beradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi talabalarning muloqot ko'nikmasini yaxshilash uchun idiomalardan foydalanish muhimligini ta'kidlashdan iborat. Idiomalarni o'rganish va ulardan foydalanish talabalarga o'z muloqot ko'nikmalarini yaxshilash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *idiomalar, ma'no, muloqot ko'nikmasi, suhbat, integratsia, ta'lim jarayoni, nuqtai nazar, amaliyot.*

Аннотация. *Идиомы дают нам представление о языке, выходящего за рамки простого общения: они объединяют культуру и историю, и создают слова, которые часто работают как некий код или понимание для тех, кто существует в определенном сообществе. Изучение идиоматических выражений помогают изучающим язык лучше понять его нюансы, и зачастую это не просто то, что кажется на первый взгляд. Основная цель этой статьи - рассказать о важности использования идиом для улучшения коммуникативных навыков студентов. Изучая и используя некоторые идиомы, студенты смогут повысить и улучшить свой коммуникативный навык.*

Ключевые слова: *идиомы, значение, коммуникативный, навык, разговор, интеграция, процесс обучения, концепция, практика.*

In our daily lives, we often come across different English idioms and phrases which we frequently use during our conversations. These phrases and idioms make our conversation even more interesting. Different phrases and idioms about art will give learners different ways of expressing themselves and will make

them sound like confident and fluent English speakers. Idioms and phrases may seem to be complicated at first, but they can be a lot more enjoyable to learn. Language learners may find them most often in spoken or written conversations. Idioms and phrases can help everyone improve conversational skills. The correct usage shows regional speakers that listeners understand the social meaning and connection behind the idioms or phrases. Using idioms or at least understanding expressions with art can help people feel more comfortable and confident with conversational skills the more they practice them during English speaking time.

The integration of idioms has a very important attention in the teaching and learning process of English, especially as a form to implement effective techniques to incorporate idioms in the classroom. Idioms in and outside the classroom are widely believed to help teachers and students promote an innovative environment of communication. However, the integration of idioms in the teaching and learning process may be difficult or ineffective for some learners or teachers because it is not relevant or necessary for carrying out educational goals. Furthermore, from teachers' perspectives, with a variety of activities based on idioms can help to facilitate needs and challenge students' learning process. The type of activities and how they are constructed in the classroom is found as one of the most important aspects that help to the success of using idioms in and outside the classroom particularly, to enrich students' stage speech. The use of idioms has a great influence in learning process of a foreign language, because it could be one of the ways to give students better conditions to improve communicative skill in the daily context. Moreover, the common use of idioms in daily speech for English speakers has brought a necessity in the teaching field to implement the use of this tool in and outside the classroom in order to help students be competitive, increase their vocabulary and the informal way to speak in English. English is a language particularly rich in idioms - those modes of expression peculiar to a language (or dialect) which frequently defy logical and grammatical rules. Without idioms English would lose much of its variety and humor both in speech and writing. The background and etymological origins of most idioms is at best obscure. This is the reason why a study of differences between the

idioms of American and British English is somewhat difficult. But it also makes the cases, where background, etymology and history are known, even more interesting. Some idioms of the "worldwide English" have first been seen in the works of writers like Shakespeare, Sir Walter Scott, Lewis Carroll or even in the paperbacks of contemporary novelists. An example of Shakespearian quotation can be found in the following sentence: "As a social worker, you certainly see the seamy side of life." Art terms, technical terms, legal terms, military slang and even nautical expressions have found their way to the everyday use of English language. Based on the above statements, it is very important to know that native speakers of a language use idioms all the time. Students are often embarrassed and frustrated if they cannot understand the idioms a person is using. A strong knowledge of idioms will help students be better speakers. The high number of idioms and their high frequency in discourse make them an important aspect of vocabulary. Finally, since idiomatic expressions are so frequently encountered in both spoken and written discourse, this issue requires special attention in language programs what the purpose of helping students improve their communicative skill.

In the English course, there are several components such as: grammar, reading, speaking, listening and writing through the use of idioms. At the beginning of the course the students may not know how to understand and use idioms correctly in their process of learning English as foreign language. Also, sometimes they are not aware of the importance and advantages of idioms. The learners do not know the implications and importance they face without knowing the use of specific idioms. Thus an English teacher has to lead the students to become competitive learners. Most of the time students do not have the opportunity to learn idioms into the syllabus and the other may own knowledge of some idioms in case if they have travelled abroad. Furthermore, the learners may give wrong meaning to idioms. In order to solve this situation, some workshops should be designed to help students to learn and apply idioms in English into their daily speech and improve their communicative skill.

The teaching process should be based on guiding students in the use of specific idioms into dialogues and daily conversation in order to improve the communicative skill. For this reason, it is necessary to take into account the following concepts: The definition of idiom, its structure, and the communicative skill. There are different definitions about idioms. Let's analyze some of them. According to Fowler, an idiom is a phrase where the words together have a meaning that is different from the dictionary definitions of the individual words, which can make idioms hard for ESL (English as a second language) students and learners to understand. An idiom is a combination of words that has a meaning that is different from the meanings of the individual words themselves. It can have a literal meaning in one situation and a different idiomatic meaning in another situation. It is a phrase which does not always follow the normal rules of meaning and grammar.

For instance, "To sit on the fence" can literally mean that one is sitting on a fence "I sat on the fence and watched the game". However, the idiomatic meaning of "to sit on the fence" is that one is not making a clear choice regarding some issue. The politician sat on the fence and would not give his opinion about the tax issue. Many idioms are similar to expressions in other languages and can be easy for a learner to understand. Other idioms come from ancient phrases which have changed over time. For example "To hold one's horses" means to stop and wait patiently for someone or something. It comes from a time when people rode horses and would have to hold their horses while waiting for someone or something "Hold your horses," I said when my friend started to leave the store. Other idioms come from such things as sports that are common in the United Kingdom or the United States and may require some special cultural knowledge to easily understand them. "To cover all of one's bases" means to thoroughly prepare for or deal with a situation. It comes from the American game of baseball where one must cover or protect the bases. I tried to cover all of my bases when I went to the job interview.

Most idioms are unique and fixed in their grammatical structure. The expression to sit on the fence cannot become to sit on a fence or to sit on the fences. However, there are many changes that can be made to an idiom. Some of these

changes result in a change in the grammatical structure that would generally be considered to be wrong. To be broken literally means that something is broken. The lamp is broken so I cannot easily read my book. To be broke is grammatically incorrect but it has the idiomatic meaning of to have no money. I am broke and I cannot go to a movie tonight. There can also be changes in nouns, pronouns or in the verb tenses. I sat on the fence and did not give my opinion. Many people are sitting on the fence and do not want to give their opinion. Adjectives and adverbs can also be added to an idiomatic phrase. The politician has been sitting squarely in the middle of the fence since the election. It is for these reasons that it is sometimes difficult to isolate the actual idiomatic expression and then find it in a dictionary of idioms.

We hope these art idioms and phrases have helped you learn different expressions of art. These art idioms have inferences not only to the situations related to art but also to the situations related to common life. The use of phrases and idioms about art will help you in making students' conversation more interesting and catchy. It is necessary for teachers and students to deal with idioms in a suitable environment, where issues such as idiom definition or teaching methodology are solved; in this way, the teaching learning process of English as well as students and teachers will receive advantages related to the development of communicative skill.

REFERENCES

1. *Flowler, H. Dictionary of Modern English Usage. (without source). Gillett, A. 2004.*
2. *The Idiom book 1010 idioms. (without source). Nunan, D. 2003*
3. <http://www.usingenglish.com/reference/idioms>.

KELAJAK AVLODNING SHAKLLANISHIDA BOLALAR FOLKLORINING AHAMIYATI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar folklorining topishmoq janri bilan yosh avlodning barkamol bo'lib yetishidagi orni va bolalarda ijobiy xususiyatlarning shakllanishiga bilvosita ta'siri haqida fikr- mulohazalar yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** folklor, ohang, topishmoq, motiv, doyra, og'zaki nutq, meros, sifat, she'r, bolalar qo'shiqlari.*

***Аннотация:** В статье рассматривается значение детского фольклора и жанра загадки в воспитании подрастающего поколения и опосредованное на формирование положительных качеств детей.*

***Ключевые слова:** фольклор, мелодия, загадка, мотив, доира, разговорная речь, наследие, качество, ситхотворение, детские песни*

Har bir xalqning o'tmish tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi-folklor san'atida, doston, mif, ertak, topishmoq, va eposlarida yaralgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'alarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.⁵

O'zbek xalqining boy o'tmishiga boshqa millat vakillari havas bilan qarashadi. Negaki O'zbek folklorida boshqa millat folkloridan ajralib turuvch bolalar folklori keng va boy manbaalardan iborat. Inson hayotida eng esda qolarli va kelajak uchun poydevor hosil qilish mumkin bo'lgan vaqt bu-bolalik davri hisoblanadi. Ajdodlardan qoldirilgan xalq og'zaki ijodlari, yozma adabiyotlar, milliy urf-odat va an'alarimiz, milliy musiqamiz, qo'shiqlar, laparlar qay birini olmaylik barchasi insonni tarbiyaga yetaklaydi.

Xozirgi globallashuv davrda, o'sib kelayotgan kelajak avlodlarimizning milliy ruhda tarbiyalashda, xalq og'zaki ijodining aynan bolalar folkloriga urg'u

⁵1. Jo'rayev M., Eshonqulov J. "Folklorshunoslikka kirish". - Toshkent. 2017.

berilish lozim. Maktabgach ta'lim muassasalarida, O'rta maktab va Bolalar musiqa va san'at maktablariga, folklor soatlarini keng joriy qilish, kerak bo'lsa darslik sifatida yanayam boyitib, bolalar folklor qo'shiqlarini har tamonlama yangicha metodlar bilan shakillantirib, milliy tarbiya tushunchasini singdirish kerak. Bolalar folklorini to'plash va targ'ib etish – ajdodlarimizning yosh avlodni barkamol qilib voyaga etkazish borasidagi qadimiy an'alarini tiklash yo'lidagi muhim bir qadamdir.

Folklorshunos olimlarning say xarakatlari bilan qadimiy xalq oyinlarini aniqlash, o'rganish O'zbek xalqining milliy sport va xalq oyinlari aholining yashash sharoitiga qarab, xilma-xil bo'lib, umumiy miqdori 3-5 mingdan kam emasligini tadqiq qilishgan va o'rganishgan. Xalq oyinlarini aniqlash, o'rganish va yangidan targ'ib qilish ma'naviyatimizni yanada yuksaklikga ko'tarishga xizmat qiladi. Bolalar oyin folklorida oyinlar o'z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakat, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallar, poetik folklor na'munalari, ohang va tomoshaviylik elementlarini yahlit holda mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir.⁶ Bolalar oyinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo'lgan ibtidoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlardan yuzaga kelgan. Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan oyinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Uning yaratilishida kattalar ham bolalar bilan birgalikda o'z hissasini qo'shishgan. Kattalarning o'z farzandlarini suyib erkalashlariyu, rag'batlantirishlari, olqishlari kelajakda komil inson bo'lib, kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar folklori xalqimiz og'zaki ijodining tarkibiy qismini tashkil etadi. Uning o'zi topishmoq, tez aytish, sanamachiq kabi ko'p janrlardan tashkil topgan. Bola uchun dastlabki hayot darsligi, ma'naviy boyliklarning bitmas – tuganmas xazinasidir.

⁶ 4.Isayev K. "Folklor asarlarini sahnalashtirish".-Toshkent. 2020

Ta'lim muassasalaida bolalarga o'rgatiladigan mashg'ulotlarni eng qulay usullarda ya'ni mavsumiy marosimlaridan keng foydalangan holda o'rgatish mumkin. O'zbek folklorshunos olimi B. Sarimsoqov O'zbek mavsumiy marosimlar folklorini quyidagicha tasniflaydi:

1. Qishki marosimlar folklori.
2. Bahorgi marosimlar folklori.
3. Yozgi marosimlar folklori.
4. Kuzgi marosimlar folklori.⁷

Yuqoridagi tasniflardan keng foydalangan holda o'quvchilarga topishmoq janridan misollar keltirib o'tamiz. Har bir topishmoq zamirida "kim?", "nima?" so'roqlariga yashirin javob yotadi. Topishmoq, topmacha, jumboq, matal – xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy va ommaviy janri. Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi ⁸. Quyidagi misollarda keltiriladigan topishmoqlar juda qadimiyligi bilan o'quvchilarda kata taasurotlar uyg'otadi:

Chinni, chinni, chinni qiz,
Chin tepaga chiqdi qiz.
Bolalarin iyartib,
Tomoshaga chiqdi qiz.

(Oy va yulduzlar)

Uzun – uzun iz ketdi,
Uzun boyli qiz ketdi.
Toqqa borib taq etdi,
Sirg'alari yarq etdi.

(Yashin)⁹

⁷ Jo'rayev M., Eshonqulov J. "Folklorshunoslikka kirish".- Toshkent. 2017.

⁴ Jumaboyev M. "Bolalar adabiyoti va foiklori". – Toshkent. 2006

⁹ Abduraximov M. "O'zbek topishmoqlari".- O'qituvchi. 1991.

Bugungi kunda topishmoqlar juda kata ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular bolalarda fikr doirasini kengaytirish, ziyraklikni oshirish, hozirjavoblylik qobilyatini oshirishda muhim ro'l oynamoqda.

Otasi egri- bugri,
Onasi silliq juvon.
O'g'li qo'shiqchi,
Qizi oyinchi.

(Ariq, suv, baqa, baliq)

Zar gilam, zar- zar gilam,
Ko'taray desam og'ir gilam.
Uchib kelar g'oz kabi,
O'rin olar muz kabi.
G'ijirlar saxtiyon kabi,
Achchiq bo'lar, tuz kabi.

(Yer)

(Qor, ayoz)

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko'ra maqollarga o'xshaydi. Ba'zan mazmuniga ko'ra yaqinlik seziladi. Qadimiy topishmoqlarning asosida insonning dunyoni bilishga, tabiat sirlarini tushuntirishga bo'lgan intilishlari yotadi. Insonning tinib-tinchimas aqli momaqaldiroq, yashin, yomg'ir, qor, yulduzli osmon kabi ko'plab narsa va voqelikni badiiy obrazlarda tasvirlagan.

Bultur ketgan bo'z otim,
Bu yil kelarmikan- da,
Oyog'ida qirq kishan,
Kishnab kelarmikan- da.
Ajriq, qamish ko'rganda,
Tishlab kelarmikan- da.

(Qor, yomg'irning sovuq shamol bilan kelishi.)

Shu tarzda murakkab topishmoqlardan sodda topishmoqlarga o'tamiz, masalan:

Bir o'rdakka bir chimdim.

(Choy)

Qozon ichida oppoq qor.

(Shirguruch)

Yer tagida yumron qoziq.

(Turup)

Otdim, osmonga chiqdi.

(Do'ppi)

Boshi taroq, dumi o'roq.

(Xo'roz)

Daraxt shoxida sakson tuxum.

(Ipak qurti)

Qo'lsiz, oyoqsiz koylak kiyar.

(Yostiq)

Yantoq uchi yaltiroq.

(Igna)

Hozirgi kunda “topishmoq” so’zi yagona ilmiy-adabiy atama sifatida qo’llanilmoqda. Topishmoq ijrosi yoki uni sahnaga olib chiqish uchun kamida ikki kishi yoki guruhlariga bo’linib chiqish qilinishi kerak. Yuqorida keltirib o’tilgan topishmoqlardan sahna ko’rinish qilgan kichik yoshdagi folklor jamoaning chiqish tomoshabinlarda juda kata taasutotlar qoldirdi. Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 13-son Bolalar musiqa va san’at maktabining “Tomchi” bolalar folklor jamoasi Toshkent viloyati Nurafshon shaxrida o’tkazilgan “Archa” bayramida ommoviy sahnaga aynan topishmoq mavzusida chiqish qilib, tomoshabinlar bilan birgalikda topishmoq javoblarini topishdi. Sahnaga ko’rinish.

Maydonda kata archa bezatilgan bo’lib, atrofi sahnaga o’quvchilar sahnaga doira jo’rligida qo’shiq aytib chiqishadi.

(o’quvchilar soni 12 ta sahnaga hos liboslarda 2ta o’quvchida doira, doira usuli: bak-baka-bum bum, baka-baka bum, bum)

Neeeeeey, ehe-hey- ehe-hey, heey

Bugun yurtimda, toy bayram

Katta tantana.

O'g'il, qizing, bag'ringda shod

Bo'ldik biz yana.

Bag'ringni och ey Nurafshon

Keldik biz yana

Ey bayram muborak. (qo'shiq tugaydi, ishtirokchilar yoy shaklida sahnada turishadi)

Aziza: Voy, qaranglar buncha baland archa bo'lmasa!

Egamberdi: Qaranglar, oyinchoqlari ham, rang-barang ekan.

Maftuna: Ha, huddi bizning, orzularimizdek!

Akbar: Qaranglar, qorbobo bolajonlarga sovg'alar ulashmoqda.

Hamma baravariga: Qani qizlar, bolalar biz ham tengdoshlarimizga bayram sovg'alarini kuylaymizmi?

Dilrabo: Albatta bayram sovg'alarsiz o'tmaydi-Y.

Ishtirokchilar birin ketin qish faslini madh etuvchi she'rlarini ifodali qilib o'qib eshittirishadi.

Doston: Keling do'stlar marhabo,

Kutar qorqiz, qorbobo.

Davrani keng olaylik,

Oynaylik soz, chalaylik.

Bibisora: Oppoq orzu tilaklar,

Sizga yor, bisyor bo'lsin.

Dilingizda pok niyyat,

Yo'lingiz porloq bo'lsin.

Hadicha: Momiqqina oppoq qor,

Boricha yog'aversin.

Zumrad qishning zavqini,

Yurtimga sochaversin.

Hamma baravariga: To'rt fasillar aylanib,

Qish kelibdi yastanib.

Zamin oppoq o'ramda,

Yumshoq, momiq gilamda.

Qo'shiq boshlanadi doira jo'rligida (ohangini, "Yalili bobo" qo'shig'dan olindi)

Qir adirlar uzra borliq,

Oppoq libos kiyadi.

Dehqon bobo bir pas tinib,

Sokin nafas oladi.

Qish g'amini ko'rdingizmi,

Qoqi, turshak edingizmi.

Qo'shiq tugaydi.

Egamberdi: Qani qizlar, topishmoq oyinini oynaymizmi?

Maftuna biroz oylanib: Topishmoq oyini, qanday bo'lar ekan.

Abbos: E qantday bo'ladi.

Nilufar sahnaga yuzlanib: Menimch tengdoshlarimiz ham, biz bilan birga topishmoq oyinini oynashga tayyor shunday emasmi? – deb tomoshabinlarga yaqin boradi.

Hamma baravariga: Qani unda boshladik- deya birin ketin topishmoqlarni aytishni boshlashadi.

Doston: Uchib kelar g'oz kabi,

O'rin olar muz kabi.

G'ijirlar sahtiyon kabi,

Achchiq bo'lar tuz kabi.

Nilufar, sahnaga yaqinlashib: Qani siz topa oldingizmi? – deya tomoshabinlardan so'raydi.

Hamma baravariga, topishmoqning javobi- "Qor, ayoz" edi deydi.

Hadicha: U yoqqa o'tdim bildingizmi?

Bu yoqqa o'tdim bildingizmi?

Oq quvrayni boshini,

Chertib o'tdim bildingizmi?

Akbar, sahnaga yaqinlashib: Qani siz topa oldingizmi? – deya tomoshabinlardan so'raydi.

Hamma baravariga, topishmoqning javobi- “Shamol” edi deya javob berishadi.

Dilrabo: Bultur ketgan bo'z otim,

Bu yil kelarmikanda.

Oyog'ida qirq kishan,

Kishnab kelarmikanda.

Ajriq qamish ko'rganda,

Tishlab kelarmikanda.

Aziza, sahnaga yaqinlashib: Qani siz topa oldingizmi? – deya tomoshabinlardan so'raydi.

Hamma baravariga, topishmoqning javobi- “Qor, yomg'irning sovuq shamol bilan kelishi edi”- deya javob berishadi.

Sahnaga Egamberdi chiqib: Bu topishmoqlar xalq og'zaki ijodidan olingan bo'lib, xozirgi kunda deyarli ishlatilmaydigan, lekin ota- bobolarimiz tomonidan, bizgacha meros bo'lib kelayotgan topishmoqlar edi- deydi.

Hamma baravariga: - Bu topishmoqlar sizga ham manzur bo'ldi deb oylaymiz.

Sahnanan qoshiq aytib chiqib ketishadi.

Hamma baravariga: Do'st yali, yali, yali do'st.

Do'st yali, do'st,

Yallolashar kundur bu kun.

Tamom.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev M., Eshonqulov J. “Folklorshunoslikka kirish”.- Toshkent. 2017.
2. Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti va foiklori”. – Toshkent. 2006.
3. Abduraximov M. “O'zbek topishmoqlari”.- O'qituvchi. 1991.
4. Isayev K. “Folklor asarlarini sahnalashtirish”.-Toshkent. 2020.

Oybek Tohirov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti "Sahna nutqi" kafedrası
katta o'qituvchisi*

DUBLYAJ SAN'ATIDA QAHRAMONLARNING NUTQIY XARAKTERINI YARATISHDA SAHNA NUTQI FANINING O'RNI

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada dublyaj san'ati kino va teatrda qahramonlarning ovozi jonlantirish, nutqiy harakterini yaratish bu jarayonda sahna nutqining o'rni haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** dublyaj, kino, teatr, sahna, xarakter, qahramon, nutq, qobiliyat, intonasiya, ovoz, nutq texnikasi.*

***Аннотация:** В данной статье размышляется о роли сценической речи в искусстве дубляжа, оживлении голоса персонажей кино и театра, создании речевого характера.*

***Ключевые слова:** дубляж, фильм, театр, сцена, персонаж, герой, речь, умение, интонация, голос, техника речи.*

***Abstract:** This article reflects on the role of stage speech in dubbing art, reviving the voice of characters in cinema and theater, creating a speech character.*

***Key words:** dubbing, film, theater, stage, character, hero, speech, ability, intonation, voice, speech technique.*

So'z san'ati inson uning hoxish irodasi, borliqqa, narsa va hodisalarga munosabati, orzu umidlari, maqsadu maslaklariga anglatish va erishishining eng ta'sirchan ifoda vositasi sifatida azaliy va abadiy yo'ldoshdir. U inson aql zakovati, fikru zikri, dunyoqarashi, ta'lim tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy shakllanishi va takomillashishida anglash va anglatish orqali mustahkamlanadigan mukammallashadigan jarayondir.

So'zning teran ma'nosi, uning zamiridagi fikr, maqsad, hoxish iroda va buning so'zdagi yukini his qila olish layoqatining shakllanishi ko'p vaqt, qunt talab jarayonidir. Bunda har bir yosh ijodkorning dunyoqarashi, bilimi, tafakkuri, iqtidori borliqni anglay olishi va faol anglata olish qobliyatini, hatti-harakatidagi tabiiylik, jo'shqinligi, munosabatdagi aniqlik, qobiliyati, uning so'z orqali ifodadagi ta'sirchanligini vujudga keltiradi.

Sahna nutqi teatr san'atining ajralmas qismi va aktyorlik mahoratining asosiy ifoda vositasi sanalar ekan, u doimo san'atkorning diqqat markazida bo'lishi, ijro

jarayonining eng muhim obekti sifatida ijodiy izlanishlar silsilasining barcha chig'iriqlarida toblanishi, musaffo va sof holga keltirilishi lozim.

Sahnada so'zning qadri, vazifasi, yuki hayotdagidan ko'ra bir necha marotaba ortishini, uni tomoshabinga aniq va tushunarli yetkazib berish nechog'li ahamiyatli ekanligini his qilgan aktyor sahnaviy ta'sirchan nutq masalasiga eng ustuvor jihatlardan biri, "so'z – sahna san'atining qon tomiri" ekanligiga amal qilib yondashmog'i lozim.

Dublyaj san'ati kino va teatrda qahramonlarning ovozini jonlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda qahramonlarning nutqiy xarakterini yaratish uchun sahna nutqi fanining o'rni katta ahamiyatga ega.

Dublyaj aktyori dulyaj studiyasiga kirib o'tirishi bilan rejissyor bilan hamkorlikni boshlaydi. Kino nima haqidaligi, aktyor o'zi ovozlashtirmoqchi bo'lgan qahramonni bilib olishi zarur bo'ladi. Qahramon qanday xarakterga eka ijobiy yoki salbiy? Ana endi dulyaj aktyori matn ustida ishlashni boshlaydi. Filmning asli ya'ni qaysi tilda bo'lsa o'sha quloqchinlar orqali eshitiladi. Qahramonning ovoziga mos, yoshi, xarakteriga qarab xattoki yuz ifodasigacha ko'rib olib ana undan so'ng ovoz berish jaryoni boshlanadi. Dublyaj can'atida qahramonlarning nutqiy xarakterini yaratishda sahna nutqi fanining o'rni muhimdir. Dublyaj aktyori ovoz berayotgan qahramon salbiy bo'lsa, uning salbiy harakterini ovozda xatti-harakatga keltirishi zarur bo'ladi. Matn bilan ishlash jarayonida rus tilida tarjima qilinmaydigan so'zlarni xato qilmasdan, sof adabiy til meyorlariga amal qilgan holda ishlashi kerak. Ba'zi yosh dublyaj aktyorlarida kamchiliklar, muammolar ham uchraydi sababi, faqat matnni o'qib berishadi. Bu xato hisoblanadi. Qahramonning nutqiy xarakterini topish kerak.

Qahramonlarning ovozini to'g'ri va ta'sirli yetkazish uchun nutq texnikasi talab etiladi. Bu texnika ovoz balandligi, intonasiya, va talaffuzni o'z ichiga oladi. Qahramonlarning nutqiy xarakterini yaratishda tilning o'rni beqiyos. Har bir qahramonning o'ziga xos tili va nutq uslubi bo'lishi kerak. Qahramonlarning nutqiy xarakterini yaratishda esa quyidagi omillar zurur bo'ladi.

Kommunikativ qobiliyatlar: Qahramonlarning nutqiy xarakteri ularning kommunikativ qobiliyatlariga bog'liq. Bu qobiliyatlar orqali qahramonlar o'z fikrlarini aniq va ta'sirli yetkazadi.

Emosional ifoda: Qahramonlarning nutqiy xarakterini yaratishda emosional ifoda muhimdir. Bu orqali qahramonlarning ichki kechinmalari va holati ochib beriladi.

Sahna nutqi fanining dublyaj san'atiga ta'siri

Nutq madaniyati: Sahna nutqi fani qahramonlarning nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu orqali qahramonlarning nutqi yanada boy va ta'sirli bo'ladi.

Til va nutqning ahmiyati: Til va nutqning to'g'ri qo'llanilishi qahramonlarning xarakterini yanada jonlantiradi va ularning obrazini yanada aniqroq qiladi.

Xulosa qilib aytganda dublyaj san'atida qahramonlarning nutqiy xarakterini yaratishda Sana nutqi fanining o'rni beqiyosdir. Bu fan orqali qahramonlarning nutqi yanada boy va ta'sirli bo'lib, ularning obrazlari yanada jonli va esda qolarli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nosirova A. *Jonli so'z san'ati asoslari.* – Toshkent: TDSI, 2003.
2. Xoliqulova G. *Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 152 b.
3. Magdiyev B. *Taqdirim radioboshlovchilik.* – Toshkent: Zamon press. 2021.
4. Yusupov Sh. *Sahna nutqi.* – Toshkent: Zamon poligraf. 2021.

Isfandiyor Xomidov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti tayanch doktoranti*

KOMEDIYADA NUTQIY XARATER YARATISH

Annotatsiya: *Maqola komediyada nutqiy xarakter yaratish masalasiga bag'ishlanib, 2006-yili Namangan viloyati musiqali drama teatrida rejissor Javlon Jo'rayev tomonidan sahnalashtirilgan vengeriyalik Fridesh Karintining "Sehrli kursi yoxud yolg'onlar chuv tushgan kun" asari asosida yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *nutqiy xarakter, komediya, o'zbek teatri, g'arb dramaturglari, janr, lahja, sheva, adabiy til.*

Аннотация. *Статья посвящена вопросу создания речевого характера в комедии. Вопросы создания речевого характера освещаются по произведению Фридеша Каринти «Волшебный стул», поставленной режиссером Жавлоном Джораевым в 2006 году на сцене театра Наманганской областной музыкальной драмы.*

Ключевые слова: *речевой характер, комедия, узбекский театр, западные драматурги, жанр, диалект, говор, литературный язык.*

Annotation. *The article is devoted to the issue of creating a speech character in comedy, based on the work of the Hungarian Fridesh Karinti "The Magic Course or the Day the Lies Fall", staged by the director Javlon Jorayev in 2006 at the Namangan Region Musical Drama Theater.*

Key words: *Uzbek theater, speech character, comedy, western dramatists, genre, dialect, dialect, literary language.*

O'zbek teatrida G'arb dramaturglari tomonidan yaratilgan komediyalarga murojaat etish mustaqillikning dastlabki davrlarida deyarli uchramadi. Boisi, endigina mustaqillikka erishgan xalqimiz oldida tariximiz, buyuk allomalarimiz, milliy qadriyatlarimizni ko'proq kuylash ehtiyoji bor edi. Mana shu ehtiyoj sabab, tarixiy dramalar va folklor-etnografik tomoshalarga asoslangan milliy komediyalar sahnaga olib chiqildi. Asosan, 2000-yillardan boshlab G'arb komediyalari sahna yuzini ko'ra boshladi. Ularda erkin va farovon jamiyat qurish yo'lida to'siq bo'luvchi ijtimoiy muammolar ko'tarildi. O'zbek teatri oldida odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, ularning ongu tafakkurini yuksaltirish vazifasi turardi. Bu yo'lda G'arb komediyalarini maqsadli sahnalashtirish ayni muddao bo'lib, 2006-yili Namangan viloyati musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan vengriyalik Fridesh Karintining "Sehrli kursi yoxud yolg'onlar chuv tushgan kun" asarida

yolg'onchilik, poraxo'rlik, rahbarlarning o'z mansabini suiste'mol qilishi kabi qator illatlar qoralandi.

O'zbekiston mustaqil demokratik davlat maqomiga erishguncha xalqimiz ko'p yillar davomida "sotsializm" va "kommunizm" g'oyasi, teng huquqli jamiyat qurish kabi soxta va'dalar bilan aldab kelingan. Bu davrga kelib, millatimizga demokratik davlatning, fuqarolik jamiyatining kelajagini roy-rost ko'rsatishda korrupsiya, poraxo'rlik va yolg'onchilik illati qanday salbiy ta'sir etishi tasvirlangan spektakllar namoyishi muhim ahamiyat kasb etdi. Shuning uchun ham vengr dramaturg Fridesh Karintining "Sehrli kursi" asari 2006-yili Namangan viloyati musiqali drama teatrida Jo'ra Mahmudov tarjimasida, rejissor Javlon Jo'rayev tomonidan "Yolg'onlar chuv tushgan kun" nomi bilan sahnalashtirildi. O'zbek tiliga o'girilgan pesa va uning sahnaviy varianti haqida teatrshunos T.Bayandiyev shunday yozadi: "Asar tilining sodda va ravonligi, obrazli o'xshatishlarga boyligi, kosa tagida nim kosa shaklida berilgan kinoya va qochirimlar o'zbekona jaranglashi asar qahramonlari xarakterini millatimizga xos boyoqlar bilan jonlantirishga imkon yaratgan"¹⁰.

Asar bir pardali komediya bo'lib, undagi voqea "Yangiliklarni amaliyotga joriy qiluvchi tashkilot"da bo'lib o'tadi. Har safar turli yangi ixtirolari bilan keluvchi professor tashkilot amaldorining qabulidan ko'ngli to'lmay chiqadi. Chunki amaldor professorning hayot uchun muhim kashfiyoti qolib, allaqanday ahamiyatsiz narsalarni joriy qilishga imzo chekadi. Ya'ni, professor birinchi gal "Masofadan turib so'zlashuv imkonini beruvchi moslama" bilan kelganda amaldor "Ayollarning soch to'g'nog'ichi"ni afzal ko'radi. Ikkinchi safar professor "Oyga uchiruvchi moslama" bilan keladi va bu gal ham amaldor allaqanday "Ichidan nur taratib turuvchi kuldon"ni ma'qullaydi. Professor uchinchi safar kundalik yumushlarga ko'maklashuvchi "Sun'iy odam" ixtirosi bilan keladi. Amaldor esa "Tirnoq egovi"ning amaliyotga ko'proq foydasi tegishini ta'kidlab, olimning hafsalasini pir qiladi. Amaldorning bunday munosabati ortida shaxsiy manfaat yotgani olimning

¹⁰ Bayandiyev T.. "Sehrli kursi"ning sehri. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2008-yil 8-avgust, 32-son. 5-bet

jahlini chiqaradi va fosh qilish - o'ch olish payida "Sehrli kursi" ixtiro qiladi. Kashfiyot mahsuli bo'lgan bu kursiga kimki o'tirsa, rost so'zlaydigan bo'lib qoladi. Olim yollanma ishchiga pul berib, "Amaldorning buyurtmasi keldi" deb, tashkilotga sehrli kursini joylashtirib ketishni buyuradi.

Yollanma ishchi obrazida aktyor A.Sheraliyevning ijrosi juda ishonchli chiqqan. Sababi, sahnada uning bajaradigan vazifasi rejissor tomonidan aniq belgilangan. Ya'ni, u sahnaga kursi bilan kirib keladi. Uning barcha diqqat-e'tibori kursida bo'ladi. Partnyorlari bilan munosabatga kirishganda ham, nigohi bilan ularni kuzatganda ham, to sahnadan chiqib ketgunga qadar butun oy-xayoli kursida bo'ladi. Uning har bir xatti-harakati oqlangan. Kichik doirada ishlaydi va shuning uchun ham chalg'imagaydi, dona-dona, aniq, sof talaffuz bilan gapiradi. Bundan ko'rinadiki, A.Sheraliyev aktyorlik maktabini chuqur egallagan. Zero, Stanislavskiy ta'kidlaganidek: "Kichik diqqat doirasi – rol ijro etayotgan aktyor sahnadagi mavjud manbaga diqqatini to'plashi va shu sahnada qo'l cho'zish masofasida joylashgan manbalarga, yoki o'ziga yaqin turgan manbalarga diqqatini to'plashi lozim bo'ladi"¹¹.

Professor rolida Bahodir To'rayev shoshib so'zlovchi, asabiy va doim nimadandir norozi olim qiyofasini ifodalagan. Olimning o'ziga xosligi shundaki, jamiyatga foyda keltiruvchi g'oyalarni ilgari suradi va ularni amalga oshishi yo'lida tish-tirnog'i bilan kurashadi. Aqlliligi uning boshqalar bilan til topishishida xalaqit beradi. Misol uchun, qabulxona xodimlari bilan munosabat o'rnatishda olim ularga yangiliklar haqida kuyinib, achinib gapiradi. So'zlaganda ko'zlari pirpirab, qo'llari qaltirab, kuchli emotsional holatda bo'ladi va bu olimni tentakdek ko'rsatadi. Shuning uchun ham qabulxonadagilar uning gaplarini beparvo qabul qilishadi. Aktyor obraz yaratishda xarakter va holat komediyasini uyg'unlashtira olgan.

Spektakl janrini ochuvchi haqiqiy voqealar sehrli kursining tashkilotga joylashtirilishi bilan boshlanadi. Ilk bor kursiga o'tirgan qabulxona xodimi David (A.Boqiyev)ning amaldor oldiga kelgan olimlarga bo'lgan qo'pol muomalasi,

¹¹ Сундукова В.Н. Элементы и термины системы К.С.Станиславского. – Ташкент: ГИИУз. 2012. стр 36 (56 с.)

boshliq xonasida bo'lsa ham "yo'q" deb, yolg'on ma'lumot berishlari tubdan o'zgaradi. Yolg'onni rostdek gapirayotgan Davidning nutqidagi hovliqish, baland-baland hamda baqirgannamo, mensimaslik ohangida so'zlash o'rnini samimiy iltifot egallaydi. Aktyor qabulxona xodimi rolini ishonchli gavdalantirgan bo'lsa ham, ba'zi sahnalarda uning nutqidagi namangancha lahja sezilib turadi.

Spektaklda aktyor M.Musaboyev amaldorning maslahatchisi Kalli obrazida chin ma'noda nutqiy xarakter yarata olgan. Aktyor qahramoni amaldor bilan muloqotga kirishganda mayin ovozda, nim tabassum bilan gap boshlaydi. So'zlaganda og'zini katta ochgan va qoshlarini tepaga ko'targan holda har bir bo'g'inni cho'zib, shuningdek, har bir so'zning oxirgi bo'g'inini balandroq ovozda urg'ulab ifoda etadi. Kalli "Amaldorning noyob aql sohibi, dono" ekanligini aytib, maqtaydi. U partnyorini tinglaganda esa, diqqat bilan eshitayotgan alfozda qoshlarini uchburchak shaklga soladi, lablarini cho'chchaytiradi, ko'zlari bilan suhbatdoshiga tikilib turadi. Shu koyi laganbardor qiyofa kasb etadi. Kursiga o'tirgach, dag'al ovozda jerkib-jerkib, jiddiy ohangda tishlari orasidan so'zlaydi. Amaldorning "Qip-qizil ahmoq, muttaham, amalparast, tishi qurtlagan sassiq chol" ekanligini yuziga aytadi. "Qachongacha bu musaffo havoni iflos qilib yurasan?" deb, ayblaydi. Bu gaplardan jahl otiga mingan amaldor unga tashlanib, kursidan turg'izib olishi bilan yana laganbardor qiyofaga kiradi qoladi. Qahramonning bir zumda u qiyofadan bu qiyofaga o'tishi aktyorning mahorati yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

Amaldor obrazi spektaklning bosh qahramonlaridan biri bo'lib, rejissor bu rolga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Alijon Tojiboyevni tanlab adashmaganini ko'ramiz. Alijon Tojiboyevning yirik va boydor tashqi ko'rinishi, salobatli ovozi obrazni gavdalantirishda qo'l kelgan. Sahnada viqor bilan qadam tashlashlari, kibrli nigohlari, qat'iy ishonch va buyruq ohangida gapirishlari amaldor qiyofasining tashqi sifatlari uchun yetarli bo'lgan. Ichki tempo-ritmida esa, biroz sustlik kuzatish mumkin. Misol uchun, maslahatchi Kalli tomonidan maqtalganda qo'llarini ortga birlashtirib, miyig'ida kulib mamnun bo'ladi. Ammo ich-ichidan xursand bo'layotganini hovliqish yoki o'zini bosish uchun nafasidagi o'zgarishlar

orqali uyg'un holatda yetkazib berolmagan. Amaldor tanqid ostiga olinganda ham Kallini quvishda qo'llarini yoyib, g'azab bilan unga tashlanadi. Biroq, asabiylashgan odamning qiyofasida sodir bo'luvchi rang o'zgarishlari yoki yuzdagi mimika ifodasi kuzatilmaydi. Garchi shunday bo'lsa ham, nutqiy xarakteristika evaziga rolni yaxshi ijro qildi, deyish mumkin. Ya'ni, pesa matnida berilgan so'zlarni adabiy til meyorlariga amal qilgan holda shevasiz, boshliqlarga xos dadil va zalvorli, eng asosiysi, mantiqiy va psixologik pauzalardan o'z o'rnida foydalanib ijro qildi. Natijada, jamiyat manfaatidan ko'ra, shaxsiy manfaatini ustun qoyuvchi amaldor qiyofasini sahnada namoyon qila oldi.

Spektaklda eng qiziq personajlardan biri bu – Siv ismli yozuvchi, shoir, jurnalist yigit. U zamonasining taniqli ijodkori. Gazeta va jurnallarda bosilgan she'rlari orqali muxlislar orttirgan bo'lsa, tanqidiy ruhdagi maqolalari bilan amaldorlarning asabiga tekkan. Spektaklda uning xarakter sifatleri aniq ochilmagan. Ko'rinishi na shoirtabiat va na olifta. Garchi shunday bo'lsa ham, unga nisbatan boshqa qahramonlarning munosabati uning qanday shaxs ekanligi haqida xulosa beradi. Masalan, amaldorning huzuriga kirib kelish sahnasida qabulxonadagilarning unga bo'lgan mulozamati; suhbatlashganda amaldor uni qattiq hurmat qilishi yoki amaldorning ayoli Berta muxlisa sifatida shoirni e'tirof etishi. Aktyor J.Odilov ijroda janr talabiga mos xatti-harakat qilgani va nutqida "s", "z" tovushlarining jarangi noto'g'ri ifoda etilgani bois, tomoshabinlarda kulgi uyg'ota olgan.

Asardagi barcha yolg'on, po'raxo'rlik, chirkinliklar ustida turuvchi qahramon bu "Tashkilot raisi"dir. Tashqi ko'rinishidan boyi pastdan kelgan aktyor A.Qodirov rais obrazini to'laqonli gavdalandira olgan. Ijrosida jest va mimika ustunlik qiladi. Tabiatan boyoqdor va sahnabop ovozi, sof talaffuzi nutqining kamchiliklardan holi ekanligini belgilaydi. Fikrini aniq, burro, cho'rtkesib yetkazadi. Oddiy ma'lumotni ham ehtirosga to'lib, jo'shib gapiradi. Suhbatda partnyorini doim bosim ostida ushlashga harakat qiladi. Partyorini o'tkir nigoh va ma'noli qarash bilan eshitadi. Bu uning boshliqlik, raislik xarakterini ochib beradi. Sehrli kursining ta'siriga tushgach, aslida haddan tashqari bachkana, xurmacha qiliqlar egasi, maqtanchoq va hamisha mansabini yo'qotib qoyish xavfidan qo'rquvda yuruvchi kishiga aylanadi.

Bunday harakatlar bilan aktyor ijroda komedik asarning janr talabini bajara olganini ko'ramiz.

Spektakldagi yagona ayol qahramon "Amaldorning turmush o'rtog'i Berta". U yosh, go'zal va quvnoq. Menimcha, o'z navbatida oyin-kulgiga ham o'ch. Aktrisa Dilfuza Qodirova Berta obraziga yuzaki yondashgani sababli xatti-harakatlari va so'zlash manerasida yasamalik bor. Ijroning umumiy holatini olsak, obrazda komediya ruhi kamlik qiladi. Asar tarjimoni mentalitetimizdan kelib chiqib, "Bertaning yozuvchi Siv bilan ishqiy munosabati" fosh etilgan sahnani kiritmagan. Faqatgina Berta erining yuziga ochiq oydin "Biron ish qo'lidan kelmaydigan qariya, his-tuyg'ularni sezmaydigan to'nka" deb ayblaganini, "Yoshlarga yo'l bermaydigan amalparast, xalqni oylamaydigan poraxo'r" kabi so'zlar bilan amaldorning kamchilik va qusurlarini oshkor etgan sahnani kiritish bilan cheklangan. Lekin sahnaviy variantda rejissor Bertaning Sivga bo'lgan munosabatini, eriga xiyonatini sehrli kursi yordamida ochib tashlagan. Amaldor oldida avvaliga o'zlarini begonalardek tutayotgan Berta va Siv o'rtasidagi rasmiy suhbat Bertaning sehrli kursiga o'tirishi bilan barham topadi. Kursida Sivning erkaklik sifatleri haqida Berta to'lib-toshib so'zlashni boshlaydi.

Spektakl so'nggida jurnalist Siv bu tashkilotda guvohi bo'lgan barcha narsalarni gazetada yoritib, amaldor va uning nayranglari, ko'zboyamachiliklari, poraxo'rliklarini fosh qilishni maqsad qiladi. Kashfiyotchi olim esa sahna o'rtasida amaldorning qilmishlariga baralla kulib, nohaqlik ustidan g'alaba qozonadi. Asar yolg'on bilan hech narsaga erishib bo'lmasligini, u qachondir fosh etilishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bayandiyev T. "Sehrli kursi"ning sehri. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2008-yil 8-avgust, 32-son.;
Сундукова В.Н. *Элементы и термины системы К.С.Станиславского.* – Ташкент: ГИИУз

Kuylovchi aktyorning sahna nutqi ustida ishlashi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek musiqali spektakllarda aktyorning sahna nutqi ustida ishlashi, musiqali spektakllarda tub ma'noning badiiy shaklda ochilishini va mahorat masalalarini yoritish borasida suz yuritilgan.

Kalit so'zlar: kuylovchi aktyor, sahna nutqi, obraz, spektakl, musiqa, so'z, ohang, ijro, eatr, tub ma'no.

Аннотасия. В данной статье рассматриваются вопросы работы актера над сценической речью в узбекских музыкальных спектаклях, художественное раскрытие коренного смысла в музыкальных спектаклях и вопросы мастерства.

Ключевые слова: поющий актёр, сценическая речь, образ, спектакль, музыка, слово, мелодия, исполнение, театр, коренное значение.

Annotation. This article covers the work of the actor on stage speech in Uzbek musicals, the opening of the fundamental meaning in artistic form in musical performances and the coverage of skill issues.

Keywords: singing actor, stage speech, image, Performance, Music, word, tone, Performance, Theater, fundamental meaning.

Mahmudho'ja Behbudiy teatrni inson ruhini poklaguvchi tarbiya maktabi, deb bejiz aytmagan. Taniqli san'atshunos olim, professor Muhsin Qodirovning “Sehr va mehr” nomli risolasida o'zbek milliy musiqali drama san'atiga quyidagicha ta'rif beriladi: “O'zbek musiqali dramasi ko'p tarmoqli, murakkab san'at. Drama janrida yozilgan asarni rejissyor rassom bilan bamaslahat o'zi sahnalashtirishi mumkin. Ammo musiqali dramaning matni tayyor bo'lgani bilan ish yurishib ketavermaydi. Pesa bastakor ihtiyoriga o'tib, musiqa yozilishi kerak. Mana shu bir- biriga chambarchas bog'langan va ayni chog'da, nisbatan mustaqil asarlar “teatr qozoni”ga kelib tushadi. Rejissyor, dirijyor, konsertmeyster, baletmeyster, rassomlardan iborat ijodiy guruh tomonidan katta ish olib boriladi. Musiqali teatrning o'z yo'nalishi, o'ziga xos qonuniyatlari shu jarayonni talab qiladi. Musiqali drama pesa, shu asosda yozilgan musiqa va rejissyorning sahnaviy talqini kabi uch asosiy komponentdan

iborat. Ana shu pesa, musiqa, shuningdek, baletmeyster tomonidan sahnalashtirilgan raqslar teatrning ijodiy jamoasi, ijrochilar va orkestr tomonidan o'zlashtirilib, sahnaviy xatti-harakatga aylantirilgandagina, musiqali drama hosil bo'ladi. Ya'ni, sahnaviy xatti-harakat tufayligina, ikki yirik manbaa pesa bilan musiqa bir-birini topadi, birikadi, to'ldiradi va aktyorlardagi imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi, dramaturg bilan bastakor ko'zlagan g'oyaviy maqsad amalga oshadi" [1. B-6].

Musiqali teatrlarda musiqali dramatik asar g'oyasini ochish sahna nutqining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda ayniqsa tub ma'noning roli katta bo'lib, u o'z ichiga teatr ijodchiligining barcha masalalarini qamrab oladi. B'zan sahna tilining grammatik va dialektal tomonlari yuzaki qaraganda tub ma'noga uncha aloqasi yo'qdek tuyulsada, uning ochilishida muhim rol o'ynashi shubhasizdir. Shunday hollar ham bo'ladiki, dialektal xususiyatlar, muayyan vaqtda nutqiy xarakter vazifasini o'tab tub ma'noga uzviy aloqador bo'lib qoladi va uning badiiy ifodalanishida faol rol o'ynaydi. So'z ohangida namoyon bo'ladigan maqsadning badiiy shaklda ifodalanishi, sahna nutqining oliy vazifasidir. Ammo ma'lum tarixiy davrda o'zbek musiqali teatrlarda sahna nutqi uchun ana shunday spektakllarga erishish faqat ezgu niyat edi, xolos. Bunga rioya qilish uchun kurash nihoyatda qizg'in kechdi. Musiqali spektakllarda tub ma'noning badiiy shaklda ochilishini va mahorat masalalarini yoritish ma'lum darajada murakkab va o'ta nozik bo'lib, u o'rganish obektining aniq bo'lishini taqozo qiladi. Uning badiiy taronasini o'rganish uchun kam deganda spektaklning magnitofon tasmasiga yozib olingan nusxasi bo'lishi lozim.

Musiqali spektakl nutqini aniqlashda qayta tiklashda suhbat yo'li bilan qilinadigan tekshiruv ishlarini inkor etmagan holda, asosiy diqqatni ko'proq audio tasmada saqlanib kelayotgan spektakllarga murojaat etishga qaratish lozim. Mamnuniyat bilan shuni ham qayd qilish lozimki, o'zbek musiqali teatr jamoalarining ko'pgina shoh spektakllari u yoki bu darajada tasmaga yozib olingan. Ular ma'lum davrning bosqichli musiqali spektakllari hisoblanadi va sahna nutqiniig o'zbek musiqali teatrida taraqqiyot jarayonini o'rganishga yetarli material beradi. Shuning uchun vazifalar doirasini aniq belgilab olishga to'g'ri keladi. Bundan

tashqari, o‘zbek musiqali spektakllarda sahna nutqi alohida soha bo‘lgani uchun, bu murakkab masalani to‘la tekshirish asosiy vazifalardan biridir.

Musiqali spektakllarda kuylash bu kuylovchi aktyorning birdan-bir maqsadi emas, balki obraz yaratishda ichki tuyg‘ularni yorqin ifodalash vositasi hisoblanadi. Musiqali teatrlarda aktyorning rol ijrosida so‘z sodda, jonli, haqkoniy va ta’sirli bo‘lishi kerak. So‘zlar ovoz va musiqa bilan birlashganda, aniq fikrlarga va tuyg‘ularga ega bo‘lishi kerak. Zamonaviy musiqali teatrning aktyori musiqiy spektakllarda so‘z asosiy ijro vositalardan biri ekanligini yaxshi tushunadi.

Ma’noli va emotsional ruhga to‘la so‘zga K.S.Stanislavskiy katta ahamiyat bergan edi. Uning «oliy maqsadi» bo‘lg‘usi kuylovchi aktyorlarni dramaturg yoki bastakorning asaridagi ma’lum yakqol va aniq g‘oyani tinglovchilarga singdirishdan iborat edi. Shuning uchun ham so‘z sahnada tomoshabinlarga eng muhim ta’sir vositasi bo‘lganligi uchun kuylovchi aktyordan xar bir tovushni to‘g‘ri talaffuz etishi, ovozi sozlangan, yuqori diapozonli bo‘lishi talab etiladi.

Musiqali teatr aktyorining shakllanishida so‘zni egallash jarayoni nutkda ham, qo‘shiqda ham muhimdir. Asardagi fikrni yetkazishda so‘z kay darajada o‘rin tutishini tushuntirishga ehtiyoj yo‘q.

Musiqali teatr aktyori ijodida barcha ifoda vositalari: ovoz, so‘z, musiqa, katta ahamiyatga ega. Dramatik teatrdan aktyor fikrini ifodalashda so‘z va nutqdan tabiiy holda foydalansa, kuylovchi aktyor bunga e’tiborini boshqacharoq qaratadi. Uning so‘zi musiqa va kuy bilan bogliq bo‘lishi vazifani murakkablashtiradi. So‘z nafaqat fikrni yetkazish vositasi, balki ovozning jaranglashi hamdir.

Kuylovchi chiroyli ovozga ega bo‘lishi mumkin, ammo uning nutqi ifodali va tushunarli bo‘lmasa, u tushunolmaydigan tilda kuylaydi. Boshqa tomondan esa, agar musiqaning umumiy kayfiyatini yetkazib beradigan chiroyli va ta’sirchan qo‘shiq yaqqol ifodalilikdan mahrum bo‘lsa, u ham chuqur ta’sir qilolmaydi.

Ma’lum bir obrazni ifodalash uchun xonanda aktyor so‘z va musiqa sintezining ifodali imkoniyatlaridan to‘la-to‘kis foydalangan holda, o‘z ijrosini musiqiy nutqqa aylantirishi lozim. So‘zning ma’nodorligiga haddan tashqari qiziqib ketilsa, unda

ovozning jonliligi va shirasi yo‘qoladi. Xuddi shu singari ovozga e‘tibor kuchaytirilsa, so‘zning ma‘nosi yo‘qoladi. So‘z bilan kuy bir-biri bilan chambarchas boglanishi kerak. Kuy aynan shu so‘z uchun, so‘z esa aynan shu kuy uchun yaratilganday tuyulishi lozim. Musiqasiz so‘z tuygudan mahrum. Musiqa so‘zni boyitadi. Ba‘zi kuylovchilar so‘zlarni mexanik ravishda yodlaganligi uchun, ularni so‘zlari lablaridan pistaday sochilib chiqib, kuylashni ma‘nosiz qilib qo‘yadi. Musiqaning mazmuniga javob beradigan ifodali so‘z ijodiy fikrni, hissiyot va tasavvurni uyg‘otib, kuylovchining ovoz ranglarini boyitadi. Ifodali so‘zlay olmagan kuylovchi, ifodali kuylay olmaydi. Agar xonanda kuylash jarayonida aniq fikr bilan bog‘langan so‘zning ichki mohiyatini va shu bilan birga, musiqaning ruhiy ma‘nosini ochib berolmasa, u qanchalik chiroyli kuylamasin va ifodali gapirmasin, uning ijrosi hech qachon to‘laqonli bo‘la olmaydi. Bastakor-dramaturgning musiqasi so‘z bilan uzviy bog‘langan. Xonanda asarning badiiy mohiyatini ikki taraf lama ochishi shart, aks holda qo‘shiq aytish, tovushlarni oddiy kuylashday bo‘lib qoladi.

“O‘zbek musiqali drama teatrining mashhur rejissyori Razzok Hamroyev aytganidek, kuylovchi aktyorning san‘atida, qo‘shiq hech qachon asosiy maqsad bo‘lolmaydi. U faqat yaratilayotgan obrazning, ichki mohiyatni ochish uchun vosita bo‘lishi mumkin. Razzoq Hamroyevning fikricha, gapiruvchi inson qanchalik so‘zga e‘tibor bersa, kuylovchi ham kuyiga shunchalik e‘tibor berishi kerak, ana shundagina kuylovchi aktyorning ideali paydo bo‘ladi”. [2.B-20]

So‘z va kuyning uygunlashuviga xalq artisti, buyuk o‘zbek xonandasi, professor Saodat Qobulovanning ijodi yaqqol misol bo‘la oladi. U eng ogir kuylash shakllari, ya‘ni kuylashda hikoya qilib berish san‘atini egallab olgan edi. Shuning uchun ham unda musiqali kuy so‘zdan bevosita tugilib, so‘z esa tovush bilan birlashib, bir tabiiy holatga aylana edi.

Stanislavskiy kuylashga o‘z munosabatini bildirib, shunday degan edi: «Kuylovchilar, umuman hamma insonlar kabi, chiroyli, savodli gapirolmaydilar. Mana shuning uchun ham ko‘pchilik holatda talaffuz va diksiya noaniqligi tufayli kuylash go‘zalligi yo‘qoladi». [3.B-38]

So‘z, bastakor ijodi uchun mavzudir, musiqa esa uning ijodi, ya‘ni bastakorning unga bo‘lgan munosabati, mavzuning kechinmasidir. So‘z nima, musiqa esa qanday degan savolga javob bo‘lishi lozim.

Kuylovchi aktyorlar qilingan ma‘noga berilib, so‘zning kuchli taassurotini kuyga qarshi qo‘yishadi va shu bilan kuylashni buzadi, kuyning, tovushning yo‘nalishini o‘zgartiradi. Bunday ijodkorlar juda ham baqirib kuylaydilar, chunki ular hammasi eshitilsin deb tashvishga tushadi. Ba‘zi bir aktyorlar jummalarni emas, so‘zlarni kuylashadi, musiqiy jumlaning kuylash esa, bu ma‘noni kuylash, demakdir.

Hammaga ma‘lumki, kichik ovozga ega bo‘lgan mashhur rus bastakori Glinka o‘z romanslarini mohirona ijro etgan. A.N.Serov ijrochilik san‘atining asoslari haqida keng ma‘lumot berib, o‘z tanidiy maqolalarida bunday degan edi: «Hayratli yorqin, serg‘ayrat zavq har bir tovushida aks etar edi... Yangilik bo‘lgan musiqiy ta‘siridan hayratlanib, men Glinkaga bu xakda bir gapirgan edim... Bunga u shunday javob berdi: “Gap shundaki, barin, bu juda ham oddiy hol, musiqada, ayniqsa, vokal musiqasida, ifoda boyliklari cheksiz”. Bunday qisqa va aniq ta‘rif bilan Glinka kuylovchi aktyorning ijodiy fikrlarini ifodalaydi». [4.B-38]

Kuylashda jonsiz, lekin to‘g‘ri talaffuz etilgan so‘zlar, bo‘lishi mumkin emas. Qo‘shikdagi so‘z ichki mohiyati bilan yoki undagi tub ma‘nosi bilan qimmatlidir. Kuylovchi qanchalik chiroyli kuylamasin, agar u so‘zni va musiqiy tovushni hayajonli musiqiy obrazga aylantirmasa, o‘z tuygulari bilan aytayotgan so‘zning tub ma‘nosini jonlantirmasa va shu tuygular bilan o‘z hamkorlarida kerakli javobni uygotmasa, uning ijrosi hech qachon badiiy ifodalilikka yetib bora olmaydi. Tajribalarga asoslanib, shundai deyish mumkin: qachonki so‘zlarda va tovushlarda kuylovchining jonli dil kuyi eshitilsagina musiqiy nutqning go‘zalligi va undagi yashirin tuygularni to‘la-to‘kis baholash mumkin.

“Qo‘shiqni to‘g‘ri ijro etish uchun musiqa bilan so‘zning aloqasini belgilash kerak. Musiqa, so‘zning tub ma‘nosi bo‘lib, ko‘shik matnining mazmunini kengaytiradi va chukurlashtiradi. Asarning ichki ma‘nosi musiqada va so‘zda teng namoyon bo‘lmaydi. Goh musiqa, goh so‘z mazmuni ogirlikni o‘z zimmasiga oladi. Ba‘zida mazmun ogirligi bir xil bo‘ladi.” [5.4] So‘z berilgan shart-sharoitda xatgi-

harakatni belgilaydi. Uning tub ma'nosi musiqa elementlarida. ya'ni garmoniyada, kuyda, ritmda, tezliqda, o'lchovda ifodalanadi. Musiqa ichki holatni ifodalaydi.

Teatr sahnalarida sahnalashtirilayotgan spektakllarning soni ortgani sayin, ularning mazmun-mohiyati, bugungi kun tomoshabinining talab va istaklariga javob bera oladigan, ayniqsa yoshlarimiz ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, vatanparvarlik, sadoqat tuyg'ularini shakllantira oladigan sahnaviy asarlarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, musiqali dramaning bugungi kunda o'rni muhim hisoblanib, iste'dodli, izlanuvchan aktyor bo'lsagina ifodaviy sahna xatti-harakatlari orqali asarning oliy maqsadiga shakl va jon kiritadi. Bu mas'uliyatli kasb egasi tomoshabinga ezgu g'oyalarni yetkazar ekan, o'zi ham insoniy tuyg'ularni hurmat qiladigan shaxs bo'lmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *M.Qodirov. Sehr va mehr. – T.: G'.G'ulom, 1994. 6-bet.*
2. *Muhammedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. T.:2008 yil 20-b.*
3. *Stanislavskiy K.S. Moya jizn v iskusstvs. - M. "Iskusstvo". 1954. -S. 386.*
4. *Serov A.P. Kritichsskiye stati. - SPb. 1895. -S. 1322-1323*
5. *Nosirova A. Jonli so'z san'ati asoslari. – Toshkent: TDSI, 2003;*

TASVIRIY-ADABIY PARCHA USTIDA ISHLASH

Annotatsiya. Maqola 1-bosqich talabalari bilan tasviriy-adabiy parcha ustida ishlash jarayoniga bag'ishlanadi. Bu jarayon misolida nasriy asarlardan tasviriy-adabiy parcha tanlash, uning g'oya va mazmuni, maqsadini aniqlash hamda ijro uchun moshlashtirish (inssenirovka), tahlil va talqin masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: qissa, tasviriy-adabiy parcha, sahna nutqi, ritm, voqea, his-tuyg'u, talaba-ijrochi, aktyor, g'oya.

Аннотация. Статья посвящена процессу работы со студентами первого курса над литературными произведениями и отрывками. В качестве примера этого процесса будут освещены вопросы выбора литературного отрывка из прозаических произведений, определения его идеи и содержания, назначения, а также адаптации (постановки) для исполнения, анализа и интерпретации.

Ключевые слова: рассказ, литературное произведение, отрывка, сценическая речь, ритм, событие, эмоция, студент-исполнитель, актер, идея.

Annotation. The article is devoted to the process of working with students of the 1st stage on a visual and literary piece. As an example of this process, the issues of choosing a pictorial-literary fragment from prose works, determining its idea and content, purpose, and adaptation (staging) for performance, analysis and interpretation will be covered.

Key words: short story, pictorial-literary piece, stage speech, rhythm, event, emotion, student-performer, actor, idea.

Aktyorlik san'ati yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar bilan darslarni mazmunli tashkil etish asosan ijodiy fikrlash va ijro qonuniyatlarini bo'lajak sahna ustalariga singdirib borishdan iborat. Sahna nutqi fanining 1-kurslar uchun mo'ljallangan ish rejasiga muvofiq “Tasviriy-adabiy parchalar ustida ishlash” mavzusi talaba-aktyorlarning dunyoqarashini boyitishi va sahnaviy erkinlikka erishishi uchun xizmat qiladi. Tasviriy-adabiy parchalar ustida ishlashda avvalo nasriy uslubda yozilgan adabiy materiallarga murojaat etiladi. Pedagog birinchi galda, talabaning hissiy, ruhiy, jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib asar tanlash kerakligini o'rgatadi. Bunda asarning mavzusi, g'oyasi, maqsadini aniq belgilab ish olib borish talabaga tushuntiriladi. Misol uchun, bugungi kun ijtimoiy muhitidan kelib chiqib, insonlarning orzulari, qiziqishlari yoki ularni tashvishga solayotgan muammolarning yechimini ilgari suruvchi asarlarni tanlash taklif etiladi. Yoki

insonning pok, ezgu his-tuyg'ularini tarannum etuvchi asarlarni tanlash uqtirilidi. Tanlangan asardan ma'lum maqsadni va ma'lum voqeani aks ettirgan tasviriy-adabiy parchani ajratib olib, tahlil qilinadi. Ya'ni, ijro nuqtayi nazaridan materialning kirish, boshlang'ich, asosiy, markaziy, yakuniy bo'laklari aniqlanadi. Quyida Xurshid Do'stmuhammadning "Nigoh" qissasi¹²dan foydalangan holda tasviriy-adabiy parchalar ustida ishlash jarayonidan namuna keltiramiz:

Asarning umumiy mavzusi "Insonning hayotga bo'lgan qarashlari" deb, belgilab olindi. Bosh qahramon "Bek" o'zining hayotida sodir bo'lgan voqealar va avtohalokatdan keyin olamga o'zgacha nigoh bilan qaray boshlaydi. Bu voqea, ya'ni baxtsiz hodisa – Bekning hayotida burilish yasaydi. U avval oddiydek qaraydigan, gohida e'tibor ham bermaydigan narsalar shundan keyin uning nigohida o'zgacha tus oladi. G'oyasiga kelsak, aybiga iqrorlik – jasorat ekanligi belgilandi. Ya'ni, beparvolik ortidan inson atrofidagi voqealardan, yaqinlari kechmishlaridan xabardor bo'lolmasligi yoritiladi. Maqsadi esa inson yaqinlaridan xabar olib turishi, voqeliklarga e'tibor berishi judayam zarurligi ta'kidlanadi. Aks holda, kishi muvozanatni yo'qotib qoyishi, o'ziga nisbatan atrofida gilardan ham beparvolik va mehrsizlik ko'rishi turgan gap. Bu tushunchalarni qahramon o'z vaqtida tushunib yetadi va ichki ziddiyatlariga barham berib, aslida qanday yashash lozimligini anglaydi.

Qissaning eng avj nuqtasi, ya'ni, avtohalokat tasvirlangan joyini talaba ijrosi uchun tanlab olinishi aybiga iqror bo'lishga, odamlarga nisbatan beparvo bo'lmaslikka chaqirishi bilan ahamiyatlidir.

Talqin uchun qismlarga bo'lgan holda tahlil qilib chiqamiz.

Kirish qism: *Kimdir chinqirib yubordi.*

Mana shu gapning o'zida tasviriy parchaning butun mohiyati aks ettiriladi. Ijroda chinqirgan odamning ovozi va u hammani sergaklantirgani vazifa qilib belgilanadi. Bu degani talaba baqirib ijro qilsin degani emas, aksincha, muhitni va undagi voqelikka kirishni nutqiy ifoda bilan ta'minlab bersin deganidir.

¹² Xurshid Do'stmuhammad. Nigoh. Qissa. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011. 4-bet

Boshlang'ich qism: *Loaqal shu chinqiriqni eshitgan zahoti tormoz dastagini tortishi, tramvayni to'xtatishga ulgurishi mumkin edi. Lekin tramvayning tezligi susaymadi, u qo'qqisdan to'xtagan "Volga"ga taraqlab urildi.*

Bu qismda asosiy voqelikka qarab yo'naltirish bor. Shuning uchun ham biroz tezroq ritmda, so'zlar aniq va toza ifodalanishi kerak. Aks holda, asosiy voqeaga tomoshabinni olib kirolmay qolish xavfi bor.

Asosiy qism: *"Volga"ning orqa o'rindig'ida o'tirgan ayol jon achchig'ida sapchib ters o'girildi, uning qinidan chiqib ketayozgan katta-katta ko'zlari tramvay haydovchisining ko'zlari bilan to'qnashdi.*

Asosiy qismda birinchi navbatda, voqelik va undagi qahramonlar, ikkinchi navbatda, ular tushgan vaziyat hamda shart-sharoit, uchinchi navbatda esa ijrochining munosabati tasviriy parchaning ta'sirchanligini ta'minlab beradi. Shuning uchun ijrochi-talabadan kim ekanligini, yonida kimlar borligini va berilgan shart-sharoitni aniqlash talab etiladi. Bular aniqlangach, har bir qahramonga yoki detalga munosabat qoyib chiqiladi. Ya'ni, Volga, o'rindiqdagi ayol, tramvay haydovchisi, kitob, ko'zlarga munosabat qoyib chiqiladi. Shundagina, ijrochi-talaba markaziy qismga tomoshabinni hamdard holda olib o'toladi.

Markaziy qism: *Bek ayol ko'zidagi daxshat alomatini ko'rgachgina nima ish qilib qoyganini fahmladi. Chap qo'li bilan tutib kelayotgan temir tutqichni siltab tortmoqchi bo'ldi. Tramvay esa, boya ayol o'girilib qaragandayoq to'xtagan, chunki vagon "volga'ga qarsillab urilgan zamoni Bekning qo'li g'ayriixtiyoriy ravishda "vazifasini" o'tagan edi...*

Yakuniy qism: *Bo'lar ish bo'ldi. Tramvay "Volga"ni pachoqlab, uni uch-to'rt metr joyga surib bordi. Vagonda qiy-chuv, to's-to'palon ko'tarildi. Ko'chada tumonat odam yig'ildi. Tramvay behosdan to'xtadi-yu, haydovchi kabinasining eshigi sharaqlab yopildi. Kabina jim-jit bo'lib qoldi. Bek voqeaga zarracha aloqasiz odamdek pinagini buzmadi.*

Yakuniy qism ijrosi kuchli emotsional holatdagi nutq bilan ifoda etiladi. Qahramonning holati va u tushgan vaziyat tomoshabinni larzaga solishi zarur.

Shundagina ijrochi va tomoshabin o'rtasida voqelikka nisbatan xulosa chiqarishga imkon yaratiladi.

Bu jarayonda talaba asarni o'zi mustaqil o'qib chiqmas ekan asar voqealarini, undagi obrazlarning o'zaro aloqalarini tasavvur qilolmaydi, asar va uning tahlilini bajarolmaydi. Yoki talaba-aktyor dramatik asardan faqat o'zigagina berilgan rolning matnlarini o'qib, asarning qolgan qismlarini o'qimasa tasavvurdagi obraz xayolda to'liq gavdalanmaydi¹³.

Xulosa qilib aytganda, talaba-ijrochi bilan tasviriy-adabiy parchalar ustida ishlashda tanlangan adabiyot(material)ning mohiyatini to'la anglashga undash shart. Chunki bu orqali asardagi aytilishi kerak bo'lgan maqsad topishiladi. Maqsad esa ijro ta'sirchanligini ta'minlaydi. Bu jarayondan o'tgan talaba keyinchalik ham ijrochi sifatida o'zi mustaqil asar tanlashi, uning tahlili va talqinini olib borishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Xurshid Do'stmuhammad. Nigoh. Qissa. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011;*
2. *R.Qodirov. Sahna nutqi. Darslik. –Toshkent: “Zamon poligraf” nashriyoti, 2023-yil.*

¹³ R.Qodirov. Sahna nutqi. Darslik. –Toshkent: “Zamon poligraf” nashriyoti, 2023-yil. 259-bet.

Bobirjon Jabborov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Sahna nutqi”

kafedrası o'qituvchisi

Qo'g'irchoq teatri san'atini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistondagi professional qo'g'irchoq teatri san'atini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati hamda “Silk Route Marionettes” teatrining Maskvadagi “Istoki ikkinchi xalqaro qo'g'irchoqchilar” festivalida ishtiroki haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq, festival, xalqaro, nutq, tendensiya, dastur, ovoz, teatr, repertuar, ijodiy hamkorlik, salohiyat, diplomatik aloqalar, professional sahna.*

***Аннотасуя.** В данной статье говорится о значении международного сотрудничества в развитии искусства профессионального театра кукол в Узбекистане, а также об участии театра “Silk Route Marionettes” на II Московском международном фестивале кукольников “Истоки”.*

***Ключевые слова:** кукла, фестиваль, международная речь, тренд, программа, звук, театр, репертуар, творческое сотрудничество, потенциал, дипломатические отношения, профессиональная сцена.*

***Annotation.** This article describes the importance of international cooperation in the development of the art of professional puppet theater in Uzbekistan, as well as the participation of the Silk route Marionettes theater in the Moscow International Puppeteer Festival “Origins of the second World”.*

***Keyword:** Doll, festival, international, speech, trend, program, sound, theater, repertoire, creative cooperation, potential, diplomatic relations, professional scene.*

So'nggi yillarda respublikamizda san'at va madaniyat sohalarini rivojlantirish borasida katta islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning san'at, madaniyat va ma'naviyatning barcha jabhalari barobarida teatr sohasiga doimiy e'tibori, bu borada qabul qilingan qator farmon va qarorlari milliy teatrimizni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xalqimiz o'rtasida teatr san'atiga bo'lgan qiziqish va e'tiborni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. 2022-yil 2-fevralda qabul qilingan “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi

qarorda teatr sohasi vakillariga, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari zimmasiga qator vazifalar yuklandi. Shu bilan birgalikda yurtimizdagi barcha professional teatrlari uchun ham katta e'tirof va e'tibordir. Bu ularga yanada yuksak ma'suliyatni va talabni yuklaydi. Albatta, hozirgi kunda ko'rib turibmizki, har bir teatr, xoh u poytaxt teatrlari bo'lsin, xoh viloyat teatrlari, rejissyor, aktyor, rassom, kompozitor hamda qo'g'irchoq yasovchi ustalari yangi davr nafasi va uning dolzarb vazifalari asosida, yangidan yangi, innovatsion g'oyalar bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiyki, bu quvonarli hol. Teatr ijodkorlari spektakllardagi mazmun mohiyati baddiy mukammallikka erishish yo'lida sifatni ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qilishmoqda. Buning natijasi o'laroq, yurtimizdagi barcha qo'g'irchoq teatrlari har yili an'anaviy festivallar, bundan tashqari poytaxt va viloyatlararo do'stona ijodiy gostrol safarlarini muntazam ravishda o'tkazib kelishmoqda. Mazkur yilning yilning 19-sentabr kuni Xorazm viloyat qo'g'irchoq teatri "Karvonsaroy" Spektakli bilan Andijon viloyati qo'g'irchoq teatriga o'zining gastrol safarini uyushtirdilar. Qolaversa, Andijon viloyat qo'g'irchoq teatri joriy yilning 15-20 may kunlari Qozog'istonning Shimkent shahridagi "Shimkent Shahar qo'g'irchoq teatri" da bo'lib, "Karvonsaroy" nomli spektaklni tomoshabinlar e'tiboriga havola qilib keldilar. Shuningdek, O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri o'tkan oy ya'ni 18-22-sentabr kunlari Belarusiya respublikasi Grodno shahrida "Ляльки над Нёманом" deb nomlangan qo'g'irchoq teatrlarining xalqaro festivalida bo'lib, "Qo'g'irchoqlarning g'aroyib olami" nomli konsert dasturi bilan ishtirok etib keldilar. Yurtimiz qo'g'irchoq teatrida bunday ijodiy gostrol safarlar talaygina. Bu ijodiy safarlar teatr va ijodkorlarga o'zaro ijodiy hamkorlik, malaka almashish, xalqaro va viloyatlaro do'stona munosabatlarni yaxshilaydi, shu bilan birgalikda O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri va viloyat qo'g'irchoq teatri spektakllarini namoyish qilib ijodiy salohiyatni yuksaltirishga yordam beradi

Modomiki, teatrlar o'zining ijodiy salohiyatini uzluksiz ravishda rivojlatirishni istar ekan, mana shunday do'stona aloqalar, gastrol safarlari ularga juda katta maktab bo'ladi deb o'ylaymiz. Hozirgi kunda teatrlardagi dolzarb mavzulardan bo'lib qolgan sahna nutqi masalalarini ham alohida ta'kidlab o'tishni joiz deb

topdik. Bilamizki, hozirgi kunda viloyat qo'g'irchoq teatrlarida oliy ma'lumotga ega aktyorlar kam sonni tashkil etadi. Afsuski, bu hech kimga sir emas. Oliy dargohni tamomlagan talabalarning deyarli 90% i poytaxtda qolishni istaydi. Viloyatga qaytib ketganlari ham teatrlarda ish faoliyat yurutishni xohlamaydilar. Hozirgi kundagi viloyat qo'g'irchoq teatrlarining eng katta muammo va kamchiliklaridan biri bu – oliy ma'lumotga ega, professional aktyorlarning yetishmasligida deb oylayman. Teatrlar esa, ish faoliyatini davom ettirishga majbur. Oqibatda teatr rahbariyati san'at va madaniyat kollejarini, o'n bir yillik maktablarni va umuman boshqa soha vakillarni ishga qabul qilishga majbur bo'lmoqdalar. Va buning natijasida, spektakllarda aktyorlik mahorati, qo'g'irchoq boshqarish va sahna nutqi masalalari ko'zga tashlanarli darajada oqsayapti desam ham bo'ladi. Axir to'rt yil oliy dargohda yuksak malakaga ega, professor ustozlardan mahorat maktablarini o'zlashtirmay, qanday qilib professional teatrdan ishlash mumkin? degan savolga javob topish qiyin, albatta. Aynan men maqolamda aytib o'tmoqchi bo'lgan kamchiliklarning asl mohiyati ham mana shunda deb oylayman. Mo'jizakor qo'g'irchoq teatri bu – bolajonlar teatri. Ularning tomoshablari ham aynan ulardir. So'z mag'zini va ta'sirini kattalarga qaraganda bolajonlarga tushuntirish, anchagina qiyinroq. Bu mavzuda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsent Shomurod Yusupov bilan suhbat ilmiy suhbat uyushtirganimda bir necha yillik qo'g'irchoq teatri rejissyori va pedagogi sifatida teatri san'ati va undagi nutqning o'ziga xosligi haqida shunday degan edilar "Nafaqat qo'g'irchoq teatri san'ati, san'atning barcha yo'nalishlarida nutq san'ati alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Qo'g'irchoq teatrida nutq va ovoz esa juda muhim. Har bir so'z alohida-alohida, ravon va nutqiy nuqsonlarsiz bo'lishi shart. Sahna nutqi deganda uchta unsur doim birga keladi:

1. Nafas yo'llari.
2. Ichki kechinma.
3. Aktyor obrazning ichki holatiga kirish jarayoni.

Bularning barchasi nutq orqali amalga oshiriladi. To'g'ri, so'zsiz spektakllar ham mavjud. Bunda so'zlar va g'oyani tashqi plastik harakatlar bilan

namoyon etishadi. Albatta bunday spektakllarni alohida o'zining individual dunyosi bor. Fizik harakat bilan tomoshabinga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mana bir necha yillardan buyon juda ko'plab viloyat Qo'g'irchoq teatrlariga spektakllar sahnalashtirgani borganimda, o'sha teatrdagi aktyorlarning ijodiy salohiyatini yaxshi bilmaganim, spektaklning repetitsiya jarayonlarida bevosita aktyorlarni almashtirishimga to'g'ri keladi. Buning sababi shundaki, rollarni taqsimlaganimda ularning aktyorlik mahorati, nutqi yoki qo'g'irchoq boshqarishi, o'sha berilgan obrazni ochib berishda qator muommomalarning yuzaga kelganligidadir. Ya'ni aktyorlarning umumiy ijro mahorati meni qoniqtirmaydi va men o'sha aktyorni ushbu rolda ko'rmaganimda degan fikrlar yechimi kutilayotgan muammolarimizning indallosi hisoblanadi. Rejissurada rollarning to'g'ri taqsimlash spektaklning muvaffaqiyatli chiqishida asosiy rol o'ynaydi. Qo'g'irchoq teatri aktyorlaridan talab qilinadigan ijro mahorati shundaki, rejissor va rassom yaratgan obrazning ichki va tashqi ko'rinishidan kelib chiqqan holda ovoz va harakter topish. Bu qo'g'irchoqboz uchun juda muhim. Qolaversa, obrazning berilgan shart-sharoitidan kelib chiqqan holda uning ichki kechinmasini ham tomoshabinga yetkazib berish ham aktyordan talab qilinadi. Ichki kechinma – qo'g'irchoq teatrida berilgan obrazning rang-barangligini ta'minlab beradigan elementlardandir.” Qo'g'irchoq teatri – bu juda ham jiddiy bolalar teatri hisoblanadi. K.S. Stanislavskiy ta'kidalaganidek “qo'g'irchoq teatri, kattalar teatridan yaxshiroq bo'lishi kerak”. Asosan qo'g'irchoq teatri bolalarga nima beradi? Ularni dunyo qarashini shakllanishida, borliqni anglashida, ma'naviyatini boyitishda juda ham katta yordam beradi. Qo'g'irchoq teatri aktyori nutqi va ovozini to'g'ri shakllantirishi uchun asosan badiiy va ilmiy kitoblar, pesalar va bolalar adabiyotidan kitoblar mutolaa qilishlari kerak bo'ladi.

Sahnada uchta harakat birga keladi. Bular:

1. Fizik harakat.
2. Psixik harakat.
3. So'z harakati.

Fizik va psixik harakat aktyorning ichki va tashqi holati bo'lsa, so'z – bu fikr bayoni. Aktyorning ichki va tashqi holatini ko'rsatib beruvchi vosita hisoblanadi. Ustozlarimiz ko'p aytishardi: sahnada qachon gapirish mumkin, agarda gapirmasang o'lib qolishing mumkin bo'lsagina gapir degan gaplarni ko'p aytar edilar. Bundan kelib chiqadiki, qo'g'irchoq teatri ko'p so'zlarni ko'tarmaydi.

Qo'g'irchoq teatri san'ati rang-barang obrazlar talqini hisoblanadi. Jonli plandagi aktyorlar sahnada o'sha obrazning ichki kechinmalari bilan yashasa, qo'g'irchoq teatrida esa ikkita maktab birga kesishadi. Bular ko'rsatib berish va ichki kechinma san'ati. Aktyor obraz yaratishda asosan, uning tashqi ko'rinishidan, pesada berilgan karakteridan kelib chiqib obraz yaratadi. Qo'g'irchoq teatrida aktyor yaratgan obrazi, uning ovozi va nutqini topishda namoyon bo'ladi. Bu juda katta ahamiyatga ega.

Qo'g'irchoq teatrida kichik bir barg ham obraz hisoblanadi. Aktyor bunda uning tabiatdagi kelib chiqishi va tashqi ko'rinishiga qarab, xoh u insonlar bo'lsin, xoh hayvonot yoki buyumlar, uning ovoz xarakteri va ichki xarakteridan kelib chiqib obraz yaratadilar. Shirma ortida hech narsani ko'rishning iloji yo'q. Shuning uchun bu san'tada rejissyor uning tashqi holatidan kelib chiqib aktyor tanlamaydi. Yoshi katta aktyor ham yosh bola rolini o'ynashi mumkin, bir aktyor bir spektaklda bir emas, ikkita rolni ijro etishi mumkin yoki ayollar o'g'il bolachalarni o'ynashi mumkin. Agar aktyorning ijodiy salohiyati shunga yetsagina albatta.

“Professional teatrlarga kadrlarni yetkazib beruvchi san'at oliygohida har yili ketma ket qo'g'irchoq teatri mutahassislari tarbiyalanmoqda. Bitiruvchilar tamomlaydi. Ularni amaliy ko'nikmalarini yetarli darajada bo'lishi uchun o'quv jarayonlarida asosiy e'tiborni maxsus fanlarga qaratishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi deb o'ylaman. Sahna nutqi, vokal, plastika va raqs aktyorlar uchun juda muhim hisoblanadi. Qo'g'irchoq teatri aktyorlari uchun esa eng asosiy vosita hisoblanadi. Lekin afsuski, ushbu fanlar avvalgi yillarga nisbatan kamaytirilgan. Bu ham aktyorlarda o'sha sohani chuqur o'rganilmaganligini yuzaga keltiryapti. San'at turlari ko'proq amaliy mehnatni, qayta-qayta shug'ullanishni talab qiladi”.

Qo'g'irchoq teatri bu- faqat mushuk bo'lsa miyovlash, kuchuk bo'lsa vovullash yoki hokazolar, yo'q! aynan o'sha berilgan obraz harakteridan kelib chiqqan holda uning ovoz imitatsiyasini yaratish kerak bo'ladi. Hayvon bo'lsa shunchaki vovullash yoki miyovlash bu qo'g'irchoq san'ati emas. Har bir ovoz imitatsiyasi bilan aktyor nimadir deyishi, har bir miyovlashning tagida ma'no bo'lishi, har bir imitatsiyani so'z harakatiga qo'yish kerak bo'ladi.

Oxirgi paytlarda talabalar sahna harakati, raqs va vokaldan dars jarayonlarida mashqlar orqali o'zlarining ijodiy salohiyatlarini ko'rsatishadi. Lekin diplom spektakli paytda o'sha olgan bilim va ko'nikalarini, mashqlarini ovozlarini ishlata olmaydilar. Bu ham bo'lsa dars mashg'ulotlarining kamligidan deb o'ylaymiz. Chunki bu fanlarni o'zlashtirish uchun ko'proq tana va ichki ruhiyatni ko'plab mashq jarayonlarida o'zlashtirish va chiniqtirish mumkin.

Qo'g'irchoq teatri boshqa teatr aktyorlaridan farqi shundaki, qo'g'irchoq teatri aktyori qo'g'irchoqni his qila olishi kerak. Bu qo'g'irchoqboz uchun eng asosiy jihatlardan biridir

Bularning zamirida davlatimiz kelajagi bo'lmish bolajonlarning ma'naviy va estetik tarbiyasi yotadi. Teatr san'atida bu kabi muommolar talaygina. Jamiyatimizdagi ma'naviyat va ijodiy salohiyatni yuksaltirish uchun turli xil chor-tadbirlar oylab, bularning oldini olib, qiynayotgan savollarga yechim topmog'imiz zarur. Taklif sifatida yuqorida ta'kidlab o'tgan fikrimni yana bir ta'kidlab, unga qo'shimcha qilmoqchimman. Har sohada viloyatlararo va davlatlararo ijodiy hamkorliklari, uning yuksalishiga va tez fursatda rivoj topishiga katta ko'mak beradi. Aytmoqchimanki, poytaxt va viloyat qo'g'irchoq teatrlarimiz yanada boshqa davlatlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qoyishsa, o'zaro malaka almashish, yangi innovatsion loyihalar, takliflar va tashabbuslarni o'rganib, ularni o'zimizda tadbir qilishsa, oldimizda turgan muommolarni bartaraf qillishga harakat qilgan bo'lar edik. Bunga misol tariqasida shaxsan o'zim ham joriy yilning 20-25-sentabr kunlari Rossiya federatsiyasi Moskva shahri S.V.Obrazsov teatri ijodkorlari tashkillashtirgan "Istoki" nomi bilan bo'lib o'tgan "Ikkinchi xalqaro qo'g'irchoqlar festivali"dagi ishtirokim vaziyatni yanada teran anglashimga, talabalarga taqdim

qilinadigan ijodiy amaliy ko'nikmalarda tadbiq etishim uchun ibrat namunalari bilan mustahkamlanishimga sabab bo'ldi. Taassurotlar keng va bu jarayonda aktyor sifatida ishtirok etishim qo'g'irchoq teatri maktabining an'anaviy uslublariga qiyosiy tahlil nazari bilan mushohada qilishimga imkoniyat berilgani uchun minnatdorchilik bildiraman. Ishonch bilan ayta olamanki biz yoshlarning mana shunday nufuzli xalqaro festivallarida o'zimizning aktyorlik mahoratimiz sahna nutqimiz bilan ishtirok etishimiz bizning pedagog sifatida shakllanishimizda muhim o'rin tutadi. Qo'g'irchoq teatrida madaniy merosni aks ettiruvchi loyihasida "Silk route marionettes" teatr jamoamiz bilan birgalikda "Ho'ja Nasriddin Afandi" va "Olovuddin va uning sehrli chirog'i" nomli spektakllari namoyish qilib Moskva shahrining kichkintoy tomoshabinlari va ularning ota-onalarini O'zbek qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos ijodiy samaralarini taqdim etishga erishdik. Ko'p millatli xalq bo'lmish Rossiyaning urf-odatlari, bayramlari, an'alarinini saqlaydigan noyob san'at turi bo'lgan qo'g'irchoq teatri sohasida eng samarali saqlanib kelinmoqda. Ushbu festivaldagi qatnashchilar 5 mamlakatdan: Rossiya, Belorusiya, Meksika, Mongoliya va O'zbekistondan kelgan jami 10 ta teatrning spektakllari tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Festival Rossiya va dunyoning turli xalqlarining teatr qo'g'irchoq san'ati maktablarining xilma-xilligini namoyish etadi. Dastur ikki qismdan iborat: asosiysi spektakl namoyishlari , ikkinchi qismi esa, professional qo'g'irchoq teatrlarining yetakchi aktyorlari, rassomlari va rejissyorlarining mahorat darslari bilan. Shuningdek, festival doirasida "Filiallar va ildizlar" xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tadi. Festivalda "Qora daryo qo'g'irchoq dueli" (12+). Petrushkina Sloboda qo'g'irchoq teatri, Mitishi, RossiY. "Morin xur" (12+). Mongoliya davlat qo'g'irchoq teatri, Ulan-Bator, MongoliY. "Konus bayrami" (16+). Irkutsk viloyat qo'g'irchoq teatri. Aistenok, Irkutsk, Rossiya. "Tom tugmachasining hikoyasi " (6+). Gorlov qo'g'irchoq teatri, Gorlovka shahri, DNR, RossiY. "Skif ayollari" (12+). Donetsk Respublikasi Akademik qo'g'irchoq teatri, Donetsk shahri, DNR, RossiY. "Yefrosinya Polotskaya. Muqaddas Litaralar" (12+). Brest davlat qo'g'irchoq teatri, Brest, Belarus Respublikasi. "Kamal Komediylari" (12+). Tatar davlat qo'g'irchoq teatri Ekiyat, Qozon, Tatariston Respublikasi,

Rossiya kabi davlatlar o'zining spektakllari bilan qatnashdilar. Bundan tashqari festival doirasida ikkinchi qismida ma'ruza va konferensiyalar bo'lib o'tdi. Jumladan: "Zamonaviy dunyoda ertak qahramonlarining evolyutsiyasi" ma'ruzasi. Varvara Dobrovolskaya, filologiya fanlari nomzodi, ertakshunos, RGU Slavyan madaniyati institutining umumiy va slavyan san'atshunoslik kafedrasida dotsenti. A.N. Kosgina, "Teatr va muzeylar tajribaning haqiqiylikini izlamoda" Yuliya Bolshakova, Rossiya Federatsiyasining xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, teatr tadqiqotchisi, dotsent (GITIS), ijro san'ati sohasidagi mutaxassis, "Filiallar va ildizlar. Qo'g'irchoq teatri nomoddiy madaniy meros xazinasidir". Konferensiya kuratori Nina Monova, teatrshunos, Rossiya Federatsiyasining xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, adabiy-dramaturgiya bo'limi rahbari. "Teatr va marosim: uzoq o'tmishmi yoki yaqin kelajakmi?". Yevgeniy Avramenko, teatrshunos, teatr tanqidchisi, "Peterburg teatr jurnali", "Seans", "Sahna" jurnallari va boshqa lektoriyalar mualliflari. Festival S.V.Obrazsov teatrning "Frida Kahloni kim o'ldirdi" tomoshasi bilan yakunlandi. Ushbu teatrga mening ikkinchi bor kelishim. Avvalgi yili ham teatrimiz direktori Sh.Pulatova va rejissyor F.Mirzayevlar bilan birgalikda tashrif buyurgan edik. Albatta bunday yuqori saviyadagi festivallar biz teatr ixlosmandlariga katta maktab va yuksak ijodiy eshiklarni ochishda yordam beradi. Festival davomida ijodkor har bir soniyani yuksak ishtiyoq va ko'tarinki ruhda o'tkazadi. Festivalda ishtirok etayotgan teatrlar spektakllarini har bir ijodkor o'zining bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muhokama va mushohada qila boshlaydi. Ulardan nimalardir o'rganishga, o'zlashtirishga harakat qiladi. Solishtiradi. Bu albatta juda muhimdir. Teatr ijodkorlari uchun gastrol safari uning tajribasini yanada boyitishga, mustahkamlashga, uning qo'g'irchoq boshqarish texnikasidan tortib, jamoa bilan spektakl atmosferasini his qilishini yanada mustahkamlaydi va yuksaltiradi. Albatta, xorijda yurtimizning bayrog'i, obro'-etibori va sha'ni nomidan o'ynaladigan spektakl davomida kuchli his-hayajon bo'lar ekan. Shaxsan o'zimda kuzatildi: "Olovuddin va uning sehrli chirog'i" spektaklida "Jin" obrazini qariyb uch yildan buyon o'ynab kelaman. Undagi har bir xatti-harakat, so'zlar, mezansahnalar va spektakldagi barcha ishlar yod bo'lib ketgan.

Ammo spektakl paytida hayajondanmi? Yoki kuchli ma'suliyatdanmi? Bir nechta kichik xatoliklarga yo'l qoydim. Nafaqat men, sakkiz-o'n yildan buyon ushbu spektaklda rol o'ynab keladigan, ko'p yillik tajribaga ega aktyorlar ham kichik xatoliklarga yo'l qoydi. Shu bilan biz o'zimizni kamchiliklarimizni, nuqsonlarimizni va teatrimizning salbiy jihatlarini anglab yetishga muvaffaq bo'ldik, desam yolg'on bo'lmaydi. Ushbu festival doirasida bizning teatr jamoamizni S.V.Obrazsov teatri binosini ekskursiya qildirdilar. Teatrdagi ijodiy sahnalarning ko'pligi ya'ni, kichik, o'rta va katta zallarga egaligi bizni hayratda qoldirdi. Har bir sahna instruktorlar va quruvchilar tomonidan aynan qo'g'richoq teatrlari uchun moslashtirilganligi alohida ahamiyatga ega. Besh kun davomida o'tkazilgan festivaldan teatr jamoamiz katta mahorat maktabi, malaka, tajriba va kerakli ma'lumotlarga ega bo'lib qaytdik.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, mana shunday xalqaro festival, konferensiya va do'stlik aloqalari teatrlarimiz uchun juda foydali va kerakliligi bilan alohida hamiyatga ega. Teatr tashkilotchilariga shuni tavsiya etib qolardimki, o'zbek milliy urf-odatlarini, musiqalari, liboslari va bizning milliylikimizni tarannum etuvchi spektakllarni jahon sahnalariga olib chiqish haqida ko'proq qayg'ursalar va shu bilan ko'proq mashg'ul bo'lsalar o'zbek teatr san'atini yanada rivojlantirishga, dunyoga tanitishga juda hatta hissa qo'shgan bo'lgan edilar. Bu har bir O'zbekiston fuqarosining burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *Кириллова Е.И., Латышева Н.А. Сценическая речь в кукольном театре. Санкт-Петербург.: 2014*
2. *Nosirova A. "Sahna nutqi" darsligi. "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti. T-2013 yil*
3. *Xolikulova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubi. -Toshkent. 2015 yil.*
4. *Xoliqulova G. Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida) –Toshkent: TDSI, 2007 yil.*
5. *Xoliqulova G. Oliy ta'lim muassasasi pedagog-rahbarlari kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari. – Toshkent: "Donishmand ziyosi" 2023 yil.*
6. *Xoliqulova G. Sahna nutqi fanini o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Donishmand ziyosi" 2023 yil.*
7. *Yusupov. Sh bilan bo'lgan ilmiy suhbatdan. 13-iyun, 2023-yil.*
8. *Ashurova M. bilan bo'lgan ilmiy suhbatdan 8-may, 2023-yil.*

ЗАРОЖДЕНИЕ РИТОРИКИ И ИСКУССТВО РЕЧИ

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadimgi Yunonistonda ritorikaning paydo bo'lishi, ilm-fan qanday qilib ishontira olishi haqida gap boradi. Yunonistonda ritorik tayyorgarlik ta'limda deyarli asosiy edi. Zamonaviy dunyoda aktyor, ma'ruzachi, o'qituvchi, o'qituvchi – ovozli nutq bilan harakat qilishni istagan har bir kishi — nutq ovozi bilan ataylab ma'lum bir hissiy va ixtiyoriy reaksiyani uyg'otishni o'rganishi kerak.*

Kalit so'zlar: *san'at, ritorika, notiqlik, nutq madaniyati, so'zning kuchi va go'zalligi, sahna nutqi, fikrlash, muloqot, ta'lim, idrok, idrok, til, qabul, dialog.*

Аннотасия: *В этой статье говорится о зарождении риторики в Древней Греции, как науке уметь убеждать. В Греции риторическая подготовка была чуть ли не главной в образовании. В современном мире актер, оратор, учитель, лектор – всякий, кто хочет воздействовать звучащей речью — должен научиться преднамеренно вызывать звучанием своей речи определенную эмоциональную и волевою реакцию.*

Ключевые слова: *искусство, риторика, ораторское мастерство, культура речи, сила и красота слова, сценическая речь, мышление, общение, воспитание, познание, восприятие, язык, приём, диалог.*

Annotation: *This article discusses the origins of rhetoric in Ancient Greece as a science of persuasion. In Greece, rhetorical training was almost the most important in education. In the modern world, an actor, speaker, teacher, lecturer - anyone who wants to influence with speech - must learn to intentionally evoke a certain emotional and volitional reaction with the sound of their speech.*

Key words: art, rhetoric, oratory, speech culture, the power and beauty of words, stage speech, thinking, communication, education, cognition, perception, language, reception, dialogue.

Многие принципы правильной и хорошей речи разрабатывались древнегреческими учеными, философами и политическими деятелями. В наше время предмет риторики и предмет культуры речи, а также практической стилистики во многом совпадают, но в чем-то и расходятся. Особое речевое мастерство, ораторское искусство, мастерство судебных речей, образы высокой публицистики, искусство полемики, коммуникативные стратегии (методики успешной коммуникации, особое искусство межличностного общения) – все это принадлежит риторике.

Риторика ведет свое начало из Древней Греции (V в. до н.э.) и зародилась она из практики – из опытов публичной речи перед огромной аудиторией. Это были речи политических деятелей, военачальников, уважаемых, авторитетных граждан. Все объясняется уникальным государственным устройством древней Эллады: она представляла собой не единое государство, а совокупность нескольких общин (города-государства). Чтобы привлечь на свою сторону народ, надо было говорить особенно убедительно, с помощью слов подать свои идеи в привлекательном виде. Особенно была видна роль ораторского искусства в судопроизводстве.

Естественно, что в выгодном положении оказывались тот, кто обладал даром слова и мог привлечь слушателей на свою сторону. *Поэтому риторика и возникла как наука убеждать.* Эта наука имела не чисто языковой характер, как например, современная стилистика. Риторика была неотделима от логики и философии в целом. Вед убеждает значит находит наиболее сильные доводы, умет пользоваться аргументами, — значит, *это искусство рассуждать, мыслить.* Практика политических, судебных и других речей породила необходимость учиться говорить, породила школу «риторов» – мастеров публичной речи и теоретиков красноречия. Так появились различные

риторические школы. Они спорили между собой, поскольку основывались на разных принципах, философских позициях.

Первые попытки создать учебник риторики относятся к до н. 104 э., но настоящий рассвет риторики как науки связан с именем Аристотеля. В его трудах находим и философские и лингвистические основы риторики. Но это уже позже, а начиналось все с софистов. Софисты представляли самую известную и популярную школу риториков. Эта школа сложилась во второй половине V в. до н. э. в Афинах. Это были философы-просветители, проповедовавшие культ *слова*, но они учились и законам логики, искусству спора. Общественная жизнь в Афинах была такова, что учиться красноречию приходилось и просто гражданам, а не только полководцам или политикам.

В Греции было принято, чтобы все социально активные граждане владели словом, риторическая подготовка была чуть ли не главной в образовании. Считается, что именно софисты заложили основы риторики как науки об ораторском искусстве. Для софистов определяющим принципом (впоследствии оспариваемым другими философами) был такой: *цель оратора - не раскрытие истины, а убедительность.*

Первое, что очень важно, это утверждение софистами силы слова. Вот яркое высказывание софиста Горгия: «Слово есть великий властелин, который, обладая весьма малым и незаметным телом, совершает чудеснейшие дела. Ибо оно может и страх изгнать, и печаль уничтожить, и радость вселить, и сострадание пробудить» («Похвала Елене»). Софисты отстаивали принцип речевого мастерства – *красоты слова*. Поэтому школа софистов – это школа *красноречия*. Оно вправе, по их учению, превалировать над содержанием. *Красноречие может из малого сделать большое и из большого малое. Достичь речевого мастерства можно упорным трудом. Учеба красноречию предполагает много усилий. Софист Протагор писал: «...труд, работа, обучение, воспитание и мудрость образуют вены славы, который сплетается из светов красноречия и возлагается на головы тем, которые его любят.*

Труден, правда, язык, но его цветы богаты и всегда новы, и рукоплещут зрители и радуются учителя, когда ученики делают успехи...».

Софисты признавали право оратора воздействовать на душу того, к кому обращена речь: словом можно вызвать и гнев, возмущение, и сочувствие, прощение. Одну и ту же вещь нужно уметь и восхвалять и порицать. Софисты были не только риториками, но и философами, и логиками, иногда и математиками, широко мыслящими людьми, часто совмещающими преподавание риторики с другой деятельностью (как правило требующее риторической практики – дипломатия, государственная деятельность).

Цель общения между людьми и цель речи – поиски истины, которая заключена в предмете речи и может быть найдена. Отсюда и иные требования к самой форме речи: она не должна быть витиеватой, ее достоинство – краткость и ясность. Для такой риторики главная форма – диалог, потому что поиск истины – это спор. Чтобы спор был честным, ответ должен соответствовать вопросу, а новый вопрос продолжать мысль собеседника.

Актер, декламатор, оратор, учитель, лектор – всякий, кто хочет воздействовать звучащей речью, — должен путем систематических наблюдений осознать выразительное значение отдельных факторов речевого звучания и целостных фонетических стилей, должен научиться преднамеренно вызывать звучанием своей речи определенную эмоциональную и волевою реакцию.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Волков, А. А. Основы русской риторики. - М., 1996. Выдержки из вводных разделов.
2. Культура русской речи. Учебник для вузов. - М.: НОРМА, 2000.
3. (Бернштейн, С.Н. Языковая сторона радиолексии./ Речевое воздействие. - М., 1972).

AKTYORLIK MAHORATINING TAKOMILLASHISH JARAYONIDA SO'ZNING QUDRATI

Annotatsiya: *Aktyorning shaxs sifatida kamolga yetishi kechinma san'atiga erishish ijodkordan aktyorlik mahorati va sahna nutqi ta'limini chuqur o'rganish talab qiladi. Ushbu maqolada aktyorning obraz yaratishda eng muhim jihatlardan biri so'zning qudrati borasida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Aktyor, so'z, nutq, rol, matn, ijod, sahna, obraz, qobiliyat, aktyorlik mahorati.*

Annomasuya: *Развитие актера как личности для достижения художественного опыта требует от творца глубокого изучения актерского мастерства и сценического речевого образования. В данной статье рассматривается сила слова, один из важнейших аспектов создания актерского образа.*

Ключевые слова: *актёр, слово, речь, роль, текст, творчество, сцена, образ, способности, актерское мастерство.*

Annotation: *The development of an actor as a person to achieve artistic experience requires the creator to deeply study acting and stage speech education. This article examines the power of words, one of the most important aspects of creating an actor's image.*

Key words: *Actor, word, speech, role, text, creativity, stage, image, abilities, acting skills.*

Sahnada rol ijro etuvchi jonli shaxs bu aktyordir. U barcha tomoshabinlar ko'z o'ngida o'zidagi mavjud bilim va mahoratni imkon qadar namoyish etuvchi san'atkordir. Aktyor teatr jamoasi orasida mavjud iqtidor va qobiliyatini ishga solib, sahna asarining butun mazmun mohiyatini ko'pchilik ongiga yetkazuvchi faol shaxs hisoblanadi. Sahnada qo'yiladigan har qanday asarning hayotiyliigi, dolzarbliigi, milliyliigi, zamonaviyligi (yoki tarixiyliigi) mazmun-mohiyati va boshqa jihatlari asosan aktyorning bilim va iqtidoriga bog'liq bo'ladi. Ayni vaqtda har bir san'atkor o'zidagi individual qobiliyat va iqtidor evaziga tomoshabin mehrini qozonuvchi shaxsdirki, buni ham yodda saqlash lozimdir. Teatr sintetik san'at. Shunday ekan, har bir aktyor sahnaga chiqishidan avval, tomoshabin oldida rol o'ynashdan oldin o'zini sahnadagi jamoadoshlari bilan uzviy mushtarakligiga, uyg'unligiga ruhan

tayyorlashi kerak bo‘ladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, mazkur xolatni futbolchilarga nisbatan aytsa ham bo‘ladi. Chunki, futbolchilar ham maydonga (o‘yinga) chiqsa, albatta, jamoadoshlari bilan bir-birini tushungan holda o‘ynashi lozim bo‘ladi. Aks holda ko‘zlagan natijaga erisholmaydi.

Shu o‘rinda bir jixatni xam ta’kidlash lozimdir. Har bir sahna asari eng avval rejissyor qo‘lidan o‘tadi. Mazkur asarni sahnaga chiqish-chiqmaslik taqdiri, albatta rejissyor hukmiga bog‘liqdir. Rejissyor asarni bir necha marta puxta va kerakli o‘rinlarini belgilaydi, ya’ni aniqlaydi. Sahnada imkoniyatini chamalaydi va shundan so‘ng aktyorga rol taqsimlaydi. Rejissyor teatr jamoasidagi har bir aktyorning shaxsiy qobiliyati, yoshi, So‘zga chechan yoki chechan emasligi, yuz tuzilishi va boshqalarga xam e’tibor qaratadi.

Rollar bo‘lib berilgan har bir aktyor asar matni bilan to‘liq va mukammal tanishib chiqqach o‘z roli ustida ishlashni boshlaydi. Shu kundan boshlab aktyor xayotida faol ish davri mas’uliyatli onlar boshlanadi desak adashmaymiz. Chunki, ana shu laxzalardan kelgusida tomoshabinlar huzurida go‘yo imtixon topshiruvchi talaba singari ishga kirishadi. Mazkur jarayonda aktyorlar asarda ta’kidlanganidek, barcha harakat va holatga hamda nutq elementlariga keragicha e’tibor qaratadiki, bu har bir aktyorga o‘z-o‘zidan ma’lumdir. Aktyor o‘z ustida ishlashning dastlabki davrlaridan boshlab So‘zga alohida ma’suliyat bilan yondoshishi juda muhim hisoblanadi.

Xo‘sh, aktyor nima uchun So‘zga bunchalik ma’suliyat bilan yondoshadi? Sahnada So‘zning ahamiyati yoki o‘rni, bahosi shunchalik muhimmi? Qolaversa, sahnada So‘zlashdan tashqari qancha-qancha harakat, holat va boshqa jihoz-bezaklar ham mavjudku! Juda to‘g‘ri ta’kid! Sahnada talaygina narsalar mavjud bo‘ladi. Mavjud bo‘lganda ham hammasi kerakli va zarur ashyolardir. Biroq sahnada qanchalik kerakli va zarur ashyolar bo‘lmasin, ularning hech qaysisi So‘zning o‘rnini bosa olmaydi, So‘z qalb qo‘ridan otilib chiqqan. So‘z oldida ular hech qanday qiymatga ega emas. So‘z alohida olam, hayotning har bir jabhasida betakror o‘zligini namoyon qiluvchi qudratli vositadir.

Xo'sh, asar sahna yuzini ko'radigan kun ham keldi deydik. Undan so'ng nima bo'ladi? Javob aniq: asar teatr jamoasi tomonidan sahnaga olib chiqiladi. Ana shu kundan e'tiboran aktyor hayotida o'zgacha bir kayfiyat boshlanadi, ya'ni ma'suliyati oshadi. O'sha kundan e'tiboran aktyorlar sahnada har kuni sinov va imtihonlar topshiradi, tomoshabin bilan jonli uchrashuv ularda ma'suliyatni bir necha barobarga oshirib yuborishi mumkin. Ana shu ma'suliyat birinchi navbatda aktyor nutqiga, ya'ni So'zga qaratiladi. Yuzlab tomoshabin oldiga chiqadigan aktyor, avvalombor, So'zga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Aktyor sahnaga faqatgina asardagi matn yoki dialog-monologlarni yodlab chiqmaydi, balki, har xil holat va harakatlarga ham tayyorgarlik ko'rib chiqadi. So'z san'ati san'atlar ichida eng buyugi bo'lishi barobarida barcha joyda juda katta va ulkan vazifalarni bajaradi. Xuddi, shuningdek, aktyor ijrosida sahnada ham o'ziga yuklatilgan vazifani (aktyor qobiliyatli bo'lsa) qoyilmaqom qilib bajaradi. Buning uchun iqtidor, iqtidor va yana iqtidor bo'lishi lozim bo'ladi. Shu o'rinda "nega" degan savol tug'ilishi tabiiy. Sababi, So'zning mo'jizaviyligi, uning qudrati, sehru jozibasi va boshqa jihatlari ziyrak aktyorni So'z ustida qayta-qayta mehr bilan, sabot bilan ishlashga da'vat etadi. Bu ma'suliyat, g'ayrat, shijoat, imtihon va natijadir. Shu o'rinda tag'in yana bir jihatga e'tibor qaratish lozimki, rejissyor har bir aktyorning ovoz kuchi, ya'ni ovoz diapozoniga ham e'tibor beradi. Ovozi past yoki yoqimsiz shaxs hech qachon yaxshi aktyor bo'la olmaydi. Teatrda sahnadan tashqari yuzlab tomoshabinni o'z bag'riga sig'diruvchi zal ham mavjud bo'ladiki, teatr jamoasi (eng avval rejissyor), albatta bu bilan hisoblashishga majburdirlar. Xuddi sportchilar singari aktyorlar ham o'z nutqi, ovozi, tanasi ustida tinmay ishlashlari kerak. Chunki, So'zdan So'zning farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor, degan gap ham bekorga aytilmagan.

Shu o'rinda yana bir jihatga e'tibor berish lozimdir. Sahnada faqat monolog, dialog yoki ko'p kishilik suhbat emas, balki she'r o'qish, she'riy asarni yoddan aytish zarurati tug'ilib qolishi ham mumkin. Aktyorlar bunga ham alohida tayyorgarlik ko'rish kerak. Chunki, she'riy nutq nasriy yoki oddiy nutqdan katta farq qiladi.

Sahnada aktyorning So‘zga munosabati va ma’suliyati haqida gap ketar ekan, aktyorlar, albatta, shevaga doir, kasb-hunarga doir, tarixiy yoki qadimiy So‘zlarga doir yoki tilimizga yangidan kirib kelgan So‘zlarga oid yo‘l-yo‘riqlar va boshqalarga ham e’tibor berishi lozim bo‘ladi. Chunki, hayotning turfa rangligi, So‘zlar olamining shunga mos ravishda doim yangicha rang-baranglik kashf eta borishi hozirgi kunda hech kimga sir emas.

Umuman olganda, sahna – madaniyat maskani, ulug’ dargoh! Shunday ekan har bir aktyor, har bir san’atkor ushbu qutlug’ dargohga loyiq bo‘lishi shart. Chunki, har bir joy-maskanning o‘z tartib-odobi bo‘lgani kabi sahnaning ham o‘z o‘lchov, mezon, meyori mavjudki, bunga har bir aktyor-san’atkor amal qilishi lozim bo‘ladi. Ushbu vaziyatda aktyorlarga doim ham oson bo‘lavermaydi, chunki, rol ijro etuvchi shaxs-aktyor vaqt, vaziyat, harakat, tomoshabin bilan doim hisoblashgan holda o‘ziga yuklatilgan, topshirilgan So‘z-gap-fikrni aytishi aslo hazil ish emas. Bu ko‘pchilik-omma oldida yuksak ma’suliyatdir. Ana shu ma’suliyat aktyordan doim uyg‘oq va ziyrak bo‘lishni, o‘z ustida tinmay ishlashni, tilga va ilohiy So‘zga mehr-muhabbat ila alohida munosabatda bo‘lishni talab etadi. So‘z ohangi, So‘z jozibasi, So‘z qudrati yoki go‘zalligi haqida gap ketar ekan, birgina “assalom” yoki buyruq ohangidagi “jallod!” So‘zlarini taqqoslab ko‘rishni maslahat berar edik.

O‘z-o‘zidan ayonki, birinchi So‘z – “assalom”da bitmas-tuganmas mehr-mayinlik mavjud bo‘lsa, “jallod!”da o‘ta vahshiy qahr-g‘azab, dahshat va yana allaqanday qo‘rquvga oid boshqa salbiy hissiyotlar paydo qiluvchi unsurlar mavjuddir. Shuning uchun ham, sahna ustalari bo‘lgan aktyorlar ezgulikni yovuzlikdan, yaxshilikni yomonlikdan, savobni gunohdan, halolni xaromdan farq qiluvchi tomoshabinlarni insonga va hayotga nisbatan go‘zallik va mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash borasida tengsiz kuch-qudratga ega bo‘lgan So‘z kuchidan foydalanishni o‘zlariga dasturil-amal qilib olgan bo‘lsa ne ajab!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *K. S. Stanislavskiy. Saylanma. 3 t, M. 1955 yil.*
2. *Usmonov R. Rejissura. – T.:1997*
3. *Lenard Petit.Forthe Actor (“Aktyor uchun” Aktyorlik texnikasi). – Taylor & francis:- 2009*
4. *J. Maxmudov. Aktyorlik mahorati. O‘zDSMI 2006 yil.*

Ijrochilik san'atida nutqning o'rni va ahamiyati

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, san'atkor nutqi jamiyatda nutq madaniyatini qanday shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi, nutq texnikasi boyicha va tilga e'tibor berish har jihatdan dolzarb masala hisoblanishi boyich qisqacha fikr va mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Kommunikativ, hunarmand, plastika, majoz.*

***Аннотация.** В этой статье дается краткий обзор того, насколько важна речь исполнитель в формировании речевой культуры в обществе, и насколько актуальными во всех отношениях являются речевая фокусировка и языковое внимание.*

***Ключевые слова:** коммуникативный, ремесленный, пластический, метафорический.*

***Annotation.** This article provides a brief overview of how actor speech is important in shaping speech culture in society, and how speech focus and language attention are topical issues in all respects.*

***Keywords:** communicative, artisan, plastic, figurative.*

Jamiyatda har bir ijtimoiy qatlam, tabaqa yoki toifaning o'ziga xos yashash tarzi, saviyasi, dunyoqarashi, fikrlashi, g'ururi, kayfiyati, jamiyatdagi vazifasi bo'ladi. Bu masala bilan tarixda ko'pgina allomalar shug'ullangani bizga ma'lum albatta. Bu kabi toifalanishda insonlarning birinchi ko'zga tashlanib turadigan jihati ularning tili va nutqida namoyon bo'ladi. Bizningcha, qator fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, biroq nutqiy kamolatga erisha olmagan odamni shakllangan inson toifasiga kiritish biroz qiyin. Chunki, til insonning madaniy va ma'naviy darajasini uning o'zi yashab turgan borliqqa: tabiatga, jamiyatga munosabatini aks ettiruvchi ko'zgudir. Masalan, hayotda o'z nutqlari ordali tilimizga sayqal beruvchi oddiy shaxslar bilan birga unga (ya'ni tilga) e'tiqodsiz va e'tiborsizlik bilan yondashuvchi til egalarini yoki o'zlarini yetuk inson; qomusiy alloma deb biluvchi ziyolilar qatlamini ham kuzatamiz.

XX asr boshlariga kelib dunyoning barcha borliq narsalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgargani kabi so'z san'atiga nisbatan ham qarashlar o'zgardi. Endi uni *tabiatga taqlid* (Arastu), *obektiv borliqning subektiv ifodasi* (Hegel), *kishilar o'rtasidagi tuyg'u yetkazish vositasi* (L.Tolstoy) deb bilishlik bilan

cheklanmay soʻzning kommunikativ imkoniyatlarini birinchi navbatga olib chiqishlar boʻldi. Garchi oʻzbek shoirlari tilni *“vositai robitai olam miyondir”* (Avaz) deb atagan boʻlsa—da, Gʻarbdagi mavjud qarashlar oʻzbek nazariy tafakkuri tarziga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qoymadi. “Tanglayi mumtoz adabiyot anʼanalari asosida koʻtarilgan” professor Abdurauf Fitrat ham dastlabki asarlarida soʻz sanʼatining qimmatini uning hissiy quvvatidan izlagan boʻlsa, 20-yillarning oʻrtalariga kelib oʻz qarashlarini ovroʻpacha andozalarga sola boshladi. Bu esa sanʼat sohasida ham, xususan teatr sanʼatida oʻz ifodasini koʻrsata boshladi.

Biz bilamizki, sahna sanʼatida qahramonlarning fikran toʻqnashuvlarida, muddaoga erishish uchun kurashda soʻz sanʼatkorning asosiy qurollaridan biridir. Koʻzlangan maqsadni amalga oshirishda soʻzning maʼnosi aniq va taʼsirchan boʻlmogʻi lozim. Shu bois ijrochilik sanʼatida sanʼatida soʻzga katta masʼuliyat bilan qarash talab etiladi. Masalan teatr sanʼatida “Dramatik asar uchun sahnaviylik muhim boʻlganidek, sahna nutqi uchun ham asosiy shartlardan biri boʻlib, soʻz harakatini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir sanatkor ijrochining nutqi uning ruhiy va jismoniy holatining natijasidir”. shu kabi asoslarda, sanʼat ijrochidan tinimsiz mehnat, oʻz ustida ishlashni talab qiladi. Bu mehnatni ijrochi bilim va aql-idrok orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, sahnaviy ijrochilik tabiati oʻzining kuchli va asoslangan qonun-qoidalariga ega.

Har bir asar ustida ishlaganda ijrochi oddiy qiziqish yoki taxminlarga emas, aynan ijrochilikda sinalgan usullarga tayanishi kerak. Shundagina u muvaffaqiyatlarga erishadi. Sahna nutqi qonuniyatlarini oʻrganishda oylaymizki, talabalar azaliy bir taʼrifga eʼtibor berishlari shart. Unga koʻra, sanʼatkor ovozi yaxshi charxlangan, tiniq talaffuzga ega va nutq madaniyati talab-qoidalariga toʻla javob bera olsa, demak, u soʻzlashuv munosabatida tayyor mutaxassis hisoblanadi. Bundan tashqari, nutq madaniyati texnikasini ham amaliy tarzda toʻlaqonli egallashi zarur. Koʻpchilik ijodkorlar orasida, “Agar sahnada sanʼatkor organik xatti-harakatni toʻgʻri bajara olish xususiyatiga ega boʻlsa, u holda qolgani sahnada oʻz-oʻzidan sodir boʻladi”, degan fikr mavjud. Biroq, unutmazlik lozimki, sahnada partnyorga taʼsir oʻtkazish uchun, avvalo, soʻzlarni toʻliq va adabiy til

qonuniyatlariga muvofiq talaffuz etish zarur. Xatti-harakatning aniq maqsadga yo'naltirilgani, mantiqiyliги esa ifoda qilinayotgan nutq urg'ulariga ta'sir etib, ovozga va tovushga kerakli sayqal beradi. Nutq sahna ijrochisining asosiy quroli va u sahnada aynan mana shu qurolga tayanadi. Ba'zi san'atkorlar nutqidagi nuqson va kamchiliklarni yo'qotish uchun quyidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: 1) unli va undosh birikmali so'zlar; 2) tez aytish; 3) ertaklar; 4) hikoyalar; 5) kichik she'rlar.

San'atkorni san'atkor bo'lib yetishishida yana bir muhim narsalardan biri bu tasavvur va fantaziya. Tasavvur va fantaziya ishga solish, avvalo, ijrochini kelajakda professional teatr sahnasida turli xil xarakterlar yaratishida muhim o'rin tutadi. Chunki bo'lajak ijrochining tasavvuri uning ilk qadamidanoq ijrochilik mahoratida nutqiy vositalarning o'rni kengayib borishi kerak. Fantaziya ham tasavvur bilan birga mashqlar yordamida, qolaversa, xalq ertaklarini ko'plab o'qish bilan o'stirib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. K.S. Stanislavskiy fikriga ko'ra "hunarmand ijrochi umumijrochilik nutqi va plastikasining vazifasi og'zaki ovozni, diksiyani va harakatlarni oliyjanob qilish, ularni chiroyliroq ko'rsatish, sahnaviy effekt va obrazli ifoda ta'sirini kuchaytirishdan iborat. Ijrochining hunarmandga xos nutqi va plastikasi, ko'r-ko'rona effektga, soxta olijanoblikka olib keladi, bulardan faqat teatrga xos bachkana go'zallik kelib chiqadi. Shartli shtamp kechinmaning o'rnini bosolmaydi. Yana shunisi yomonki, shtamp yelimday yopishqoq, ajratib bo'lmaydi."¹⁴

Yangi davrda teatr san'atida ham ijodiy izlanishlar kuchayib, teatrlar o'z faoliyatini xalqimiz ijodida va jahon san'atida mavjud uslublar va oqimlar asosida qurish, realistik uslubdan tortib, majoziy va mistik tasvirgacha bo'lgan rang-barang vositalarni qo'llash yo'lidan bormoqda. Mumtoz asarlarni sahnalashtirishda an'anaviy yechimlardan qochib, erkin talqin etish (tabdil uslubi, majoziy-falsafiy yechim kabi) butun bir yo'nalish tusini oldi. Tarixiy mavzuni ishlashda chinakam

¹⁴ К.С.Станиславский, Актёрнинг ўз устида ишлаши. Тошкент «Янги аср авлоди»2011, 27-бет

uygʻonish yuz berdi. Zamonaviy mavzularni tadqiq etishda dramaturglar va teatr jamoalari hayotning barcha jabhalariga tobora chuqurroq kirib borgan holda maishiy yechimlardan dolzarb ijtimoiy, maʼnaviy-axloqiy muammolarni koʻtarib chiqishga dadil kirisha boshlaganlarini va bunda badiiy soʻz, xususan oʻzbek tili imkoniyatlaridan ham keng foydalanilayotganligini koʻrish mumkin.

Biroq, badiiy soʻzni his qilish masalasi ikki tomonlama ekanini anglash kerak. Biri ijrochilar jamoasiga daxldor boʻlsa, ikkinchisi tomoshabinlarga aloqadordir. Chunki, badiiy soʻz mohiyatini tomoshabin inkor etib taʼsirlanmas ekan, ijrochining qancha bilishi va amalda qoʻllay olishi ham ahamiyatsiz boʻlib qolishi tayin. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini tomoshabin ham ilgʻamas ekan mantiq buzilishi tabiiy. Shu boisdan ham sahna tili va sahna nutqi oddiy maishiy nutqdan sifati va taʼsir kuchi bilan ajralib turadi. Toʻgʻri nafas olmaslikning ovozga ham taʼsir qilishi tabiiy. Fikrning tasdigʻi, muhri shubhasizki, yuz-koʻzdagi imo ishoralar va qoʻl harakatlaridir. Boshqacha aytganda, bu tana tili bilan tushuntirish demakdir. Shu oʻrinda “qoʻllar fikrni toʻldirishini” (K.Stanislavskiy), “qoʻllar inson tanasining koʻzlari”(Yevg. Vaxtangov) ekanligini unutmaslik kerak. Albatta, bir tomondan qaraganda, ijrochi nutqida bu mulohazalar nooʻrindek tuyuladi. Notiq nutqida buni qabul qilish mumkin. Chunki, noverbal vositalarsiz u nutq taʼsirini toʻla ifoda eta olmaydi. Ijrochi nutqida u oʻzini emas oʻzgani oʻziga aylantirib, oʻzini oʻzgaga aylantirib ijro etadi. Soʻz, harakat va ruhiy holatga kirishilganda, his etganda ijrochi noverbal vositalarni ixtiyorsiz tarzda qoʻllaydi. Qizigʻi, bir ijrochi muayyan holatda oʻz dublyorini oʻsha holatdagi noverbal vositalarni qoʻllamasligi ham mumkin. Bir ijrochiga shu holat, xatti-harakat yarashishi dublyoriga esa yarashmasligi mumkin. Ular har bir obrazga oʻz nazari, oʻz gavda tuzilishi, oʻziga xos noverbal vositalarni qoʻllashi bilan yondoshadi. Barchasida tomoshabinning nigohi, qabul qilishi muhim mezon sanaladi

Shu oʻrinda aytish kerakki, ijrochi nutqi va notiq nutqi borasida ham chalkash, bir biriga zid fikrlar ham yuradi. Ularning mushtarak va farqli jihatlarini eʼtirof etgan holda, taʼbir joiz boʻlsa, shunday taqqosni keltirish oʻrinlidir. Notiq nutqi va sahna (ijrochi) nutqi taʼsirchanlikni taʼminlashda har ikkalasi bir-birini toʻldiradi, boyitadi.

Lekin birida ijod, ikkinchisida ijro muhim rol oynashini yodda tutish kerak. Avtobus va tramvayni ko‘z oldingizga keltiring. Avtobusni boshqarishda rulni o‘ng-u so‘lga burib harakatlantirish, qayrilish mumkin. Tramvayni esa yotqizilgan temir yo‘li(rels) va ustidagi elektr manbai(simlarisiz) uning harakatini tasavvur qilish mushkul. Faqat harakatning sekin va tezligigina, uning izmida. Notiq nutqi avtobus haydovchisiga, ijrochi nutqi esa tramvay boshqaruvchisiga o‘xshaydi.

Ma’lumot o‘rnida aytadigan bo‘lsak, qadimgi rimliklar, yunonlarning “Ommaga non va tomosha bering” degan mashhur iborasi adabiy-ilmiy manbalarda ko‘p bor keltiriladi. Bu uning moddiy va ma’naviy ehtiyojini qondirish zarurligini bildiradi. Shu o‘rinda qanday non va qanday tomoshani qanday usulda berilishi maqsadga muvofiq degan masala ko‘ndalang turadi. Bugungi kunda yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti ekan, teatr san’ati ham bu borada o‘zining munosib hissasini qo‘shishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. *Alimjonova Z. Sahna nutqi. - Toshkent., Fan, 2005-yil*
2. *Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. - Toshkent., 2005-yil*
3. *K.S. Stanislavskiy. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. Yangi asr avlodi, toshkent. 2011-yil*
4. *Muhsin Qodirov. O‘zbek teatri tarixi. “Ijod dunyosi” nashriyoti. Toshkent. 2003-yil*
5. *Wikipediya.uz sayti.*

Yusup Mannonov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona - axborot faoliyati" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Kutubxona-axborot faoliyatida nutq madaniyati va notqlik san'ati

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kutubxona – axborot faoliyatida nutq madaniyati va notqlik san'ati mohiyati, nutqning turlari, nutq madaniyatining shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari, nutqqa qoyiladigan talablar, unga riyoya qilish haqidagi fikr mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Kutubxona- axborot faoliyati, nutq madaniyati, notqlik san'ti, voizlik, ya'ni va'zxonlik.

Аннотация: В данной статье описываются сущность речевой культуры и ораторского искусства в библиотечно-информационной деятельности, виды речи, формирование речевой культуры, ее особенности, требования к речи, а также мнения по ее реализации.

Ключевые слова: библиотека – информационная деятельность, культура речи, ораторское искусство, проповедь.

Abstract: In this article, the nature of speech culture and the art of oratory in the library-information activity, the types of speech, the formation of speech culture, its characteristics, the requirements for speech, and the opinions on its implementation are described.

Key words: Library - information activities, speech culture, oratory art, preaching, that is, preaching.

Milliy madaniyatimizni rivojlanishida, Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishda kutubxonalarning roli beqiyosdir. Kutubxonalar ma'naviy-ma'rifiy muassasa bo'lib, aholini axborotga bo'lgan talabini qondirish, jamiyatda mutolaa madaniyatini uksaltirish, komil insonni tarbiyalashda bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Mutola madaniyatining negizi bo'lmish nutq madaniyati umumiy madaniyatimizning ajralmas qismidir.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Nutq - (arabcha) fikrni soʻz orqali ifodalash degan maʼnoni anglatadi. Nutqning ogʻzaki va yozma turlari mavjud. Ularning har biri oʻziga xos xususiyatlarga, oʻz yoʻnalishlariga ega. Ogʻzaki va yozma til - bu odamlar orqali bir - biri bilan aloqa qilishning ikki shakli. Ogʻzaki nutq odamlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi (ogʻzaki nutq, suhbat, baxs-munozara va b.). Yozma nutq esa audiovisual texnika vositalari orqali nomayon boʻladi (radiyo-televedeniya, ovozli bositalar va b.). Bunda aloqa jarayonida ishtirok etadigan barcha shaxslarning shaxsiy ishtirokini talab qilmaydi.

Nutq madaniyati avvalo, toʻgʻri, adabiy til meyorlariga amal qilgan holda soʻzlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, soʻz shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa boʻlib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bogʻliq holda taraqqiy etadi. Jamiyat aʼzolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va meʼyorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, sanʼat, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida oʻrni bor. Ayniqsa, adabiy tilni meʼyorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, oʻquv va boshqa maxsus lugʻatlar muhim ahamiyatga ega.

Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyatini oʻz ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq oʻzbek adabiy tilining nutq madaniyati va uning oʻziga xos meʼyorlari boʻlgan. Alisher Navoiy oʻzining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan oʻz davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qoʻshgan boʻlsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham oʻsha davr tili va nutq madaniyati maʼlum darajada aks etgan. “Yaxshi soʻz - jon ozigʻi”,

“Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, “O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir”, “Har neni yemak - hayvonning ishi, har neni demak - nodonning ishi” kabi maqol va hikmatli so‘zlarning paydo bo‘lishi ham o‘zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e‘tibor kuchli bo‘lganidan darak beradi.[1.3]

Nutq madaniyati hozirda Kutubxona-axborot faoliyati xizmatida dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki, kutubxonachi bevosita nutq madaniyati orqali foydalanuvchi - kitobxonlarga xizmat qiladi. Ish yig‘ilishlari o‘tkazishda forumlar tashkil qilishda, onlayn aloqalarda aniq va ifodali nitq orqali axborotlarni etkazishlari muhimdir. Chunki notiqlik san‘ati sirlarini bilish, o‘rganish barcha soha vakillari, jumladan Kutubxona –axborot mutaxassislari uchun, umuman, har qanday madaniyatli inson uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak.

Nutq madaniyati haqidagi ta‘limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo‘lsa ham, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo‘lganligi notiqlik san‘ati tajribasidan ma‘lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo - sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san‘at darajasiga ko‘tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro‘ - e‘tibori va yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi, ulaning notiqlik mahoratiga ham bog‘liq bo‘lgan. Notiqlik san‘ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug‘langan[1.5].

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o‘ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya‘ni va‘zxonlik “Qur‘on”ni targ‘ib qilish bilan mushtarak holda so‘zning ahamiyati, ma‘nosi va undan o‘rinli foydalanish borasida ko‘p yaxshi fikrlar aytilgan [1.5].

Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So‘fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e‘tibor berish bilan birga tilga, lug‘atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozganlar.

Alisher Navoiy mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so‘zlash odobi haqida shunday yozadi: “So‘zni ko‘nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa, tilga surma”. Mazmuni (“So‘zni ko‘nglingda pishitib olmaguncha, so‘zlama, ko‘nglingda bo‘lgan har qanday fikrni ham ayta berma”). O‘zbek badiiy nutqi tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o‘rin tutadi. Shoirning nazmi va “Boburnoma”si o‘zbek nutqining go‘zal namunalaridir. Bobur o‘zi hammabop yozish bilan birga boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o‘g‘li Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuborilgan maktubni muallifiining o‘zi bir necha bor o‘qib ko‘rishiga, uning ravonligiga, so‘zlarning ko‘zda tutilgan ma‘noni to‘g‘ri aks ettirganligiga ishonch hosil qiiganidan so‘ng jo‘natishga chaqiradi [1.8].

Kutubxona –axborot faoliyati xizmatida kitobxonlar, ayniqsa yoshlarni erkin fikrlashga orgatish muhim fazifa hisoblanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim - tarbiya samarasi sezilmaydi. Birinchi kunda boshlab, xar doyimo kitobxonlar bilan samarali ish faoliyatini tashkil qilishga erishish lozim. Kitobxonlik madaniyatini, savodxonlik tizmini bosqichma - bochqich amalga oshirish, kitobxonlarni jamiyatda o‘z o‘rnini egallashlarida kutubxonachi-mutaxassislar etakchi o‘rinlarda bo‘lishlari bugungi kunning talabidir.

Yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo‘lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to‘liq va aniq yetib borishi, ularga ma‘lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra nutq oldiga muayyan talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, unda nutqning mantiqan to‘g‘ri, fikran aniq, tuzilishga ko‘ra chiroyli va yo‘nalishiga ko‘ra maqsadga muvofiq bo‘lishl nazarda tutiladi. Shunig uchun kutubxona – axborot faoliyatida nutq madaniyatining quyidagi nazariyasiga amal qilish zarur:

- Nutqning to‘g‘riligi;
- Nutqning aniqligi;
- Nutqning tozaligi
- Nutqning mantiqiyiligi;

- Nutqning ta'sirchanligi;
- Nutqning maqsadga muvofiqligi.

1. Nutqning to'g'riligi. "To'g'rilik deganda, - yozadi V.G.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan meyoriga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik meyorlarini egallashni tushunish lozim boladi" [2.14].

2. Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi so'zning o'zi ifodalayotgan voqeikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim xususiyatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Aristotel: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi", - degan. Kaykovus esa: "Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilgil va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas". Yana davom ettiradi: "Shunday kishini notiq (suxango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bolsin va xalqning har so'zi unga ham ma'lum bo'lsin". [1.21]

3. Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda, eng awalo, uning adabiy til meyoriga muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi.

4. Nutqning mantiqiyliigi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatleri bo'lgan to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir

5. Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham e'tiborga olinadi. Ya'ni, bunda notiq tinglovchilani ulaming bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilinayotganigacha nazorat qilishi zarurdir.

6. Nutqning maqsadga muvofiqligi. Nutqning maqsadga muvofiqligi juda muhimdir. Nutq madaniyati adabiy til meyorlarini puxta egallash va ulardan nutqda to'liq foydalanish demakdir. Nutq madaniyati yuksak bo'lgan kishi, birinchidan, o'z

nutqini to'g'ri, adabiy til meyorlariga muvofiq tuzadi. Ikkinchidan, til vositalaridan eng muvofiq, eng zarurlarini tanlab olib, nutqning jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, nutqning ixchamligi, mazmundorligi ham katta ahamiyatga egadir.

Abulja Qahhor ta'kidlaganidek, "Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani tasavur qildirish uchun kishini boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak", "Surat oldirayotgan kishi suratga chiroyli va kelishib tushmoqqa behuda zo'r berib, o'zining tabiiy holatini buzganday, yozuvchi chiroyli va qoyil qilib yozishga zo'r bersa, adabiy asar uchun zarur bo'lgan tildagi soddalik, tabiiylik buziladi" [1.33.].

Xulosa qilib aytganda nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi hisoblanadi. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining muhim jihatlaridan biridir. Yangi O'zbekiston islohatlarini amalga oshirishda Kutubxona - axborot faoliyati mutaxassisleri etakchi rol o'ynashlari lozim. Buning uchun doyim o'z bilimlarini oshirib borishlari, Davlatimiz yaratib beraygan sart-sharoyitlardan oqilona foydalanishlari, mutola, nutq madaniyatining mohiyatini keng ko'lamda targ'ib qilishga erishishlari bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni inobatga olib ish faoliyatini yuritish Kutubxona-axborot faoliyati tizmini yuksak marralarga erishishining garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Rasulov R., Moydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma.-T.: 2015y, 115-bet.
- 2.Tojiyev Y, Hasanova N, Tojimatov H, Yoldosheva. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari.- T.: 1994y, 14-bet
- 3.A.Ahmedov. "Notiqlik san'ati". -T.: 1967y,155-bet.
4. Formanovskaya, N.I. Nutq odob va aloqa madaniyati.- M .: 1989y, - 159-bet

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.kitob.uz

Dilorom Oripova
*Respublika musiqa va san'at kolleji,
Teatr va kino san'ati kafedrası katta o'qituvchisi*

TEATR, KINO, TELEVIDENIYE VA RADIODA SAHNA NUTQI: YUTUQLAR, DOLZARB MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada teatr, kino, televideniye va radio sohalarida sahna nutqining o'rni va ahamiyati xususida fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan. Shuningdek, bugungi kunda madaniyat va san'at sohasida sahna nutqining ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, sahna asarlarini yaratishdagi asosiy o'rni haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, teatr va kino sohalarida yaratilgan asarlarda sahna nutqiga berilyotgan e'tibor va sohada mavjud muammolar va ularga qaratilgan yechimlar haqida batafsil yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *teatr, kino, sahna nutqi, radio, asar g'oyasi, aktyor, personaj, repertuar, madaniy hayot, til, madaniyat*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и значение сценической речи в театре, кино, на телевидении и радио. Также даны сведения о значении сценической речи в сфере культуры и искусства сегодня, ее специфических особенностях и главной роли в создании сценических произведений. Кроме того, в произведениях, созданных в области театра и кино, уделяется внимание сценической речи, подробно освещаются проблемы в этой области и их решения.*

Ключевые слова: *театр, кино, сценическая речь, радио, идея произведения, актер, персонаж, репертуар, культурная жизнь, язык, культура.*

Abstract: *This article discusses the role and importance of stage speech in theater, cinema, television and radio. Also, information about the importance of stage speech in the field of culture and art today, its specific features, and the main role in creating stage works is given. In addition, the attention given to stage speech in the works created in the theater and cinema fields, and the problems in the field and their solutions are covered in detail.*

Key words: *theater, cinema, stage speech, radio, work idea, actor, character, repertoire, cultural life, language, culture*

Milliy o'zlikni anglash - bu o'ziga xoslikni anglash demakdir, milliy o'ziga xoslik esa bevosita millatning tili va madaniyati, o'tmishi, ruhiyati dunyoqarashi kabilarda aks etadi. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, bugun yer yuzida yetti mingga yaqin til bor.

Sahna nutqi - teatrdagi badiiy obraz yaratish, qahramon xatti-harakatlari, histuyg'ularini tomoshabinga yetkazishda asosiy ifoda vositalaridan biri. Sahna nutqi texnikasi aktyorlik mahoratining muhim unsurlaridan bo'lib, unda aktyor

ovozining yoqimlilik, jarangdorligi, talaffuzining to'g'ri va anikligiga amal qilgan holda, turli davr, turli kasb kishilarining til xususiyatlarini, harakterlarning ijtimoiy psixologik, milliy, maishiy hislatlarini ifodalaydi. Sahna nutqining talaffuzi va ohangi ijro etilayotgan asarning janri va uslubiga bog'liq. Teatr taraqqiyoti tarixida turli aktyorlik maktablari va yo'nalishlarida Sahna nutqi uslubi va xususiyatlari qam o'zgarib, rivojlanib kelgan.

O'zbekistonda o'tmishda xalq aktyorlari masharalar, muqallidlar, qissago'ylar, voizlar, maddoxlar; qo'g'irchoq teatri ustalari aksariyat hollarda ochiq maydonlarda tomosha ko'rsatganlari sababli harakatlari kabi nutqlari ham baland ovozdada, bo'rttirilgan bo'lgan. Har joyda o'z shevalarida faoliyat ko'rsatishgan. Yangi shakldagi o'zbek professional teatri XX asr avvalidan e'tiboran yozma drama asosida, bino ichida, maxsus sahnalarda tomosha ko'rsatilar ekan, Sahna nutqining dramaturg matni, voqealari obrazlariga mos bosiq jaranglashi, harakterlarni psixologik jihatdan asoslanishiga e'tibor berildi. Milliy teatrimiz shakllanishi davrida (1916—1927) rejissyor Mannon Uyg'ur aktyorlar ijodida yagona adabiy tilni o'rnatish uchun kurash olib bordi. Obraz harakteri talab qilgan o'rinlardagina sheva va lahjalardan foydalanish mumkin. Milliy teatr va kinoning aynan sahna nutqi sohasidagi tajribasi uning keyingi rivojlanish bosqichlaridan davom ettirilgan va boshqa teatr truppalari tomonidan o'zlashtirilgan. Shuningdek, hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida fan sifatida o'qitilib "Sahna nutqi" kafedrasini ham tashkil etilgan[1, 316-319-b].

Til - dunyoni bilish va ruhiy his-tuyg'ularni ifoda etish orqali inson xulq-atvorini namoyish etuvchi vositadir. Til - fikrni ifodalash, dunyoni bilish, bilim va tajribalarni to'plash, saqlash hamda keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy ma'naviyatlarni aks ettirish kabi bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Til madaniyat ko'zgusi bo'lganidek teatr va kino ham ana shu ko'zguni tomoshabinga tutadi. Ta'lim-tarbiya darsi sifatida teatr va kino san'atini ham bir ibratxona deb muloxaza yuritsak bo'ladi, sababi har bir insonning uyiga kirib borgan oynai jahon yoshu qarini birdek o'ziga qamrab olish kuchiga ega.

Abdulla Avloniy: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" degan so'zlarni bejizga aytmagan. Sahna va ekran san'ati ham ma'lum darajada millat tili ona tilini o'zida saqlab qolish va uni avloddan-avlodlarga asrab-avaylash vositasini ham bajara olish kuchiga ega [2, 66-70 b].

Aktyor ekranda yoki sahnada o'z fikrini so'z orqali ifoda etadi. Yaratayotgan sahna asari haqida tomoshabinga yetkazib beradi. Aktyorda nutq aniq bir maqsadga yo'naltirilsa va aniq talaffuzga erishilsa, tomoshabinning bir-biri bilan yaqinlashuviga olib keladi. Nutq kino san'atining barcha jabhalarida, televideniye va radioda muhim o'rin egallaydi va kino sahnasida erishishi lozim bo'lgan so'z va so'z birkmalari aniq va ravon, ma'lum bir g'oyani o'zida ifodalovchi, o'z maqsadiga ega bo'lishi shart.

Aktyorlik san'ati - aktyor ijrochiligi, teatr, kino, televideniye va radioda badiiy obraz yaratish san'ati. Aktyor ma'lum rolda o'ynar ekan, o'z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe'l-atvorini, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi. Bunda u pesa, libretto yoki ssenariydagi mazmuni o'z ijodi, hayotiy tajribasi bilan boyitadi, jonlantiradi. Obraz yaratishda aktyorning nutqi, gavdasi, yuz va ko'z imo-ishoralari, tuyg'ulari, idroki asosiy vositalardir. Aktyor grim, libos, ba'zan niqobdan foydalanadi, gavdalantiradigan kishisi yoki boshqa mavjudotga yarasha xatti-harakat, ohang, imo-ishora topadi, ichki va tashqi tomonni bir-biriga uyg'unlashtiradi. Aktyorlik san'ati ijrochilarning dunyoqarashi, shaxsiyati, ijodiy o'ziga xosligiga tayangan holda hayotiy voqelikni aks ettiradi. San'at turlari (drama, opera, balet, kino, telefilm, telespektakl, radioteatr) va turli-tuman janrlarga qarab aktyorlik san'ati bir qator uslublar va yo'nalishlarga bo'linadi. Sahnada ijod qiluvchi aktyorni yuzlab tomoshabin bevosita kuzatib turadi. Shuning uchun u har bir so'zni baland tovush bilan aytishga, har bir harakatni bo'rttirib ko'rsatishga majbur. Kinoda boshqacha: ovozsiz kinoda faqat harakat, imo-ishora bilan inson fe'l-atvori ochib berilgan bo'lsa, kino ovozli bo'lgach, aktyor kino kamera ro'parasida ko'proq qahramonning ruhiy holatini ochishga o'tdi.

Televideniye ham aktyordan tabiiylikni talab qiladi. Radioteatrda esa

aktyorlarning o'zlari ko'rinmaydi, ovozlari eshitiladi, xolos. Shu boisdan ovoz imkoniyatlari keng ishlatiladi. Balet spektakllarida obrazlar raqqos va raqqosalarning muayyan musiqa mazmunini ifodalovchi tana, qo'l harakatlari, aylanishlari, yuz va ko'z imo-ishoralari vositasida yaratiladi. Operada ijrochining musiqiy ohanglari, obraz sur'ati kompozitor tomonidan belgilangan, dirijyor rahbarligida orkestr tomonidan o'zlashtirilgan bo'ladi.

San'at insonni tarbiyalaydimi? Uning shaxs tarbiyasiga dahldorligi bormi? Bu kabi savollarga har qadamda duch kelmoqdamiz. Hattoki, "to'g'ri berilgan o'n besh, yigirma yillik tarbiya bir-ikki soatlik tomosha bilan buzilmaydi", degan tushunchani ilgari surayotgan toifalar ham shakllanmoqda. Achinarlisi esa bu holni qarsaklar bilan 10 olqishlayotganlar ham kam emas. San'atning ham xuddi fizik qonun singari qonuni, geografik teorema singari teoremasi bor. U ham insondagi eng ezgu xislatlarni tarbiyalamog'i, yovuzlikka bo'lgan nafratini uyg'otmog'i, ertangi kunga bo'lgan ishonchini shakllantirmog'i darkor. Shunday ekan, barcha san'at turlarining sintezi bo'lgan kino bundan mustasno emas.

Ayni paytda kino qurol, qurol bo'lganda ham dahshatli qurol. Chunki, bugun globallashib borayotgan bir davrda ma'naviyatga, milliy mafkuraga tahdid soniya sayin ortib bormoqda. Dahshatlisi, ular o'zlarining qabih g'oyalarini kinoda silliq qilib, astalik va ustalik bilan, seriallarda esa mayda-maydalab jamiyat ongiga singdirib yuborishyapti. Bu go'yoki, insonga asta-sekin tasir qiladigan og'uni zarralarga bo'lib berganday gap. Bu "zarra"larning salbiy tasiri allaqachon u yoki, bu shaklda jamiyatimiz orasida namoyon bo'lmoqda. Fojia shundaki, bir bizning millatimiz emas, balki butun insoniyat uchun isnod bo'lgan illatlarning keng quloch yoyib, unga oddiy hol singari qaralayotganidir. Negaki, biz har kuni bunga o'xshash o'nlab voqealarni ijtimoiy tarmoqlarda, turk va xorij filmlari, seriallarida ko'raverib hech qanday hadiksiz hazm qilib yuboradigan darajaga kelib qoldik. Fikrlarimizni quyidagi misollar bilan ifodalasak. So'zimiz turk kino ijodkorlari tomonidan suratga olinib, "Sevimli" telekanalidan namoyish qilingan, "Qora niyat" serialining ba'zi bir jihatlari haqida. Xalid ismli qahramonning to'rtta farzandi bor [3, 114 b].

To'rttalasining ham otasi bir-u, onasi boshqa. Bu ham mayli, bir paytlar

yangasining eri bo'lgan qahramonimiz uning qayin singlisi bilan ham ahdi paymon qilishga ulguradi. Yanga tushmagur ham serialning keyingi qismlarida Kaya ismli ilk muhabbati bilan turmush quradi. Natijada, ikki ayol bir uyda yashay boshlaydi. Sirtidan qarasangiz, hammasi risoladagiday, bir tom ostida yashab, bir dasturxon atrofida o'tirib, ikkalasi ham bir-biriga choh qazish bilan ovora. Serialdagi barcha voqealar yolg'on, aldov, xiyonat va fitna kabi eng chirkin illatlarga qurilgan. Qahramonlar talqinida esa ikkiyuzlamachilik va munofiqlikning eng oliy darajasi targ'ib qilinadi. Aynan, bunday misollarni turk seriallaridan son-sanoqsiz keltirish mumkin. Opa-singilning qallog'iga ko'z olaytirishi, yoki aksincha. Go'ho, ukasiga jufti halol bo'laman deb turgan qizning akasiga ko'ngil qo'yishi talqinidagi sahnalarni bugun bizning tomoshabin qanday qabul qilyapti? Ertaga buning natijasi qanday bo'ladi? - degan savollarni ko'ndalang qo'yish o'rniga, yuqoridagi kabi mavzu, g'oyalarni dasturulamal qilib, o'sha o'zanda suzayotganlar ming afsuski, o'zbek kinosida ham bo'y ko'rsatyapti. "Tatarkino" agentligi bilan hamkorlikda rejissor Rashid Malikov tomonidan suratga olingan "Sumbul" filmi syujetida aynan biz yuqorida tilga olgan holatlarga ergashish yaqqol seziladi. Filmdagi Sumbul ismli qizga avval Bulat ismli yigitning uylanishi hamda parallel ravishda boshqa bir qiz bilan ishqiy hangomasini davom ettirishi tufayli Sumbul qo'lida chaqalog'i bilan Buxoraga tog'asining oldiga keladi. Biroz vaqtdan so'ng Bulatning ukasi yangasini izlab boradi [4, 11-13 b].

Mehmonni esa bo'lgan voqealardan xabardor qizning tog'asi oila a'zolari bilan birga go'yoki, eski bir qadrdonini qarshilaganday kutib oladi. To'g'ri, bo'lgan ishlarda yigitning aybi yo'q. Ammo, uning akasi sabab jiyanining tug'ilgan joyidan, mushtipar onasidan olisda qo'lidagi chaqalog'i bilan yolg'iz qolgani ma'lum. Mantiqan olib qaraganda, shu kartinada Sumbulning tog'asi yolg'iz jiyanining himoyachisi sifatida mavjud vaziyatga reaksiyasi bo'lishi kerak edi. 11 Biroz fursatdan so'ng yigit sobiq yangasining holidan, jajji jiyanining ahvolidan xabar olishga emas, balki unga uylangani kelgani ma'lum bo'ladi. Maqsadiga erishadi ham, tabiiyki, yosh oila farzandli bo'ladi. Ayolini, farzandini hamda jiyanini olib yigit Tataristonga qaytadi. Aka-ukalar va sobiq er-xotinning uchrashuvidagi holat

qahramonlar talqinida xuddi tabiiy bir jarayonday yoritiladi. To'g'ri, bizni tariximizda va "Muhabbat mojarasi" (Shuhrat Abbosov), "So'nggi o'q" (Haybatilla Aliyev), "Ilhaq" (Jahongir Ahmedov) filmlarida shunday voqealar bor. Biroq, bu filmlar va „Sumbul“ filmi qahramonlarining holati bir-biridan tubdan farq qiladi. Ijodkorlar yuqoridagilarni xaspo'shlash uchun, yoki tanqidiy fikrlardan himoyalaniş maqsadida ukaning asrab olinganligidan qalqon sifatida foydalanmoqchi bo'lishgan. Ammo, bu dramaturgiyaga shu darajada jo'n kiritilganki, aybdor talabaning bahonasiday syujet voqealaridan bo'rtib turibdi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganlar bir qarashda oddiy bir ekrandagi holat. Sizga, bizga mutloqo a'loqasi yo'qday. Ammo, tanganing ikkinchi tomonidan nazar tashlasak, bu bir targ'ibotga, chorlovga o'xshab qolmayaptimi? Aqlini tanigan, oq-u qorani bilgan yoshdagilar ko'rmas, ko'rsa ham adashib tushgan qo'ng'iroq singari unutib yuborar. Lekin, bugun kamolot ostonasida turgan, ma'naviy tushunchasi to'la shakllanib ulgurmagan yoshlarchi, ular ko'rgan narsasini mustaqil tahlil qilishga qodirmi? Ko'zni quvontiradigan zangori ekrandagi namoyishni ideal deya qabul qilmaydi, deb kim kafolat bera oladi? Nega bugun o'zidan boshqani o'ylamaydiganlar, bir taraflama qarashi bilan qarorlar qabul qiladiganlar, faqatgina, "men" degan tushuncha bilan yashaydiganlar ko'payib bormoqda? Chunki, ular ko'rayotgan kino, seriallar fisq-u fasod, egoistik kayfiyat bilan yetarlicha, obdon sug'orilgan. Umumning dardi shaxsga emas, kerak bo'lsa o'z dardini umumga ko'chirishga intilayotganlar toifasi urchib bormoqda. Tarixdan ma'lumki, ko'pchilikning dardi shaxsga ko'chib, qahramonlar paydo bo'lgan va ular haqida umrboqiy filmlar ishlangan. Bunga Melis Afzalovning "Suyunchi", Bahodir Odilovning, "Qarzdor", Jahongir Qosimovning, "Suv yoqalab" singari filmlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu filmlardagi qahramonlarning barhayotligi ular o'zining emas, o'zgalarning dardi bilan yashaganligida. Ayniqsa, "O'zbekiston xalq artisti", "Mehnat shuhrati ordeni" sohibi Erkin Komilov ijro qilgan rollari har tomonlama badiiy yetukligi, hayotiyliğı hamda qahramonning mavjud holatidan kelib chiqib, pafosga boyligi bilan ajralib turadi. Qahramonimiz Isamat Ergashov rejissorligida suratga olingan "Yuzsiz" filmida bosh rolni Begimqul obrazini ijro

qilgan. Film satirik komediya janrida suratga olingan bo‘lib, uning muvaffaqiyatli chiqishida E. Komilovning aynan qahramon psixologiyasini to‘g‘ri anglagan holda uni yuksak iste‘dod bilan talqin qilgani yotadi. San‘atkor ijro qilayotgan rolidagi gap so‘zlari, xattiharakatlari, o‘zini tutishidan tortib jest va mimikalarini ham shunday ifodalaydiki, natijada tomoshabinda film qahramonining hissiyotlariga burkangan ichki dunyosi bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. Yana bir qiziq tomoni aktyor diologlarni ijro qilish jarayonida qahramon holatlariga mos harakatlar bilan ifodalagani diqqatga sazovor. Ya‘ni, birga ishlaydigan Tolib akaga (Hojiakbar Nurmatov) aytgan so‘zlaridagi harakatlarni yoki, Sanobar opadan (Rimma Ahmedova) qarz so‘rashini Muhsindan (Tolib Hojiyev) joylarni almashtirishni iltimos qilgandagi lavhalarni bir eslang [5, 5 b].

Bu 12 epizodlarda aktyorning qahramon va jamiyat orasidagi munosabatni ko‘rsatishda naqadar psixologik ruhiyatdan kelib chiqib yondashganining guvohi bo‘lishingiz mumkin. Chunki, kino satirik komediya bo‘lgandan so‘ng mana shu ichki kinoyani ssenariydan anglab ijroda ko‘rsatish ijodkordan o‘z sohasining chuqur bilimdoni bo‘lishni talab qiladi. Xalqimiz ardog‘idagi san‘atkorning betakror filmlaridan yana biri kinorejissor Jahongir Qosimov tomonidan sur‘atga olingan “Suv yoqalab” filmidir. Film janri psixologik drama unga bosh qahramon Bolta Mardon bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan voqealar asos qilib olinadi. Bu voqealarni yoritish jarayonida film qahramonining dunyoqarashi oila azolariga va atrofdagilarga bo‘lgan munosabati orqali namoyon bo‘ladi. Suv yoqalash bahonasida B.Mardon siymosining butun hayoti yoritiladi. “Suv yoqalab” filmining “Yuzsiz” filmidan farqi shundaki, aktyor ichrosida janrdan kelib chiqqan holda falsafiylik juda kuchli. Bu uning o‘z oila azolari va qishloqdoshlarga aytgan so‘zlarida, harakatlarida, qarashlarida yaqqol o‘zining ifodasini topgan. “Yuzsiz” filmida gapdonlik, dialoglardagi satiraga xos bo‘lgan kinoya qahramonning yutug‘ini ta‘minlagan bo‘lsa, “Suv yoqalab” filmida esa didaktik tabiatga mos keng mushohada, vazmin tabiat, bir so‘zlilik ijrochini qahramonlik martabasiga ko‘tadi. Bunda esa shaksiz talqin qilinayotgan siymolarning ichki ruhiyatini ne chog‘lik to‘g‘ri anglanganligini aytib o‘tish joiz. Navbat Murod Rajabov rejissorligida

suratga olingan “Ulfatlar” komediyasiga. Endi, bu filmda yuqoridagi ikki filmga ham o‘xshamagan Temur obrazining o‘zgacha jihati shuki, qahramon xarakterida realistik xususiyatlarning birinchi planga olib chiqilganligidir. Filmda ko‘pgina holatlarda sodir bo‘lgan kulguli voqealar shu rolning ishtirokida va uning atrofga qaytargan reaksiyasi orqali kuzatiladi. Bunga sport klubiga do‘stlari bilan borib boks tushgandagi holat, devor tiklash jarayoni, qolaversa, avtobusda qaytish chog‘ida yo‘lovchi otaxonning savoliga qaytargan javobi misol bo‘ladi. Boks tushish sahnasidagi tabiiy harakatlar zarbalar berishi, Uchqunga (Mirzabek Xolmedov) qarab “senga qaraymi?, unga qaraymi ?” degan javobi tomoshaviylikni taminlagan shu bilan birga birinchi round tugagandan keyingi holatining o‘ziyoq ekran ortidagi insonda tabiiy kulgini tug‘diradi. Yoki, “devorni urib beramiz, yiqilib tushsa bizdan emas”, degan javobidagi ohangning o‘zidagi yumor xarakterni tabiiyligini va qiziqarligini ta’minlagan.

Sanab o‘tilgan har uchala filmda bosh rol ijrochisi Erkin Komilovning eng katta yutug‘i dramaturgiyadan kelib chiqqan holda qahramonning barcha psixologik kechinmalarini to‘g‘ri talqin qila olganida deyish mumkin. Shu uchun ham xilma-xillik, tabiiylik, bir-biridan tubdan farqlanuvchi xususiyatlar sabab hali hanuz bu filmlar xalq uchun qadrli. Takror va takror teleekranlarda namoyish qilinsada, muxlislar qayta va qayta ko‘rishdan aslo zerikmaydi. “O‘zbekkino” durdonalaridan bunday misollarni o‘nlab, yuzlab keltirish mumkin. Ulardagi har bir aktyor va aktrisa ijro qilgan rollar, ular yaratgan obrazlar shu san’atkorning ismiga go‘yo butun umrga payvandlangandek. “Shaytanat” Yodgor Sadiyev, “Shum bola” Abdurayim Abduvohobov, “O‘tkan kunlar” O‘lmas Alixo‘jayev va Gulchehra Jamilova, “Mahallada duv-duv gap” Lutfixonim Sarmisoqova, Maryam Yoqubova hamda Rahim Pirmuhammedov, “To‘ylar muborak” Obid Yunusov, “Navoiy” Razzoq Hamroyev, “Temir xotin” Murod Rajabov “Dilxiroj” Alisher Hamroyev bu filmlar ro‘yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Sanab o‘tilgan 13 kinolar va shu ijod na’munasi bilan o‘zining nomini tarixga muhrlagan aktyorlarning va aktrisalarning yutug‘i gavdalantirayotgan obrazi psixologiyasini, ruhiyatini obdan o‘rganib, uning dardini, quvonchini o‘zida his qilgandan so‘ng talqin qilinganidir. Bir so‘z bilan

aytganda, “Kechinma” san’atidan ustalik bilan foydalanishgan. Nazarimda, Bugun ba’zi bir serial va filmlarimizning oqsab qolayotgani ham, ijrodagi holat va talqin yetishmayotgani ham qahramon xarakterini puxta o’rganmaslik, shunchaki “Xo’ja ko’rsin”ga yondashilayotganining mevasidir. Bunday kinolar har bir insonni nima uchun yashayotganligi to’g’risida, umuminsoniy fazilatlar haqida chuqurroq mulohazaga chorlaydi. Agarda, tomoshabin to’g’ri xulosa chiqara olsa, kundalik tashvishlar bilan o’ralashib, hayotning ushug’iga aylanib, yo’q bo’lib ketmaslikka, yuqoriroq cho’qqilarni, oliy maqsadlarni ko’zlab yashashga undaydi. Jamiyat doimo bunday filmlarga ehtiyoj sezgan. Ayniqsa, bugun uning ijtimoiy vazifasi, dolzarbligi yana bir karra oshganday. Demak, kinoning shaxs kamolotidagi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati beqiyos!

Yuqoridagilardan anglashilayaptiki, nutq masalasi o'zining tarixi, tadriji, nazariy va amaliy muammolari bilan har bir davrda ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, sahna nutqi masalalari borasida uzoq yillar faoliyat olib borgan, o'zlarining nazariy va amaliy xizmatlari bilan bu sohaning rivojiga munosib hissa qo'shgan olim va pedagoglarning xizmatlarini ta'kidlash o'rinlidir. Lola Xo'jayeva, Nazira Aliyeva, Abdurahim Sayfiddinov, Sotimxon Inomxo'jayev singari ustozlarning bu boradagi hissalariga katta. Shogirdlariga saboq jarayonida ana shu jihatlarga talabalar diqqatini jalb etibgina qolmasdan, balki ularning talaffuz meyorlarini, artikulyatsiyasini ishlashgan. Bu bir kunlik, bir yillik yoki o'n yillik tajriba emas, balki umrlik, tinimsiz mashq va takrorlash, ovoz chiqarib o'qish ekanligini ko'p bor qayd etishgan. Qolaversa, o'zingizni va so'zingizni nazorat qilishni kanda qilmaslik, nutq tovushlarining, so'zlarning talaffuziga e'tibor qilish, ularni yamlamasdan aniq, burro talaffuz etish sahna nutqi madaniyati va mahoratiga daxldorligini yoddan chiqarmaslik kerak [6, 73b].

Sahna nutqining tabiati va uslubi teatr tarixi davomida muayyan shart-sharoitlar, aktyorlik maktablari va ijodiy yo'nalishlar asosida o'zgarib, rivojlanib bormoqda.

Sahna nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar bugunga kelib benuqson diksiyadan tashqari quyidagilarni qamrab oldi: mushaklarning erkinligi va halqum va farenksning faolligi; ovozning chidamliligini oshirish, bu turli xil psixofizik stresslar ostida ekspressivlik va tovushni saqlab qolish imkonini beradi; tembr tizimining uyg'unligi va ohanglarning keng doirasini qo'llash qobiliyatini aniqlaydigan tembr harakatchanligi; uchish qobiliyati - har qanday o'lchamdagi auditoriyalarda yaxshi eshitish va qiyin akustik sharoitlarni yengish qobiliyati; tovush balandligi diapazonining ovoz balandligi; ovozning chuqurligi va balandligi va boshqalar. Shu bilan birga, umumiy talablarning mavjudligi va mashg'ulotlarga tizimli yondashish, albatta, kelajakdagi aktyorlarning har birining psixofizik ma'lumotlariga zid bo'lmagan, aksincha, uning tabiatini aniqlaydigan va boyitgan individual ovoz xususiyatlarini izlash va rivojlantirish bilan birlashtiradi.

Har bir o'quvchining ovozi jarangdor, egiluvchan, yetarlicha keng diapazonga ega, har qanday sahna va auditoriya sharoitida bardoshli bo'lishini ta'minlashga harakat qilish kerak. Ovozning barcha bu fazilatlari sahna nutqini o'rganish jarayonida o'zlashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Toxirov O. Sahna nutqi fanining nazariy asoslari//konf Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi. -Noshkent.: Fan ziyosi. - 501 b. (316-319 b).*
2. *Nosirova A. Teatrlashtirilgan tomoshalarda badiiy so'zning ahamiyati// konf. Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar. - Toshkent.: Navro'z. 2014. -190. (66-70 b).*
3. *Alimjonova Y., To'laganova A. Sahna nutqi. - Toshkent.: 2005. "Fan" nashriyoti. 114 b*
4. *Mahmudov N.Til tilsimi tadqiqi -T.: "Mumtoz so'z", 2017. - 5 -bet*
5. *Xodjimatoeva M. Sahna nutqi. - Toshkent: Fan, 2019.*
6. *Safo O. Mustaqillik, ma'naviyat va tarbiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2024.*
7. *Xalikulova G. Sahna nutqi (tarixiy dramalar talqinida). – Toshkent: Karloo, 2008. 124 bet.*
8. *Xalikulova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 152 bet.*
9. *Xalikulova G. Sahna nutqi fanini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. 216 bet.*
10. *Xalikulova G. Oliy ta'lim muassasasi pedagog-rahbarlari kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. 80 bet.*
11. *Xalikulova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 95 bet (152 bet)*

AKTYOR IJODIDA HARAKAT VA PLASTIKANING TUTGAN O‘RNI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada aktyor ijodidagi hatti-harakat va plastikaning o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Hatti-harakatdan qanday foydalanish va spektaklning plastik yechimi xususidagi fikrlar o‘rin olgan.*

***Kalit so‘zlar:** Teatr, spektakl, aktyor, tomoshabin, harakat, plastika.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о роли поведения и пластики в творчестве актера. Существуют мнения по поводу использования движения и пластики спектакля.*

***Ключевые слова:** театр, спектакль, актёр, зритель, движение, пластичность.*

***Annotation.** This article talks about the role of behavior and plasticity in the actor's work. There are opinions about how to use movement and the plasticity of the performance.*

***Key words:** Theatre, puppet, spectacle, actor, the viewer, movement, plasticity.*

Aktyorlik san’atining asosi hatti-harakatdir. Teatrgagina xos bo‘lgan birdan-bir jihat – harakat. Hatti-harakat orqali aktyor spektaklning muhim elementi – obrazni yaratadi, pesa voqealarini ifoda etadi. Aktyor hatti-harakat orqali sahnada jonli, tabiiy va shu bilan birga badiiy hayotni ifoda etadi. Aktyor bir vaqtning o‘zida ham ijodkor, ham o‘z san’atining quroli hisoblanib, bu jarayonda hatti-harakat ma’lum bir obraz yaralishiga xizmat qiladi.¹⁵

Har qanaqa spektakl tomoshabinlarga voqea va hodisalardagi harakatlar, ularning mazmuni va ma’nolarining tushinarliligi sababli ta’sir qiladi. Spektakl boshidan ohirigacha harakatga boy bo‘lib, harakat faqat odamlarning qimirlashi, yurishigina emas balki sahnadagi so‘z ham va hatto aktyorning hech nima demasdan yoki qo‘zg‘almasdan o‘ylanib turishi ham harakat hisoblanadi. Sababi bu paytda aktyorning ongi ishlab, oldindagi qadamlarga qanday harakat qilishini o‘ylab turadi.

¹⁵ Usmonov SHamsiddin. “Plastika”. – Toshkent.:Innovatsiya-Ziyo, 2019.

Aktyorning sahnadagi voqealarni o'ziga xos tez qabul qila olishi va tasvirlab berishi, o'zining ichki his-tuyg'usi orqali harakatchil epizodlarda o'sha tempo-ritmga darxol o'tishi aktyor plastikasi deb ataymiz. Spektakldagi barcha harakatlar bilan bog'liq bo'lgan uning tashqi formasi va elementlarini spektaklning plastic yechimi deb ataymiz. Piesaning mazmuni asosida yoki rejissiorning o'zi kiritgan spektakldagi ayoq o'yinlari, pantomimolar, aktyor harakatlarining yani tana harakatlari, o'tirish turish, sahnada o'z qaddini tuta bilishi va boshqa harakatlar spektaklning plastik ko'rinishiga kiradi.¹⁶

K.S.Stanislavskiy aktyor plastikasi haqida "...Har qanday sahnaviy ko'rinishdagi yaxshi va to'g'ri hatti-harakatlar faqat go'zallik, plastikalik, plastik noziklik va chaqqonlikgina emas, balki bu ma'nosi tarafdin mantiqiy va davomiy, ma'lum bir maqsadga asoslangan, ijro etish bo'yicha ijobiy va aniq bo'lgan fizik harakat bo'lib hisoblanadi" degan edi.¹⁷

Hatti-harakatlarning ijro etilishi ta'sirli, hayot haqiqatligiga xos bo'lsagina u tomoshabinlarni o'ziga tortadi. Aktyorning ichki his-tuyg'usi orqali paydo bo'lgan hatti-harakatlar hayotni tomoshabinlarga ishonarli tushintirib bera oladi. Aktyor harakat paytida mantiq va haqiqatga asoslanib qolmasdan, o'sha harakatni tushinarli va ta'sirli ijro etishi lozim. Uning ko'rsatyotgan harakatlari tomoshabinlar zalida o'tirgan barcha odamlarga tushinarli bo'lishi shart. Fizik hatti-harakatlarning ta'sirli ijro etilishi uchun aktyor eng birinchi alohida qo'zg'alish texnikasini o'rganib, uni to'laqonli o'zlashtirib olishi lozim. Agar, aktyor sahnada qahramonga tegishli harakatlanish texnikasini to'liq ishlay olmasa, o'sha qahramonga xarakterli plastik obrazni yaratib bera olmaydi.¹⁸

Aktyor plastikasi sodda va murakkab harakatlanish texnikalardan iborat bo'lib odamlarning tashqi ko'rinishi, yurish-turishlari, qo'l va oyoq harakatlari va har xil qo'zg'alishlar sodda harakatlanish texnikasiga kiradi.

¹⁶ J.Jumanov, A.Bekimbetova. "Aktyor sheberligi tiykarlari". – No'kis.: Miraziz Nukus, 2017.

¹⁷ K.S.Stanislavskiy. "Работа над собой". Moskva.: 1930.

¹⁸ Usmonov SHamsiddin. "Plastika". – Toshkent.:Innovatsiya-Ziyo, 2019.

Bu harakatlarning barchasi, ularga qandaydir to‘sqinlik bo‘lmagunicha erksiz holda ijro etilib, odamlar unga ko‘nikib, o‘rganib kundalik odatga aylanib qoladi. Sahnada holatning o‘zgarishi bilan aktyorlar yangi shart-sharoitga darhol o‘rganadi. Chunki, eng sodda hatti-harakatlar ham sahnaviy hayotning ko‘nikmalariga aloqador ishlanadi. Sababi, aktyor o‘z qaharmoning kim ekanligini, o‘sha hatti-harakatni qaysi joyda, qanday sharoitda va nima uchun ishlaganini biladi.

Sodda harakatlanish texnikalarining qo‘shilishidan esa murakkab texnik hatti-harakatlar kelib chiqadi. Murakkab harakatlarning ayrimlari shart-sharoitga va voqealarga aloqador o‘zgarishi mumkin.

Sahnaviy hayot aktyordan harakatlanish formasining turlicha bo‘lishini talab qiladi, shuning uchun harakatlarni boshqaradigan nerv sistemasini aktyor har doim chiniqtirib borishi shart. Bu esa spektaklning plastika tarafidan yechimining ijobiy chiqishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Spektaklning asosiy formasi uning plastik ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun K.S.Stanislavskiy “Ko‘z bu qalb oynasi, qo‘llar – bu tana oynasi, unisini ham, bunisini ham egallab olishga o‘rganing” degan edi.¹⁹Spektaklga kelgan tomoshabinlar faqat sahnadagi harakatlarnigina ko‘rib qo‘ymasdan, undagi eng mayda hatti-harakatlarga ham diqqat bilan e‘tibor berib o‘tiradi. Shuning uchun aktyorlar hamma vaqt fektovaniye, plastika, akrobatika, balet elementlari, sahna harakati ustida mashqlar ishlashi lozim. Bunaqa mashqlar esa aktyorning sahnada o‘zini erkin his qilishiga, ijrochiligiga, spektaklning plastik yechimining yaxshi chiqishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Mana biz yuqorida aktyor ijodi davomida har doim uzviy aloqada bo‘ladigan harakat va plastika haqida so‘z yuritdik. Ana endi Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilgan spektakllarda aktyorlar o‘z obrazlarini qanchalik darajada o‘z plastik hatti-harakatlaridan foydalangan holda tomoshabinga yetkazib bera olayatgani haqida gaplashamiz.

Teatr sahnasida sahnalashtirilgan barcha asarlar hatti-harakat bilan uzviy bog‘liq. Chunki teatr sahnasida ko‘pincha yosh bolalar ya‘ni boqcha bolachalaridan

¹⁹ K.S.Stanislavskiy “Искусстводаги менинг хайотим”. Moskva.: 1930.

tortib boshlang'ich maktab o'quvchilariga ham spektakllar sahnalashtiriladi.

Bu spektakllarda esa ko'pchilik vaziyatda hayvonlar obrazidan foydalaniladi. Masalan, rejissyor Amangeldi Xudaynazarov tomonidan sahnalashtirilgan yapon dramaturgi Dzuindzi Kinositoning "Turna parlari" spektaklida asarning boshlanish nuqtasidan turnalarning uchib kelishi va ularning bir-biri bilan bo'lgan o'yinlari, o'ynayotgan paytida esa tashqaridan ovchining kamondan o'q otib turnani yaralashi va bu paytta turna azobdan qiynalib o'z to'ldasidan ayrilib qolishi sahnasida, barcha hatti-harakatlar plastik hatti-harakatlar bilan uyg'unlashib ketkan. Bu sahnada aktyorlar turnalarga hos bo'lgan hatti-harakatlar, plastik elementlar bilan qushlarning obrazini ko'rsatib bera olgan.

Sahnada qimirlamay o'tirish passivlikdan dalolat bermaydi. Sahnada qimirlamay o'tirgan kishi ham hatti-harakat qilayotgan bo'lishi mumkin. Lekin bu tashqi jismoniy emas, balki ichki-psixik harakatdir. Binobarin, jismoniy sokinlik ko'pincha kuchli ichki hatti-harakat tufayli sodir bo'ladi, bu ijro qilishda juda muhim, juda qiziqarlidir. San'atning qiymati, uning ma'no mazmuni bilan belgilanadi. Shuning uchun sahnada ham jismoniy, ham ruhiy hatti-harakat qilmoq kerak. Bu bilan san'atimizning asoslaridan biri – sahna ijodining va san'atning aktivligi hamda harakatchanligi bajarilgan bo'ladi²⁰ – degan edi Stanislavskiy o'z kitobida.

"Turna parlari" spektaklida ham huddi shunday sahna ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan: bosh qahramon Tsuning sahnada bir o'zi qolib ichki kechinmalarini monolog orqali chiqarishini, hech nima demasdan turgan joyida tomoshabinga nima demoqchiligini anglatgan vaqtlari ham bo'lgan. Shundan kelib chiqadiki aktyor sahnada faqat tashqi hatti-harakat bilan emas, balki ichki hatti-harakati bilan ham o'ziga topshirilgan obrazni tomoshabinga to'liq yetkiza oladi. Spektaklda esa qahramonlarning tashqi va ichki hatti-harakatlarining tabiiy va normal darajadiligini guvohi bo'lganmiz.

Aktyorning nafis va faol hatti-harakatlari spektaklning butun mohiyati

²⁰ K.S.Stanislavskiy "Aktyorning o'z ustida ishlashi". Toshkent"Yangi asr avlodi"2011

bilan bevosita bog‘liq bo‘lmog‘i lozim. Bu faollik esa sahna harakatida ko‘rinadi, hatti-harakatda esa ro‘lning joni ham, artistning kechinmasi ham, pesaning ichki dunyosi ham namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov Shamsiddin. “Plastika”. – Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
2. Ж.Жуманов, А.Бекимбетова. “Актёр шеберлиги тийкарлари”. – Но‘кис.: Миразиз Нукус, 2017.
3. К.С.Станиславский. “Работа над собой”. Москва.: 1930.
4. Usmonov Shamsiddin. “Plastika”. – Toshkent.:Innovatsiya-Ziyo, 2019.
5. К.С.Станиславский “Искусстводаги менинг хаётим”. Москва.: 1930.
6. К.С.Станиславский “Актыorning o‘z ustida ishlashi”. Toshkent”Yangi asr avlodi”2011

AKTYOR NUTQINING TOMOSHABINGA TA'SIRI

***Annotatsiya.** Teatr sahnasidagi spektakllarda nutq masalasi muhim rol oynaydi, chunki har bitta so'z auditoriya va aktyorlar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlaydi. Aktyor nutqi tomoshabinlarni spektaklga jalb qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning nutqlari va hatti-harakatlari spektaklning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada nutq spektaklning asosiy vositalardan biri hisoblanishi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** teatr, tomoshabin, aktyor, rejissyor, spektakl, nutq.*

***Аннотасия.** В театральных постановках речь играет важную роль, так как каждое слово обеспечивает взаимодействие между аудиторией и актёрами. Речь актёров направлена на вовлечение зрителей в спектакль, и их слова и действия влияют на развитие постановки. В данной статье речь идёт о том, что речь является одним из основных инструментов спектаклей.*

***Ключевые слова:** театр, зритель, актер, режиссер, спектакль, речь.*

***Annotation.** In theatrical performances, speech plays an important role as every word ensures interaction between the audience and the actors. The actors' speech is aimed at engaging the audience in the performance, and their words and actions influence the development of the play. This article discusses how speech is one of the main tools in a performance.*

***Key words:** Theater, audience, actor, director, performance or Play, speech.*

Sahnadagi har bir so'z tomoshabin uchun tushunarli bo'lishi juda muhim. Chunki sahnadagi so'z yoki dialogning asosiy maqsadi — tomoshabinlarga aniq va ravshan tarzda ma'lumot yetkazishdir. Bu aktyorning diksiyasi, talaffuzi va ovoz

balandligiga ham bog'liq. Tomoshabinlar aytilayotgan so'zlarni tushunishi spektaklning mazmuni va hissiyotlarini to'g'ri qabul qilishiga yordam beradi. Taniqli dramaturg va adabiyotshunos olim Izzat Sulton tabiri bilan aytganda "Drama tilining eng muhim talablaridan biri-soddalikdir. Kishi roman o'qir ekan, unda tushunmagan so'z ustida oylash, uning ma'nosini esga olish, yoki lug'atlardan qarab esga olish imkoniyati bor. Teatr tomshabini esa bunday imkoniyatga ega emas. Shu sababli sahnada aytilgan har bir so'z uning uchun tushunarli bo'lishi shart."²¹. Spektakildagi qahramonlar qaysi davrda, tarixiy davrmi, milliy yoki hozirgi zamonaviy davrda yashagan bo'lmasin, tomosha zalida o'tirgan tomshabinlarning tiliga juda yaqin soddalikda gaplashmoqlari juda zarur ahamiyatga ega deb bilamiz.

Teatr san'atida so'zning ko'chi, qudrati, tomshabinlar uchun tushunarli bo'lishi asosiy tamoyillardan biridir. Bu bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ular orqali aktyor tomshabinga hissiyot, mazmun va voqeani aniq yetkazishi lozim. Bunda, albatta, diksiyaning o'rni juda muhim, so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilish san'ati bu diksiyadir. Teatrda diksiyaga alohida e'tibor beriladi, chunki sahnada aytilayotgan har bir so'z tomshabinga aniq yetib borishi kerak. Noaniq yoki xira talaffuz tomshabinlarni chalg'itib qoyishi va spektakl mazmunini tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Sahnada ovozi, ya'ni aktyorning ovozi, sahna kattaligiga, tomshabinlar o'rindiqlarining joylashishiga va muhitga mos kelishi kerak deb bilamiz. Juda past ovoz tomshabinlarga yetib bormasligi, juda baland ovoz esa ularni charchatishi mumkin. Aktyor ovoz balandligi va ohangini nazorat qilib, tomshabinlarning e'tiborini saqlashi lozim. Ovoz ohanglari esa voqea-tushunchalarning hissiy mazmunini to'g'ri ifoda etishga yordam beradi. So'zlarni ortiqcha shoshilmay aytish tomshabinlarga voqea rivojini tushunishga yordam beradi. Juda tez gapirish tomshabinlarni chalg'itishi mumkin. Har bir jumla va so'zlar orasidagi pauzalar ham dramaturgik asarning urg'ularini belgilab beradi va tomshabinlarga chuqurroq anglash imkonini beradi. To'g'ri har doim so'zlar yetarli

²¹ I. Sulton Adabiyot nazariyasi. - Toshkent O'qituvchi nashriyoti - 1980 - B-289.

bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun mimikalar, tana harakatlari, jestlar ham tomoshabinlarga ma'no yetkazishda muhim o'rin tutadi. Aktyor tanasi orqali qo'shimcha ma'lumot va hissiyotlarni yetkazishi, dialogni boyitishi mumkin. Sahnada bo'shliqni to'ldirish, harakat va qadamlarni to'g'ri rejalashtirish ham tomoshabinlarga aytilayotgan gapning aniq yetib borishiga yordam beradi. Tomoshabinlarning barcha joydan sahnani ko'rishi va eshitishi muhimdir, shuning uchun sahna boylab harakatlanish to'g'ri amalga oshirilishi kerak. Katta teatrlarda va ochiq havodagi sahnalarda ovoz kuchaytirgichlar, mikrofonlar va akustik jihozlar ishlatiladi. Ushbu texnik vositalar tomoshabinlar uchun so'zlarni eshitish va tushunishni osonlashtiradi. Tushunarli nutq va ijro uchun aktyorlarning repetitsiya jarayoni muhimdir. Bu vaqt mobaynida har bir dialog, har bir sahna harakati va ohang sinchiklab ishlab chiqiladi. Repetitsiyalar orqali aktyor o'z roli va so'zlarini tomoshabinlarga qanday yetkazishi kerakligini to'g'ri anglaydi. Sahnadagi chiqishlarda tomoshabinlar bilan o'zaro bog'lanish — ularning javoblarini his qilish ham muhimdir. Tomoshabinlarning diqqatini o'ziga qaratish va ularni "shovqinsiz" tarzda o'z oyiga tortish aktyorning mahoratiga bog'liqdir. Bularning barchasi tomoshabinlarga hikoya, voqea va hissiyotlarni to'g'ri yetkazishda muhim o'rin tutadi. Sahnadagi har bir so'z nafaqat talaffuz, balki mazmun, ritm va ifoda orqali to'g'ri o'qilishi kerak, chunki har bir spektaklda muhim fikr va ma'no yotadi. Sahnadagi nutqning tomoshabinga yetkazilishida qo'shimcha jihatlar ham mavjud. Bu jihatlar teatr san'ati tarixida shakllangan va amaliyotda faol qo'llanilib kelmoqda. Har bir teatr janri yoki uslubi nutq va ijro texnikasiga ta'sir qiladi. Masalan, drama, komediya, tragediya yoki musikal spektakllarda nutqning ohangi, tezligi va ifoda shakli har xil bo'lishi kerak. Tragediyada ko'proq kuchli his-tuyg'ular va dramatik pauzalar talab qilinsa, komediyada aniq va jonli talaffuz, tezkorlik, qo'shimcha so'z oynashlari (replikalar) muhim bo'ladi. Aktyor aytayotgan so'zlar ortida turgan tuyg'ular ham muhim. Aytilgan so'zning hissiyotini o'z ichida his qilmagan aktyor, so'zlarning jonli va kuchli chiqishini ta'minlay olmaydi. Stanislavskiy tizimida aktyor o'z so'zlarini "yashashi", ya'ni ular orqali chinakam his qilishni o'rganishi talab etiladi. Monologlarda, ya'ni aktyor yolg'iz

o'zining fikrlarini izhor etayotgan sahnalarda, nutqning ochiq va batafsil bo'lishi juda zarur. Aktyor o'zining ichki dunyosini to'liq ochib berish uchun turli ovoz ohanglari va pauzalarni qo'llaydi. Dialoglarda esa, tomoshabinni voqeaga tortish uchun boshqa aktyorlar bilan sinxronlashgan nutq va harakat muvofiqligi lozim. Ba'zi sahnalar to'g'ridan-to'g'ri aytilganidan ko'ra chuqurroq ma'no yoki yashirin mazmuni o'z ichiga oladi. Bunday sahnalarda "subtekst", ya'ni so'zlar ortida yotgan yashirin ma'nolar ifodasi dolzarb bo'ladi. Aktyor subtekstni tushunib, uni o'z harakatlari, ovozi yoki imo-ishoralari orqali tomoshabinga yetkazishi kerak. Ayrim teatr uslublari, masalan, fizik teatr yoki panantomima, ko'proq jismoniy harakatlarga asoslangan bo'lib, ularda so'zlar ikkinchi darajaga tushib, tananing ifodasi orqali voqealar tushuntiriladi. Bunday teatrlarda aktyorning harakatlari va tana tiliga bo'lgan e'tibor katta ahamiyat kasb etadi. Ba'zi spektakllarda maxsus talaffuz yoki nutq texnikalari ishlatiladi. Masalan, archaik (eski) talaffuz yoki sheva (dialekt) ishlatiladigan spektakllarda aktyorlar o'zgacha nutq uslubida gapirishi talab qilinadi. Bu tomoshabin uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin, lekin bunday hollarda ham aktyor so'zlarni aniq yetkazishi va ifodaviy nutq texnikalaridan foydalanishi lozim. Sahnada dekoratsiyasi va yoritish ham tomoshabinning so'zlarni qanday qabul qilishiga ta'sir qiladi. Yorug'lik va ranglar tomoshabinning diqqatini ma'lum bir nuqtaga qaratishi yoki sahnada yaratilgan muhit bilan birgalikda aktyorning so'zlarini kuchaytirishi mumkin. Zamonaviy teatrdagi interaktiv spektakllar keng tarqalgan, bunda tomoshabinlar ham sahnada ishtirok etishi yoki aktyorlar bilan o'zaro muloqotda bo'lishi mumkin. Bunday spektakllarda aktyorlar tomoshabinlarning reaksiyasiga moslashib, nutqning qanday tushunilayotganini nazorat qilishlari kerak. Har bir spektaklning umumiy mazmuni va ifoda shakli rejissyorlik qarorlariga bog'liq. Rejissyor spektakl mazmunini qanday yetkazish kerakligini, so'zlar va harakatlarni qanday sinxronlashtirish lozimligini belgilaydi. Badiiy yo'nalish esa, aktyorning nutqi va ifodaviy vositalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Sahnadagi nutq tomoshabinlarning madaniyati, ularning teatrga bo'lgan munosabati va kutgan kutilmalariga ham bog'liq. Turli jamiyatlarda yoki davlatlarda spektakllar va nutq uslubi farqlanishi mumkin, shu bois aktyorlar va rejissyorlar bu omilni ham

hisobga olishi zarur deb bilamiz. Teatr san'atida barcha bu jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tomoshabinlar bilan ijodiy bog'lanishni ta'minlaydi va spektaklning muvaffaqiyatini oshiradi.

Zamonaviy interaktiv spektakllar bu teatrning yangi shakli bo'lib, ular tomoshabinlarni passiv kuzatuvchilardan faol ishtirokchilarga aylantiradi. Bu spektakllarda tomoshabinlar faqat tomosha qilish bilan cheklanib qolmay, voqealar rivojiga ham ta'sir ko'rsatishi yoki ularning bir qismi bo'lishi mumkin. Bunday spektakllar ko'proq immersiv tajriba yaratishga qaratilgan bo'lib, tomoshabinlarni sahnaga yaqinroq olib keladi va teatr hamjamiyati bilan interaktiv aloqada bo'lishlariga imkon beradi. Interaktiv spektakllar tomoshabin va aktyor o'rtasidagi insoniy aloqa asosida quriladi. Nutq orqali bu aloqa kuchayadi, hissiy bog'lanish o'rnatiladi va spektaklning hissiy kuchi oshadi. Shunday qilib, zamonaviy interaktiv spektakllarda nutq ijroni, hikoya qilish usulini va tomoshabin bilan muloqotni shakllantiruvchi muhim elementlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent o'qituvchi 1980- B 223*
2. *O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1999- B.45*
3. *M.Ahmetjonova. Teatr san'atining ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishiga ta'siri nomli disertatsiyasidan.Samarqand 2023.-B-21.*
5. *Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik)-Toshkent-O'zbekiston,1995-B.216*

Speech is power: speech is to persuade, to convert

***Annotation:** Studying the problem of changing language standards in our modern society, the purpose of the research is to review and describe consonant orthophonic and orthoepic deviations from the modern pronunciation standard. The article determines the reasons for their appearance and functioning, to analyze the standards of stage speech, as well as the prerequisites for stage speech development classes and the main classes conducted with students.*

***Key words:** stage speech, orthography, pronunciation, vocabulary, language norms, correct breathing acquisition, intonation, voice.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatimizda til meyorlarini o'zgartirish muammosini o'rganib, tadqiqotning maqsadi zamonaviy talaffuz meyoridan undosh ortofonik va orfoepik og'ishlarni ko'rib chiqish va tavsiflash, shuningdek ularning paydo bo'lishi va ishlashi sabablarini aniqlash, sahna nutqi meyorlarini tahlil qilish. Shuningdek, sahna nutqini rivojlantirish darslari va talabalar bilan olib boriladigan asosiy mashg'ulotlar uchun shartlar.*

***Kalit so'zlar:** sahna nutqi, orfografiya, talaffuz, lug'at, til meyorlari, to'g'ri nafas olishni o'zlashtirish, intonatsiya, ovoz.*

***Аннотация:** Изучая проблему изменения языковых норм в современном обществе, целью исследования является рассмотрение и описание согласных орфофонических и орфоэпических отклонений от современной произносительной нормы. В статье определяются причины их появления и функционирования, анализируются нормы сценической речи, а также предпосылки проведения занятий по развитию сценической речи и основные занятия, проводимые с учащимися.*

***Ключевые слова:** сценическая речь, орфография, произношение, словарный запас, нормы языка, овладение правильным дыханием, интонацией, голосом.*

It is known that today our citizens participate in solving many state problems. As the creative and social activity of our society and its individual citizen's increases, in most cases, not only ordinary citizens, but also famous actors and actors do not have a complete idea about speech culture, even literary pronunciation. It should be said that today in the field of art and culture; it is difficult to find even artists and announcers who have professional skills in voice, breathing, intonation colors, to produce a sound that corresponds to the standard of literary pronunciation. Often, the speech heard from the stage shows a set of orthophonic and orthoepic deviations from the norm typical of local pronunciation.

Apparently, it is expressionless, colorless, boring monotonous voice, full of regional peculiarities of pronunciation, causes boredom, quickly tires and dulls the perception of listeners, prevents understanding of the essence of the matter. Incorrect speech distracts and scatters attention, takes away from the content of the statement. When the ear is strained to hear, it causes tension in the mind and emotions. Many countries have standards for stage speech pronunciation. It was the same in our country for a long time. The main goal of the research is to review and describe consonant orthophonic and orthoepic deviations from the modern pronunciation norm, as well as to determine the reasons for their appearance and functioning, to analyze the standards of stage speech norms.

Stage speech and its importance Stage speech is the most important means of theatricalization of a dramatic work. Stage speech allows the actor to convey the ideas, thoughts and feelings inherent in the text to the audience. Theater, which promoted exemplary literary pronunciation, and later radio and television, played an important role in the development of orthoepy.

1. Compliance with the standards of literary language
2. Correct pronunciation
3. Emotional deprivation

The norm of the literary language is the use of generally accepted language tools: sounds, accent, intonation, words, their forms, syntactic constructions. The main feature of the norms is that they are mandatory for all people who speak and write Russian. Correct Pronunciation The term orthoepy is derived from the ancient Greek words *orthos*, meaning "right," and *épos*, which translates as "speech." Accordingly, orthoepy is a science that studies "correct speech" and defines pronunciation standards, their justification and consolidation in the language.

Literary norms of orthoepy are divided into two parts:

- ✓ Rules for pronouncing vowels and consonants;
- ✓ Accent pronunciation rules. The main features of stage speech

The main characteristics of stage speech are flexibility, pitch, sonority, volume, as well as correct breathing technique, accuracy, clarity of pronunciation,

and intonation expressiveness. Only by improving each component, a person can influence the people around him with the help of words and convey his feelings and experiences to them. It is impossible to speak correctly and beautifully without breathing properly. Therefore, stage speech training begins with adjusting breathing. It takes a lot of time. It is impossible to achieve results without understanding the correct breathing technique. It is important not only to attend classes regularly, but also to practice at home. This allows the student to achieve better results as quickly as possible. Development of stage speech Non-artists use simplified speech in everyday life, successful actors and actresses should master the unique style and character of conversation, because the changing language standards of society, the main source of influencing people in order to preserve the disappearing Uzbek language culture is art and culture. The components of stage speech development classes include pronunciation of tongue twisters, reading texts that regulate intonations correctly, and breathing exercises.

- 1) Exercises that include movements. They facilitate proper breathing and exhalation, help strengthen proper breathing skills, activate abdominal muscles;
- 2) Exercises to develop breathing, in which different positions of the body: lying, sitting, standing. It helps to observe the activation of abdominal muscles, to learn to regulate its rhythm;
- 3) Exercises performed in everyday life. The main goal is to strengthen proper breathing skills in everyday life. Practicing breathing while reading texts. Such exercises help to learn how to divide exhalation into parts.

Due to the complexity of such exercises, the student must imagine the image of the movement, so not everyone can cope with it. An easy way to improve articulation is to say vowels loudly and clearly. Then they move on to phrases. The student should start with the simplest and gradually increase the complexity of the task. Tongue twists should be pronounced quietly, slowly, then increase the volume and speed.

Stage speech has two strong points: intonation and pause. A speaker can do a lot with them, even without resorting to words, limited to sounds. Intonation and

pauses in themselves have the power to affect listeners emotionally, apart from words. The nature and style of stage speech changes and develops during the history of the theater based on certain conditions, acting schools and creative directions.

Today, the main requirements for stage speech, in addition to flawless diction, include: freedom of muscles and activity of the larynx and pharynx; increase the endurance of the voice, which allows to preserve expressiveness and sound under various psychophysical stresses; timbre mobility, which determines the harmony of the timbre system and the ability to use a wide range of tones; flying ability - the ability to hear well and overcome difficult acoustic conditions in auditoriums of any size; pitch range pitch; sound depth and pitch, etc. At the same time, the existence of general requirements and a systematic approach to training combine with the search and development of individual voice characteristics that certainly do not contradict the psychophysical data of each of the future actors, but rather define and enrich their nature.

USED LITERATURE:

1. *Nosirov A. The importance of the artistic word in theatrical performances// conf. Intangible cultural heritage and ethnocultural values. - Tashkent.: Nowruz. 2014. -190. (66-70 p).*
2. *Alimjonova Y., To'laganova A. Stage speech. - Tashkent: 2005. "Science"publisher. (114 p).*
3. *Oripova M. Methods of developing oral speech in the Uzbek language class. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture #2. - Tashkent 2022. www.inacademy.uz. - 43 p. (11-13 p).*

Martin Grebenyuk

Lecturer of the Department of Library and Information Activities

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**TRANSFORMATION OF THE FIELD OF ART AND CULTURE:
BOOKTUBE CONTENT AS A NEW TYPE OF BIBLIOGRAPHIC
PRODUCTION**

***Annotatsiya:** Ushbu maqola ommaviy axborot vositalarining rivojlanishidagi zamonaviy tendentsiyalarni ko'rib chiqadi, bunda bibliografik mahsulotlarning yangi turi sifatida buktub tarkibiga e'tibor qaratiladi. Maqolada Internet texnologiyalarini raqamlashtirish va joriy etish sharoitida bibliografik mahsulotlarning an'anaviy shakllarini o'zgartirish va bu jarayonda kutubxonalarning roli muhokama qilinadi. O'zbekiston kutubxonalari misolida kutubxona amaliyotida buktub kontentidan foydalanish, uning o'quvchilar bilan o'zaro munosabat va o'qishni targ'ib qilishga ta'siri tahlil qilinadi. Buktyub tarkibini o'rganish uchun ishlatiladigan tadqiqot usullari keltirilgan va zamonaviy sharoitda uning ahamiyati to'g'risida xulosalar chiqarilgan.*

***Kalit so'zlar:** bibliografik mahsulotlar, O'zbekiston kutubxonalari, bloglar, buktyublar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, kutubxonalarni raqamlashtirish*

***Аннотасуя:** В данной статье рассматриваются современные тенденции в развитии массмедиа, с акцентом на буктуиб-контент как новый вид библиографической продукции. В статье обсуждается трансформация традиционных форм библиографической продукции в условиях цифровизации и внедрения интернет-технологий, а также роль библиотек в этом процессе. На примере библиотек Узбекистана анализируется использование буктуиб-контента в библиотечных практиках, его влияние на взаимодействие с читателями и продвижение чтения. Приводятся методы исследования, используемые для изучения буктуиб-контента, и делаются выводы о его значимости в современных условиях.*

***Ключевые слова:** библиографическая продукция, библиотеки Узбекистана, блогинг, буктуиб, массмедиа, социальные сети, цифровизация библиотек*

***Annotation:** This article examines modern trends in the development of mass media, focusing on BookTube content as a new type of bibliographic product. The article discusses the transformation of traditional forms of bibliographic products in the context of digitalization and the implementation of internet technologies, as well as the role of libraries in this process. Using examples from Uzbek libraries, the article analyzes the use of BookTube content in library practices, its impact on reader engagement, and the promotion of reading. The research methods used to study BookTube content are presented, and conclusions are drawn about its significance in contemporary settings.*

***Keywords:** bibliographic product, blogging, BookTube, digitalization of libraries, mass media, social networks, Uzbek libraries*

Introduction. The mass media plays a key role in shaping public opinion, providing information and entertainment, and also serves as a channel for advertising and communication between organizations and a wide audience. At the same time, speaking of the library service, the bibliographic products listed above are produced by the relevant department/employee of the information and library institution (ILI). Thus, it can be assumed that the content posted by libraries on their social networks is a continuation of bibliographic work in a modern digital society.

Methods: the analytical method was used to study the use of booktube content in library practices; the qualitative method was used as a case study based on examples of specific libraries that integrate booktube content into their information resources; a method for generalizing and systematizing the data obtained about booktube content and its role in librarianship, as well as deducing the main trends and proposals for the integration of book-tube content into bibliographic products

Bibliographic products (BP) are a set of various forms and types of documents that contain bibliographic information and serve to meet the scientific, educational, informational and cultural needs of society [1]. It is the result of systematic activities aimed at collecting, processing, analytical description, systematization and dissemination of information about publications and other information sources.

The development of Internet technologies and the transition to virtual forms of communication increasingly affects traditional social practices, which leads to their partial or complete replacement. This is also noticeable in the field of bibliographic products, where classical forms such as printed bibliographic manuals and reference books are becoming less relevant.

Modern technologies and digital platforms offer new ways to access information and interact with users, which change the idea of how bibliographic data should be presented and disseminated. Virtual libraries, electronic resources and online databases are becoming the main sources of information, and traditional printed publications are gradually giving way to digital formats.

Thus, the usual forms of bibliographic products (catalogs and bibliographic indexes) are undergoing significant changes. They are being replaced by new

formats that offer more flexible, interactive and affordable solutions. These changes also contribute to the emergence of new types of bibliographic products, such as video content about books and literature posted on platforms like YouTube [2]. This format represents a modern approach to the dissemination of bibliographic information and opens up new horizons for interaction with the audience. It is important to understand how these new forms of content affect the traditional view of bibliographic manuals and how they can be integrated into modern bibliographic practices to meet the needs of modern users.

Initially, the platforms for posting video content were maintained by users as personal blogs [3, p. 281]. Over time, blogging develops into a marketing tool, and companies begin to consider it as a means of advertising their products. This is how bookblogging appears [4, p. 570]. The book blog provides an opportunity not only to talk about the book, but also to discuss what you have read with other readers, which turns the blog into a kind of "book club". ILI could not but take advantage of this innovation of its time, although initially bookblogging was the prerogative of bookstores and publishers [2].

Book blogging on social networks (Instagram) and video hosting services (YouTube) have become widespread, both among individual users and libraries, and their own household names "booktube" and "bookstagram" [5]. Internet users who run relevant blogs on the YouTube platform are called booktubers, and their context is booktubes.

At the moment, the booktuber channel can be divided into separate sections:

- Book purchases — a format in which the author of the channel shares his recent book purchases. In such a video, the emphasis is on the personality of the blogger, and not on the books themselves. This format is an effective tool for promoting books from specific publishers.

- Bookshelves include an overview of one of the shelves located behind the blogger, whether it's a bookcase or just a shelf of books — this is often used as a background in bookblogs. Interestingly, each shelf is usually organized around a specific topic, such as books for women, fantasy, self-care literature, and more.

- The reading is devoted to discussing recently completed books.
- The review of works is a section that represents a key element of the modern

book tube channel. Depending on the style of each blogger, such reviews can range from short videos lasting 5-8 minutes, where the blogger shares his general impressions of the book, to deeper and longer analyses lasting 30-50 minutes, including a detailed discussion of the strengths and weaknesses of the work, an analytical analysis of the plot, characters, subject matter and style.

- Tops. In this section, the channel's author presents viewers with lists of books grouped by specific topics. These can be, for example, the top 10 books of the year or a selection of the best works to create a spring mood and other topics.

On the territory of Uzbekistan, library booktubers are mainly employees with extensive experience and who have read a really considerable number of works. The content created by the booktuber librarian, for the most part, consists of a review of works and tops that can be recommended for reading. Thus, an analogy can be drawn between book-tube content and traditional bibliographic products.:

- The booktube review is a digital form of a bibliographic review familiar to readers, which they can view remotely at a convenient time;

- booktube is a TOP analogue of large forms of BP (bibliographic index, review) and small forms of BP (list, booklet, reading plan, memo), which has an important advantage – audio–visual accompaniment.

For example, the National Library of Uzbekistan named after him acts as booktubers. Alisher Navoi and the regional, city and district information and library centers under her command [6, 7, 8], talking about new books, promoting Uzbek and world classics, as well as sharing their impressions of what they read.

As a result of the analysis, it can be concluded that booktube content represents an important and promising direction in the development of bibliographic products, especially in the context of digitalization and the growing popularity of social media. Libraries that actively use this format not only attract attention to their resources, but also contribute to the formation of new formats of interaction with readers. In the context of the dynamic change of the information field and the

virtualization of traditional library functions, booktube content can become an integral part of modern bibliographic work, offering new opportunities to popularize books and reading among a wide audience.

In addition, the practice of libraries in Uzbekistan, which actively integrate book-tube content, demonstrates the success of this approach in a local context. This opens up prospects for further study and use of digital formats in bibliographic practice, which can help expand the audience and improve access to information.

Thus, the booktube content can be considered as a new, but already significant element of modern bibliographic products, which deserves attention both in scientific and practical terms.

СПИСОК ЛІТЕРАТУРИ:

1. Трачук, Л.Ф. Классификация электронной библиографической продукции / Л.Ф. Трачук, Г.Н. Швесова-Водка // *Научные и технические библиотеки*. – 2009. – №. 8. – С. 33-46.
2. Безгина, В. Е. Буктуиб как способ популяризации чтения / В. Е. Безгина, И. В. Костенко, Н. А. Бражникова // *Информационные и коммуникативные технологии. Проектная деятельность в образовательном и информационно-коммуникативном процессе: опыт и перспективы: сборник научных статей по материалам III Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, Симферополь - Гурзуф, 22–25 мая 2019 года*. – Симферополь - Гурзуф: Общество с ограниченной ответственностью «Издательство Типография «Ариал», 2020. – С. 109-115. – EDN ROIFP.
3. Филатова, О.Г. Блоги и СМИ, гражданская и традиционная журналистика: соотношение понятий // *Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература*. – 2010. – №. 4. – С. 281-287.
4. Менишатова, О. В. Книжный блогинг как способ продвижения книги и чтения / О. В. Менишатова // *Актуальные тенденции социальных коммуникаций: история и современность : Сборник научных статей. Том Часть 2*. – Ижевск : Издательский дом "Удмуртский университет", 2020. – С. 568-573. – EDN EKSKUN.
5. Ковпак, В.А. Українські буктуиб та букстаграм: дискурси культури читання української книги та національної безпеки / А.В. Ковпак, О.О. Політова // *Вчені записки*. – 2021. – Том 32 (71) № 6 Ч. 3. – С. 126-131.
6. *O'zbekiston Milliy kutubxonasi sizga tavsiya etadi* // YouTube. – URL: https://www.youtube.com/watch?v=xs1_SYazfdE.
7. *Temur Tuzuklari* // YouTube. – URL: https://www.youtube.com/watch?v=ITb68_hNZlQ.
8. *Йоганн Гете «Фауст»* // YouTube. – URL: <https://www.youtube.com/watch?v=DMxmh-oVqVQ>

Людмила Муминходжаева

*Государственный институт искусств
и культуры Узбекистана, преподаватель кафедры «Библиотечно-
информационная деятельность»*

Ораторское искусство как одна из компетенций современного руководителя библиотечно- информационного учреждения

***Аннотация:** В статье рассматриваются компетенции современного руководителя библиотеки, которые проявляются в профессиональной деятельности, включающие ораторское искусство и умение общаться, необходимые для осуществления управленческих воздействий специалиста-лидера.*

***Ключевые слова:** руководитель, библиотека, компетенция, речь, общение.*

***Annotatsiya:** Maqolada professional faoliyatda namoyon bo'ladigan zamonaviy kutubxona rahbarining vakolatlari, shu jumladan mutaxassis rahbarning boshqaruv ta'sirini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan notiqlik va muloqot qilish qobiliyati ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** rahbar, kutubxona, vakolat, nutq, aloqa.*

***Abstract:** The article examines the competencies of a modern library manager, which are manifested in professional activities, including public speaking and communication skills necessary for the implementation of managerial influences of a specialist leader.*

***Keywords:** supervisor, library, competence, speech, communication*

Формирование компетенций руководителя-лидера библиотеки редко рассматриваются специалистами сферы культуры. Такой автор как Е. Кузьмин отмечает, что именно профессиональные лидеры библиотеки, директора и специалисты библиотек «должны формировать и общую идеологию развития библиотечного дела в стране, и идеологию развития на каждом конкретном направлении» [1, с. 130].

Необходимо отметить, что профессионализм - обязательный критерий оценки качества руководства. Между тем, во многих библиотеках к руководству приходят люди, не имеющие профессиональной библиотечной подготовки или опыта работы в библиотеке, то есть не обладают достаточными компетенциями.

Содержание термина «компетенция» анализируется многими теоретиками и одни выражают полное неприятие компетентности как содержательного понятия (М. Е. Бершадский), другие считают её наиболее важной при оценке и развитии отдельных характеристик профессионализма (П. Г. Щедровский).

Само слово «компетентность» от латинского глагола «пето» означает: «стараюсь», «добиваюсь», «ищу», «стремлюсь» и др., а префикс «со» придает глаголу собирательное значение [2, 19].

Характеризуя потенциал руководителя, его способности решают сложные управленческие задачи, в первую очередь необходимо отметить уровень развития его управленческих компетенций. Управленческая компетенция – личное или деловое качество, навык, модель поведения, которые помогают успешно решать определенную управленческую задачу. Отсутствие той или иной управленческой компетенции у личности снижает ее компетентность в управленческой сфере.

Ораторское искусство или искусство публичного выступления – это гармоничное изложение и красивая подача мысли, другими словами техника актерского мастерства, с помощью которого оратор доносит свою позицию до аудитории. Приложение ее весьма актуально не только для руководителей, но и для сотрудников современных библиотек, поскольку мероприятия – это основной инструмент привлечения читательской аудитории. Владение и успешное применение навыков ораторского искусства украсит любое мероприятие. Хорошая дикция, поставленная речь и убедительность позволяют человеку чувствовать себя более уверенно и комфортно перед слушателями, мероприятие с таким выступающим всегда проходит более плодотворно. Некоторым людям овладеть мастерством ораторского искусства удается легко, а другим приходится учиться и тренироваться всю жизнь.

Почему так важно владеть ораторским искусством? Прежде всего, это помогает доносить до аудитории любую информацию, защищать собственное мнение, строить конструктивный диалог, аргументированно дискутировать и

многое другое. Что мешает хорошо выступить? Страх – это главная причина. Чаще всего выступающий боится провала и осуждения. Самое важное – это подготовка. К выступлению нужно хорошо подготавливаться, репетировать, необходимо знать текст или тему, о которой будет идти речь. Основные моменты, на которые нужно обратить внимание при подготовке к мероприятию, это темпоритм, грамотность, паузы, психологический настрой и контакт с аудиторией. Кроме этого нужно подумать о подготовке и репетиции – необходимо писать речь или сценарий и репетировать с коллегами или партнерами. Ораторское искусство - это важный навык для современного руководителя, специалиста библиотеки, без которого сложно взаимодействовать с аудиторией. Ведь сейчас библиотеки – это не просто место получения информации, а интеллектуальные пространства для проведения встреч, конференций, семинаров, выставок, крупных мероприятий и фестивалей.

То, что говорит руководитель, в управленческом воздействии играет ключевую роль. Неспроста умение разговаривать и убеждать считается величайшим искусством, талантом, которым обладает далеко не каждый. Суть не в том, чтобы сообщить человеку что-то. Необходимо «разжечь» его, спровоцировать сильные душевные волнения, раскрыть его внутренний потенциал на реализацию трудновыполнимых задач [4, 262].

Выбирая то или иное средство общения, надо помнить: оно должно быть доступно для восприятия обеими сторонами и в большей степени отвечать характеру информации. Что сильнее будет воздействовать на партнёра в завтрашней беседе – слово или поза, слово или жест? Если слово, то в какой форме? Как сделать его выразительным? Как повысить убедительность слова? Главное – продумать возможные средства непосредственного общения и выбрать наилучшие. Непосредственное общение является исторически первой формой общения людей друг с другом. На его основе на более поздних этапах цивилизации возникают различные формы посредственного общения. В последние годы специалисты-психологи всё чаще говорят о партнёрском и не

партнёрском общении, причём главное различие между ними определяется умением и желанием учитывать позиции, мнения, оценки партнёра. Партнёрский вид общения означает высокую степень сотрудничества в выработке общей позиции по обсуждаемому вопросу. Партнёра выслушивают, не прерывая, не оценивают преждевременно и поспешно его суждений и поступков, не навязывают ему советов, стремятся быть понятыми другим человеком. В результате создаются условия для самораскрытия, искренности, открытости, для столь необходимой каждому человеку возможности быть самим собой.

Если не поддерживать постоянную коммуникацию, в коллективе будут копиться вопросы и недопонимание. Сотрудники на собраниях начнут спрашивать не об актуальных задачах, а о своих опасениях, будут пытаться получить обратную связь по прошлым задачам. Это путь к хаосу и потере времени. Чтобы не допускать этого, руководителю на регулярной основе стоит давать обратную связь по всем текущим задачам.

Готовясь к выступлению на собраниях по важным поводам, надо ориентироваться на запрос работников: они захотят узнать, как новость повлияет на них. Расскажите людям, как предмет обсуждения изменит ход работы: что произойдет с проектами, премиями и процессами компании в целом.

Для регулярных выступлений полезно заранее задавать вопросы: «О чем сегодня вы хотите от меня узнать? Чем я могу быть вам полезен прямо сейчас?». Если вы используете корпоративный портал, собирать обратную связь можно через него: выгрузить полученные вопросы и выступать по существу.

Люди не любят нововведения, поэтому рассказывайте о них по схеме: «Как есть - как может быть». Вместо того, чтобы сразу переходить к идее, вы сначала готовите аудиторию и погружаете ее в текущий контекст, ситуацию «как есть». Затем рисуете позитивную картину будущего - «как может быть».

В ней ключевые проблемы уже решены, процессы идут эффективнее, все в выигрыше.

В результате неправильного выбора формы общения, снижения культуры общения с персоналом, поставщиками, потребителями библиотеки или в следствие неправильной функциональной направленности общения снижается мотивация сотрудников, морально–психологический климат в организации, в целом снижается имидж и эффективность деятельности руководителя учреждения.

Литература:

1. Кузьмин Е. И. Библиотечная Россия на рубеже тысячелетий. Государственная политика и управление библиотечным делом: смена парадигм / Е. И. Кузьмин. – Москва: Либерия, 1999. – 224 с.

2. Арганы Н. Ф. Когнитивно-стилевая дифференциация обучения как условие развития профессиональной компетентности будущего специалиста дис...канд пед. наук. – Иркутск, 2006. – 164 с.

3. Бутурлова Е.А. Ораторское искусство - важный навык / Е.А.Бутурлова. – [Б.м.], 2024. – Режим доступа: [хтпс://сланлиб.ру/newc/ораторское-искусство-важний-навык-для-современного-библиотекаря/](https://сланлиб.ру/newc/ораторское-искусство-важний-навык-для-современного-библиотекаря/)

4. Бандурка А. М. Психология управления / А.М. Бандурка, С.П. Бочарова, Е.В. Землянская. - Москва: Фортуна-Пресс, Реноме, 1998. - 464 с.

Marg'uba Qodirova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

O'zbek va jahon filologiyasi

SAHNA NUTQIDA HURMAT KATEGORIYALARINING IFODALANISHI

Annotasi Y. Ushbu maqolada sahna nutqida hurmat kategoriyalarining xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'zbek tilida hurmat kategoriyalarini tahlil etishda ushbu tilda mavjud, murakkab jarayon hisoblanmish hurmat ma'nosining mavjud yoki mavjud emasligi, uning o'rni, tarjima hodisasi, shuningdek, muloqot obekti ekanligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Hurmat, xulq, ahloqiy fikrlash, qadriyatlar, izzat-nafs, insoniy fazilatlar, adolatparvarlik, insonparvarlik, tarbiya, andisha, salomlashish odobi, hikmatli so'zlar.

Аннотасия В данной статье рассматривается характеристика категорий уважения в сценической речи. Также при анализе категорий уважения в узбекском языке изучались наличие или отсутствие значения уважения, которое представляет собой сложный процесс в этом языке, его место, феномен перевода и объект общения.

Ключевые слова: приветствие, объятие, жест, радоваться, запрос, согласие, мим, лук, лояльность, пожимание плечами, уважать, кивать, улыбка, тон, тембр, поведение, уверенность, эмоции, настроение

Abstract: This article examines the characteristics of categories of respect in stage speech. Also, when analyzing the categories of respect in the Uzbek language, the presence or absence of the meaning of respect, which is a complex process in this language, its place, the phenomenon of translation and the object of communication were studied.

Key words: greeting, hug, gesture, rejoice, request, agreement, mime, bow, loyalty, shrug, respect, nod, smile, tone, timbre, behavior, confidence, emotions, mood.

Regardless of their culture, people use a variety of nonverbal expressions in their daily lives. In Uzbek culture, nodding to approve and agree with something, waving an index finger to warn someone, clapping to praise someone, and showing a thumb to show that something is great are also widely used.

One of the similar features of Uzbek is the way of greeting between people who shake hands when greeting in stage speech. But when greeting, asking many questions about family, work, health is characteristic of the Uzbek people from the point of view of politeness, and not giving a detailed answer to each question is considered as a normal situation that does not happen in the same way. It is accepted as a greeting in English. Also, in English culture, it is considered disrespectful to look at an elderly person's face while speaking. In general, one cannot relate to the opposite of a person. Obviously, staring is considered impolite in both cultures.

A person expresses information briefly and succinctly in a live conversational speech, actively uses non-verbal means to increase the emotionality and impact of the thought. In the process of communication, the addressee is distinguished by hand, head, shoulder, body, facial movements, high and low voice, shortness of the length, and the uniqueness of pronouncing words while conveying certain information to the addressee.

In recent decades, linguists, social sociologists and representatives of other fields have been paying more attention to the application of nonverbal means. Modern experts are trying to study non-verbal means such as facial expressions, eye gaze, gestures and gestures with minute details. In the Middle Ages, European scientists mainly dealt with gestures (body movements) among non-verbal means. At this point, it is appropriate not to forget Grays' opinion that "getting more results with less effort, i.e. the information communicated is at the required level and not providing excessive information determines the effectiveness of communication" and it is appropriate to take them into account for the analysis of the communication process.

"The auditory form of nonverbal behavior is silence," Krestinsky explains. The reason why the scientist calls silence the auditory form is that we hear silence, that is, we hear the absence of speech communication - interference, and this state (silence) has some effect on the listener. The addressee draws attention to the silence, we first receive it through our hearing organs, it affects our brain, and then it creates certain qualities under the influence of our feelings.

So, art and culture is so important in Higher Education Institution , especially to young, impressionable students because it establishes behavior- it simply becomes what they know. It also gives an overview of how peoples' behaviors vary from one place to another. Any change in them can impact affect the world we live in some way so we better embrace with them keen understanding.

REFERENCE

1. Saidkhanov M. *"Nonverbal means and their expression in Uzbek"*. Dissertation for the degree of Ph.D. Tashkent, 1993. 46 B
2. Burrow J. *Gestures. In Gestures and Looks in Medieval Narrative (Cambridge Studies in Medieval Literature)* – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. –P. 11.
3. Ashurova D.U. “*Новіе підходи к лінгвістике текста*”// *Xorijiy filologiy*. – Samarqand, 2011. 26-30 B.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Analitik_tillar.
5. <http://www.islomovozi.com/?p=601>

Ramuza Qazaqbayeva

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Nukus filiali “Rejissura san’ati” kafedrasi oqituvchisi*

KECHINMA SAN'ATI NAMOYONDASI ZAYNAB SADRIYEVA

IJODIGA NAZAR

***Annotatsiya.** Zaynab Sadriyevaning teatr san'atiga kirib kelishi, Hamza nomidagi akademik drama teatridagi ijodiy faoliyati va yaratgan obrazlari.*

***Kalit so'zlar:** Aktrisa, teatr, replika, ijod laboratoriyasi, spektakl, obraz, san'at, repititsiya, Stanislavskiy, sahna, Uyg'un, qirra, iqtidor, asar, komediya, talqin.*

***Аннотация.** Вхождение Зайнаб Садриевой в театральное искусство, творческая деятельность в академическом драматическом театре имени Хамзы и созданные ею образы.*

***Ключевые слова:** актриса, театр, реплика, творческая лаборатория, спектакль, образ, искусство, репетиция, Станиславский, сцена, гармония, край, талант, пьеса, комедия, интерпретация.*

***Annotation.** Zaynab Sadriyeva's entry into the theater art, her creative activity and the characters she created in the academic drama theater named after Khamza.*

***Key words:** actress, theater, replica, creative laboratory, performance, image, art, rehearsal, Stanislavsky, stage, Uyg'un, edge, talent, work, comedy, interpretation.*

Aktyor rejissor irodasiga bo'ysungan materialdir. Rejissorning fikri, orzu-istaklari, badiiy reja va niyatlarini, ilmiy salohiyati va hayotiy kuzatuvlarini, tasavvuri, didi va ehtirolari, barchasini sahna harakati va vujudi orqali keng ko'lamda ro'yobga chiqarib, namoyish qilib beruvchi bu aktyordir. Jahon teatr san'atining nazariyasi va amaliyotida buyuk alloma rejissor K.S.Stanislavskiy aktyor ijodining ikki yo'nalishini aniqlab bergan.

1. Kechinma maktabi
2. Namoyish maktabi

Bundan tashqari K.S.Stanislavskiy aktyorlik san'atining mohiyatini ochib bergan bu ikkala maktabda, hayotda san'atning o'rni va roli, uning estetik tamoyillarini ifodalagan, asoslagan.

Kechinma san'atida aktyor har gal ijrosida yangi qiyofaga kiradi, butun jarayonni qaytadan vujudidan o'tkazadi. Teatr san'atining jozibasi ham mana shunda. Rolda berilgan shart-sharoit to'g'ri mushohada qilinib, harakat yo'nalishi to'g'ri olib borilsagina hayotiy, tabiiy chiqadi. Aktyorning ichki va tashqi texnikasi, inson tabiatining qonunlariga asoslanib, ovozi jussasidan to'g'ri va unumli foydalangan holda tasavvur olamiga boy, kuzatuvchan, hayotni chuqur bilgandagina zalvorli qiyofalar yaratiladi. Kechinma aktyori inson qiyofasiga, ruhiyatiga izchil kirib borishi, uning xarakterini mukammal ochib berishi kerak. Mana shunday xususiyatlari bilan obrazlari orqali tomoshabinni larzaga solgan, o'ylantirgan, qalbini jumbushga keltirgan buyuk aktyorlarning biri Zaynab Sadriyeva hisoblanadi. U har bir roli bilan tomoshabinga olam-olam estetik zavq bag'ishlagan.

Zaynab Sadriyeva 1914-yilning 25-oktabrida Astraxan shahrida tug'ilgan. Otasi shakar zavodining oddiy ishchisi bo'lgan. 1920-yili zavodning Toshkentga ko'chirilishi sababli Zaynab Sadriyeva ota-onasi bilan birga Yangiyo'lga ko'chib keladi. Uning bolaligi Yangiyo'lning Qovunchi qishlog'ida o'tgan. Voyaga yetgach Toshkent xotin-qizlar Bilim uyida tahsil oladi. Bu boloxonali uy Xamza nomidagi akademik drama teatri sobiq binosining ro'parasida bo'lib, ko'chaning bu yuzida-teatr, u yuzida Bilim uyi va yotoqxonalar joylashgandi. Kunlarning birida teatr ma'muriyati Bilim uyi talabalarini "Halima" spektaklini tomosha qilishga taklif etadi... Uning teatr san'atiga sayohati aynan shu kundan boshlanadi. U teatrga ko'ngil qo'yadi. Bu dargoh sirli olamdek tuyulib, g'alati muhitdan boshi gangib ketdi. Shu kuni u aktrisa bo'lishni orzu qildi.

1930-yilning 4-dekabri Zaynabning hayotida unutilmas kun bo'ldi. Shu kuni uni bir xonaga boshlab kirishdi. Bu yerda Mannon Uyg'ur, Yatim Bobojonov, Ma'suma Qoriyeva va bir necha sozandalar o'tirishardi. Uni har tomonlama sinab ko'rishdi. Nutqini, ovozi, talaffuzi, ritmi his qilishini, raqs tusha olishini tekshirishdi. Zaynab Hamza nomli teatr filiali - O'zbek Davlat ishchi teatri truppasiga qabul qilindi.

Teatrdagi ilk eng katta obrazi - Hamzaning shoh asari "Boy ila xizmatchi" pesasidagi Poshshooyim roli bo'ldi. Atoqli rejissor Yatim Bobojonov boshchiligida

pesa bir necha marotaba sinchiklab o‘qib chiqildi. Rollar taqsimotidan keyin Zaynab o‘z obrazi ustida tinmasdan mashq qildi. Aktrisa dastlabki repititsiyalarda holatga kirolmay rosa qiynaldi. Son-sanoqsiz mashqlar samarasiz o‘tdi. Y. Bobojonov: “Zaynab, hayajonlanma, o‘zingni qo‘lga ol. Poshshooyimning tili boshqa-yu dili boshqaligini unutma! Har bir harakating “qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit” qabilida bo‘lishi kerak”, - deya sabr-toqat bilan uqtirardi. O‘sha kuni aktrisa o‘zicha teatrdan ketishga qaror qildi.²²

Mahoratli aktrisa Sora Eshonto‘rayevaning maslahatidan keyin u obrazni hayotdan, atrofidan izlay boshladi. Navbatdagi repititsiya muvaffaqiyatli o‘tdi. Bu spektakl unga katta mahorat maktabi bo‘ldi. U tanaffus vaqtlarida ham kulis chekkasida o‘tirib faqat va faqat o‘z roli haqida o‘ylardi. Mannon Uyg‘ur singari Yatim Bobojonov ham sahna nutqiga, talaffuz madaniyatiga juda katta ahamiyat berar edi. Bu spektakl jarayonida boshqa sahnadoshlari qatori Zaynab ham nutq madaniyati borasida katta tajriba orttirdi. Zaynab juda talabchan va izlanuvchan aktrisa edi. Har bir obrazini mukammallik darajasiga yetkazishga harakat qilar edi.

Keyingi yirik rol “Holixon” dramasiidagi Mastura obrazi bo‘ldi. Mastura obrazini yaratish oson bo‘lmadi. Dastlab u nuqul Poshshooyimga o‘xshab qolaverdi. Aktrisa Masturaning gap-so‘zlari, o‘zini tutushi, qilmishlarini tahlil etib, bir gapirib o‘n kuladigan, kulganda ham beo‘xshov ovozi yetti mahallaga eshitaladigan erkakshoda, uddaburon, o‘ynoqi ayol timsolini shakllantirdi. Zaynabning Masturasi haqida uning sahnadoshi A. Turdiyev: “Mastura satang Zaynab Sadriyevaning “qiyib qo‘ygan” rollaridan biri edi”... degan edi.²³

Urush yillarida teatr jamoatining asosiy maqsadi xalqni ruhlantirish, g‘alabaga ishonchni orttirish edi. Shu yillari teatr sahnasida bir qancha har bir iborasi yovga o‘q bo‘lib qadaladigan, tomoshabinni jasur, irodali bo‘lishga chorlaydigan asarlar sahnalashtirildi. “Front”da Kampir, “Hamza”da Eshonoyim, “Brandenburg qopqasi”da Katya, “Dengizdagilar uchun”da Xaritonova, “Hayot qo‘shig‘i”da Ma‘rifat, “Ikki boyga bir malay”da Smeraldina, “Moskvaliklar xarakteri”da

²² O‘zbek teatri va kinosi ustalari “Zaynab Sadriyeva” Marva Jaloliddinova. 1987-yil. 19-bet

²³ Amin Turdiyev. “Sahnam, sahnadoshlarim”, Toshkent, “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1976-yil

Severova kabi turli-tuman rollarni ijro etdi. Bu obrazlar uning aktyorlik biografiyasini boyitib, kamolotida o'ziga xos bosqich bo'ldi. 1949-yili A.N.Ostrovskiyning Odil Rahimiy tarjima qilgan "Aybsiz aybdorlar" pesasi sahnalashtirildi. Zaynab Sadriyevaga asarning bosh qahramoni Lyubov Ivanovna Otradina, keyinchalik Elena Ivanovna Kruchinina roli topshirildi. Dini, tili, millati boshqa bo'lgan odamlar qiyofasini yaratish ijodkor oldiga yangi-yangi vazifalar, talablar qo'yadi. Demak, artist obraz ustida ishlay boshlashdan oldin qahramon yashagan davrni, kishilarning urf-odatlarini, psixologiyasi, ichki dunyosi va tashqi qiyofalarini o'zicha aniq tasavvur etishi lozim. "Poshshooyim, Mastura satang obrazlarini nechog'lik qiynalib yaratgan bo'lsam, undan keyingi obrazlarimni ham osongina yaratdim, deb aytolmayman,-deb xotirlaydi aktrisa.-Meni tashqi o'xshashlikdan ham ko'ra obrazning ichki olami ko'proq qiziqtirar edi...- Kruchinina obrazi menga juda ma'qul bo'ldi. Uning ichki kechinmalarini o'z tanamda his etib ko'rdim. Holati, har bir jumlasini o'zining gaplarimdek, juda yaqin, tanish holatlar edi..."²⁴ . Aktrisa Kruchininasining tashqi ko'rinishi ham, o'zini tutishi, harakatlari, yurish-turishi ham rus millatiga xos bo'ldi. Uning ijrochilik uslubi yanada boyigani, kengaygani yaqqol ko'zga tashlandi, ya'ni u voqea davomida so'zsiz sahnalarda ham dilidagi tug'yonni to'la va aniq ifodalay oldi. Holatni mimika orqali ham yetkazib bera olishi, obrazga butun borlig'i bilan sho'ng'ib ketishga qodirligini namoyish etdi. Uning ijodida komedik, tragedik va dramatik rollar o'rin egalladi. U o'zining qirralari ustida tinmasdan ishladi. Kino va teatr yulduzi darajasiga yetdi. "Kelinlar qo'zg'oloni" (Rej: Bahodir Yo'ldoshev)dagi Farmonbibi, "Suyunchi" badiiy filmidagi Anzirat buvi obrazlari milliy bo'yoqlarga boyligi, hayotiyli bilan har birimizning xotiramizdan chuqur o'rin egallagan.

Aktrisa teatrdagi qariyb 50 yillik ijodiy faoliyati (1930-yildan 1976-yilgacha) davomida 100 dan ortiq rollarni ijro etgan. Uning har bir obrazi bir-biridan tubdan farq qilar edi. U hayot haqiqatiga asoslangan, takrorlanmas rollarni shakllantirdi, namoyish etdi. Turli janrlardagi obrazlarni maromiga yetkaza oldi va minnatdor

²⁴ Z.Sadriyeva bilan 1979-yil 15-martda o'tkazilgan suhbatdan.

tomoshabinlar qalbida hamisha ezgu hislar uygʻotdi. U hechqachon sahnani va oʻzini aldamadi, oʻz kasbiga hiyonat qilmadi. Teatrda yosh qizaloqlik davrida kelib, umrining soʻnggi yillarigacha mehnatsevarlik bilan ijod qildi. Yetuk aktrisa, ajoyib ustoz, sahna sanʼati ustasi boʻla oldi. 1952-yilda Oʻzbekiston xalq artisti, 1979-yili Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati boʻldi.

Haqiqiy sanʼat insonni tarbiyalaydi, dunyoqarashini shakllantiradi. Ong-tuygʻulariga, ijtimoiy hayotiga taʼsir koʻrsatadi. Kechinma sanʼatining asosiy mezoni kishi hayotining ichki dunyosini ochish, rolda inson ruhiyatini yaratish, badiiy shakllarda tomoshabinga maʼnaviy ozuqa berish, har bir ijroda odamning ichki ruhiy omillariga singib borishdan iboratdir. Kechinma sanʼatida qiyofa yaratayotgan aktyor hayotning natijasini emas, uning harakatdagi jarayonini ochib berishi va ijod jarayoniga aktyor oʻzini baxshida etishi lozim boʻladi.²⁵ Zaynab Sadriyeva oʻz ijod yoʻli bilan kechinma sanʼatining maktabini yaratib, oʻzidan juda katta meros qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Zaynab Sadriyeva” Oʻzbek teatri va kinosi ustalari”. Marva Jaloliddinova . Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1987.
2. “Teatr sanʼatining xususiyatlari”. Mahmudjon Gʻulomov. “Oriental Art and Culture” Scientific Methodical Journal. Volume 5 Issue 3. June 2024
3. <https://www.youtube.com/@UZBEK-TV> “Sogʻinch” Zaynab Sadriyevani sogʻinib .
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Zaynab_Sadriyeva
5. “Rejissura asoslari”. J.Mahmudov, H.Mahmudova. Toshkent. OʻzDSMI bosmaxonasi.2008

Aziza Xurramova

*Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instiuti
magistranti*

²⁵ Mahmudjon Gʻulomov “Teatr sanʼatining xususiyatlari “Oriental Art and Culture” Scientific Methodical Journal Volume-5 Issue-3 . June 2024. 153-bet

KINOSSENARIY TILINI SHAKLLANTIRISHDA REJISSYOR

MAS'ULIYATI:

(Jahongir Qosimovning "Ibrat" filmi misolida)

Annotasiya. *Mazkur maqola rejissyorning film senariysi ustida katta mehnat qilishi haqida. Senariyda tilning ahamiyati va aktyorlar nutqining sifati to'g'risida.*

Kalit so'zlar: *film, senariy, til, nutq, jadid, ma'rifat, rejissyor, dialoglar.*

Аннотасия. *Данная статья посвящена большой работе режиссёра над сценарием фильма. О важности языка в сценарии и качества речи актёров.*

Ключевые слова: *фильм, сценарий, язык, речь, джадид, просветление, режиссёр, диалоги.*

Annotation. *This article is about the director's extensive work on the film's script. About the importance of language in the script and the quality of speech of the actors.*

Key words: *film, script, language, speech, jadeed, enlightenment, director, dialogues.*

Shonli tariximizning XIX asr oxiri XX asr boshlarida ilm sohiblaridan tashkil topgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy jadidchilik harakati yuzaga keladi. Bu harakat namoyondalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolyotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar[1]. Ular ilm-ma'rifat, ta'lim, madaniyat hamda erkinlik, hurlik g'oyalarini targ'ib qiluvchilar, buning uchun jasorat bilan kurashuvchilar sifatida mamlakatimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. Bugungi kunga kelib, ularning g'oyasi, harakatlari va maqsadini anglagan Prezidentimiz tomonidan, jadid bobolarimizning ilmiy, ma'rifiy va adabiy merosini saqlab qolish yo'lida juda ko'plab sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Bu harakatlarning amaliy ifodasi sifatida Jahongir Qosimovning "Ibrat" filmi misol qilish mumkin.

2020-yil 1-oktabridan "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan yurtimiz kinoteatrlarida O'zbekiston kinematografiya agentligi buyurtmasiga

binoan “Kinomaniya” studiyasi tomonidan suratga olingan “Ibrat” filmi premerasi bo‘lib o‘tdi. Aynan, shu bayram munosabati bilan omma e‘tiboriga taqdim etilishi bejizga emas. Ishoqxon To‘ra Ibrat atoqli pedagog, tilshunos, tarixshunos olim, sayyoh, o‘tkir didli hattot va rassom hamdir[2]. Uning biz kelajak avlodga qoldirgan ilmiy merosi, adabiyotlari Ibrat shaxsiyatining buyuk murabbiy ekanidan dalolatdir.

Bir yuz yigirma to‘rt daqiqadan iborat “Ibrat” filmi davomida rejissyor J.Qosimov bosh qahramon, tarixiy shaxs, jadid, yozuvchi, tarjimon-poliglot, tarixshunos Ishoqxon To‘ra Junaydullo o‘g‘lining ayanchli yakun topgan hayoti, umri davomida qilgan ishlarini aks ettirishga harakat qiladi. Filmda Ibratning murakkab yillarda yengilmas, matonatli, xalq manfaati va maqsadi yo‘lida kurashlardan qaytmaydigan fe‘l-atvor egasi ekanligini ko‘rsatib berish bilan birga el tinchligi, to‘qligi va ertasi faqat ma‘rifat bilangina qo‘lga kiritilishi mumkinligi ilgari surilgan. Ibrat domlaning dunyo kezishi, til o‘rganishi, neki yangilik va yaxshilik uchrasa ona yurtiga tatbiq etishga harakat qilishi, yurtning ma‘rifat va ozodlikka erishish g‘oyasini targ‘ib etadigan, qayerda va qay holatda bo‘lmasin ma‘rifat uchun kurashishdan tolmaydigan, nufuzli amaldor, qozi ekaniga qaramay, o‘z doirasidagi odamlarga qarshi borib, doimo xalq tarafida turgan inson sifatida gavdalantirilgan. Ishoqxon Ibrat istiqlol yo‘li qo‘zg‘alon va qon to‘kilishlardan o‘tishini hohlamaydi. U turli sekta va siyosiy uyushmalarni rad etib, bundan xalq katta zarar ko‘rayotganini ta‘kidlaydi. O‘z manfaati yo‘lidagi o‘yinlar-u, istiqbolsiz qarorlar natijada xalqni jang va urushlarga yetaklashiga olib kelishidan hammani ogohlantiradi. Shu bilan birga, u ma‘rifat orqali erkinlikka erishish g‘oyasini ilgari suradi. Bu jarayon filmda batafsil aks ettirilgan[3]. Ibrat domlaning dunyo kezganligi bilan bog‘liq ayrim lavhalar Hindiston va Misr davlatlarida suratga olingan.

“Ibrat” kabi tarixiy filmlarning ishonarli chiqishi va muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun mayda detallardan tortib, tilning ahamiyati ham nihoyatda katta. Voqea qaysi davrda kechishi va uni gavdalantirayotgan aktyorlarni ijro etayotgan qahramonidan kelib chiqib tiliga e‘tibor qaratiladi. Qahramonning tili, shevasi, muomila-munosabatlari uning ijtimoiy kelib chiqishi, millati, mavqei va

dunyoqarashiga qarab shakllantiriladi. Bularni inobatga olish rejissyor va ssenaristning malaka mahsulidir. Undan keyingi “til yuki” esa albatta aktyorga tushadi. Rollarni ijro qiluvchi aktyorning qahramoni tiliga, unga yuklatilgan obrazdan kelib chiqib yondashishi talaygina mas’uliyat orttiradi.

Avvaliga, adabiy ssenariy ustida uning har bir epizodini Zulfiya Qurolboy qizi bilan qayta ishlagan Jahongir Qosimov “dialoglar hozirgi davr tilida bo‘lib qolibdi” – deydi. Keyin uni yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning maslahati bilan kinossenariy tilini qayta ishlaganini ta’kidlaydi[4]. Film tilining to‘g‘ri ifoda etilgani, dialoglar ustida pishiq ishlangani umumiy muvaffaqiyatini ta’minlashda ulkan vazifani bajaradi. Rejissyor adabiy senariyni kino ssenariysiga aylantirish uchun sakkiz oydan oshiq vaqt sarflaganini ma’lum qiladi. Filmda roli mavjud qahramonlarning deyarli hammasi tarixda yashagan, Ibratga zamondosh insonlar bo‘lgani va ularning ko‘pi ziyoli, o‘qimishli insonlar ekani ssenariy tiliga yana ham e’tiborli bo‘lishga majbur qiladi. Qahramonlarni mahorat bilan ijro qilish uchun esa rejissyor Saidkomil Umarov, Farhod Mahmudov, Karim Mirhodiyev, Sayyora Yunusova, Zulxumor Mo‘minova, Bobur Yo‘ldoshev, Akbarxo‘ja Rasulov kabi professional aktyorlar jamoasi bilan ishlashni tanlaydi.

Filmni sayqallash paytida qahramon nutqi matnini ba’zida almashtirishga to‘g‘ri kelib qoladi. Bu rejissyor va aktyor ishini yana qiyinlashtiradi. Shuning uchun tasvirni ovoz bilan to‘g‘ri joylashtirishda nihoyatda e’tiborli bo‘lish lozim, chunki ohang va so‘z tuzilmalarining bir bo‘lib qo‘shilib ketishi qahramonlar nutqlarining ahamiyatini oshiradi[5].

Xulosa qilib aytganda, so‘zning kinodagi vazifasi ko‘pqirralidir. U voqealarga, film tasviriga badiiy bezak bo‘lib qolmasligi kerak. Asarning adabiy tomoni pishiq bo‘lsa, ichida o‘ylar bo‘lsa, dardi, fikri mujassam bo‘lsa va u mohir rejissyor qo‘liga tushib yanada sayqallanib, kino tomoshaviyligi qonuniyatlariga bo‘ysundirilib ishlov berilsa “Ibrat” kabi na’munaviy filmlar ishlanishi mumkin. Rejissyor aktyor tomonidan aytilgan har bir so‘zga alohida e’tibor qiladi. Bu narsa nafaqat suratga olish maydonida, balki qahramonlar istaklari yozilayotgan sayqallash xonasida ham e’tiborda bo‘lishi lozim. Bundan ma’lumki, rejissyor o‘z

ijodida muvaffaqiyat qozonishi uchun keng va chuqur badiiy tafakkurga ega bo‘lishi zarur. Juz’iy kamchiliklariga qaramay J.Qosimovning “Ibrat” filmi tili, so‘zi, aktyorlarning go‘zal nutqi, ijrolari va boshqa jihatlari bilan ham chin mutahassis sifatida tasvirga muhrlagani bugungi kunda yosh rejissyorlarga yaxshi na’mana vazifasini o‘tay olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 5 kitob, 519 b.
2. *Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. Tanlangan asarlari*. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005. – 200 b.
3. “O filme “Ibrat”, osnovannom na realnix sobitiyax” <https://anons.uz/ru/> anons.uz. Qaraldi: 2024 yil 8 avgust.
4. “Kino tarixidan” ko‘rsatuvi “O‘zbekiston tarixi” telekanali <https://youtu.be/suzwN4R8SVY?si=-3dOdvWABGdVR2CJ>
5. *Xanjara Abulqosimova. Kino san’ati asoslari*. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 95 b.

Jumagul Nishonova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

tayanch doktorant

SAHNA NUTQI TARIXINI TIZIMLI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sahna nutqi tarixini tizimli o'rganishning dolzarbligi va bu sohani rivojlantirish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar yoritilgan. Sahna nutqi – ijro san'atining asosiy vositasi sifatida milliy va jahon madaniyati rivojiga katta hissa qo'shadi. Maqolada sahna nutqi tarixini o'rganish madaniy merosni asrash, ijro mahoratini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqotlar uchun zarur ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada ta'lim tizimini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sahna nutqi, nutq madaniyati, ijro san'ati, tarixiy o'rganish, sahna texnikasi, ilmiy tadqiqot, ta'lim tizimi, xalqaro hamkorlik, madaniy meros, sahna san'ati.

Аннотация: В данной статье подчеркивается актуальность систематического изучения истории сценической речи и необходимые меры по развитию этой области. Сценическая речь как основное средство исполнительского искусства вносит большой вклад в развитие национальной и мировой культуры. В статье подчеркивается, что изучение истории сценической речи необходимо для сохранения культурного наследия, совершенствования исполнительского мастерства, развития культуры речи, научных исследований. Также в статье даются рекомендации по совершенствованию системы образования, развитию международного сотрудничества и внедрению современных технологий.

Ключевые слова: сценическая речь, речевая культура, исполнительское искусство, историческое изучение, сценическая техника, научные исследования, система образования, международное сотрудничество, культурное наследие, сценическое искусство.

Annotation: This article highlights the relevance of the systematic study of the history of stage speech and the necessary measures for the development of this field. Stage speech, as the main means of performance art, makes a great contribution to the development of national and world culture. The article emphasizes that the study of the history of stage speech is necessary for the preservation of cultural heritage, improvement of performance skills, development of speech culture, and scientific research. The article also provides recommendations on improving the education system, developing international cooperation, and introducing modern technologies.

Key words: stage speech, speech culture, performance art, historical study, stage technique, scientific research, educational system, international cooperation, cultural heritage, stage art.

Bugungi kunda sahna san'ati va adabiy nutq madaniyatining rivojlanishi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan masalalardan biridir. Xususan, sahna nutqi – aktyorlar va boshqa ijrochilarning asosiy ifoda vositasi sifatida san'atning har qanday turida markaziy o'rin tutadi. Shu sababli, sahna nutqi tarixini tizimli o'rganish nafaqat san'at sohasidagi mutaxassislar, balki keng jamoatchilik uchun ham zarurdir.

Sahna nutqi – bu o'ziga xos adabiy, estetik va ma'naviy mazmuni yetkazishda qo'llaniladigan nutq turi. U aktyorning his-tuyg'ularini tomoshabinlarga yetkazish, obrazlarni yorqinroq tasvirlash, sahna san'ati madaniyatini boyitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Nutq madaniyati, nutq texnikasi va uning ifodaviyligi sahna san'atida hal qiluvchi omil bo'lib, ijrochining iste'dodi va qobiliyatini yanada to'liq namoyon qilishga keng imkon beradi.

Sahna nutqi tarixini chuqur va tizimli o'rganish esa ushbu san'atning rivojlanish bosqichlarini, undagi texnik va estetik yutuqlarni aniqlash, milliy va jahon sahna san'ati rivojiga qo'shilgan hissalarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa sahna san'ati madaniyatini rivojlantirishga bevosita ko'maklashadi.

Sahna nutqi tarixi – bu asrlar davomida shakllangan va takomillashgan san'at sohasi bo'lib, uning rivoji va o'zgarishlari nafaqat adabiy, balki jamiyat taraqqiyoti, madaniy o'zgarishlar bilan ham bevosita bog'liqdir. Sahna nutqi tarixini tizimli o'rganish quyidagi jihatlar bilan dolzarb hisoblanadi:

1. Madaniy merosni asrash: Sahna nutqi turli davrlar va xalqlar madaniy merosini aks ettiruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Uni o'rganish orqali biz o'tmishdagi buyuk aktyorlar va ularning ijro texnikasini, milliy sahna madaniyatining o'ziga xosligini aniqlashimiz mumkin. Bu esa kelajak avlodga ushbu madaniy boyliklarni yetkazishda muhim o'rin tutadi.

2. Ijro mahoratini oshirish: Sahna nutqi tarixini o'rganish ijrochilar uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu ularga sahnada nutq qilishning turli usullari va texnikalari haqida bilim beradi, sahna mahoratini boyitadi. Bugungi kunning professional

ijrochilari avvalgi tajribalarni o'rganib, o'z ijrolarida yangiliklar kiritishlari mumkin.

3. Nutq madaniyatini rivojlantirish: O'zbek sahna nutqi madaniyatini rivojlantirish uchun uning tarixini chuqur o'rganish zarur. Bu milliy ijodiy tajribaning qayta tiklanishiga, milliy madaniy qadriyatlarni saqlab qolishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, jahondagi sahna san'atiga oid ilg'or tajribalardan ham foydalanish imkonini yaratadi.

4. Sahna san'atining ilmiy tadqiqotlari: Sahna nutqi tarixini o'rganish nafaqat ijodiy jarayonning bir qismi, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhimdir. U sahna san'atining rivojlanishi va tendensiyalarini tahlil qilishda, sahna nutqi va ijro texnikasini rivojlantirishda ilmiy asoslar yaratadi.

Sahna nutqi tarixini tizimli o'rganish san'at va madaniyatning boyligi sifatida katta ahamiyatga ega. Bu o'rganish jarayoni sahna san'atining o'tgan yo'llarini, milliy va jahon madaniyati rivojiga qo'shilgan hissalarini chuqur tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu bilimlar hozirgi va kelajak avlod ijrochilari uchun ham zarur bo'lib, sahna san'atining yangi cho'qqilarini zabt etishda katta yordam beradi. Shu sababli, sahna nutqining rivoji va tarixiy merosini tizimli ravishda o'rganish zarurati bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Sahna nutqi sohasini rivojlantirish uchun bir nechta muhim yo'nalishlarda ishlash zarur. Quyida soha rivoji uchun zarur bo'lgan o'z takliflarimni keltirib o'tmoqchiman:

1. Ta'lim tizimini rivojlantirish;

Sahna nutqi sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishtirish uchun ta'lim tizimini zamonaviylashtirish muhimdir. Buning uchun:

- Maxsus o'quv dasturlari va kurslar: Sahna nutqi boyicha chuqurlashtirilgan o'quv kurslarini joriy qilish, yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur.

- O'qituvchilarni tayyorlash: Sahna nutqi boyicha yetakchi mutaxassislar va professor-o'qituvchilarni tayyorlash va ularni muntazam ravishda malaka oshirish kurslaridan o'tkazish lozim.

- Amaliy mashg'ulotlar: Talabalar uchun amaliy mashg'ulotlar sonini ko'paytirish, ular sahna nutqi texnikasi va ijro mahoratini amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish.

Sahna nutqi tarixini o'rganish ilmiy yondashuv va tadqiqotlar talab qiladi. Buning uchun:

- Sahna nutqi boyicha ilmiy markazlar tashkil etish va ushbu markazlarda tadqiqotchilar tomonidan sahna nutqining tarixiy bosqichlarini o'rganish, tahlil qilish muhim.

- Sahna nutqi boyicha ilmiy asarlar yaratish: Milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda sahna nutqi boyicha ilmiy-tahliliy maqolalar, monografiyalar va qo'llanmalar yozish zarur.

- Ilmiy konferensiyalar va seminarlar: Sahna nutqi va uning rivoji boyicha xalqaro va milliy miqyosda ilmiy anjumanlar, seminarlar o'tkazish, ilmiy almashinuvlarni rag'batlantirish kerak.

3. Madaniy hamkorlik va tajriba almashish.

Sahna nutqi rivojlanishi uchun milliy va xalqaro tajriba almashinuvi muhim ahamiyatga ega:

- Xalqaro hamkorlik: Boshqa davlatlarning sahna san'ati va nutq texnikasi bo'yicha ilg'or tajribalarini o'rganish, bu tajribalarni o'z sahna madaniyatimizga tatbiq qilish kerak.

- Ustoz-shogird an'anasini davom ettirish: Yirik sahna san'atkorlari va nutq texnikasi ustozlarining tajribasini yosh avlodga o'rgatish tizimini shakllantirish.

4. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik.

Sahna nutqi rivoji uchun ommaviy axborot vositalari va madaniyat o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatilishi kerak:

- Televidenie va radio orqali sahna nutqi darslari: Sahna san'ati va nutq texnikasi boyicha maxsus ko'rsatuvlar, darslar va radioeshittirishlar tashkil etish orqali keng jamoatchilik orasida sahna nutqi madaniyatini rivojlantirish mumkin.

- Internet platformalari: Sahna nutqi boyicha onlayn kurslar, vebinarlar va mahorat darslarini tashkil qilish, ularni ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirish muhim.

5. Sahna texnikasini modernizatsiya qilish.

Sahna san'atida texnik infratuzilmaning zamonaviy bo'lishi ijro mahoratini oshirishga yordam beradi:

- Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish: Sahna ovoz kuchaytirgichlari, mikrofonlar va boshqa texnik jihozlarni modernizatsiya qilish sahna nutqining sifatini oshiradi.

- Nutq texnikasi boyicha yangi texnologiyalar: Nutq texnikasini o'rganish va uni takomillashtirish uchun yangi avlod texnologiyalaridan foydalanish, maxsus dasturlar va ovoz tizimlari orqali ijro texnikasini o'rganish.

6. Milliy va xalqaro festivallar tashkil etish.

- Sahna nutqi boyicha festivallar: Milliy va xalqaro miqyosda sahna nutqi san'ati boyicha festivallar tashkil etish, ularda ijodkorlarning mahoratini namoyish qilish sahna san'atiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

- Yosh ijrochilar uchun ko'rik-tanlovlar: Yangi iste'dodlarni kashf qilish va ularni rag'batlantirish maqsadida sahna nutqi texnikasi boyicha tanlovlar tashkil etish.

7. Sahna nutqi boyicha maxsus adabiyotlar nashr qilish.

- Qo'llanma va darsliklar: Sahna nutqi va uning tarixiga oid maxsus qo'llanmalar va darsliklarni yaratish, ularni muntazam yangilab borish zarur.

- Ijodiy ijro namunalarini saqlash va tarqatish: Mashhur sahna nutqi ijrochilarining ma'ruzalarini, sahnalarni yozib olish va ular asosida o'quv materiallari yaratish ham foydali bo'ladi.

Xulosa o'rnida sahna nutqi sohasini rivojlantirish keng qamrovli va tizimli ishlarni talab qiladi. Ta'lim tizimini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qoyish va texnologiyalarni joriy etish orqali sahna san'ati va nutq texnikasi borasida yangi cho'qqilarni zabt etish mumkin. Ushbu sohada olib boriladigan barcha chora-tadbirlar sahna nutqining milliy va xalqaro miqyosda rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Abdullaeva D. Sahna nutqi va ijro texnikasi asoslari. Toshkent: San'at, 2019.
3. Karimov A. Teatr va sahna san'ati rivoji: Tarix va zamonaviylik. -Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
4. Xodjayev O. Sahna san'ati madaniyati. -Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
5. Nurmatov U. O'zbek sahna nutqi tarixi va uning rivojlanish bosqichlari. -Toshkent: O'zbekiston San'ati, 2017.
6. Azizov K. Milliy sahna san'ati va xalqaro tajribalar. -Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.
7. To'rayev R. Ilmiy tadqiqot va sahna nutqining dolzarbligi. Sahna Madaniyati Jurnali, 2022, №3.
8. Xalqaro Teatr Instituti (ITI). Teatr va nutq san'ati rivoji bo'yicha tadqiqotlar. Parij: ITI nashriyoti, 2020.
9. Saidova, Z. O'zbek sahna san'ati: An'analar va zamonaviy tendensiyalar. -Toshkent: Kamalak, 2021.

Saodat Rashidova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi) mutaxassisligi*

O'ZBEKISTONDA DUTOR JROCHILIGI MAKTABLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dutor cholg'usining tarixi va rivojlanish davri, mazkur cholg'udagi ijrochilik maktablari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: dutor ijrochiligi, milliy musiqa, terminologiya, ijod, sozanda, milliy qadriyatlar, milliy cholg'ular.

Аннотация: В данной статье представлена информация об истории и периоде развития инструмента дутара, а также о школах исполнения на этом инструменте.

Ключевые слова: исполнительство дутар, национальная музыка, терминология, творчество, музыкант, национальные ценности, национальные инструменты.

Abstract: This article provides information about the history and period of development of the dutor instrument, as well as schools of performance on this instrument.

Key words: dutar performance, national music, terminology, creativity, musician, national values, national instruments.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda musiqaning barcha tarmoqlariga mos ravishda shakllanib, asrlar osha rivoj topib kelgan. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobiy (IX asr) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) Musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV asr) "Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV asr) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynulobiddin Husayniy (XV asr) "Risola dar bayoni qonuni va amali musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr), Amuliy (XVI), Darvesh Ali Changiy (XVII) musiqiy risolalarida musiqiy cholg'ularni o'rganib, ularni tadqiq etish masalalarini turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar.

Cholg'ular majmui musiqiy folklorshunoslikning tadqiqod obektlari ichida eng murakkablaridan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sharq musiqiy cholg'ularidan bizgacha yetib kelgan arxeologik topilmalar, qadimiy tasvirlar, o'rta asrlardagi cholg'ularning tavsiflari ularning qadimdan mavjud ekanligi anglatibgina qolmay, shu bilan birgalikda u yoki bu cholg'ular o'zbek xalqi ajdodlari orasida azaldan musiqiy ijrolarda foydalanilganligi xususida ko'p manbaalarda keltirib o'tilgan. Ana shu cholg'ulardan biri dutor cholg'usi, o'zbek xalqining musiqiy madaniyati bilan

qadimdan chambarchas bog'liq bo'lib, san'at ramzi timsolida bugungi kunga qadar ustoz va shogird an'analari tarzida dutor ijrochilik maktablari davom etib kelmoqda.

Dutor chertib ijro qilinadigan qo'sh torli cholg'u bo'lib, O'zbekistonda va qo'shni mamlakatlarda yashayotgan o'zbek tojik, uyg'ur, turkman va qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalganidir. Dutor atamasi forscha "du"-ikki "tor"-tor ma'nolarini anglatadi. Dutor ijrochisining o'ng qo'l barmoqlari torlarini chertish va chap qo'l barmoqlari bilan esa dutor pardalari oralig'ida torlarini bosish orqali musiqiy tovush ya'ni kuylar hosil qilinadi.

Dutor cholg'usini ijro etishda xalqimizning madaniy hayotida sozandalikka, o'rgatish va o'rganish qadimdan bizgacha rasm bo'lgan an'anaviy qonun qoidalar bo'lgan ya'ni "ustoz-shogird" an'anasi asosida o'rganilib kelinmoqda.

Dutor o'zining uzoq tarixi shakily va ijroviy o'zgarishlarga uchraganligi tabiiydir. Bu o'zgarishlar dutorni o'rgatish va o'rganish karayoniga ham ma'lum darajada ta'sir qilgan. Bu holatlar umuman ana'analarni shuningdek, o'rgatish va o'rganishda keying davrlarda paydo bo'layotgan, ijro uslub va yasaliş qoidalari va shakllarini tadqiq qilish vazifasini oldinga suradi. Dutor cholg'usini ijro qilishni o'rgatish jarayoni ikki bosqich orqali amalga oshiriladi:

1. Mustaqil kuzatgan holda ko'rish eshitish orqali idrok qilish.
2. Ko'rish eshitish yordamida maxsus o'rganish.

Dutor ijrochiligini o'rganishning dastlabki malakalarini mustaqil egallash uchun ijrochidan alohida qobiliyat ya'ni musiqiy xotira o'tkir eshitish va kuzatuvchanlik talab qilinadi.

Ko'pgina ustozlar shogirdlari bilan dastlabki mashgulotlarida dutor cholg'usining tarixi, yasaliş, tuzilishi hamda ijro qilishda sozlash, ijro uslubi va shtrixlari haqida ma'lumotlar berib, so'ngra ijro uchun qo'l mashqlari o'rgatiladi.

O'zbekistonda dutor ijrochilik maktablari uch guruhga bo'lib o'rganiladi. Bular: Xorazm dutor ijrochiligi maktabi, Samarqand-Buxoro dutor ijrochiligi maktabi, Toshkent-Farg'ona dutor ijrochiligi maktablarini hisoblanadi.

Barcha dutor ijrochiligi an'analari o'ng qo'lning ikkala barmog'ini navbat bilan pastga va yuqoriga harakatlantirib ijro qilish usuli keng tarqalgan. Bu usul turli

joylarda o'z nomlanishiga ega bo'lib, faqatgina torga zarb berishni aks ettirib qolmasdan, balki uning yo'nalishini ya'ni zarblar harakatini belgilaydi. Usul Xorazmda "dast" (forschada qo'l), Farg'ona vodiysida "oddiy zarb", Toshkentda "yakka zarb", Buxoro va Samarqandda "barmoq zarb" deb ataladi va ko'rsatkich barmoq bilan pastga hamda (notada P belgi bilan ifodalanadi) bosh barmoq bilan yuqoriga (V belgi bilan ifodalanadi) uriladi. Qator zarblarning pastga yuqoriga, ko'pincha navbat bilan PPV yoki PVP kelishi kuzatiladi.

Xorazm ijrochilik an'analarida bu zarb dutorning eng baland pardalarida ham qo'llaniladi. Xorazim dutorining hajmi kichik bulsa ham unda qo'l panjalarining harakat amplitudasi boshqa mahalliy uslublarinikiga qaraganda kengdir. Dutor qopqog'iga tekkizib ijro qilish Xorazm uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, u yerda boshqa joylarga nisbatan ko'proq ochiq havoda ijro qilingan. Bu esa ko'proq tovush kuchini talab qilgan va kichik hajimli cholg'u torini tarangroq sozlab, o'ng qo'lni yanada keng amplitudada harakatlantirishga olib kelgan.

Buxoroda, Farg'ona vodiysida, xususan, Andijonda, Toshkentda erkak dutorchilar (kasbiy dutorchilar) zarbni pastga urganda qo'lni cholg'u qopqog'iga tekkizmasdan ijro qilishadi. Bu ijro uslubi asosan bilakni yumshoq harakatlantirish hisobiga amalga oshiriladi. Bilakni ohista, yumshoq harakatlanishi natijasida torlarga tushadigan nozik, ehtiyotkorona o'ziga xos tarovat kasb etadi.

Farg'ona vodiysi va Toshkent ayollari dutorning qopqog'iga urib ijro qilish usulini ko'p qo'llaydilar. Bizning kuzatishlarimiz natijasi buning o'ziga xos sabablarini ko'rsatdi. Ayollar o'z xursandchilikchalarini asosan ichkarida o'tkazganlar va mazkur jarayonda usul ya'ni doira bo'lmagan hollarda dutorning bu ko'rinishdagi ijro uslubi urma cholg'u vazifasini ham bajargan holda bir vaqtning o'zida tovush kuchini ham oshirgan. Lutfixonim Sarimsoqova (Toshkent), Xosiyat Abdullayeva (Andijon), Mehriniso To'raxo'jayevalar dutordan ayollar o'rtasida asosan ashula va raqsga jo'rnavoz cholg'u sifatida foydalanilganligini ta'kidlaganlar.

Dutor cholg'uchiligida ijro bezaklari, an'anaviy ijrochilikning boshqa xususiyatlari kabi muhim jihatlardan biri hisoblanadi va turli mahalliy uslublarda

har xil nomlanishga ega. U jarangining miqdori va tovushlarning turli oraliqdagi ikkilanishi bilan boshqa cholg'ularda ishlatiladigan ijro bezaklaridan farq qiladi.

Dutor ijrochiligida bir qancha ijro bezaklari bo'lib, ularning nomlanishi ham turlichadir. Farg'ona, Toshkent va Xorazmda nola, qochirim, bezak yoki naholak deyilsa, Buxoro va Samarqandda gulpar deb ataladi. Bularning har biri turlicha usulni aks ettiradi.

Ijrochi Sulayman Taxalov 1975-yili Toshkentda o'tkazilgan respublikalararo ilmiy-tadqiqot konferinsiyasida "Folklor musiqasi tadqiqotchilari sharq musiqasini aniq yozib olishga katta ahamiyat beradilar, ammo o'zbek cholg'u musiqasini yozib olishni yangi uslubi ishlab chiqilmagan", - deb juda to'g'ri takidlagan edi. Bizning fikrimizcha, turli zarblari va bezaklari muntazam almashib turadigan og'zaki an'anadagi musiqiy asarni o'z holicha notada aks ettirish mumkin emas. Chunki ma'lum bir maktabning va uning ijrochisini tovush hosil qilish xususiyati mavjud va bu narsa asarning xarakteriga qarab, ijro davomida doimo o'zgarib turadi. Shuning uchun ham bir marta qilingan ijronigina notaga yozib olish mumkin. Bunda kuy bezaklari iloji boricha ijrodagiga yaqinlashtirilib notada aks ettiriladi. Lekin u aynan ijrodagiday bula olmaydi. Chunki o'sha zarb va bezaklar bir sozandaning o'zida doimo bir xil jaranglamaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda dutor ijrochiligining quyidagi maktablari yashab ustoz va shogird an'anasida davom etib kelmoqda.

XIX - XX asrlarga kelib, mashhur dutorchilarning mustaqil ijro yo'llari zahirida an'anaviy maktablar yuzaga keldi. Shu o'rinda Samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Xorazimlik Nurmuhammad Boltaev, Pahlavon Rasulov, Yusuf Jabborov, Toshkentlik Orif Qosimov, Mahmud Yunusov, Sayfiddin Yo'ldashev, Zokirjon Obidov, Faxriddin Sodiqov, Turg'un Alimatov, G'ulomjon Qo'chqorov, Andijonlik Muhiddin Hoshim, Qo'zixon Madraximov kabi o'ziga xos dutor ijro yo'llariga ega bo'lgan ko'plab san'atkorlar ijrochilik maktablarini e'tirof etishimiz muhimdir. Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarning o'ziga xos an'analari, shevalari va urf-odatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Bu avvalo

cholgu sozi korinishida gavdalanadi. Bugungi kunda dutor ijrochilik maktabini Malika Ziyayeva, Go'zal Mo'minova, Ilyos Arabov, To'lqin Suvonov, Iqbol Toshpo'latova Farangiz Ziyayevalar kabi ijrochilar davom ettirib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. *I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.* – Toshkent, 2008-yil.
2. *Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston Strategiyasi”* -Toshkent “O'zbekiston” 2023-yil.
3. *J.Rasultoyev O'zbek dutor ijrochiligi.* - Toshkent “O'qituvchi”, 1997-yil.
4. *T.Suvonov “Dutor” ijrochilik uslubi.* “Bookmany print”, 2022-yil.
5. *X.Beknazarov Maxsus cholg'u.* - Toshkent “Tamaddun” 2023-yil.

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA NUTQ MADANIYATINING AHMIYATI: STATISTIKA VA TAHLILLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va unga erishish yo'llari yoritilgan. Nutq madaniyati insonning bilim darajasi va madaniyati ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, to'g'ri va madaniy nutq qilish muloqot samaradorligini oshiradi, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi va milliy madaniyatni saqlashda muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *Nutq madaniyati, yoshlar, notiqlik, muloqot, kommunikatsiya, ta'lim, texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, seminarlarda ishtirok, madaniy kontent, raqamli kommunikatsiya.*

Аннотасия: *В данной статье описывается важность развития речевой культуры в современном обществе и пути ее достижения. Культура речи является одним из показателей уровня знаний и культуры человека, правильная и культурная речь повышает эффективность общения, усиливает социальную интеграцию и играет важную роль в сохранении национальной культуры.*

Ключевые слова: *культура речи, молодежь, публичное выступление, диалог, общение, образование, технологии, социальные сети, участие в семинарах, культурный контент, цифровая коммуникация.*

Abstract: *This article describes the importance of the development of speech culture in modern society and the ways to achieve it. Speech culture is one of the indicators of a person's level of knowledge and culture, correct and cultural speech increases the effectiveness of communication, strengthens social integration and plays an important role in preserving national culture.*

Key words: *speech culture, youth, public speaking, dialogue, communication, education, technologies, social networks, participation in seminars, cultural content, digital communication.*

Bugungi globallashuv davrida insonlar o'rtasidagi muloqot, axborot almashinuvi va til vositasida bildiriladigan fikrning to'g'ri yetkazilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nutq madaniyati nafaqat individning shaxsiy obro'si, balki uning jamiyatdagi mavqeini ham belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Nutq madaniyati insonning bilimdonlik darajasini va madaniyatini namoyon etadigan asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. To'g'ri va boy nutq:

1. Muloqotning samaradorligini oshiradi – To‘g‘ri, aniq va madaniy nutq orqali inson o‘z fikrini boshqalarga muvaffaqiyatli yetkazishi mumkin.

2. Ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi – Nutq madaniyati rivojlangan jamiyatlar o‘z a‘zolari o‘rtasida o‘zaro tushunishni yuksak darajada ta‘minlaydi.

3. Madaniy boylikni saqlaydi – Nutq orqali xalqning madaniyati, urf-odatlarini, va tarixi avloddan-avlodga o‘tadi.

4. Liderlik va muvaffaqiyat kaliti – Biznes va ijtimoiy sohada muvaffaqiyatga erishish ko‘pincha insonning muloqot madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Liderlar odatda notiqlik va to‘g‘ri nutq qilish san‘atiga ega bo‘lishadi.

Yosh avlodning nutq madaniyatini rivojlantirish ham bugungi kunda dolzarb masala sanaladi. Yoshlar orasida muloqot ko‘pincha qisqa, informal va ba‘zan hatto buzilgan tilda olib borilayotgani kuzatiladi. Bu esa milliy tilning madaniyati va boyligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababdan, yoshlar orasida nutq madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

1. Ta‘lim tizimida ko‘proq e‘tibor berish – Maktablarda va universitetlarda to‘g‘ri nutq qilish va notiqlik san‘ati bo‘yicha maxsus darslar tashkil etilishi kerak. Bu nafaqat og‘zaki nutqni rivojlantiradi, balki yozma muloqot madaniyatini ham sezilarli darajada yuksaltiradi.

2. Ijtimoiy tarmoq va ommaviy axborot vositalarining ta‘siri – Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari nutq madaniyatiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababdan, ijtimoiy tarmoqlarda to‘g‘ri va madaniy nutqni targ‘ib qilish lozim.

3. Zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish – Bugungi kunda internet orqali turli interaktiv treninglar, videodarslar va o‘yinlar orqali notiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda qanday usullardan keng foydalanish samara beradi? Buni quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz.


Nutq madaniyatini rivojlantirishning bir necha samarali usullari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ko‘p o‘qish va bilimni kengaytirish – Adabiyotlarni muntazam o‘qish til boyligini oshiradi, madaniy muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Mashqlar orqali nutqni mustahkamlash – Nutq madaniyatini rivojlantirish uchun notiqlik va nutqiy texnika mashqlarini bajarish muhim. Maxsus treninglar, ma’ruzalar orqali nutq qilish qobiliyatini oshirish mumkin.

3. Tilni to‘g‘ri va madaniy foydalanish – Har bir nutqda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, tilning meyorlariga amal qilish va atrofdagilarga hurmat bilan yondashish zarur.

4. O‘z ustida muntazam ishlash – Notiqlik san’ati va to‘g‘ri nutq qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘z ustida tinimsiz ishlash, muomala madaniyatini boyitish zarur.



Bugungi globalashuv va raqamli asrda kommunikatsiya vositalari ham jadal rivojlanmoqda. Biroq texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, insonlar o'rtasida muloqotning sifati ba'zan pasayib bormoqda. Tezkor chat va qisqa xabar almashinuvi formati, ko'pincha nutq madaniyatini buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, raqamli kommunikatsiya jarayonida ham to'g'ri nutqni saqlab qolish va madaniyatni targ'ib qilish zarur.

Diagrammada keltirilgan statistik ko'rsatkichlar nutq madaniyatining rivojlanishini va uning zamonaviy jamiyatda qanchalik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Quyida har bir diagrammada aks ettirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi.

1. Notiqlik kurslarida talabalar foizi:

2015-yilda 35% talaba notiqlik kurslarida qatnashgan, 2020-yilda bu ko'rsatkich 50% ga ko'tarilgan. 2023-yilda esa talabalar foizi 65% ga yetdi.

Bu raqamlar ta'lim muassasalarida nutq madaniyatiga qaratilgan e'tibor va talabning ortayotganini ko'rsatadi. Talabalarning to'g'ri va madaniy nutq qilish ko'nikmalarini oshirishga bo'lgan qiziqish ortmoqda.

2. Seminarlarda ishtirok etgan yoshlar soni:

2015-yilda 1,500 nafar yosh seminarlarida ishtirok etgan bo'lsa, 2020-yilda bu raqam 3,200 nafarga ko'tarilgan va 2023-yilda 4,800 nafar ishtirokchi bo'ldi.

Bu tendensiya yoshlarning nutq madaniyatini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishi ortayotganini va turli seminarlarda ishtirok etish orqali ko'nikmalarini oshirayotganini ko'rsatadi.

3. OAVda nutq madaniyati maqolalari foizi:

OAVda nutq madaniyati masalalarini yorituvchi maqolalar foizi 2015-yilda 10%ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 15%ga oshgan va 2023-yilda 25%ga yetgan.

Bu natijalar ommaviy axborot vositalarining nutq madaniyatiga bo'lgan e'tiborini va bu masalaning keng jamoatchilikka yetkazilishini ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy kontent foizi:

Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy muloqotni targ'ib qiluvchi kontent foizi 2015-yilda 5% bo'lsa, 2020-yilda 8% ga, 2023-yilda esa 12% ga ko'tarilgan.

Bu natijalar ijtimoiy tarmoqlar orqali madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan harakatlarning ortayotganini va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining nutq madaniyatini targ'ib qilishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

5. Maxsus kurslar va darsliklar soni:

Maxsus kurslar va darsliklar soni 2015-yilda 20 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu raqam 35 taga va 2023-yilda 50 taga yetgan.

Bu ko'rsatkichlar nutq madaniyati bo'yicha o'quv dasturlarining ko'payishini va ta'lim tizimida ushbu yo'nalishga berilayotgan e'tiborni aks ettiradi.

Umuman olganda, diagrammalarda aks etgan statistik ko'rsatkichlar nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va natijalarni yoritadi. Yoshlarning ta'limda, seminarlar va ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etishlari, shuningdek, OAV va maxsus kurslar orqali nutq madaniyatini o'rganishlari bu sohadagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Nutq madaniyatini rivojlantirish jamiyatda ijtimoiy integratsiya, muloqot samaradorligi va madaniy boyliklarni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati har bir insonning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uni rivojlantirish jamiyatning ma'naviy yuksalishi, madaniyat va til boyligini saqlab qolish uchun zarur. Shu bois ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va oila bu yo'lda o'z hissasini qo'shishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maqsadova D. (2020). "Nutq madaniyati: nazariy asoslar va amaliyot". -Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

2. Abdullaeva N. (2019). "Yoshlar va nutq madaniyati: muammolar va yechimlar". O'zbekiston milliy universiteti ilmiy ishlari, 2(5), 45-52.

3. Jumaniyazov I. (2021). "OAV va nutq madaniyati: tendensiyalar va istiqbollari". O'zbekiston Jurnalistikasi, 3(1), 12-25.

4. Salimov T. (2022). "Ijtimoiy tarmoqlar va madaniyat: kommunikatsiya jarayonlari". Tashkent: O'zbekiston davlat universiteti.

5. Qodirov A. (2023). "Nutq madaniyati bo'yicha ta'lim: dolzarb masalalar". Ta'lim va innovatsiyalar, 5(2), 23-30.

6. Yusupova, R. (2021). "Talabalar o'rtasida nutq madaniyatini rivojlantirish: tajribalar va takliflar". Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari, 4(3), 67-75.

7. Asimov S. (2020). "Seminarlarda ishtirok etish va uning yoshlar uchun ahamiyati". O'zbekiston ta'limi, 6(1), 15-20.

8. Ibragimova L. (2022). "Nutq madaniyati va uning ta'limdagi o'rni". Ta'lim va madaniyat tadqiqotlari, 8(4), 88-95.

9. Islomov, F. (2023). "Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati". O'zbekiston yoshlar pressa, 1(2), 34-40.

**SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDA MALAKALI KADRLAR
TAYYORLASHDA SAHNA NUTQI METODIKASIDAGI YANGI
IZLANISHLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Annotatsiya: Ushbu maqolada san'at va madaniyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashda sahna nutqi metodikasining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Sahna nutqi metodikasi, o'quv jarayonida talabalar nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim rol oynaydi. Maqolada mavjud muammolar, jumladan, o'qitish metodologiyasining yetarli bo'lmasligi, talabalar motivatsiyasining pastligi va amaliy mashg'ulotlarning kamligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sahna nutqi, nutq madaniyati, malakali kadrlar tayyorlash, o'qitish metodologiyasi, amaliy mashg'ulotlar, innovatsion o'quv dasturlari, talabalar motivatsiyasi, raqamli texnologiyalar, rivojlangan mamlakatlar tajribasi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение методики сценической речи в подготовке квалифицированных кадров в сфере искусства и культуры. Методика сценической речи играет важную роль в развитии речевой культуры учащихся в учебном процессе. В статье рассматриваются существующие проблемы, в том числе недостаточная методология преподавания, низкая мотивация студентов, недостаточная практическая подготовка.

Ключевые слова: Сценическая речь, культура речи, подготовка квалифицированных кадров, методика преподавания, производственная практика, инновационные образовательные программы, мотивация студентов, цифровые технологии, опыт развитых стран.

Abstract: This article analyzes the role and importance of stage speech methodology in the training of qualified personnel in the field of art and culture. The methodology of stage speech plays an important role in the development of students' speech culture in the educational process. The article examines existing problems, including insufficient teaching methodology, low student motivation, and insufficient practical training.

Key words: Stage speech, speech culture, training of qualified personnel, teaching methodology, practical training, innovative educational programs, student motivation, digital technologies, experience of developed countries.

Bugungi kunda san'at va madaniyat sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayoni jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Sahna nutqi metodikasi, bu jarayonda o'qitishning asosiy vositasi sifatida, nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu

maqolada sahna nutqi metodikasidagi yangi izlanishlar, muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi, rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan misollar keltiriladi.

Sahna nutqi metodikasi — bu talabalar nutq madaniyati va ifoda ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvlar to'plami. Ushbu metodika malakali kadrlar tayyorlash jarayonida quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariy asoslar: Sahna nutqi metodikasida nutq nazariyasi, psixologiya va pedagogikaga asoslangan yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Bu yerda nutqning struktura va funksiyalarini o'rganish, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash usullari ko'rib chiqiladi.

2. Amaliy mashg'ulotlar: Talabalarga sahna nutqi ko'nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlar va workshoplar tashkil etish zarur. Bunda teatr san'ati, drama, publitsistika, retorika va boshqa sohalar o'rganiladi.

3. Texnologik yondashuvlar: Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish (masalan, video darslar, onlayn treninglar) talabalar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi va sahna nutqini o'rganishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

Sahna nutqi metodikasidagi bir qator muammolar malakali kadrlar tayyorlash jarayonini murakkablashtirmoqda:

1. O'qitish metodologiyasining yetarli bo'lmasligi: Sahna nutqi metodikasiga oid darsliklar va o'quv qo'llanmalarining etishmasligi o'qituvchilarning malakasini pasaytiradi. Buning natijasida o'quvchilar sahna nutqi ko'nikmalarini qiyinchilik bilan egallashadi.

2. Talabalar motivatsiyasining pastligi: Sahna nutqi san'atiga qiziqishning kamligi talabalarning motivatsiyasini pasaytiradi. Bu, o'z navbatida, sahna nutqi boyicha amaliy mashg'ulotlarga kamroq ishtirok etishga olib keladi.

3. Amaliy mashg'ulotlarning yetarli bo'lmasligi: Teoriyaga ko'proq e'tibor berilishi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda to'siq bo'ladi. Talabalar haqiqiy sahna sharoitida o'zlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega emas.

Sahna nutqi metodikasida mavjud muammolarni hal etish uchun quyidagi yangi izlanishlar va yechimlarni taklif etiladi:

1. Innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish: Yangi o'quv dasturlari, masalan, "Sahna Nutqi San'ati" kurslarini kiritish, sahna nutqi metodikasini zamonaviylashtirishga yordam beradi. Bunda boshqa mamlakatlar tajribasi, xususan, AQSh va Germaniya o'rganilishi mumkin, ular sahna nutqi san'atiga qaratilgan ko'plab dasturlarni joriy etishgan.

2. Amaliy mashg'ulotlarga e'tibor berish: Talabalar uchun o'z ichiga seminarlar, master-klasslar, va ochiq darslarni oladigan amaliy mashg'ulotlar ko'paytirilishi kerak. Masalan, Angliyada "Drama Education" dasturi talabalarni nutq san'ati va aktyorlik mahorati boyicha amaliy mashg'ulotlarga jalb etadi.

3. Tajribali mutaxassislar jalb qilish: Malakali o'qituvchilar va sahna nutqi boyicha tajribali mutaxassislardan foydalanish talabalar uchun foydali bo'ladi. Bunda, o'zbek sahna nutqi san'atida tanilgan aktyorlar va notiqnlarni o'qituvchilar sifatida jalb qilish mumkin.

4. Raqamli texnologiyalarni foydalanish: Onlayn kurslar, video darslar va virtual platformalar orqali talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Misol uchun, YouTube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati va sahna nutqi boyicha ta'lim beruvchi kontentlar yaratish talabalarni qiziqtirishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini ham ko'zdan kechiramiz:

1. AQSh: AQShda sahna nutqi va dramatik san'atni o'rganish uchun ko'plab ta'lim muassasalari mavjud. Ular talabalarni sahnaga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarga katta e'tibor berishadi. "Stanislavski System" va "Meisner Technique" kabi usullar, nutq va muloqot san'atida zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Germaniya: Germaniya o'quv muassasalari sahna nutqi san'atini o'qitishda yuqori darajadagi amaliyotga ega. Masalan, "Berliner Ensemble" va "Schauspielschule" sahna san'atini o'rganish uchun professionallikni rivojlantiruvchi dasturlarni taklif etadi. Talabalar haqiqiy sahna sharoitida tajriba to'playdilar va ularning nutq ko'nikmalari mustahkamlanadi.

3. Buyuk Britaniya: Buyuk Britaniyada “Royal Academy of Dramatic Art” (RADA) va “London Academy of Music & Dramatic Art” (LAMDA) kabi nufuzli o’quv muassasalari sahna nutqi va aktyorlik san’atiga oid yuqori sifatli ta’lim beradi. Ular talabalarni nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar bilan ta’minlaydilar.

Xulosa sifatida sahna nutqi metodikasidagi yangi izlanishlar san’at va madaniyat sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur. O’qitish metodologiyasini takomillashtirish, talabalar motivatsiyasini oshirish va amaliy mashg’ulotlarga e’tibor berish ushbu sohadagi muammolarni hal qilishda asosiy yechimlar sifatida ko’riladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi esa O’zbekistonda sahna nutqi san’atini rivojlantirishda muhim yo’naltiruvchi bo’lishi mumkin. Bularning barchasi san’at va madaniyat sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. *Qodirov A. Nutq madaniyati: Nazariy asoslar va amaliyot. -Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi nashrlari. 2019.*
2. *Sukhanov V. Sahna nutqi va uning o’rni: Teoriya va amaliyot. Samarkand: SamDCHTI. 2021.*
3. *Ismoilov I. Teatr va Nutq: Aktyorlik san’ati va sahna nutqi. Tashkent: San’at nashrlari. 2020.*
4. *Kamalov B. Innovatsion ta’lim: Zamonaviy yondashuvlar. Tashkent: O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim vazirligi nashrlari 2022.*
5. *Smith J. Voice and Speech Training in the Arts. New York: Theater Communications Group.2020.*
6. *Brown L. The Art of Public Speaking: Techniques for Success. London: Routledge. 2018.*
7. *Davis, R. (2023). Drama Education: Theory and Practice. Berlin: Springer.*

AKADEMIK YUNUS RAJABIY IJODI HAMDA MAQOM

ANSAMBLI RIVOJI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbek musiqa san'atiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan benazir san'atkor, ustoz, akademik, sozanda, bastakor, etnograf Yunus Rajabiy hayoti va ijodi, bastakorlik ijodi, maqom ansamblida olib borgan faoliyati hamda xizmatlari, shuningdek ustozning izdoshlari bo'lmish O.Alimaxsumov, I.Vahobov, A.Ismoilovlarning ijodiy faoliyatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Yunus Rajabiy, maqom, musiqa, radio, ansambl, ijro, hofiz, ijod.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о жизни и творчестве уникального педагога, академика, музыканта, композитора, этнографа Юнуса Раджаби, внесшего большой вклад в искусство узбекской музыки, его работа и заслуги в ансамбле макома, а также его последователи О.Алимахсумов, И.Вахобов, речь идет о творческой деятельности А.Исмаилова.*

Ключевые слова: *Юнус Раджаби, маком, музыка, радио, ансамбль, выступление, хафиз, творчество.*

Annotation: *In this article, the life and work of the unique artist, teacher, academician, musician, composer, ethnographer Yunus Rajabi, who made a great contribution to the art of Uzbek music, his work and services in the makom ensemble, as well as his followers O.Alimakhsuomov, I.Vahobov, it is about the*

Keywords: *Yunus Rajabi, maqom, music, radio, ensemble, performance, hafiz, creativity.*

XX asr o'zbek musiqa san'atiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan san'atkorlar sulolasining sarboni Yunus Rajabiy 1897-yilda Toshkent shahrining Chaqar mahallasida tavallud topgan. Musiqa sabog'ininig ilk qadamlarida u dutor va nay cholg'ularida mashq qila boshlagan. Yosh iste'dod egasiga ustozlarning e'tibor berganligining sababi, uning xotirasida saqlab qolish qobiliyati o'ta kuchli bo'lganligida edi. Darhaqiqat, u musiqiy asarni bir tinglashda boshidan to oxirigacha eslab qoladigan darajadagi "quvvayi hofiza"ga ega bo'lgan. Yosh Yunusbek qo'shnisi bo'lgan andijonlik Mirzaqosim hofizdan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga mansub ashulalarni, xalq orasida mashhur maqom namunalarini eshitib o'zlashtirib boradi.

Yosh iste'dod egasi shu tariqa tinglovchilar davralariga kirib borib, xalqimizning sevimli asarlariga aylangan "Ajam", "Eshvoy", "Kurd" kabi bir qator

kuylarni ijro etadi. Musiqa olamiga sozanda bo'lib kirib kelgan Yunus Rajabiy o'z davrining domgdor hofizlari nazariga tushadi. Mulla Toychi Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov kabi musiqa bilimdonlari va mohir xonandalarning e'tiborini qozonadi. Yunus Rajabiy 1919-yilda Toshkentda tashkil topgan "Turkiston xalq konservatoriyasi"da ta'lim oladi. 1923-yilda esa o'qishni bitirib, akasi Rizxi Rajabiy, Imomjon Ikromov va Ismat changchilar bilan Samarqand bilim yurti qoshida ochilgan musiqa maktabida muallimlik qiladi. Samarqandda mashhur hofiz Hoji Abdulaliz Abdurasulovdan saboq oladi va Shashmaqomning bir qator qismlarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

1925-1926-yillarda Samarqand musiqali drama teatrida musiqa rahbari bo'lib faoliyat olib boradi. 1927-yilda esa endigina o'z faoliyatini boshlagan O'zbekiston radio qo'mitasida ish boshlaydi. Aynan mana shu yillardan boshlab Yunus Rajabiyning rahbarlik faoliyati boshlanadi.

1927-yildan to 1942-yilgacha va 1945-1953-yillar mobaynida O'zbekiston radiokomiteti qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkilotchisi va badiiy rahbari lavozimlarida faoliyat olib boradi. 1955-yildan 1959-yillargacha esa Yunus Rajabiy o'zining folklorshunoslik ilmida olib borgan ishlarini tarixga muhrlashga erishadi. Ya'ni, 1500 dan ortiq xalq kuy va ashulalari, yalla va laparlari, terma dostonlaridan namunalarni hamda "Shashmaqom"ning nota namunalari besh jilddan iborat "O'zbek xalq musiqasi" kitoblarida nashr etadi.

Yunus Rajabiy rahbarligida o'zbek mumtoz musiqa merosi ijrochiligi XX asrning 1920-yillaridan boshlab amaliy faoliyat olib borgan. Ayniqsa 1950-yillarning ikkinchi yarmidan, "maqom ansambli" rasman tashkil etilgan davrdan zamonasining eng mashhur maqom ijrochilarining maqomlar ijrochiligi amaliyotida o'ziga xos ijodiy munosabat yuzaga kelgan va bu jarayon keyingi yillarda O.Alimaxsumov, G.Toshmatov, Sh.Mirzayev, I.Vahobov va A.Ismoilovlar kabi davrining maqomdon ustozlari rahnamoliklarida davom etib kelmoqda.

1927-yilda O'zbekiston Radio eshittirish studiyasi huzurida tuzilgan o'zbek cholg'u va ashulachilar ansambliga Shorahim Shoumarov, Rizqi Rajabiy, Imomjon Ikromov, Maqsudxo'ja Yusupov singari yetuk san'atkorlar jalb etilgan va ular jami

13 kishidan iborat bo'lgan. So'ngra 1929-yildan boshlab Yunus Rajabiy tashabbusi bilan bu ansambl o'z safini atoqli san'atkorlar: Mulla Toychi hofiz, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Safo Mug'anniy, Matyusuf Xarrat va boshqa san'atkorlar bilan ansambl safi yanada kengaydi.

Yunus Rajabiyning mana shu tarzdagi tashkilotchilik ishlari natijasida radio ansambli ishtirokchilarining soni 40 nafarga yetgan. Ansambl tarkibi kengaygani sari, uning ish faoliyati doirasi ham kengaya borgan. Radioning ashulachi va cholg'uchilari ansambli qatorida ishtirok etgan buyuk hofizlarimiz va xonandalarimizdan Domla Halim Ibodov "Shashmaqom" savtlari, yirik shaklli xalq lirik ashularidan "To'lqin", "Giryayi qozoq", "Uyg'oning", "Bizning qishloq" singarilarni, tanburda Hoji Abdurahmon Umarov jo'rligida aytsa, Mulla Toychi hofiz va Shorahim Shoumarovlar milliy cholg'u ansambli jo'rligida Toshkent va Farg'ona maqom yo'llaridan ijro etganlar. Safo Mug'anniy bo'lsa, Xorazm ashulaqo'shiqlarini ijro etgan. Yunus Rajabiy ijodiy faoliyati davomida juda ko'plab yetuk va mukammal ijrochi shogirdlar yetishtirib chiqargan. 1957-yili "Maqom" ansamblini tuzish haqida fikrini Yunus Rajabiy amalga oshirish maqsadida O'zbekiston radiosining raisi bilan kelishdi, va u 1958-yili O'zbekiston teleradio qo'mitasi rahbariyati ruhsati bilan yuqorida qayd etilgan salbiy va ijobiy fikrlarni inobatga olgan holda yangi tartibdagi ijodiy guruh, xonanda va sozandalardan tashkil topgan ixtisoslashgan ansambl tuzishga kirishadi (shu yili 5 ta xonanda va 5 ta sozandadan iborat guruh shakllangan). Ansambl o'z faoliyatini maqomchilar uchun ajratilgan xonada boshlashadi. Va bu jamoa 1959-yilda O'zbekiston radiosi qoshida rasmiy tuzilgan "Maqomchilar ansambli" nomi bilan faoliyat olib boradi. Dastlab bu ansamblga xalq ichidan yetishib chiqqan, Yunus Rajabiy bilan ko'p yillar hamkorlikda ishlab kelgan, an'anaviy ijrochilikda tajribaga ega bo'lgan yetuk sozanda va xonandalar jalb qilinadi. Ansamblga badiiy rahbarlik Yunus Rajabiy zimmasiga yuklanadi, Ushbu ansambl faoliyati davomida "Maqom kechalari" uyushtirilib, maqom xalq ichida qaytadan tilga kirdi va xalqimiz bu yuksak madaniy-ma'naviy me'rosimizni yana eshitishga muyassar bo'ldilar. Ansambl tarkibida birinchilardan bo'lib faoliyat olib borgan san'atkorlar: xonandalar – Karim

Mo'minov, Shokirjon Ergashev, Berta Davidova, Klara Jalilova, Orif Alimahsumov, Borux Zirkiev; sozandalar- Dadaxo'ja Sottixo'jayev (doira), Zokirjon Sodiqov (g'ijjak), Erkin Yo'ldoshev (tanbur), Ilhomjon To'rayev (g'ijjak), G'ulomjon G'afurov (g'ijjak), Is'hoq Qodirov (nay), Saidazim Quadratullayev (tanbur), Orif Qosimov (dutor), Umarjon Otaev (qashqar rubobi). 1959-1960-yillari bulardan tashqari – xonandalar Siroj Aminov, Kommuna Ismoilova, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, Alijon Hasanov, Tolibjon Badinov; sozandalar: Fahriddin Sodiqov (chang), Yoqub Davidov (tanbur), G'aybulla Sadullayev (qo'shnay), Turg'un Alimatov (tanbur, sato), Adham Hudoyqulov (qashqar rubobi), Mixael Aulov (doira). 1960-1962-yillari "Maqom" ansambli badiiy rahbari Yunus Rajabiy, musiqa rahbari Fahriddin Sodiqov Buxoro Shashmaqomi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini mukammal o'rganib, noyob ijro uslublarini o'zlashtirib bordilar. So'ngra ansambl shu yillari "Shashmaqom" turkumining maqom ashula yo'llarining barcha sho'balari va ko'pgina cholg'u yo'llari magnit tasmlariga yozdirilib, 22 gramplastinkadan iborat "Shashmaqom" audio yozuvlari chop etilib, tarqatildi va ansambl ularni targ'ib qilish ishlarini boshlab yubordi. Ustoz Faxriddin Sodiqov maqom cholg'u yo'llarining mukammal holdagi cholg'u ijrochiligiga bevosita mas'ullik qildi. Maqom ijrochiligini yuqori bosqichga olib chiqishda Fahriddin Sodiqov umrining oxiriga qadar alohida jonbozlik ko'rsatib keldi"[6, B.56-57]. Shu bilan birga maqom ansamblining rivojlanishida va benazir asarlar mahoratli ijro etilishida ustoz Faxriddin Sodiqovning xizmatlari nihoyatda ulkandir. "1958-yilda Shashmaqomni notaga olish ishi boshlanganda akademik Yunus Rajabiy maqomxonlarni qidirib, butun O'zbekistonni kezib, Buxoro shahridan Zirkievni tanladi. Borux Zirkiev o'zi o'rgangan maqom yo'llarini esda saqlagan edi. Yunus Rajabiy Borux Zirkievdan 5 oy davomida 82 tadan ortiq maqom ashula yo'llarini notaga yozib oldi. "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh" va "Iroq" maqomlarini, ayniqsa, murakkab hisoblangan "Saraxbor", Borux Zirkiev Maqom ansamblida konsultant maslahatchi bo'lib ishlagan"[7, B.16]. Ansamblning taraqqiy topishida va maqom ijrolarining hozirgi davrgacha mukammal saviya, go'zal ijrolarda yetib kelishida ansambl ijrochilarining har birining beqiyos hissasi bor.

1977-yildan boshlab Yunus Rajabiydan so'ng, ansambl rahbari etib Yunus Rajabiy tavsiyasiga ko'ra Orif Alimaxsumov tayinlanadi. Orif Alimaxsumovning ijodi ko'pchilik xonandalar qatorida o'zining ilk aytgan ashulalarini radioga yozishi bilan boshlangan. Orif Alimaxsumovda maqomlarga bo'lgan qiziqishni ko'rgan Yunus Rajabiy va Doni Zokirov muntazam tarzda unga ashulalar o'rgatib, ijro ettirishar edi. Orif Alimaxsumovning ijrosida bir qator asarlar radioga yozilib, efir orqali yangray boshladi. "Bayot II", "Ufori Bayot", "Chapandozi Iroq", "Dugoh III", "Savti Kalon" kabi namunalar shular jumlasidandir. Orif Alimaxsumovning iste'dodidagi "bir tinglagan asarini to'laligicha ilg'ab olishi va uni esida saqlab mukammal ijro etib berishi" ustoz Yunus Rajabiyning maqomlarni ansamblga o'rgatishida ancha qo'l keldi. Ustozning o'rgatgan har bir asarini Orif Alimaxsumov ansamblga qayta-qayta aytib o'rgatishda ko'magi edi. Orif Alimaxsumov ana shunday ijodiy hamkorlikda ustoz Yunus Rajabiy bilan 19 yil (1956-1975) birga yelkama-yelka ijod qilishga muyassar bo'ldi. Ijodi davomidagi intilishlari, maqomlarni o'zligicha ijro etish uslublarini egallaganligi bilan u ustoz Yunus Rajabiyning fikrdosh shogirdlaridan biriga aylanadi. Bunga sabab esa, uning hofizasi va ustozga bo'lgan beminnat munosabati edi. Ana shunga asosan rahbariyat, oradan 1,5-2 oy o'tgandan keyin, ularni ta'zivalari tugagach, jamoatni o'rtasiga olib kirib u kishini o'rinlariga ustoz Orif Alimaxsumovni rahbar qilib tayinlashgan bo'ldi. Qo'ldan kelgancha u kishidan qolgan dastgohni (ansamblni) qimirlatib turishlik mas'uliyati ustoz Orif Alimaxsumovga yuklatildi.

Orif Alimaxsumov ansambliga 10 yil davomida rahbarlik qiladi. Ushbu davr ichida, zamonaga xos qilib, ko'proq yosh ijrochilarni jalb qilib, an'anaviy tarzda maqom ijrochiligini davom ettiradi.

Ustoz Orif Alimaxsumovdan so'ng maqom ansambliga 1966-yilning noyabr oyidan boshlab Isroiljon Vahobov rahbar etib tayinlanadi. Isroiljon Vahobov ham Orif Alimaxsumov singari ansamblni azaliy an'analar negizida, ustozlardan o'rgangani kabi boshqaradi. Jamoada ijro etilgan namunalar va unutilib borayotgan ijro yo'llarini tiklashga harakat qiladi. Asarlarni asl holida tiklash va asl holida ijro qilish uchun ko'p izlanishda bo'ladi. Olib borgan izlanishlari natijasida ansambl

xonandalari va sozandalari bilan birgalikda Buzruk maqomidan – “Savti ushshoq talqinchasi”, “Talqini ushshoq”, “Soqinomai savti ushshoq”, “Daromadi ushshoq”, “Ufari savti ushshoq”; Navo maqomidan, Dugoh maqomidan, Segoh maqomidan, Iroq maqomidan va Farg’ona-Toshkent maqom yo’llaridan anchagina namunalarni radio fondiga yozib qoldirishga muyassar bo’ldi. Ansamblning fidoyi san’atkorlari Temur Mahmudov, Ahmadjon Dadayev, Matluba Dadaboyeva, Nabijon Ziyoyev, Nasiba Sattorova, Gulbahor Erqulova, Mahmudjon Tojiboyev, Rahmatilla Samadov, Malika Ziyoyeva (dutor), Mahmudjon Yo’ldoshev, Abdulahad Abdurashidov va Ismoiljon Vahobovlar bilan birgalikda AQSH, Fransiya, Angliya, Olmoniya, Yaponiya, Italiya, Portugaliya, Afg’oniston, Hindiston, Pokiston, Eron kabi bir qator xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo’lib, durdona maqom namunalarni chet ellarda targ’ib qildilar. Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrida, “Xalqlar do’stligi” va “Turkiston” san’at saroylarida “Nazm va navo”, “Maqom kechasi”, “Rajabiyxonlik” mavzularida konsertlar berilishini ham o’sha davrdagi maqom ansamblining sharaflari va qizg’in ishlari desak mubolag’a bo’lmaydi. Radio va televidenie fondi uchun yozilgan maqom jamoasi xonandalari va sozandalari ijrosida magnit tasmalariga tushirilgan asarlarning yangrashi vaqti 1996-yil noyabrdan to 1999-yilgacha 64 soatdan oshiqroq ijroni tashkil etdi.

Ismoiljon Vahobovdan so’ng maqom ansamblini boshqarish Abduhoshim Ismoilov zimmasiga yuklandi. Abduhoshim Ismoilov 1975-yili Respublika Davlat teleradiokompaniyasi qoshidagi “Maqomchilar ansambli”ga ishga taklif etiladi. Uning ansamblga taklif etilishi doimo uning orzusi edi. Maqom ansamblida u milliy musiqamiz darg’alaridan bo’lmish benazir sozanda va xonanda Faxriddin Sodiqov, Mahmudjon Muhammedov, Orif Alimaxsumov va Turg’un Alimatov kabi ustoz maqomdonlardan maqom sirlarini o’rganadi. Abduhoshim Ismoilovning ijrochilik va bastakorlik mahoratining rivojlanishida aynan maqom ansambli muhiti sabab bo’ldi desak to’g’ri bo’ladi.

Abduhoshim Ismoilovning 1973-yildan boshlangan ijodiy faoliyati jarayonida ko’proq qo’shiq va ashula janrlarida asarlar yaratib kelayotganligini guvohi bo’lishimiz mumkin. U qaysi bir she’rga murojaat qilmasin, avvalo uning

matni muhim ahamiyat kasb etgan. Abduhoshim Ismoilov so'z va kuyni teran uyg'unlashtirishga doimo harakat qilib keldi.

Maqom ansambliga akademik Yunus Rajabiy nomi beriladi va hozirgacha ushbu ansambl o'z faoliyatini Yunus Rajabiy nomi bilan olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. *Abdullayev R. O'zbek mumtoz musiqasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2008.*
2. *Begmatov S. Bastakorlar ijodi. "NISO-POLIGRAF", Toshkent 2017.*
3. *Ibrohimova N. Maqom san'ati fidoiysi. // Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar to'plami. – Toshkent: Navro'z, 2019.*
4. *Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004.*
5. *Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent, 2014.*
6. *Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. Maqom san'ati ustalari. – Toshkent, 2005. 56-57 bet.*
7. *Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar to'plami. – Toshkent: Navro'z, 2019.*

Ақлбек Қосбергенов

Ўзбекистан мамлекетлик кўркем

ўнер ҳам маданият институти

Нўкис филиал студенти

Илмий басши: Тажигалиева Маряш

Ўзбекистан мамлекетлик кўркем ўнер ҳам маданият институти оқитишчиси

ҚУИРШАҚ ТЕАТРИНИЎ ЖАМИЕТИМИЗДЕ ТУТҚАН ОРНИ

Аннотатсия. Бул мақалада қуwirшақ театри актёрини тўрбиялангивндағи просэсслери яғни қуwirшақ театри актёрини жетик қаниге болип жетилисиви ушин они қолларини ҳарекетшеи боливи, денелерини ийиливишеи ҳам созиливишеи боливи кереклиги қулласи қуwirшақ театри актёрини қуwirшақ театри ушин нелер ислев кереклиги ҳаққинда кеинен ашип берилген. Қуwirшақ театрини омирде тутқан орни, балалар тўрбиясина қандай тасири бар экенлиги ҳаққинда ҳам қуwirшақ театрини не ушин кереклиги кеинен ашип берилген.

Гилт сўзлер: қуwirшақ театри, маданият, персонаж, сахна, драматург, кўркем ўнер, художник, актёр, образ, шийрма, характер, пиэса, спектакль, шигарма, “Жас тамашагўйлер театри”.

Аннотасия. В данной статье обобщены процессы, связанные с обучением кукловода, то есть для того, чтобы кукольник стал полноценным актёром, должны быть обобщены его характерные движения, изгибы и растяжки тела. Актёр кукольной студии раскрывается подробно. Подробно объясняется роль кукольной лаборатории в жизни, как она влияет на обучение детей и зачем нужна кукольная лаборатория.

Ключевые слова: кукольный театр, культура, персонаж, сцена, драматург, искусство, художник, актёр, образ, ширма, характер, спектакль, произведение, «Театр юного зрителя».

Annotation. This article summarizes the processes associated with the training of the puppeteer, that is, in order of the puppeteer to become a full-fledged actor, his characteristic movements, bends and stretches of the body must be generalized. The puppet studio actor is revealed in detail. The role of the puppet laboratory in life is explained in detail, how it affects the education of children and why a puppet laboratory is needed.

Key words: puppet theatre, culture, character, stage, playwright, art, artist, actor, image, shyrma, character, performance, work, performance, "Young Spectator's Theatre".

Қуwirshaq teatri kўrkem ўneri айемги ҳам бай маданиятимиздни бир бўлеги болп, ўзини жарқинлиги ўзине tartatugınlığı менен ajıralıp turadı. Бул kўrkem ўнер waqıyanı quwirshaq personajlar arqalı ўзине tán usılda geyde qatal, geyde házil,

geyde astarlı jollar menen jeńil, ráwan hám qızıqlı etip kórsete alıw imkaniyatlarına iye bolgan, biytákrar kórkem óner túrлерinen biri bolıp tabıladı.

Ataqlı alım kórkem ónerlik pánleri doktorı M.Qodirov quwırshaq teatr tariyxına baǵıshlanǵan izzertlewлерinen birinde: "Aziya quwırshaq teatrı bul ápiwayı ermek oyın emes, bálkim bir materik xalıqlarınıń filosofiyası, dini, ádebiyatı hám álbette tilleri menen baylanıslı bolǵan áhmiyetli kórkem waqıya", -dep aytıp ótedi. Haqıyqattan da quwırshaq teatrı xalıq manawiyatı ham kórkem ruwxıy sananıń ajıralmas bólegi bolıp tabıladı. Sonıń ushın da bul kórkem óner mın jıllar asa rawajlanıp, ózgerip, jańa kórinis ham jańa qırların payda etken nawqıran kórkem óner sıpatında dúnyaǵa kirip kelgen.

Álbette quwırshaq teatrına ermek oyın dep qaraw júda qáte. Sebebi, teatr saxnasında jańalanıp tilge kirgen quwırshaq balalarǵa qaytalanbas zawıq, mánawiy azıq inam etedi. Balalardı ómir jumbaqları ústinde bas qatırıwǵa iytermeleydi, gózzallıq, doslıq, adalat, hadallıq, páklik, miynetsúyiwshilik sezimlerin olardıń júreklerine inam etedi.

Quwırshaq teatrı aktyorı ushın eń zárúr baǵdar, bul onıń qollar háreketsheliǵi. Haqıyqatında da insan háreketiniń eń aktiv atqarıwshısı bolǵan qol quwırshaq teatırında óziniń ájayıbatlarǵa bay sıyqırlı kúshin ele de dál kórsete aladı. Dramaturg shıǵarmasındaǵı obrazlar xudojnik ham quwırshaq ustasınıń járdeminde dúnyaǵa kelgen qaharmanlar janlanıp manili, maqsetli, túrde hareketke meyil etedi. Bul óz ornında quwırshaq teatrı aktyorınan qollardıń qánshelli háreketsheli, shınıqqan hám shıdamlı bolıwın talap etedi. Sonday-aq ol quwırshaqlardı úlken sheberlik penen basqarıp, hár túrli manili is-hareketler ámelge asırıwı menen birge qol jalańash halda, qolqaplı jaǵdaylarda yamasa domalaqsha kiygen jaǵdayda túrli háreketlerdi ámelge asırıp, hár túrli obrazlar jaratadı hám bay imkaniyatların kórsetedi. Demek, quwırshaq teatrı aktyorınıń qol háreketsheliǵi sheksiz imkaniyatlarǵa iye bolıwı kerek. Quwırshaq teatrı aktyorı tosıq yamasa quwırshaq artında (quwırshaq túrine baylanıslı) jasırınǵan yamasa kórinbegen halda óziniń ishki ham sırtqi ózgesheliklerin quwırshaq personajına ótkerip quramalı obraz jaratadı. Demek, quwırshaq teatırında tamashagóyлерge obrazdıń talqının jetkerip

beretuǵın aktyor bul saxna quwırshaǵı bolıp tabıladı. Quwırshaq teatrında obraz jaratıw barısında eki mektep wákili ushırasadı. Biri janlı aktyor "Keshirme" korkem óneri wakili, ekinshisi súwretlew korkem óneri shıǵarması, yaǵnıy jansız quwırshaq kórsetiw kórkem óneri wákili bolıp tabıladı. Bular dóretiwshilik barısında ushırasıp, biri jarıtıwshı, ekinshisi kórsetiw imkaniyatları arqalı saxnada obraz sıpatında kórinedi. Demek, aktyor obrazına tek róldin mánisine ǵana itibar qaratıp qoymay, eń aldı menen quwırshaqtıń sırtqı ózgesheligine itibar qaratıwı lazım. Sonda ol shıyırmadaǵı quwırshaq aktyorı pikirın bayan ete aladı. Obrazlarǵa xarakteristika bergende quwırshaq aktyorı ózi saxnaga alıp shıǵatuǵın personajdıń xarakterin, onıń átirapındaǵılarǵa múnásibetin, jetekshi háreket hám joqarǵı maqsetin anıqlap alıw zárúr. Sonda obraz talqını tuwrı ham anıq bolıp shıǵadı. Mısalı, "Sıyqırlı kiyik" spektakliniń qaharmanı Hasan piesanıń baslanıwında kámbaǵal, reyhimli, haq kewil, birewden járdemin ayamaytuǵın, hadal miyneti arqalı kún keshirip kiyatırǵan bolsa, shıǵarmanıń ekinshi bóliminde ol ayawsız, tek ózin oylaytuǵın, jeńil jol menen baylıq arttırıwdıń izine túsken, baylıq ushın dostın da satatuǵın insan sıpatında kórinedi.

Spektakl basında Hasan jarlı bolıwına qaramastan jolda tawıp alǵan bir teńgesin kiyikti qutqarıw ushın ańshıǵa beredi.

Kiyik spektakl basında iseniwshi, adamlardı qádirleytuǵın, jaqsılıq etken adamǵa qolınan kelgeninshe jaqsılıǵın qaytaratuǵın haq kewil bolǵan bolsa, shıǵarmanıń aqırında ol adamlarǵa degen isenimin joǵaltqan, qattı qol, kerek bolsa jazalawı da múmkin bolǵan obrazǵa aylanadı. Spektakl aqırında Hasan óz ayıbın túsiniw jetedi, sıyqırlı kiyikten keshirim sorap: "Meni taslap ketpe sıyqırlı kiyik"-dep jalbırawına qaramay, kiyik "Endi kesh boldı Hasan, men seniń menen qala almayaman, sebebi sen baylıq ushın dostıńdı da sattıń, men endi saǵan isenbiymen hám seni heshqashan keshirmeymen"-dep Hasandı taslap ketip qaladı.

Bul spektakldi tamasbhalap atırǵan balalar Hasannın pulga ósh ekenin hám hátteki pul ushın dostına da qıyánet etkenin kórdi. Al kiyik bolsa Hasandı taslap ketti. Ne sebep taslap ketti? - sebebi Hasannın dos qádirin bilmegeni ushın. Balalar jaqsı kim, jaman kim ekenin túsindi.

Obraz jaratıw dáwirinde personajlardıń xarakterine tán ózgeshelikler spektaklde áste-aqırınlıq penen olardıń hárekerti, ómirde tutqan ornı, dógerindegilerge bildirgen múnásibeti hám hár birinin maqsetke erisiw barısında qılğan háreketleri tiykarında boladı. Olar personaj xakteri, háreketleriniń ózgeriwi, spektaklde júz beretuǵın qarama-qarsılıqlar arqalı ashıladı. Spektakl basında kim qanday ekenligi, spektakl aqırında kim qanday insan bolıp qalǵanın bir ǵana obraz arqalı óz talqınına iye boladı.

Spektakl insandı ómiri dawamında jaqsı hám jaman adamlarǵa ajıralıwı jaǵdayında kórsetip beriwge qaratıladı. Quwırshaq teatrında balalardıń ruwxıyatı itibarǵa alınıp ráń-báreń obrazlar jaratıladı. Onıń saxnasında hátte mástan kempirdiń sipsesinde óz iyesine moyın iymeytuǵın obrazǵa aylanıwı múmkin. Yamasa jaqsı kóriwden janıp ketiwi ham jáne óz halına qaytarıwı, yamasa uyattan shoq bolıp janıwı sıyqırılı hádiyseler ámelge asıwı múmkin. Demek, quwırshaq teatrı aktyorı tek qıyalǵa emes, bálkim kúshli fantaziyaǵa da iye bolıwı kerek. Fantaziya bul joq nárseni ómirde ushıramaytuǵın waqıya hám hádiyselerdi hesh qashan bolmaǵan hám bolıwı da múmkin emes nárselerdi dóretdi. Fantaziya quwırshaq teatrı aktyorı ushın kerekli pocess esaplanadı. Sebebi, quwırshaq teatr saxnasında hesh qaysı teatrda bolmaytuǵın hám bolıwı múmkin bolmaǵan waqıya hám hádiyseler ámelge asadı. Máselen, Arıslan toǵayda patsha bolıp, óz nızam qaǵıydaların ornatıwı, qasqır bolsa qoyanǵa aqıl úyretip adamlarǵa uqsap sóylewi, mástan kempir sipsesine minip ushıp ketiwi t. b.lar.

Bir sóz benen aytqanda quwırshaq teatrında oy qıyal fantaziya menen bir-birine baylanısqa halda aktyor doretiwshiligine járdem beredi. Kishkene balalar saxnada oynap atırǵan quwırshaqtı kórgennen soń balalarda teatrǵa degen qızıǵıwshılıǵı oyanadı. Quwırshaq teatrında bolıp kishkene balalardı ózine tartatuǵın, balalardıń júreginde unamlı oy-pikirler payda etetuǵın quwırshaqlardan basqa janlı kórinislerdi ushırata almaysız.

Ayırım jası úlken adamlar quwırshaq teatrına mensimey qaraydı. Bul adamlar quwırshaq teatrınıń balalarǵa inam etken temasıhaları arqalı olardıń ruwxıyat

dúniasına hár tárepleme unamli tásir kórsetetuǵınlıǵın tusinbeytuǵın adamlar esaplanadı.

Hár bir ata-ana balaların quwırshaq teatrına alıp barıp turıwı kerek. Sebebi, quwırshaq teatrına barǵan bala "Jas tamashagóyler teatrı"na da baradı. Sebebi, bala teatrdan mánawiy azıq alıw múmkinshiligin, teatr haqıyqıy shınlıqtı kórsetetuǵınlıǵın túsinedi. Balalar ata anasınıń aytqan úgit-násiyatların teatrǵa barǵanda jáne bir márte kórip ata-anasınıń aytqanları durıs ekenligine úlken isenim oyatadı. Quwırshaq teatrı balalardıń qálbinde jaqsılıq, doslıq, batırlıq, mehir-miriwbet, ata-anaǵa degen múnásibet qanday bolıwı kerekligin hám barlıq unamli pazıyletlerdi oyatadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

- 1 *Ashurova M. Quwırshaq teatrı kórkem óneriniń aktyorlıq mektebi, - Toshkent: Navróz, 2020.*
- 2 *Nemirovskiy A. Aktyordıń plastikalıq kórkemliligi, - Navróz, 2020.*
- 3 *Stanislavskiy K.S. Aktyorning óz ustida ishlashi. T.Xojaev tarjiması, - Toshkent: badiiy adabiyot, 1965.*
- 4 *Образцов С.В. О кукольном театре, - Москва: Искусство, 1947.*
- 5 *Sayfullaev B.C. Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati – Toshkent: fan va texnologiya, 2012.*
- 6 *Qodirov M.X. Tamosha sańati ótmishdan lavxalar, - T. Fan, 1993.*
- 7 *Новикова Л.П. Уроки вдохновения, - М: ВТО, 1984.*
- 8 *Кристи Г.В. Воспитание актера школы Станиславского - М: Издательство, 1978.*
- 9 *M.Qodirov, S.Qodirova. Qógirchoq teatr tarixi. - "Talqin", 2006.*
- 10 *Qodirov M.X. Ozbek xalq tomosha sańati. – T. Oqituvchi, 1984.*

SO‘Z SAN’ATI USTASI

*Xamdani Ismoilov,
O‘zDSMI dotsenti, f.f.n.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashhur qirg‘iz yozuvchisi, so‘z san’ati ustasi Chingiz Aytmatovning serqirra hayoti va noyob ijodi haqida so‘z yuritiladi. Dekabr oyida butun dunyoda yozuvchi kunlari o‘tkaziladi. Tog‘dan qanchalik uzoqlashganing sayin uning ulug‘vorligi, haybati va go‘zalligi shunchalik yorqin namoyon bo‘lganidek, yillar o‘tishi bilan yozuvchi Chingiz Aytmatovning ulug‘vorligi shunchalik namoyon bo‘lmoqda. Adibning asarlari hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, ularning badiiyati hamon hayratga solmoqda.

Аннотация

В данной статье речь ведется о жизни и творчестве знаменитого киргизского писателя и мастера искусства слова Чингиза Айтматова. Каждый в декабре во всем мире проводятся дни знаменитого писателя. Сколько дальше отходишь от гор, столько отражается величие и красота этих гор. Подобно тому годами ощущается величие писателя Чингиза Айтматова и авторитет самого писателя. Произведения писателя не только не теряют свое значение, но и ошеломляют своей художественностью.

ANNOTATION

The present article is devoted to the life and rare creativity of the famous Kirghiz writer Chingiz Aytmatov. This year he is celebrating his 90 th anniversary. The more you are a long way from a mountain the brighter you feel its grandeur and beauty. So the writer`s power is getting greater and greater year by year. The works of the writer are still in great demand and their artistic filled with enthusiasm still inspire all his readers. His books have become treasure of all nations as well as Uzbek readers. They rightfully serve in their spiritual education.

Qirg‘iz xalqining olamshumul shuhratga ega bo‘lgan yozuvchisi Chingiz To‘raqulovich Aytmatov tavalludiga 2024 yil 12 dekabrda 96 yil to‘ladi. Chingiz Aytmatov 30 yoshga kirganda o‘zining “Jamila” nomli qissasini

yozdi. Asar xalqaro darajada mashhur bo‘lib ketdi va yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Besh yildan keyin yozuvchi davlat mukofoti sovrindori bo‘ldi. Bugungi kunda uning asarlari jahonning ellikdan ortiq tillariga tarjima qilindi, shu munosabat bilan u dunyoning mashhur yozuvchilari qatoridan o‘rin oldi.

Yozuvchining bolalik va o‘smirligi urush yillariga to‘g‘ri keldi. U tug‘ilgan o‘lka Qirg‘izistonning Talas daryosi bo‘yidagi vodiylar hisoblanadi, vodiylar o‘zining joylashish o‘rniga ko‘ra ertaknamo yurt bo‘lganligi tufayli afsona, ertak, rivoyat, atiqalarga boy go‘sha deb yuritiladi. Chingizning ko‘z oldida bunday ertakona olamni uning buvisi ochadi va uni yozuvchi butun umri davomida qoniqish bilan eslab yuradi: “Aytish mumkinki, buvim o‘zi ham bilmagan holda menda ona tilimga bo‘lgan cheksiz muhabbatimni uyg‘otib qo‘ydi. Ona tili! Bunda qanchalar cheksiz ma‘no yashiringan. Ona tilim sehrini esa tasvirlashga qalam ojiz. Faqat bolalikda egallangan qadrdon so‘z qalbni nafosat bilan oshno qila oladi, kishilarni, olamni sevishtga o‘rgatadi, insonda birinchi g‘urur sarchashmasini uyg‘otadi, ajdodlar titlining ko‘p ma‘noliligi va ko‘p qirraliligi bilan estetik bahra beradi. Bolalik nafaqat qimmatli davr, balki bolalik inson shaxsini kelajakda unib, o‘ziga ulg‘ayib borishiga zamin hozirlovchi sermahsul urug‘ hisoblanadi. Aynan bolalikda ona tili haqidagi haqiqiy bilimlar urug‘i qadaladi, aynan shu paytda atrofdagi jamoa bilan bog‘liqlik hissi vujudga keladi, atrof tabiatga, yurt madaniyatiga daxldorlik hissi uyg‘onadi” (“O‘zim haqimda qaydlar”)

Oltinchi sinfdan keyin uning mehnat faoliyati boshlandi. So‘ngra o‘qib, Aytmatov zotexniklik kasbini egalladi. Ammo kitob uning uchun alohida olam bo‘lib qoldi: “Men hamisha kitobni qaydaydir muqaddas xilqat sifatida qo‘limga olar edim... uning yozgan kishi esa mening ko‘z oldimda buyuk sehrgardek gavdalanar edi”. Yozuvchi uchun adabiyot ulkan ahamiyatdga ega bo‘ldi, negaki u “xalqning o‘zidan kelardi va xalq qalbiga nur kabi kirib boradi”.

O‘smirda ezgulik va yovuzlik, burch va sadoqat haqidagi tasavvurlar juda erta shakllandi. Urush paytiga to‘g‘ri kelgan bolaligida ro‘y bergan bir voqeani eslab shunday yozgan edi: “Insonda ezgulikni o‘stirib boorish kerak... bu har bir insonning, barcha avlodlarning umumiy burchidir. Bunda adabiyot, san‘at va madaniyatning ham o‘rni katta bo‘ladi”.

O‘z adabiy faoliyatining dastlabki davrlarida u jurnalistika bilan bog‘liq ishlar va tarjimalar bilan shug‘ullandi. Uning birinchi hiloyasi 1952 yili e‘lon qilindi. So‘ngra 1956 yilgacha, 5 yil davomida Moskvadagi Oliy adabiyot kurslarida tahsil oldi. 1961 yildan Chingiz Aytmatov “Pravda” gazetasining O‘rta Osiyo respublikalari va Qozog‘istondagi muhbiri bo‘lib ishladi.

Chingiz Aytmatovning har bir asarining yaratilishi voqeaga aylandi va bu asarlar tufayli yozuvchi bir necha marta davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi. Uning “Birinchi o‘qtuvchi”, “Sarviqomat dilbarim”, “Jamila” singari barcha asarlari doim kitobxonlar e‘tiborini tartib keldi. Uning asarlari Asil Rashidov, Ibrohim G‘ofurov singari mahoratli tarjimonlar tomonidan o‘zbek

tiliga qilinib, o'zbek o'quvchilariga taqdim etildi. Bu tarjima asarlari hamon o'zbek kitobxonlari e'zozida, hamon o'quvchilarimiz ulardan ma'naviy bahra olmoqda.

Bularning barchasi, albatta, Chingiz Aytmatovning ijodkor sifatida yuksak mahorat egasi ekanligini ko'rsatib turadi. Negaki u Turonzaminda o'sib-ulg'aydi va yozuvchi sifatida turkiygo'y allomalar ijodiga tayandi va ulardan so'z qadrini o'rgandi.

Qadim Turozamin ne-ne buyuklar, ulug'lar, allomalar, yozuvchi va shoirlarga makon bo'lgan. Bu aziz turkiylar yurtida Qoshg'ariy, Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Jambul, Abay, To'qtag'ul singari nihoyatda iqtidorli adiblar dunyoga keldi va ijod qildi. Ular yaratgan bebaho asarlar keyingi avlodlarning bebaho ma'naviy mulki bo'lib turkiy xalqlarni, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tarbiyasiga xizmat qilib kelmoqda. Ular Hazrat Alisher Navoiyning ta'biri bilan aytganda o'zlariga "Besh baho haykal qo'ydilar" va asrlar osha avlodlarga labbay, deb javob bermoqdalar". Ularning benazir ijodi tufayli asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan asarlar, turkiy xalqlarning yozma adabiyoti vujudga keldi va rivojlandi.

Turkiy allomalarning say-harakatlari beiz ketmadi. Nihoyatda jadal taraqqiy etgan yigirmanchi asrda ham ularning ishlarining davomchilari bo'lgan yirik adiblar ijod qildilar va o'z asarlari bilan umumturkiy adabiyot ravnaqiga ulkan hissa qo'shdilar. Qirg'iz xalqining baxtini, ravnaqini, ma'naviyatini kuylagan, jahon miqyosida qirg'iz adabiyotining qudratini namoyon qilgan Chingiz Aytmatov ana shunday yirik va mashhur adiblardan biri hisoblanadi. Uning asarlarida qalamga olingan masalalar faqat bir millatning emas, balki barcha millatlarning, turkiy xalq manfaatini aks ettiruvchi masalalar bo'lib qoldi.

"Dastlab so'z paydo bo'ldi" - deyiladi muqaddas kitoblarda. Har bir yirik ijodkor kabi qirg'iz xalqi yozuvchisi Chingiz Aytmatov ham o'zining butun ijodi davomida so'zni ulug'ladi, muqaddas bildi, asrab-avaylab munosabatda bo'ldi. Adib shunday yozadi: "So'zni avaylab-asrash kerak. Menga qolsa, so'z qurumsoqlikni yoqtiradi, derdim. Agar so'z xuddi kechasi-yu kunduzi oqib yotgan suv misoli isrof qilinsa, so'zning har bir misqoli qadrlanmasa, so'z tejab-tergab ishlatilmasa, o'z kuchini yo'qotadi - jonsiz bo'lib qoladi. Ibtidoiy jamoa tuzumidan beri yashab kelayotgan qonuniyatga binoan, o'z so'zini ustidan chiqmaydigan inson beburd hisoblanadi va unga hech kim ishonmaydi". (Aytmatov CH. Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. -Toshkent: Sharq, 1998. 3-bet). So'zni isrof qilish, adibning tushunchasida ona yer tuprog'ini, aziz nonni isrof qilish bilan barobardek tuyuladi. So'zdan to'g'ri foydalanmaslik adabiy asarni siyqalashtirib yuboradi, uning ma'nosiga putur yetkazadi. So'zni asrash yozuvchi uchun iymonni, e'tiqodni asrash bilan barobar bo'ldi.

Vijdonan so'zga e'tiqod qilganligi tufayli Chingiz Aytmatovning beqiyos asarlari nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti, balki butun jahon xalqlarining ma'naviy

mulki bo‘lib qoldi va qadimiy yunon adibi Gomerning asarlari kabi ko‘plab avlodlar o‘rganadigan ma‘naviy manbaa bo‘lib qoladi.

Chingiz Aytmatov qirg‘iz xalqining baxtini kuylash bilan birga butun turkiy xalqlarning orzu - niyatlarini ham aks ettirdi. Shu tufayli uning asarlari ko‘p avlodlar tomonidan qadrlab o‘qiladi va o‘rganiladi.

Uning asarlari orasidan eng yaxshisini tanlab olish qiyin. Negaki ularning har biri o‘ziga xos. Ularning har birida ijtimoiy hayot o‘zgacha tarzda aks ettiriladi. Bir qarashda uning asarlarida kishilarning hayoti bilan bog‘liq maishiy turmushga urg‘u berilayotgandek tuyuladi, lekin zukko o‘quvchi bu asarlarni o‘qish chog‘ida ularning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini tushunib oladi. Chingiz Aytmatov yaratgan har bir obraz jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Shuning uchun ular hech qachon o‘zgarmaydi, ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Yozuvchi qirg‘iz xalqining qadimiy afsona va atiqalari, milliy urf-odatlarini, rivoyatlari, og‘zaki merosiga juda qattiq hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Shu sababli ham uning deyarli har bir asarida afsona va rivoyat mavjud bo‘ladi, ular zamon bilan uyg‘unlashtirib yuboriladi. Shuning uchun ham uning asarlari zamonsozlikdan yiroq, abadiylikka daxldordir.

Chingiz Aytmatov nafaqat turkiy qavmlardan chiqqan, balki butun dunyo ulug‘larini, buyuklarini ulug‘ladi, shuning uchun o‘zi ham buyuk bo‘ldi. Xususan u shunday yozadi: “Amir Temurni butun dunyo buyuk sarkarda sifatida juda yaxshi biladi. Uning nabirasi Ulug‘bek esa bobosidan farqli o‘laroq ilm-fanga, madaniyatga ko‘proq e‘tibor berdi va shu jihati bilan mashhur bo‘ldi” (Aytmatov CH. Shoxonov M. Cho‘qqida qolgan ovchining ohi-zor. –T.: Sharq. 1998. 312-bet) Ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiyga ham yuksak ehtiromini bildirdi.

Yozuvchi o‘zbek xalqiga ham doimiy ravishda o‘z hurmatini nizhor qilib keldi. Ayniqsa, Birinchi Prezidentimizning “quvvai hofiza”siga katta hurmatini izhor qildi. O‘zbek yozuvchi va shoirlari bilan ko‘p bora ijodiy uchrashuvlarda bo‘ldi.

O‘zining Benazir asarlari bilan Chingiz Aytmatov yana ko‘plab avlodlarga yetadigan ma‘naviy mulk qilib qoldirdi. U o‘z asarlarida umuminsoniy muammolarni ko‘targanligi sababli jahon adabiyotida o‘ziga munosib o‘ringa ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori nafaqat ulkan adibga, balki qardosh qirg‘iz xalqiga bo‘lgan yuksak ehtirom belgisi bo‘lib qoldi. Bu iqtidorli yozuvchining ulkan merosini yanada chuqurroq o‘rganish orqali bag‘rikenglik xizmatlarini mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

O‘z ijodi bilan Chingiz Aytmatov XX asr jahon adabiyotida fenomen voqelik bo‘lib qoldi. Uning asarlari garchi XX asrning ikkinchi yarmida turli yillarda yozilgan bo‘lsada, lekin ularning barchasini gumanizm g‘oyalari birlashtirib turadi. Yozuvchining qahramonlari olim, alloma insonlar emas, ular jamiyatda xudo bergan umrni kechirib, astagina boqiy dunyoga ravona bo‘lgan insonlardir. Ammo yozuvchi

o‘z qahramonlarining ichki olami va xarakterlarini individuallashtirib, butun bir personajlar galereyasini yaratadi. Shu asnoda uning ikki olam qahramonlari, ya‘ni jamiyat manfaati yo‘lida va jamiyat tanasiga tushgan qurtdek yashab o‘tgan qahramonlar badiiy adabiyotdan joy oladi. Ularning xarakterini bo‘rttirmaydi, aksincha qahramonlar hayotda qanday bo‘lsa shunday, ya‘ni realistik-haqqoniy tasvirlaydi, lekin badiiylilik jihatdan ularni yuksaklarga olib chiqib qo‘yadi. Shuning uchun ham Chingiz Aytmatovning ijodi “asrlarga tatigulik” bo‘lib qoldi. Shu ma‘noda ikki asariga murojaat qilish lozim topildi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridayoq CH.Aytmatovning nomini mashhur qilib yuborgan “Jamila” nomli qissasi dunyo yuzini ko‘rdi. Boshqa asarlari qatori bu qissa ham o‘z davrida yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi.

Bir qarashda asarda oddiy sevgi tarixi hikoya qilinayotgandek tuyuladi. Unda ijtimoiy to‘qnashuvlar drammatizmi, o‘sha davrlarda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlar paytidagi axloq masalalari qalamga olinadi. Jamilaning mag‘rur va erksevar xakteri o‘sha davrlar uchun yangi bo‘lgan hayot sharoitida shakllandi. U mehnatsevar, kishilarga faqat haqiqatni gapiradi, o‘zining insoniy qadrini himoya qila oladi. U Doniyor bilan uchrashgan paytda xuddi aynan bir-biri uchun yaratilgan ikki kuchli shaxslar, yorqin xakterlar to‘qnashuvi ro‘y beradi. Ularning uyg‘onishi va o‘z-o‘zini anglashi mana shu uchrashuvdan boshlanadi. Shaxsning axloqiy kamol topishi mavzusi qissaning bosh falsafiy mavzusi bo‘lib qoldi. Jamila va Doniyorning bir-birigi yetishish yo‘li murakkab yo‘lligi ma‘lum bo‘ladi. Negaki atrofdagilar ularning o‘zlarini, hissiyotlarining haqiqatini, baxtli yashashga bo‘lgan haqini tushunmaydi. Ammo qahramonlar o‘rnatilgan urf-odatlariga qarshi boradi. Ularning qo‘zg‘aloni axloq qonunlariga qarshi emas, balki sof sevgini qurbon qilishga qarshi qaratildi. Albatta, bu va shunga o‘xshash asarlar milliy axloqiy qadriyatlariga qarshi borilgandek tuyuladi, lekin sof sevgi masalasi insoniy tuyg‘ularning oliy ne‘mati bo‘lib kelganligiga yozuvchi ishora qilayotgandek.

Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi jamiyatdagi o‘ta keskin muammolardan biri hisoblangan yolg‘izlik masalasiga bag‘ishlangan. Bunda ham yozuvchi ijodiga xos bo‘lgan axloqiy va ijtimoiy muammolar ko‘tariladi. Asarda manfaatparastlik, g‘arazgo‘ylik, qo‘rqoqlik va yolg‘onga asoslangan ijtimoiy hadik singari salbiy illatlar ochib tashlanadi.

Ta‘kidlash joizki, Chingiz Aytmatovning deyarli barcha asarlarida mif va afsonalar asosiy o‘rin tutadi. Uning asarlarining o‘qimishlilik, yashovchanligi, badiiy jihatdan mukammalligi kabilan shundan bo‘lsa ajab emas. Negaki ko‘pgina bobokalon shoirlarimiz, xususan hazrat Alisher Navoiyning ko‘pgina asarlarida ham mif va afsonalarga tayanilganligi sir emas. Shuning uchun hozir ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotgan emas. Chingiz Aytmatov ilgari ijod qilgan salaflarda bu an’anani qabul qilib davom ettirgani shubhasiz. Negaki yozuvchi Sharq adabiyoti bilimdoni hisoblangan.

CH.Aytmatovning “Oq kema” qissasi syujetiga qirg‘iz xalqining shoxdor Ona bug‘u haqidagi afsonasi kiritilgan va bu afsonani hozirgi kun bilan hamohang qilib yuborgan.

Asar voqealari tog‘- o‘rmondagi kichkina bir ovulda bo‘lib o‘tadi. Lekin bu voqealar o‘z qamroviga ko‘ra global muammolarni qamrab oladi. Ana shu kichkinagina ovulda ikki qutb kishilari yashaydi. Bir tomonda yetti yoshli bola va Mo‘min chol, boshqa tomonda berahm, shafqatsiz O‘rozqul. Asosiy voqealar ikki qutb o‘rtasida bo‘lib o‘tadi. Chingiz Aytmatov ko‘pgina yozuvchilar singari “gapiruvchi” ismlarga e‘tibor beradi. O‘roz ismining –o‘r o‘zagi jar, o‘pponni anglatadi. Bunda, nazarimizda qahramonni tubsiz nafs quli ekanligiga ishora qiladi. U o‘z qilmishlari bilan nafs balosiga uchragan shaxsning qiyofasini namoyon qiladi. O‘rozqul tabiatni emas, o‘z jig‘ildonini o‘ylaydi. O‘rmondagi daraxtlarni shafqatsizlarcha kesib, yashirincha sotib yuboradi. Bu qabih jinoyatni hech ikkinlanmay, vijdotsizlarcha amalga oshiraveradi. Bulardan tashqari unga “kattaga hurmat, kichikka izzat” tushunchasi butunlay yot. Keksa Mo‘min cholni o‘z manfaati yo‘lida ayamay ishlatadi, bolani odamdek ko‘rmaydi, o‘z yostiqdoshiga bola tug‘maganligi sababli tinimsiz azob beradi. Lekin yuqoridagilarning barchasiga qaramay, yozuvchi O‘rozqul obraziga ozgina insoniylik xislatini ham yuqtirib qo‘yadi, ya‘ni u ko‘pchilikka o‘xshab o‘z farzandi, o‘z kelajagi bo‘lishini juda xohlaydi. Bolaga qarab turib ba‘zi shirin hayollarga beriladi. Oxiri farzand bo‘lavermagach u o‘zining haqiqiy qiyofasiga qaytadi, ya‘ni hamma e‘tiqod qiladigan bug‘uni o‘ldiradi, uning go‘shini yeydi, yaxshi niyat bilan olib kelgan beshigini maydalab tashlaydi. Bu holatlar yozuvchining asari kinoga ko‘chganda batafsil namoyon bo‘ladi. Shunday qilib O‘rozqul o‘z qilmishlari bilan fojiga uchraydi.

Asarning asosiy qahramonlaridan yana biri – Mo‘min choldir. Yuqorida aytilgandek yozuvchi har bir qahramonning xarakteriga mos bo‘lgan ism tanlaydi. Yoshlik paytida ishlab chiqarish, qurilishlarda shijoat bilan mehnat qilgan Mo‘min chol keksayganda kimlargadir tobe, o‘jiz-nochor, keksalik azobiga duchor bo‘lib qoladi. Ana shu xislatlari uning ismidida ham aks etadi. U hammaga bir xilda yumshoqlik bilan munosabatda bo‘ladi. Nevarasi va qizining taqdiri doim uni o‘yga soladi. O‘lganidan keyin ularning taqdiri nima bo‘lishini o‘ylab tunlari uyquasi qochadi. U bolani olib ovuldan butunlay boshini olib ketishni xohlaydi, qarindosh-urug‘chilik an‘analariga, axloqiga sodiqlik bunga yo‘l qo‘ymaydi.

Mo‘min chol nevarasini yaxshi odam bo‘lib yetishuvini xohlaydi. U cholning yagona ovunchog‘i bo‘lib qoladi. Uni tabiatni tushunishga o‘rgatadi. Ularning har ikkalasi uchun tabiat jonli mavjudotdek tuyuladi. Bolaga o‘z urug‘ining o‘tmishi haqida ko‘plab hikoya qilib beradi va unda ajdodlarga nisbatan hurmat, sodiqlik hissini uyg‘otishga intiladi. Unga Shoxdor ona bug‘u haqidagi afsonani tortiq qiladi. Shu bilan mazkur afsona bolaning hayot mazmuniga aylanib qoladi, unga ishonib yashaydi. Bug‘ular misolida jonli tabiatni asrab-avaylash lozimligi uning e‘tiqodiga aylanadi. Kattalar tomonidan bug‘ularga zarar yetkazilgach, bola

jiddiy qayg‘uga botadi, uning yuragi bo‘shab qoladi, hayoti mazmuni butunlay yo‘qoladi, go‘yo u suyangan tog‘ tubidan qulagandek bo‘ladi.

Bu holatga qissaning boshidayoq ishora qilinadi: “Uning qalbida ikkita ertak yashardi. Birinchisi o‘ziniki, u haqda hech kim bilmaydi. Ikkinchisini bobosi hikoya qilib bergan. Endi ulardan birortasi qolmadi. Shu haqda so‘z yuritiladi”.

Insonni ertakka bo‘lgan e‘tiqodidan ayirdilar. Bu ishni bolalarni yovuzlikdan qutqarishi lozim bo‘lgan kattalar qildi. Ularning orasida o‘zining eng yaqin kishisi bo‘lgan Mo‘min chol ham bor edi, u o‘z atrofida mavjud bo‘lgan yovuzlikka qarshilik qilishga kuch topa olmadi. Bu yovuzlik “go‘zallik qorningni to‘yg‘azmaydi”, deb hisoblovchi va shuning uchun bu go‘zallikni vahshiylarcha yo‘q qilayotgan O‘rozqul va unga o‘xshaganlar obrazida jamlangan.

Ovulda yashayotgan odamlarning o‘zaro munosabatlari ezgulik va yovuzlik, beg‘arazlik va tekinxo‘rlik, tabiatga, dunyoga, barcha jonzotga nisbatan muhabbat va nafrat singari qarama-qarshi hissiyotlar asosiga qurildi. Asarda haqqoniy va ertakona voqelik uyqashib ketgan. Shoxdor ona bug‘u haqidagi afsona syujeti haqiqatda ham takrorlanadi. O‘rozqul otib o‘ldirilgan bug‘uning kallasini kesib olayotgan paytida ertakdan vahshiylarcha o‘ch oladi, negaki uning qalbi qashshoq va ertakka ishona olmaydi. Uning qalbida o‘z e‘tiqodini himoya qilishga kuch topa olmayotgan Mo‘min chol ishongan ertak uchun o‘rin topilmaydi. Endi bola ular bilan qola olmaydi. Ularning qalban qashshoqligi, tabiatga bo‘lgan shafqatsizlarcha munosabati bolaning ularga nisbatan ishonchini butunlay so‘ndiradi, qisqasi bolaning “suyangan tog‘lari qulaydi”. Endi bola o‘z do‘stlariga – ertakka, toshlarga, daryoga, oq kemaga qarab ketadi. U yovuzlikka qarshi kurasha olmadi, uni qabul ham qilmadi. Shuning uchun yakka o‘zi qolgan hayotdan ham ketdi. Ertakka ketdi. “Men endi bir narsani aytishim mumkin, - deb yozgan edi Chingiz Aytmatov, - sen o‘zingning bolalarcha qalbing qabul qilmagan narsani rad etding. Va bu menga dalda beradi. Sen bir yonib o‘chgan chaqmoq kabi yashading. Chaqmoq esa osmonda paydo bo‘ladi. Osmon esa abadiy. Va bu menga tasalli beradi. Yana shu narsa ma‘lumki, insonda bolalik vijdoni donning urug‘i hisoblanadi, urug‘siz don o‘sib chiqmaydi. Va bizni bu olamda nimaiki kutib turgan bo‘lmasin, odamlar tug‘ilar va o‘lar ekan, haqiqat abadiy yashaydi...”

Shu asnoda xalqparvar yozuvchi o‘zining ulkan ongi bilan haqiqatning albatta tantana qilishiga, insonning buyuk axloqiy kuchiga ishonib keldi va shunday bo‘lib qoldi. U bizni kuchli va mardonavor bo‘lishga, befarq bo‘lib qolmaslikka chaqirib, “... hatto o‘z hayoti evaziga ham yuksak ideallarga sodiq qolishga o‘rgatdi”.

Umuman olganda, Chingiz Aytmatovning ijodi va asarlari faqat o‘tgan va keyingi asrlar bilan cheklanib qolmasligi tabiiy. Negaki uning asarlarida ko‘tarilgan muammolar asrlar osha ham, insoniyat yashar ekan, ularni hal qilishga intilaveradi. Shuning uchun ham yozuvchi afsona va haqiqatni uyg‘unlashtirib yuboradi. Qadimga afsonalardan ibrat olib muammolarni imkon qadar hal qilishga chaqiradi. Har bir asarida “odamiylik mulki” aziz mulk ekanligini takrorlaydi. Bunga qarshi

ish qilish gunoh ekanligini ta'kidlaydi. O'z asarlaridagi yaxshi insonlardan ibrat olishga, yomonlardan xulosa chiqarishga chorlaydi. Chingiz Aytmatov ham Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy, Navoiy singari umumbashariy ijodkor bo'lib qolaveradi. Asrlar osha avlodlarga o'z asarlari bilan "labbay" deb javob beradi.

1. Aytmatov CH. "Jamila" qissa. – Toshkent: O'zbekiston. 2015.
2. Aytmatov CH., Shoxonov M. Tog' cho'qqisida qolgan ovchining ohuzori. – Toshkent. 2006

Nutq madaniyatini o‘stirishda kompyuter texnikasi va texnologiyalarining o‘rni

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi nutq madaniyatini o‘qitish va o‘qish chog‘ida kompyuter texnikasi va texnologiyalari haqida so‘z yuritildi. Bunda eng yangi texnika va texnologiyalar asos vazifasini o‘taydi. Texnikalardan foydalanish orqali o‘stirilgan nutq o‘zining jadalligi va teranligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: til, nutq, jarayon, tarix, bosh bo‘g‘in, iymon-e‘tiqod, kelajak, ulkan, toshbitik.

Аннотация: В данной статье речь ведется об обучении культуры речи с помощью новейшей компьютерной техники и технологии. При этом новые техники и технологии выполняют основную задачу при обучении техники речи. Поэтому речь, которая повышалась с помощью компьютерной техники и технологий, по качеству отличается от речи, употребляемые в ходе речевого явления.

Ключевые слова: речь, технология, история, техника, главная часть, задача, будущее, большой, каменная надпись.

Annoatation: This article is about teaching speech culture with the help of the latest computer equipment and technology. At the same time, new techniques and technologies perform the main task in teaching speech technique. Therefore, speech, which was improved with the help of computer equipment and technology, differs in quality from speech used during a speech phenomenon.

Key words: speech, technology, history, technique, main part, task, future, big, stone inscription.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar kadrlar tayyorlash tizimini tobora mukammallashtirib borishga, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta‘lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs - barkamol insonni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi kunlarda kompyuter texnikasi va texnologiyalarni ta'lim tizimiga jadal kirib kelishi ta'lim sohasida tub o'zgarishlar yasadi. Bugungi kunda kompyuter texnikasi va texnologiyalaridan O'zbekiston maktab, kollej va litseylari hamda oliy ta'lim muassasalarida samarali foydalanilmoqda. Kompyuter texnikasi va texnologiyalarining ta'lim tizimidagi ahamiyati nihoyatda ulkan. Kompyuter texnikasi va texnologiyalari ta'lim jarayonini qiziqarli, ahamiyatli qilish bilan birga fanlarni, hususan adabiyot fanini o'zlashtirish jarayonining samarasini oshirishga katta yordam beradi.

Kompyuter texnikasi va texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ulardan keng ko'lamda foydalanish, adabiyot darslarini o'zlashtirishda o'rni katta bo'lmoqda. Shuningdek kompyuter texnikasi ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashda ham keng yo'l ochmoqda. Innovatsion texnologiyalar esa talabalarga adabiyot fanini o'qitishda o'z samarasini bermoqda. Kompyuter yordamida adabiyot fanini o'qitishda multimediya, slayd, shou, audio-video materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, guruhlarda kompyuter orqali ko'rilgan video adabiy materialni yoki tanlangan audio materialni muhokama qilish talabalarida adabiyot faniga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Talabalar guruhlarda ishlaganda o'z kursdoshlarining mavzuga oid fikrlarini eshitish va o'zining fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Adabiyot darslarida kompyuter texnikasini qo'llash orqali talabalarning fanga nisbatan qiziqishi orttiriladi va ularning bilish faolligi oshadi, natijada adabiyot mavzusi yuzasidan tez va to'g'ri fikrlashga yo'naltirish, mavzu mazmunini guruhlarda muhokama qilish, berilgan mavzu mazmunini o'yin vositasida egallash, kuzatuv, kichik mikroguruhlarda ishlash, bahs, anketa so'rovlarini tashkil etish, mavzu yuzasidan og'zaki va yozma mashqlar bajarish, audio va video materiallarni namoyish etish, turli xildagi kompyuter dasturlarini qo'llab darslarni tashkil etish juda yaxshi samara beradi.

Kompyuter texnikasi va texnologiyalari yordamida o'qitilayotgan adabiyot fanidan darslari talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishiga, nutq madaniyatini mustahkamlashga, fan bilan mustaqil shug'ullanishga o'rgatishga

yordam beradi. Eng muhimi, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Kompyuter texnikasi va texnologiyasi talabalarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, so'z boyligini oshiradi, so'z va iboralarni gaplarda qo'llashga yordam beradi.

Kompyuter texnikasi va texnologiyalari o'zbek klassik va yangi adabiyoti yuzasidan juda katta materialni saqlash, uni kelajak avlodga yetkazib berishga batafsil imkon beradi. Talabalarga dars paytida ana shu kompyuterlarda mavjud bo'lgan nazariy va adabiy materiallarni o'qib o'rganish tavsiya etiladi. Ular o'rgangan materiallarni o'zlashtirilganligini kompyuterning o'zida mavjud test savollari asosida sinalib tegishli ballar qo'yib boriladi.

Kompyuter texnikasi va texnologiyalari yordamida olib borilgan adabiyot darslarida talabalar yangi mavzuda qo'llangan so'zlarni alohida o'rganadi, ularni qo'llanish darajasiga e'tibor beradi va iboralarni kayta yodga oladi. Adabiy matnlarni talabalar ovoz chiqarib o'qish va og'zaki hikoya qilish orqali o'z nutqini rivojlantiradi, rolli o'yinlar yordamida asar qahramonlarining xususiyatlari o'rganiladi va singdiriladi. Kompyuterdagi audio-video materiallardagi mavzularning mohiyati muhokama qilinadi, og'zaki suhbat va dialoglar tashkil qilinadi. Talabalar dars davomida har bir mavzu yuzasidan fikr bildirishga harakat qiladi va umuman adabiy asarga nisbatan o'z fikrini bildiradi.

Jahon adabiyoti darslarida mashhur yozuvchi va shoirlar ijodini o'rganish chog'ida kompyuterda ana shu ma'lum mamlakat, uning tabiati, mashhur kishilar va qadimiy shaharlar, arxitektura yodgorliklari haqidagi lavhalar namoyish etiladi. Bular ana shu mamlakat xalqlarining adabiyotining kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi tasavvurni boyitadi. Jahon adabiyoti va o'zbek adabiyoti durdona asarlarini qiyoslash asosida o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Kompyuter texnikasi va texnologiyalari yordamida olib borilgan darslarda har bir talabaning ma'lum bir mavzu yuzasidan shaxsiy fikrini bilish maqsadida shu mavzu yuzasidan klaster tuzish vazifasi beriladi. Vazifani bajargan talabalar o'z fikrini o'qib beradi. Guruh talabalarida vujudga kelgan fikr va bahslar erkin tortishuvlardagi fikrlarni hisobga olib umumiy xulosalar yasaydi.

Adabiyotni o'qitishda kompyuter texnikasi va texnologiyalarini qo'llash talabalarning ma'lum mavzu yuzasidan olgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga hizmat qiladi va dars jarayonida yana bir qator pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Mavzularni o'zlashtirish chog'idagi qiyinchilik va to'siqlarni talabalarning umumiy kuchi bilan bartaraf etish yo'lini ko'rsatadi.

Kompyuter texnikasi va texnologiyalarini qo'llash asosida adabiy mavzularini o'rganishda matn bilan ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda talabalarning og'zaki va yozma nutqlarning oshirish imkoniyati oshadi. Mavzular yuzasidan mustaqil fikrga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Mashbits YE.I.Kompyuterizatsiya obucheniya: problemi i perspektivi. – M.: Znaniye,1986.
2. Internet ma'lumotlari.

MUNDAJIRA

1. So'zboshi. Sayfullayev N.	3
2. Xoliqulova G. Respublika teatrlarida sahna nutqining dolzarb muammolari	5
3. Qodirov R. Sahna nutqi tarixini tizimli o'rganishning dolzarbligi	20
4. Ibragimova U. O'zbek musiqali dramasi taraqqiyotida sahna nutqining o'rni	28
5. Ismoilova M. Kerkem oner mektebin jaratqan aktyor	38
6. Usnatov R. Aktyorlik maxoratini o'zlashtirishda Mixail Aleksandrovich Chexov maktabining roli	42
7. Djuldikarayeva X. Sahna nutqida talaba – aktyorlarning tana mushaklarin bo'shatuvchi mashqlarning o'rni	48
8. Boltayeva U. Talaffuz me'yoriga erishishda o'zbek xalq ijodi namunalaridan foydalanish uslublari	56
9. Bayto'rayev T. Notiqlik sanatini egallagan rassom	62
10. Jumanov I. Talaffuz ifoda tizimlarini takomillashtirishda	
11. tovushli birikmalar	65
12. Urazmbetova L. Aktrisa bolip tuo'lg'an insan	74
13. Xodjimato va M. O'zbek teatri aktyorlarining kino va dublyaj san'atiga qo'shgan xissalari	80
14. Yusupov Sh. Mumtoz adabiyot namunalarining ma'naviy qudrati	88
15. Isoqova M. Xorazm teatri: tarixiy asarlarda obraz yaratish va badiiy til masalasi	96
16. Magdiyev B. Ommaviy axborot vositalarida nutq madaniyatini shakllantirish omillari	101
17. Hakimova M. Yangi ma'naviy makonda mutolaa madaniyatini shakllantirish zaruriyati	115
18. Jumanova D. Sahnaviy ovozni shakllantirishda Sotimxon Inomxo'jayev metodlari	130
19. Usmonova X. Fitomorfik ramzlar va ularning sahna nutqida qo'llanilishi	142

20. Sadikova M. Effective use of idioms in improving speaking skills of art students	147
21. Qo'chqorova D. kelajak avlodning shakillanishida bolalar folklorining ahamiyati.	152
22. Toxirov O. Dublyaj can'atida qahramonlarning nutqiy xarakterini yaratishda sahna nutqi fanining o'rni.....	160
23. Xomidov I. Komediya nutqiy xarakter yaratish	163
24. Saidova X. Kuylovchi aktyorning sahna nutqi ustida ishlashi	169
25. Sulaymonov T. Tasviriy-adabiy parcha ustida ishlash.....	175
26. Jabborov B. Qo'g'irchoq teatri san'atini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati.....	179
27. Abduholiqova D. Зарождение риторики и искусство речи.....	188
28. Xushvaqtoev E. Aktyorlik mahoratining takomillashish jarayonida so'zning qudrati.....	192
29. Qodirov M. Ijrochilik san'atida nutqning o'rni va ahamiyati.....	196
30. Mannonov Y. Kutubxona-axborot faoliyatida nutq madaniyati va notiqlik san'ati	201
31. Oripova D. Teatr, kino, televideniye va radioda sahna nutqi: yutuqlar, dolzarb muommolar va yechimlar.....	207
32. Bakhiyeva B. Aktyor ijodida harakat va plastikaning tutgan o'rni	217
33. Nazarov F. Aktyor nutqining tomoshabinga ta'siri.....	222
34. Ergasheva Z. Speech is power: speech is to persuade, to convert	227
35. Grebenyuk. M. Transformation of the field of art and culture: booktube content as a new type of bibliographic production.....	231
36. Mo'minxo'jayeva L. Ораторское искусство как одна из компетенций современного руководителя библиотечно-информационного учреждения	236
37. Qodirova M. Sahna nutqida hurmat kategoriyalarining ifodalanishi	241
38. Qazaqbayeva R. Kechinma san'ati namoyondasi zaynab sadriyeva ijodiga nazar	244

39. Hurrarova A. Kinossenariy tilini shakllantirishda rejissyor mas'uliyati: (Jahongir Qosimovning "Ibrat" filmi misolida).....	249
40. Nishonova J. Sahna nutqi tarixini tizimli o'rganishning dolzarbligi.	253
41. Rashidova S. O'zbekistonda dutor jrochiligi maktablari.....	259
42. Abdullayeva N. Zamonaviy ta'lim tizimida nutq madaniyatining ahmiyati: statistika va tahlillar	264
43. Ismanova A. San'at va madaniyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashda sahna nutqi metodikasidagi yangi izlanishlar, muammolar va yechimlar	270
44. Abdullayev M. Akademik yunus rajabiy ijodi hamda maqom ansambli rivoji	274
45. Qo'shbergenov A. Quwirshaq teatrini jamiyatimizde tutqan orni.	281
46. Ismoilov X. So'z san'ati ustasi.	286
47. Dadaboyeva F. Nutq madaniyatini o'stirishda kompyuter texnikasi va texnologiyalarining o'rni.....	294



Litsenziya AI № 032465 / 15.07.2022

Bosishga ruxsat etildi: 17.10.2024 Ofset qog'oz.

Qog'oz bichimi 64x84 1/16 Times garniturası. Shartli bosma tobog'i 37,5 Nashr
hisob tobog'i 36. Adadi 50

«ZAMON POLIGRAF» OK
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bobodehqon mahallasi, 45 uy.